

S.M.Islomov, E.D.Umarov, H.X.Qurbanov,
Z.Z.Qulmatov, A.M.Jo'raev, A.V.Boymurotov

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR



UO'K 00.04;37

KBK 32.973

I-38

S.M.Islomov, E.D.Umarov, H.X.Qurbanov, Z.Z.Qulmatov, A.M.Jo'raev, A.V.Boymurotov. Pedagogik dasturiy vositalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 342 b.

Taqrizchilar:


D.G.Axmadjonov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, texnika fanlari doktori.
M.F.Turayev - TATU Qarshi filiali dotsenti, p.fff.d. (PhD).

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 22 dekabrdagi 537-sон buyrug'i (ro'yxatga olish raqami №537-429) bilan nashr etishga tavsija etilgan.

UO'K 00.04;37

KBK 32.973

ISBN 978-9910-9398-7-1



KIRISH

Hozirgi kunda zamонавиј iqtisodiyotda раqamli texnologiyalarining о'rni aniq va yaqqol ko'rina boshladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat, bank, сanoat, tibbiyat va xavfsizlik va boshqa sohalarda keng foydalilmoqda. Bu esa jamiyatimizdagi barcha soha va yo'nalishlarda ham zamонавиј axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan to'la va izchil joriy qilishdan dalolat beradi. Shu asnoda mamlakatimizda zamонавиј texnologiyani joriy etish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining qarorida "Aqli shahar" konsepsiysi qabul qilinib, unga ko'ra "aqli ta'lim", "aqli transport", "aqli hokimiyyat" kabi bir qator loyhalarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari belgilab chiqildi. Bu esa jamiyatimizda zamонавиј axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tadbiq qilish hamda uni amaliyotga qo'llash orqali barcha sohalarga раqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyati yaratilib berilayotganidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Raqamli iqtisodiyotga o'tmasak, orqada qolib ketyapmiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarini раqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur" deya takidlab o'tdilar. Bu qaror loyihasida O'zbekiston aholisining Jahon tarmog'iga kirish imkoniga ega bo'lgan tadqiqotlar keltirilgan. Xususan, joriy yilda keng polosali ulanishning kamida 800 ming Internet portini tashkil etish va 12 ming kilometr optik tolali aloqa finiyalari barpo etish rejalashtirilgan. Internetda keng polosali tarmoqlarni kengaytirish uchun 340 mingga yaqin abonent telekommunikatsiya uskunalariga ega bo'ldi. Hududlar bo'yicha taqsimlangan telekommunikatsiya qurilmalari mutaxassislar tomonidan o'rnatildi. Bugungi kunda 281 ming port qurilmasi o'rnatilgan.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha

harakatlar strategiyasini "fan, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi "raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Bugungi kunda butun mamlakat bo'y lab 1148 ta yangi baza stansiyasi o'rnatildi va foydalanishga topshirildi. 1483 ta muassasada joylashgan tayanch stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali keng polosali Internet xizmatlarini ko'rsatish mumkin bo'ldi. Raqamlashtirish yo'lida keyingi muhim qadam IT-Parkni yaratishdir. Texnopark Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. It-Park Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi faol va iqtidorli insonlar buxgalteriya, huquqiy, marketing va ta'limni qo'llab-quvvatlash orqali g'oyalarni haqiqiy biznes loyihibulariga aylantirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'lgan noyob joy. Poytaxtimizda tashkil etilgan it-parkning muvaffaqiyatli tajribasi respublikamizning boshqa hududlarida ham shunday texnoparklar yaratishga xizmat qildi.

Davlat boshqaruvi organlarining malakali mutaxassislari bilan ta'minlash muammosi o'ta dolzarb. Shu munosabat bilan bugungi kunda mamlakatimizda "bir million dasturchi" Megaloyihasi amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 8-iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida taqdimot chog'ida ta'kidlaganidek, sohada belgilangan maqsadlarga erishish yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash hisobiga jadal sur'atda o'sishi mumkin. Shuning uchun 2020 yil oxirigacha 100 ming kishini va yana 150 ming kishini – 2021-yilning birinchi yarmida o'qishga jalgilish kerak. Maktablarda "Informatika" fanining 5- sinfigan o'qituvchini takomillashtirish, uning dasturiga "bir million dasturchi" loyihasidan fanlarni kiritish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

2020-yil 17-mart kuni Prezidentimizning "Toshkent

shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan belgilangan vazifalar qatorida "raqamli Toshkent" kompleks dasturini amalga oshirish uchun 377 ta mahalliy korxonani birlashtirgan It-Park rezidentlarini jalb qilish ko'zda tutildi. Dastur shahar xizmatlarini boshqarishni raqamlashtirishga, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish, yo'l-transport va kommunal infratuzilmalarning integratsiyalashgan axborot muhitini yaratishga, keyinchalik muvaffaqiyatli tajribani respublikaning boshqa hududlariga tarqatishga qaratilgan.

So'nggi o'n yillikda ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishi pedagogika faniga qiziqishni kuchaytirdi. O'qitishning kompyuter texnologiyasi muammosini hal qilishda rus va chet el olimlari katta hissa qo'shdilar. Jumladan G.R.Gromov, V.I.Gritsenko, V.F.Sholoxovich, O.I.Agapova, O.A.Krivosheev, S.Papert, G.Kleyman, B.Sendov, B.Hunter va boshqalar. Ta'lim jarayonida axborotlashtirish bo'yicha ko'p ishlarni amalga oshirishgan. Hozirgi kunda esa raqamli texnologiyaga katta ahamiyat qaratilmoqda va barcha sohalar sekin astalik bilan raqamlashtirilmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qator izlanishlar, g'oyalar va takliflar amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot izlanuvchilar, professorlar hamda xorij tajribalarini o'rgangan holda va ularning davomchisi sifatida OTM ning boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali "D&G" (digital technologies and gifted students) dasturiy tizimini yaratishga qaratilgan g'oyani ilgari surmoqdamiz.

Iqtidorli talabalar bilan ishslash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni amalga oshirishda rivojlangan mamlakatlardagi raqamli texnologiyalar asosida dasturiy tizim yaratishning kontseptsiyalarini o'rganish va tahlil qilish, milliy kontseptsiya asosida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ko'p tarmoqli indikatorlarni e'tiborga olgan holda intellektual reyting yordamida qaror qabul qilish va uni amaliyotga joriy etish, universitet reytingini ko'tarish va qulay tezkor ishlashi uchun "DGS" kontseptsiyani

ishlab chiqishdir. Bu dasturiy tizim iqtidorli talaba yoshlarni, bilimga qiziquvchi, izlanuvchi talabalarni o'zida jamlaydi. Bundan tashqari bo'lim va markazlarda xodimlarning ish faoliyatini ham yengillashtiradi. Ishlab chiqilgan dasturiy vositalar evaziga boshqarishdagi axborot jarayonlari texnologiyasini butunlay o'zgartirishimiz mumkin.

Boshqacha aytganda, korxona muassasa va tashkilotlar faoliyatidagi holatni aks ettiruvchi ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchiligini ta'minlash, ma'lumotlarni qayd qilishni sodda holatga keltirish, zarur xabarlarni izlash va guruhash, ularning tezligini oshirish, axborot saqlashni mukammallash, hisobotlar tayyorlashda kishi mehnatini kamaytirish, xo'jalik bo'g'inxilar orasidagi o'zaro bog'lanish va axborot oqimi sifatini ko'tarish, ikkinchidarajalima'lumotlardan xolibo'lib, bo'g'inxilar oqimi tartibga solish, boshqarish uchun olingan ma'lumotlarni saralab, murakkab tahlil ishlarini bajarish, bashoratlash, maqbullah, rejalashtirish va tashkillash masalalarini hal qilishdan iboratdir. Bunday tizimlarni barpo etishdan asosiy maqsad korxona muassasa va tashkilotlarning markazlari va xodimlar uchun qulaylik yaratish, axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga qodir yagona interaktiv tizimni ishlab chiqishdir. Axborot jarayonlarini avtomatlashtirish asosida rejalashtirish, loyihalash va boshqarish masalalarini yechish usullaridan foydalanishga imkon tug'iladi. Axborot jarayonlarini qo'lda bajarishga asoslangan an'anaviy boshqarish tizimlaridan boshqaruv ishlarini raqamlashtirishning farqi shuki, bu tizimni yaratish va foydalanishni tashkil etishning asosiy yo'l yo'riqlari maxsus qoidalar ko'rinishida ifodalangan bo'ladi.

Boshqaruvning ayrim bosqichlaridagi jarayonlarni mexanizatsiyalash masalani yechishga doir ma'lumotlarni tayyorlashga ketadigan mehnatni kamaytirmaydi. Bu holatda axborotni kiritish va chiqarish, namunalar hamda dastur apparatini tayyorlashda parallelilikning buzilishi dastur va axborotni qayta ishlovchi texnik vositalarni ishlatishda qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchiliklar tezkor va haqiqiy ma'lumotlar asosida keljakni uzoq muddatga bashoratlash masalasini hal qilishda, rejali topshiriqlarni tezkorlik bilan

bajarishda, boshqarishda foydalilaniladigan ma'lumotlarni taqdim etishdagi kechikishlarga sabab bo'ladi. Shu maqsadda ta'lím tizimida huddi shunday har bir bo'lim, tashkilot va muassasa o'z yo'nalihi doirasida dasturiy tizim barpo qilinsa, yuqorida sanab o'tganimizdek yuqori natijalarga erisha olamiz hamda ta'linda ham boshqaruv tizimida ham o'sish va yuksalish kengayib boradi.

Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish shu jihatdan ham samaraliki, unda birinchidan hisobga olish va boshqarish masalalari yagona majmua ichida hal bo'ladi, ikkinchidan, axborotning harakat yo'li, ya'ni birlamchi axborotdan tortib to bir tizimga solingan boshqaruv ma'lumotlarigacha butunlay qamraladi. Boshqaruv jarayonini raqamlashtirish tizimining yagona matematik modeli, ya'ni har xil darajadagi o'zaro bog'langan matematik modellar majmui bo'ladi. Bu modellar majmui asosida tizimda avtomatik ravishda maqbullah (optimallah) va rejalashtirish masalasi qo'yiladi va yechiladi. Bu tizimning unumdoorligiga hamma amallarning avtomatik ravishda bajarilishi evaziga erishiladi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy tizimi turiga kiradi. Boshqaruv ishlarini avtomatlashtirish murakkab tizim bo'lib, o'z tarkibida tub tizimlarni mujassamlashtiradi. Bu tizim ma'lum belgilarga asoslanib ajratilgan va boshqarishning aniq maqsadi hamda masalalariga javob beradigan tizimning bir qismidir. Shu masalalar doirasida uni alohida tizim deb qarash mumkin.

2020-2021-yillarda "Raqamli Toshkent" dasturi asosiy yo'naliislarni qamrab oldi jumladan ta'lím, sog'liqni saqlash, kommunal sektor, davlat boshqaruvi, turizm, savdo, qurilish va atrof-muhit muhofazasi. Hozirgi vaziyatda O'zbekistonda masofaviy ta'lím, elektron banking hamda communal xizmatlarda ham elektron hisob orqali faol foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, fuqarolar, vazirliklar va idoralar uchun elektron davlat xizmatlari ro'yhati shakllantirilgan.

1. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

1.1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birlashuvini, pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimplanishini, ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qoshimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar-talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- test dasturlari-egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- mashq qildirgichlar-avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Dasturiy ta'minotning "amaliy dasturlar paketi (ADP)", "usruknaviy pedagogik vosita (UPV)", "o'quv pedagogik dasturi (O'PD)", "avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi (AO'T)",

"o'qitishning yangi axborot texnologiyasi (O'YaAT)" kabi atamalar bilan qayd etish, bir ob'ektga turlicha nom berish tadqiqotchilarning o'zaro fikr almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biz bundan keyin ta'lim jarayonida qo'llanadigan dastur vositalarini "pedagogik dasturiy vositalar (PDV)" atamasi bilan qayd etamiz. Zero, mashg'ulot jarayoni yaxlit bir tizim bo'lib, u ham ma'lumotlarni bayon qilish, ham namoyish qilish, ham mashq qildirish, ham nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Shu bois mashg'ulot jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan dastur vositalarining barcha turlarini yaxlit bir tizim sifatida qarab umumiyl nom bilan PDV deb aytish maqsadga muvofiq hisobalanadi.

Pedagogik dasturiy ta'minotni rivojlantirishni baholash, birinchi navbatda, pedagogik dasturiy ta'minotning asosiy tushunchalarini, tasnifi va turlarini o'rganish kerak.

"Pedagogik dasturiy ta'minot" konsepsiysi boshqacha talqin etiladi, ammo ko'pchilik olimlarning fikrlari o'xshashdir. Misol uchun, Kuxtin D.V "Pedagogik dasturiy ta'minot ta'lim tizimini o'rganish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan alohida dastur va dasturiy paket hisoblanadi" deb ta'riflaydi.

N.N.Gorlushkina "Pedagogik dasturiy ta'minot kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quv jarayonini texnologik qo'llab-quvvatlash" ekanligini ta'kidlaydi.

PDVlar o'z ma'lumot omboriga, shuningdek, modellashtiruvchi, boshqaruvchi, o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi sifatlarga ega bo'lib, ta'liming ko'rgazmalilagini ta'minlaydi, ta'lim sub'ektlari faoliyatini tezkor tahlil etish, nazorat qilishga mo'ljallanadi.

Hozirga qadar yaratilgan PDVlarning qator xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Dastlabki PDVlar algoritmik tillarni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, ular bilimlarni formallashtirishda ishlataligan. Keyinchalik PDVlarni yaratishga matematik mantiq nuqtai nazaridan yondashilgan. Ularda dasturlashtirilgan ta'lim prinsiplariga rioya qilib, o'quv materialini mantiqan bog'liq qismlarga ajaratish, talabalar

o'zlashtirishini individuallashtirish, talabalar o'zlashtirishini tezkor baholash kabi talablar hisobga olingen. Hozir ta'limda kompyuterdan foydalanish texnologiyasi ancha taraqqiy qildi. Endi yaratilayotgan PDVlar kompyuterning multimedia imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga yo'nalgan, zamonaviy ta'lim jarayoni mohiyatini o'zida kompleks gavdalantiradigan dastur vositasi bo'lmog'i lozim.

Yuqori sifatli PDVlar talabalarda ijodkorlikni tarbiyalash, axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, talabalar o'zlashtirishini muntazam nazorat qilish, ta'limning turli shakllarda olib borilishiga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish, ta'lim natijasini uzlusiz tekshirib turish, talabalar faoliyatini tashhiz qilish va kelgusi mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish, u yoki bu axborotning talabalar faoliyatida optimal takrorlash chegaralarini belgilash imkoniyatlarini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositalar an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. Biz quyida pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz:

1. Ta'limda ilmiylik, fan-texnika va texnologiyalar so'nggi yutuqlarining hisobga olinishi pedagogik dasturiy vositalar mazmunining chuqurligi va ishonchlilagini ta'minlaydi. O'quv materiallarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari asosida amalga oshiriladi. Masalan tajriba, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, o'xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish metodi, shu bilan birga matematik modellashtirish va tizimli tahlil metodlari.

2. O'qitishning erishuvchanlik talablari pedagogik dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning yoshi hamda individual xususiyatlariga xos o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruratini bildiradi. O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, aks

holda ta'lim oluvchi bu materialni egallahga ojizlik qiladi.

3. O'qitishning muammolilagini ta'minlanadi. Agar ta'lim oluvchi muammoli topshiriqlar va mashqlarni bajarishga harakat qilsa, uning fikrlash faolligi ortadi. Ushbu didaktik talabning pedagogik dasturiy vositalar yordamida bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalardan ko'ra, sezilarli ravishda yuqori bo'ladi.

4. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishning ko'rgazmalilagini ta'minlash - ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruratini bildiradi.

5. O'qitishning ongliligi, ta'lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta'minlash talablari - o'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalg qilish bo'yicha ta'lim oluvchilarning mustaqil ishslashlari uchun pedagogik dasturiy vositalar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda ta'lim oluvchi uchun o'quv faoliyati yo'naltirilgan maqsad va mazmunni anglatadi. Fanlar bo'yicha pedagogik dasturiy vositalar tizimli faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqilishi kerak.

6. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda o'qitishning tizimliligi va ketma-ketligi - o'rganiladigan fan sohasidan bilim va ko'nikmalarning ta'lim oluvchilar tomonidan tizimli o'zlashtirishini anglatadi. Bilim, ko'nikma va malaka - ta'lim tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va amalda qo'llanilishi zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarurligi aniqlandi:

- o'quv materialini tizimlashtirilgan tartibda tavsiya qilish;

- o'quv materiallari yuzasidan shakllanadigan bilim va ko'nikmalarning rivojlanib borishiga erishish;

- o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash;

- o'quv materiali va ta'lim beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish;

- bilim berish jarayonini mantiqiy ketma-ketlik asosida qurish;

-pedagogik dasturiy vositalar tavsiya qilgan axborotlarni o'qitishning mazmuni va uslubi, ta'lif oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanishi kerak, masalan, mazmunli o'yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni, haqiqiy jarayonlar va ob'ektlar modellarini tavsiya qilish yo'li bilan amaliy faoliyatga bog'lashni ta'minlash.

7. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda bilimlarni mustahkam o'zlashtirish - talabalarning o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishlari uchun, ularning chuqur fikrlesh, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

8. Pedagogik dasturiy vositalarda o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari bajarilishi ta'lif vazifasidagi an'anaviyligiga zamin yaratadi.

Ta'limni kompyuterlashtirish ikki yo'nalishda davom etmoqda: kompyuter savodxonligini ta'minlash va kompyuterdan o'quv fanlarini o'qitishda foydalanish. Birinchi yo'nalish bo'yicha ma'lum natijalarga erishilganligini qaydetgan holda, ikkinchi yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning qoniqarsiz ekanligini aytib o'tish joiz: amaliyotda o'rgatuvchi dasturlar deyarli yo'q; PDVlarni yaratishga mutaxassis olimlar keng jalb qilinmagan; dastur vositalari va ulardan foydalanish texnologiyasidan maktab o'qituvchilarini deyarli xabardor emas; PDVni yaratish texnologiyasining o'zi haligacha psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy jihatdan mukammal tadqiq qilinmagan, ilmiy asoslanmagan, talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirilmagan.

Shunday ekan, ikkinchi yo'nalishga e'tiborni sezilarli darajada kuchaytirish zamon talabiga javob bera oladigan PDVlarni yaratish vaqtি yetib keldi. Pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish jarayonida ham prinsp va talablarni hisobga olish kerak. Gorushkin N.N.ning prinsplari orasida 4 guruhni aniqlaydi:

- talabalarning fiziologik xususiyatlari;

kompyuter texnikasining texnik imkoniyatlari;

dizayndagi pedagogik tavsiyalar;

yaratilgan pedagogik dasturlarga tizim yondashuvi;

I.Robert pedagogik dasturiy vositalarni rivojlantirishga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilarni keltiradi:

pedagogik talablar

texnik talablar

ergonomik talablar

estetik talablar

Ta'limi kompyuterlashtirish jarayonini endi to'xtatish yoki orqaga qaytarish mumkin emas. Ta'limni "... kompyuterlashtirishni to'xtatib bo'lmaydi, ta'limda kompyuterni qo'llash, - deb yozgan edi ye.I.Mashbits, - orqaga qaytmaydigan jarayon. Bu o'z-o'zidan amalga oshadi degani emas".

Uning harakati maorif tizimi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan olimlar, o'qituvchilar, yangi hisoblash texnikasi va dastur ta'minotini yaratuvchilariga ko'proq bog'liq». Shu bilan birga "Kompyuter mavjud ta'limga oddiy "qo'shimcha" - o'qitishning texnik vositalari qatoriga kiramagan navbatdagi yangilikgina emas. U ta'lif tizimining barcha komponentlariga, jumladan, uning uslublari va mazmuniga ham ta'sir ko'rsatadi. Bizning davlatda kompyuterli ta'limni samarali tashkil etish uchun yaxshi nazariy poydevor mavjud. Biroq bu nazariyalarning asosiy ko'rsatmalari o'qitish tizimi va dasturlarini ishlab chiquvchilar qo'lida foydali qurilma bo'la olishi uchun ular to'dirilishi lozim".

Darhaqiqat, kompyuterli ta'limni ta'minlash uchun pedagoglar bu ishning hamma uchun, barcha o'quv fanlarini o'qitishni samarali tashkil etish uchun muhimligini anglashlari lozim. Oliy ta'lif muassasalarida kompyuterdan foydalanish samaradorligi faqat texnika vositalarining mavjudligi bilan belgilanmasdan, ularga mos PDVlarning mavjudligiga bog'liqligini hamma tushunishi va tan olishi zarur.

Hozirga qadar kompyuter vositasida bilim berishni amalga oshirish uchun matabni texnika bilan ta'minlash va

o'qitish predmeti mazmunini yoritadigan dastur tuzish (yoki biror joydan olish) kifoya degan fikrlar ham uchrab turadi. Bu yerda bilim berish jarayonida uslubiy ta'minotning asosiy roli e'tibordan chetda qoladi. Mashg'ulotni o'tishda mukammal kiritish, zarur o'rinalarda uni takrorlash imkoniyatlari oshadi. Ishlangan PDV va chuqur o'ylangan uslubiyatning yo'qligi kompyuter yordamida tashkil etiladigan mashg'ulotlar samaradorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Kompyuterlashtirish yo'li bilan ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning yangi - sifat bosqichiga o'tiladi. Unda o'qituvchiva o'quvchi munosabatidagi bog'lanish, aloqalar tubdan o'zgaradi, ta'lim mazmuniga pedagogik ishlov berish uslubiyati yangilanadi, o'quv materialini to'liq o'zlashtirish davri boshlanadi, ta'lim modul xarakteriga ega bo'ladi, teskari aloqa mohiyati jihatidan yangilanadi, ta'limga qo'shimcha va o'zgartish.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda ta'lim quyidagi maqsadlarga qarab bir necha yo'naliishlarda tashkil etiladi:

- birlashtirilgan ta'lim (sinf ishi va talabalar va o'qituvchilarning elektron ta'lim muhitidagi faoliyati)
- web-quvvatlash bilan mashg'ulotlar (asosiy ta'lim jarayoniga qo'shimcha)
- onlayn ta'lim (sinsiz elektron ta'lim orqali intizomni o'zlashtirish).

Bundan 30 yil ilgari kompyuterli ta'lim, ta'limni kompyuterlashtirish, maktab ta'limida kompyuterdan foydalanish haqida tasavvurga ham ega emas edik. Endi davr o'zgardi. Ulan, qimmatbaho va foydalanish murakkab bo'lgan EHMLar endi ko'zimizga ma'lumotlarni qayta ishslash uchun ishonchli va qulay bo'lgan vositaga o'xshab ko'rinoqda.

Uning maorif sohasida ham keng qo'llanilayotganligining guvohi bo'layapmiz. Kompyuterlarni ta'limda qo'llash ufqlari oydinlashib, ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari, vositalari, prinsiplarini asoslashga urinishlar paydo bo'lmoqda.

Kompyuterli ta'lim boshqa pedagogik qarashlarni

inkor qilmaydi. Kompyuterning katta imkoniyatlari borligini unutmaslik kerak. Agar ilmiy asoslangan PDVlarni tayyorlash yo'llari atroflicha tadqiq qilinsa, ta'lim sub'ektlari kompyuter bilan muloqot qilish madaniyatini to'liq o'rgansa, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida ulkan yutuqlarga erishiladi.

Qiyin kechayotgan bo'lsa-da, kompyuterli ta'lim amaliyoti shakllanib bormoqda. Informatika, matematika, fizika, kimyo, geografiya, chet tili kabi o'quv fanlaridan PDV yaratish yo'llari keng o'rganilmoqda. Shunga qaramasdan, ta'limni kompyuterlashtirish sohasida qator qiyinchiliklar ham mavjud. Kompyuterli mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun kompyuterlarning miqdor jihatidan yetishmasligi, maktablardagi kompyuter rusumlarining har xilligi, kompyuter asosida mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyatining ishlab chiqilmaganligi, mavjud PDVlarning mukammal emasligi, ilmiy asoslangan PDVlarning yo'qligi kabilar shunday qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Xullas, respublikamizda ta'lim muassasalarini, jumladan, umumiyo'rta ta'limda PDVlarni o'qitishni kompyuterlashtirish amaliyoti sohasida qator muammolar mavjud.

Birinchi muammo - kompyuterlarning tanqisligi, ayniqsa, chekka tumanlarda ularning yetishmasligi. Bu muammoning yechimi ko'pgina omillarga bog'liq. Zero, kompyuterning o'zi ancha qimmat turadi. Respublikamiz miyosida ta'limni kompyuterlashtirish, barcha o'quv fanlarini kompyuter asosida o'qitishga o'tish, shu yo'l bilan ta'limning samaradorligiga erishish uchun bir necha o'n minglab kompyuter talab qilinadi. Shuningdek, yaroqsiz bo'lgan, eskirgan kompyuterlarni yangisi bilan almashtirishga to'g'ri keladi. Shu tufayli ta'limni kompyuterlashtirishning eng qulay yo'lini izlashga ehtiyoj tug'iladi. Fikrimizcha, mazkur muammoni hal qilish bo'yicha izlanishlarni IHTAdan boshlagan ma'qul. Bunday yo'l tutishni ma'qullab A.A.Kuznetsov shunday yozadi: «Informatika kursini boshqa o'quv fanlari bilan qiyoslaganda, hozirgi kundagi o'qitishning metodologik tizimida o'ziga xos xususiyatli komponent - o'qitishning yangi vositasi bo'lgan kompyuter

mavjud. Albatta, bu xususiyat vaqtinchalik xarakter kasb etadi va OTM larning hisoblash texnikasi bilan jihozlanishi hamda boshqa fanlarni o'qitishda kompyuterdan foydalanish uslubiyatining ishlab chiqilishi bilan yo'qotiladi. Bugun esa "Pedagogik dasturiy vositalr" fani o'quv jarayonida kompyuterdan foydalanish uslubiyati tekshirib ko'rileyotgan yagona predmet hisoblanadi. "Pedagogik dasturiy vositalr" fani uslubiyatida erishilgan natijalar vaqt o'tishi bilan boshqa fanlarning ham yutuqlariga aylanib boradi».

Ikkinci muammo - ilmiy asoslangan dasturiy vositalarini yaratish, OTM larni ular bilan ta'minlash. OTM larga kompyuter o'rnatish bilan ta'limni kompyuterlashtirish muammosi hal bo'lib qolmaydi. Bu sohadagi bosh masala kompyuterlarning sifatli dastur vositalari bilan ta'minlanishidir. Bu sohada ahvol qanday?

OTM larda ma'lum miqdorda dastur vositalari mavjud. Ammo ularda zamonaviy kompyuterlarning imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmagan bo'lib, "ha-yo'q" sxemasi asosida ishlashga moslashgan va, asosan, nazorat qilishga mo'ljallangan. Talabalarda ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash, evristik layoqatni tarbiyalashga yo'nalgan dasturlar deyarli yo'q. O'quv materialini batafsil bayon qilish, tasavvur qilish qiyin bo'lgan jarayon va hodisalarni namoyish qilish, mashqlar bajartirish, o'quvchining mashg'ulot jarayonidagi faoliyatiga ko'ra tabaqlashgan holda uya vazifa tayinlash, talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini qaydnoma ko'rinishida tahlil qiladigan dasturlar mavjud emas.

1.2. PDVlarga qo'yiladigan metodologik, didaktik, psixologik, texnik,fiziologik-gigienik talablar

O'qitish uslubiyatini takomillashtirishdagi muhim yo'nalishlardan biri bu yangi o'quv predmeti bo'yicha yaxlit o'quv-uslubiy majmua (O'MK)ni yaratish hisoblanadi. O'MKning alohida xususiyati shundaki, u o'z ichiga faqat darslik va uslubiy qollanmalar, oqish uchun kitoblar tizimini emas, shuningdek, PDVlarni qo'llash boyicha uslubiy qo'llanmalarni

va nihoyat, PDVlarning o'zini ham qamrab oladi», deb yozadi A.A.Kuznetsov o'zining «O'rta maktabda informatikani o'qitish uslubiy tizimining rivojlanishi» mavzusidagi ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasida O'quv-uslubiy majmua tarkibiga tegishli bo'lgan PDVlarni yaratishdagi eng muhim masalalardan biri kompyuter bilan ishlayotgan o'quvchining o'zini his qilishi masalasi.

Kompyuterli mashg'ulotlarning o'quvchi organizmiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar olib borilgan. Ko'pgina tadqiqotlarda PDVlarga qo'yiladigan metodologik, didaktik, psixologik, texnik,fiziologik-gigienik talablar ko'rsatib o'tilgan.

Bizning tadqiqotimiz PDVlarni ta'lim jarayonida qo'llash bilan mazkur talablarning qay darajada o'rinli ekanligini o'rganish va ularni to'ldirishga ham qaratildi.

A.S.Lesnevskiy PDVlarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda, birinchidan, didaktika prinsiplari mazmunidan; ikkinchidan, kompyuterning didaktik funksiyalaridan; uchinchidan, dastur vositasi tuzilishidan kelib chiqib yondashgan.

Tadqiqotlarda kompyuterli faoliyatning o'sayotgan organizmga ta'siri va bu faoliyatni o'quvchini charchatmagan holda tashkil qilishning eng maqbul sharoitlari o'rganilgan.

Tadqiqotlar xulosasi mashg'ulotlarni kompyuter yordamida tashkil qilish mumkinligini, biroq bunda belgilangan gigienik talablarga amal qilish lozimligini ko'rsatadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzlusizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), **izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini**

AXBOROT RESURS MARKAZI

o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turltumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga quyidagilar kiradi: idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyiligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga quyidagilar kiradi: zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariغا quyidagilar kiradi: «mijoz-server» arxitekturasi, Internetnavigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiatsiyalash(tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish. Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishllov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar - o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar - o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi. PDVlardan ta'lim jarayonida foydalanib samaradorlikka erishish ularning turli talablarga qay darajada javob berishiga ham bog'liq.

PDVlarga didaktik, psixofiziologik va texnik talablar qo'yish mumkin. Ularning har biri, bir nechta talabni o'z ichiga oladiki, ushu paragirfda mazkur talablarning mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

I. Didaktik talablar. Bu talablar ta'lim prinsiplari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning mazmunini ko'rib chiqamiz.

1. *Bayon qilinayotgan o'quv materialida asosiy va unchalik muhim bo'limgan elementlarni ajratib ko'rsatish.* Bu talab ta'limning ko'rgazmalilik prinsipi bilan bog'liq bo'lib, uni pedagogik jihatdan, o'quv materiali matnida asosiy g'oyalar ajratilib, keyin ular mohiyatining bayon qilinishi, mavzudagi yangitushunchalarni berib, harbiridan so'ngularning xususiyati, tushunchalar bilan aloqadorligi kabilarning ochib berilishi bilan, shuningdek, texnik jihatdan, ekranda tasvirlanayotgan matnda asosiy tushunchalar, tushunchaning xususiyatlari

kabilarni boshqa rang, boshqa shrift, boshqacha o'lchamda ko'rsatish bilan amalgalashirish mumkin. Har bir mavzubo'yicha o'quv materialini bayon qilishda yangi tushunchalar, asosiy tushunchalar, tushunchaning xususiyatlari yoki tushunchalar orasidagi bog'lanishlar ma'lum gipermatn shaklida berilishi lozimki, o'quvchi shu so'zni ko'rsatish bilan matndagi bunday tushuncha xususiyatlarini yordamchi oynada ko'rishi mumkin bo'lsin. Bu mavzu bilan bog'liq bilimlarning qayta takrorlanishi va o'quvchilar bilimida bo'shlarning qolmasligi uchun asos bo'ladi. Mazkur talabning pedagogik jihatini amalgalashirishga o'quv materialiga pedagogik ishlov berishni takomillashtirish orqali, texnik jihatdan esa gipermatnlar va ko'poynali holatdan foydalanish orqali erishiladi.

2. *O'quv materialini bayon qilishning sodda va aniqligi.* Bu talab ta'limga onglilik va faoliyotning prinsipidan kelib chiqadi va ta'limning tushunarligini ta'minlaydi.

Pedagogik jihatdan bayon qilinadigan o'quv materiali matnida ortiqcha jumlalarni kiritmasdan, muhim fikrlarni aniq va mantiqan bog'lab bayon qilish asosida bu talab amalgalashiriladi. Fikrlar bayon qilinishidagi soddalik uning ilmiyligini pasaytirmasligi lozim. Ma'lumki, bir fikrni turli yoshdagagi bolaga turlicha tushuntirish talab qilinadi. Mazkur talab o'quv materialining ma'lum yoshdagagi o'quvchi uchun qay tarzda ochib berilishini belgilaydi.

3. *O'quv materialini bayon qilish sur'atining o'quvchilarning o'zlashtirish sur'atiga mosligi.* Har bir darsda o'rganiladigan yangi tushunchalar soni, bayon qilinadigan o'quv materialining hajmi mumkin qadar teng, ularning o'rtacha hajmi esa PDV mo'ljallangan o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Texnik jihatdan esa o'quv materialining ekranda joylashadigan bir qismi tasvirlanib, ma'lum vaqtadan so'ng ikkinchi ekran matniga almashishi emas, balki har bir o'quvchining ekrandagi matnni o'qib, keyingi ekran matniga o'tish xohishini bildirgandagina almashish imkonini berish nazarda tutilishi lozim. Bu esa har bir o'quvchi uchun o'quv materialini o'ziga mos sur'atda o'zlashtirishiga imkon

beradi.

4. *O'quv materialini o'rganishning ko'pvariantliligi.* Kompyuterda tasodifiy miqdor sonini hosil qilish imkoniyati mavjud. Bu didaktik materiallarning har xillagini ta'minlash asosida variantlilikni shakllantirishga imkon beradi.

5. *Ma'lumotlarni bayon qilishning turli-tumanligi.* Ma'lumotlarni ekranda tasvirlashda ko'poynali holat ham ta'limgarayonini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. «Men eshitdim va unutdim. Men ko'rdir va eslab qoldim. Men bajardim va tushundim», - degan fikr Bebbidj maktabidagilarning shiori bo'lgan ekan. Darhaqiqat, ba'zi o'quvchilar ko'rish orqali ma'lumotni ko'proq eslab qolsa yoki idrok qilsa, ba'zi o'quvchilar eshitish orqali ko'proq eslab qoladi. Shuning uchun o'quv materialini tushuntirishda ham namoyish qilish, ham ovoz yordamida izohlash usullaridan unumli foydalanish lozim.

II. *Psixofiziologik talablar.* PDVlarni yaratishda ob'ektlarni ergonomik loyihalashning ahamiyati katta. Ob'ekt sifatida ekrandagi tasvirlar, ularni uzatish usullari, ekrandagi shartli belgilarning tushunarli bo'lishi hamda joylashishi, o'quvchi bilan kompyuter orasidagi muloqot usullari va hokazolar tushuniladi.

Bunday xatti-harakat qulayliklarini yaratish uchun ergonomika yutuqlariga tayaniladi.

Ergonomik tadqiqotlarning maqsadi insonning fizik va psixologik imkoniyatlari, uning estetik didi va boshqa sifatlarini texnik vosita parametrлari bilan muvofiqlashtirish hisoblanadiki, bunda texnik komponent bo'ysunuvchi hisoblanadi. Binobarin, bunda boshqariladigan ob'ekt vazifasini texnik qurilma, boshqaruvchi vazifasini inson yoki kishilar jamoasi tashkil etadi

Ko'poynali holat - ekranni turli rangdagi bir nechta sohalarga ajratib, ularda turlicha ma'lumotlarni chiqarish holati. «Pedagogik ergonomikaning predmeti fan va texnika yutuqlarini qo'llash asosida pedagogik jarayonni o'rganishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida shakli hisoblanadi.

Shu ma'noda pedagogik ergonomika faqat pedagogika va psixologiya sohasidagi yangiliklarga asoslanmasdan, balki tibbiyot, mehnat gigienasi, muhandislik psixologiyasi, dizayn hamda qator texnik fanlar yutuqlaridan ham foydalanadi».

Qator ishlarda didaktik vositalarga qo'yiladigan ergonomik talablar ko'rsatilgan. Ularni umumlashtirgan holda PDVga qo'yiladigan quyidagi psixofiziologik talablar ishlab chiqildi.

1. Dasturdagi tovushlarga qo'yiladigan talablar. PDVda foydalaniladigan biror tovush yoqimsiz, mazmundan uzoq bo'lmasligi kerak. Tovush o'quvchining diqqatini jamlashga yordamlashishi hamda mazmun bilan bog'liq bo'lishi zarur. Biror qoida yoki harakat usuli musiqiy asosga ega bo'lsa, u o'quvchi tomonidan yaxshi eslab qolinadi.

2. Interfeysning qulayligi prinsipi. Interfeysning oddiyligi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki shu tufayli o'quvchi asosiy faoliyatga tez va oson kirisha oladi. Interfeys ko'p hollarda piktogramma ko'rinishida bo'ladiki, bunda o'quvchining ko'rsatilgan variantlardan birini tanlashi qulay kechadi. Piktogrammalarini tanlash, ma'lumotlarni kiritish va ekrandagi kadrlarni o'zgartirishda ham tugmachalar majmuidan, ham «sichqoncha»dan foydalanish imkoniyatini nazarda tutish lozim. Shuningdek, dasturning oddiy bo'lismiga, uni boshqarishda oz sonli tugmachadan foydalanishiga, uni kompyuterda ishlash malakasi yuqori bo'limgan o'quvchilar ham qiyinchiliksiz ishlata olishiga e'tiborni qaratish kerak.

III. Texnik talablar. PDV qandaydir rusumli kompyuterga mo'ljallab yaratilar ekan, ma'lum darajada texnik talablarga javob berishi shart. Shunday talablar mazmunini ko'rib chiqamiz.

1. Dasturning universalligi. Albatta, PDVni yaratuvchi dasturchilar imkoniyati yuqori bo'lgan Pentium IV, Pentium V rusumli kompyuterlarda ishlaydi va dasturni shunday kompyuterda tuzadi. Biroq mакtablarning barchasi ham bunday kompyuterlarga ega emas. Shuning uchun dastur tuzilayotganda uning kompyuter xususiyatiga to'la bog'liq bo'limgan holda

ishlay olishiga ahamiyat berish zarur. Zero, tezkor kompyuterda yaratilgan dastur quyi imkoniyatlari kompyuterda kutilgan tezlikda bajarilmaydi. Pirovardda, samaradorlikni oshirishga emas, balki ta'lrim jarayoni natijasining pasayishiga olib keladi.

2. Dastur ishining uzluksizligi. O'quvchi o'zi uchun notanish vaziyatga tushgach, ixtiyoriy tugmachalarni bosadi va bu bilan ekranda qanday o'zgarish bo'lishini kutadi. Shu bois o'quvchi kiritgan ma'lumot tezda qayta ishlanishi va unga tegishli xabar berilishi lozim. Dastur qandaydir ma'lumotni uzoqroq vaqt izlayotganda yoki qayta ishlayotganda ekranda bu «harakat»ni tushuntiruvchi yozuvni chiqarish va shu tarzda o'quvchini tinchlantirish kerak. Shunda ham o'quvchi tugmachalarni ketma-ket bosib ishni tezlashtirishga harakat qiladi. Bunday tugmachalarning jarayonga ta'siri esa dasturdagi tegishli yo'llar bilan bartaraf qilinadi.


1.3. O'rgatuvchi dasturlar va ularning yaratish texnologiyasi

Elektron darsliklari mavjud o'quv qo'llanma, darslikning undan foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida maxsus dasturiy vositalar yordamida ixcham holatga keltirilgan ma'lumotlar to'plamidan iborat. Elektron darslik tayyorlashda taqdim etilayotgan ma'lumotlar undan foydalanuvchilarga qulay, qiziqarli va kerakli bo'lisligi ahamiyatlidir. Hozirgi kunda elektron darsliklarni bir necha xil tayyorlash usullari mavjud. Ko'pchilik holatlarda tayyorlanayotgan elektron darslik ma'lumotlari dastlab HTML sahifalari ko'rinishiga o'tkaziladi. HTML tili imkoniyatlaridan foydalanib ham elektron darslik tayyorlash mumkin. Bu sohaning hozirda imkoniyatlari kengaygan. HTML sahifalari tayyorlovchi va ularga bezak berish imkonini beruvchi maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlarga misol sifatida Microsoft FrontPage, Dreamweaver dasturlarini keltirish mumkin. Bu dasturiy vositalar yordamida osonlik bilan elektron darsliklar tayyorlash va tahrirlash imkoniyatlari mavjud. Lekin bularda ma'lumotlar .html yoki

.htm kengaytmali ko'rinishda saqlanadi va elektron darslik tarkibidagi ma'lumotlar ko'p bo'ladigan bo'lsa uni ma'lumot tashuvchi kompyuter qurilma (fleshka) larga ko'chirish yoki ko'chirib olish ko'p vaqt talab etadi. Bu esa doim ham hushlanavermaydi. Anashu holatlardan ochish uchun maxsus dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida mavjud HTML tilida tayyorlangan elektron darsliklarni osonlik bilan exe yoki chm kengaytmali fayllar holatiga keltirish mumkin. Bunday elektron darsliklar foydalanishga qulayligi va yuqoridagi kamchliklardan holiligi bilan oddiy HTML ma'lumotlar to'plamidan iborat bo'lgan elektron darsliklardan afzal hisoblanadi. Bu elektron darslikning afzalligi uning hajmini oddiy HTML hujjatlari papkasidan iborat elektron darslik hajmidan kichikligidir. Bunday elektron darsliklarni ko'chirish yoki ko'chirib olish oson va qisqa vaqt talab etadi. Butun bir-biriga bog'langan HTML ma'lumotlar bitta exe yoki chm fayli holatiga keltiriladi. Bunday elektron darslik tayyorlovchi dasturlar orasida SbookBuilder va htm2chmdasturlari o'ziga xos mavqega ega. Quyida anashu dasturlar imkoniyalari bilan tanishib chiqamiz.


1.3.1. SbookBuilder dasturi yordamida elektron darsliklar tayyorlash

Hozirda vaqtida bir necha xil elektron darslik tayyorlash imkonini beruvchi dasturlar mavjud. Oddiy HTML ko'rinishida elektron darslikni biror bir matn muharrida ham tayyorlash mumkin (misol uchun, HTML sahifalarni Notepad matn muharrida tayyorlash uchun HTML kodlarini matn muharriga yozib saqlashda .htm yoki .html kengaytma berish kifoya) yoki maxsus HTML ma'lumotlar tayyorlashga mo'ljallangan Microsoft FrontPage, Dreamweaver kabi dasturlari yordamida ham tayyorlash mumkin. Lekin .chm yoki .exe kengaytmali fayllar o'zining yaxlitligi va oson nusxasini ko'chirib olinishi bilan oddiy HTML sahifalar to'plamidan iborat elektron darsliklardan afzal hisoblanadi.



1.1- rasm. SbookBuilder dasturi oynasi Ushbu dastur bilan ishlash oynasi ochiladi


Ushbu dastur bepul tarqatiluvchi dasturlardan biri bo'lib osonlik bilan elektron darsliklar tayyorlashga juda qulaydir. Ushbu dasturni global tarmoqning ushbu <http://jansfreeware.com> manzilidan ko'chirib olish mumkin. Dastur hech qanday o'rnatilishni talab qilmaydi. Ushbu dastur mavjud HTML sahifalarini .exe fayl ko'rinishidagi elektron darslik holatiga keltiradi. Ya'ni bu dasturda avvaldan tayyorlab olingan bir-biriga bog'liq HTML sahifalar ko'rinishidagi ma'lumotlarni yaxlit bir .exe fayl ko'rinishiga keltiradi. Uni ishga tushirish uchun SbookBuilder.exe fayli ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz va natijada



1.2- rasm. SbookBuilder dasturi ishchi oynasi
Bu dastur juda sodda tuzilmaga ega. Uning quyidagi


boshqarish maydonlari mavjud:

1) Select folder – bu maydonda HTML ma'lumotlari joylashgan papka tanlanadi. Quyidagi rasmlida Qo'llanma nomli papka tanlangan uni tarkibidagi ma'lumotlar Files bo'limida ko'rsatilgan.




1.3- rasm. SbookBuilder dasturida yaratilgan mahsulotni saqlash oynasi

2) Select homepage – maydon yordamida bosh sahifa tanlanadi. Bosh sahifa shunday bo'lishi kerakki boshqa sahifalar u bilan bog'langan bo'lish lozim.



1.4- rasm. SbookBuilderda yaratilgan mahsulotni yuklash oynasi


3) Enter title – bu maydonda elektron darslikka sarlavha yogiladi



1.5- rasm. SbookBuilder dasturida sarlavha va parol yozish oynasi

4) Enter password – agar ma'lumotimizni boshqalardan himoyalamoqchi bo'sak bu maydonda elektron darslikka parol qo'yish orqali muammodan qutulamiz.

5) Select icon – bu maydon yordamida darslik ikonkasini tanlashimiz mumkin. Buning uchun .ico kengaytmali rasm fayl bo'lishi kerak.



1.6.- rasm. SbookBuilder dasturi Selecticon oynasi


6) Allow printing – bu maydon yordamida darslikning faoli turgan qismini printerda chop qilish mumkin.



7) Show toolbar – bu bo'lim imkoniyati yordamida SbookBuilder dasturining maxsus uskunalar paneli tayyorlanayongan elektron darslikda joylashish yoki joylashtirmaslikni sozlash mumkin.




8) Create ebook – bu maydonda tayyorlangan darslik qaysi joyga va qaysi nom bilan saqlanishligi ko'rsatilib Soxranit tugmasi bosiladi natijada avtomatik tarzda ko'rsatilgan nomdagi .exe kengaytmali mashg'ulotligimiz tayyor bo'ladi.



1.7- rasm. SbookBuilder dasturida saqlash oynasi

Quyidagi rasmda saqlangan keyin avtomatik ishga tushgan oyna tayyorlandan fayl va uni umumi papkani necha foiz siqilgandagi o'lchami ko'rsatilgan.




Quyidagi keltirilgan ikkita rasmda SbookBuilder dasturining 6- va 7- maydon-larida ta'kid qo'yilgan va qo'yilmagan holatda tayyorlangan ko'rinishlari keltirilgan.

1.3.2. HTML to Chm dasturi yordamida elektron darslik tayyorlash

HTML to Chm dasturini o'rnatish. Ko'pincha elektron darsliklar chm yoki help fayl kengaytmali ko'rinishida tayyorlanadi. Chmkengaytmali elektron darslik tayyorlash jarayonini ko'rib chiqamiz.

Chm fayl tayyorlovchi turli dasturlar mavjud, shular ichida htm2chm dasturi bepulligi vaelektron dasrliklar darsliklar tayyorlashga qulayligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu dasturdan foydalanishdan oldin dasturni o'rnatilish jarayoni ko'rib chiqamiz.

Buning uchun htm2chm nomli exe faylni sichqonch chap tugmasini ikki marta bosish bilan ishga tushiramiz va dasturni o'rnatishni davom ettirasizmi so'roviga Da tugmasini bosish bilan dastur o'rnatishni davom ettiramiz.



Keyingi oynadan Dalee tugmasini bosamiz.

Keyingi oynada lisensiya shartlari keltiriladi, bu oynada

shartlarga rozilik bildirilib Dalee tugmasini bosamiz va tartib bilan belgilab boramiz.

Elektron kitob matn, rasm yoki ikkalasining kombinatsiyasidan iborat raqamli nashrdir. Elektron kitobni maxsus dasturiy ta'minotni talab qiluvchi maxsus elektron qurilma (elektron o'quvchi) yoki kompyuterda o'qish mumkin. E-kitoblar, asosan, texnik mahsulot qo'llanmalari bo'lib chiqdi, ammo bugungi kunda format ko'pchilik nashriyot formatlarini o'z ichiga oladi. Ba'zi mualliflar an'anaviy noshirlar tomonidan rad etilsa, ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi sababli, o'zlarining ishlarini elektron ravishda e'lon qilishlari mumkin. Katta nashriyot kompaniyalari ham nusxa ko'chirilgan nashrlar uchun muqobil ravishda elektron kitoblarni taklif qilishadi.

Ba'zi elektron kitoblar Amazon Kindle planshetiga mo'ljallangan maxsus formatdan foydalanadi. Shu bilan bir qatorda, Adobe PDF-ni kabi elektron formatda o'qiydigan talabalarga mos keladigan ochiq format mavjud. Elektron kitoblar, elektron kitoblar yoki elektron kitoblar uchun qisqa, elektron shaklda chop etilgan kitobdir. Bu kitobni Internet orqali yuklab olish orqali darhol kirish imkonini beradi. Kitobni kompyuterda, elektron o'quvchi (masalan, Amazon Kindle), smartfon yoki planshetda o'qish mumkin. Bir eKitap turli fayl formatlarida, masalan, matn, PDF, boy matn formati, rasm fayllari va boshqalar sifatida chop etilishi mumkin. 2010-yil 19-iyulda Amazon elektron kitoblarni jozibali kitoblarga qaraganda sotayotganligini e'lon qildi. Quyida qonuniy va bepul elektron kitoblarni topish uchun juda ko'p turli xil joylarning qisqa ro'yxati keltirilgan. Bepul eBooks bo'lgan saytlar

Project Gutenberg - Onlayn ko'rish uchun, shuningdek, oflayn o'qish uchun 16 000 dan ortiq bepul elektron kitoblar to'plami.

Google Kitoblar - yuz minglab bepul va sutib olinadigan kitoblar va jurnallarni qidirish mumkin bo'lgan bepul Google xizmati.

Uyga vazifa berish bloki amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bajarilgandan so'ng o'quvchiga uyga vazifa beruvchi blok hisoblanadi. PDVning MODagi "O'quvchining nazorat bloki" dan o'quvchining mashg'ulotdagi o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. So'ng uning o'zlashtirish darajasiga qarab PDVning MODan uyga vazifa beriladi.

O'qituvchi bloki. PDVdagagi eng mas'uliyatli ish o'qituvchi blokiga yuklatilgan. Bu blok yordamida PDVning MODagi barcha ma'lumotlari, ya'ni mavzu, topshiriq, nazariy material, test savoli, uyga vazifa kabilalar kiritiladi, o'zgartiriladi, eskilar o'chirib tashlanadi. Bundan tashqari PDVning MOga guruh va guruhdagi o'quvchilarning ismi va sharifi ham shu blok yordamida yoziladi, o'zgartiriladi, o'chiriladi. Blok o'zining bir nechta blok ostisiga ega.

Ro'yxatdan o'tish bloki. Ro'yxatdan o'tish blokida o'qituvchiga kalit so'z berilgan bo'ladi, shu kalit so'z yordamida ro'yxatdan o'tib, o'qituvchi blokiga kiradi.

Yangi guruh va o'quvchilarning ismi sharifini kiritish, o'zgartirish, o'chirish bloki.

PDVdan foydalani layotganda turli guruhlar hamda guruhdagi o'quvchilarning ismi va sharifi (o'qishga kelish, ketish, familiyasini ...) o'zgartirish vazifasini bajaradi.

Laboratoriya mashg'uloti topshiriqlarini tekshirish bloki. Blokda o'quvchi topshirgan laboratoriya mashg'ulotini tekshirish va uni bahosini MOga kiritishdan iborat. Biror bir o'quvchining laboratoriya mashg'ulotini tekshirish uchun birinchi guruhi aniqlanadi, so'ng ismi va familiyasi, nechanchi laboratoriya mashg'uloti ekanligi tanlanadi. O'quvchi laboratoriya mashg'ulotini bajargan bo'lsa, laboratoriya

mashg'ulotlari maydonida fayl hosil bo'ladi. O'qituvchi faylni o'shib, o'quvchining ishini tekshiradi va baholaydi.

PDV hisobotini olish bloki. Bu blok o'quvchilarning o'zlashtirish haqidagi hisobotlarni olish uchun xizmat qiladi. PDVda hisobotlarni ikki xil ko'rinishda: guruh bo'yicha va o'quvchi bo'yicha olish mumkin.

PDVning ma'lumotlar omborini yangilash, o'zgartirish, qo'shish bloki. PDVda mavjud barcha ma'lumotlarni tahrirlash, o'zgartirish, yangilash uchun maxsus dastur tuzilgan. Bu dastur MODan tanlagan ixtiyoriy ko'rinishdagi ma'lumotni o'zgartirish, yangilash, o'chirish, matnni tahrirlash imkoniyatlarini beradi.

Kalitni o'zgartirish bloki. Ro'yxatdan o'tish blokida kalit so'zni o'zgartirish imkoniyatini beradi. Kalit so'zni o'zgartirish uchun uni bilish talab etiladi.

Mualliflar haqida ma'lumot. PDVni tuzuvchilar: mutaxassis pedagog, loyihani tasdiqlagan kengash, dasturchilar haqida ma'lumot va ularning manzillari, telefon raqamlari, elektron pochta manzillari (web saytlari), hamda guvohnomalari ko'rsatiladi.

PDV boshqaruv (administrator) bloki. Bu blok PDVdan foydalanimasdan oldin amalga oshiriladigan bir martalik saqlash bo'lib hisoblanadi. Blokning blok ostilari:

Lokal tarmoqda PDVsozlash bloki. Bunda PDV uchun boshqaruvchi bo'lgan server kompyuterda barcha xizmatchi kompyuterlarning TCP/IP manzillari kiritiladi. Lokal tarmoqda ma'lumotlarning tez va oson o'tishi uchun zaruriy xususiyatlar o'rnatiladi.

O'quv jarayoni hisobotlarini serverda saqlash bloki. Bu blok PDVning hisobotlarini saqlash uchun xizmat qiladi. Hisobotlarning necha marta va qanday, qachon olinganligi haqidagi ma'lumotlarni boshqarib boradi. Bu hisobotlar boshqaruv blokidan ikkinchi marta foydalaniylganda ham o'chib ketmaydi, faqat hisobotlarni chop qilish imkoniyati qoladi. Bundan tashqari har uch oyning oxirida PDV bo'yicha hisobotlarni avtomatik ravishda o'zida saqlab boradi.

O'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni olish bloki. Bu blok PDV bo'yicha har uch oyda har bir o'quvchining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus shifrlar yordamida saqlaydi.

Yuqorida tasnif qilingan bloklar asosida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun PDVni yaratsak qandaydir ma'noda mukammallikka erishgan bo'lamiz. Endi bu bloklar asosida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun PDV algoritmini keltiramiz. PDVning algoritmini ikki: o'qituvchi va o'quvchi faoliyati ko'rinishida aniqladik.

O'qituvchining faoliyat algoritmi quyidagicha:

PDVning amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun mo'ljallanganini inobatga olsak, o'quvchining faoliyat ini o'zi ham ikkiga ajratish mumkin:

- amaliy mashg'ulotdagi faoliyat algoritmi;
- laboratoriya mashg'ulotdagi faoliyat algoritmini.

Nazorat savollari:

- Bilimlar bazasini unda qo'llaniladigan interfeysga nimalar kiradi?
- Ekspert tizimlar nima?
- Hisoblash-mantiqiy tizimlar nima?
- Foydalanuvchi interfeysini yaratishda qanday bosqichlar amalga oshiriladi?
- PDVlarni yaratish bo'yicha asosiy mezonlarga qanday bloklarni kiritish kerak?
- PDVni ishlab chiqish jarayonida qanday bloklardan foydalanish lozim?
- O'quvchining ro'yxatdan o'tish bloki nima?
- O'quvchining bilim salohiyatini tekshiruvchi bloke nima?
- Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ro'yxati va baholar bloki nima?

3. EXPERT-O'RGATUVCHI VA AVTOMATLASHTIRILGAN O'RGATUVCHI DASTURLAR

3.1. Ta'lrim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish - davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi.

Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lrim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lrim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lrim dasturlari va texnologiyalarini tafbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 29 dekabr, "2017 — 2021 yillarda Maktabgacha ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son hamda 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lrim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son, 2018 yil 30 sentyabr, "Maktabgacha ta'lrim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjatlari yaratildi.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lrim muassasasida amalga oshiriladi. Bu boroda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagи ma'rzasida "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, **Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib**

kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug'ajdodimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bolishi ularning o'z otanaiaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq». Qarang, qanday bebafo, oltinga teng so'zlar!» deya ta'kidlashlari har birimizning ko'nglimizdagi gaplar ekanligi shubhasiz quvontiradi.

Ushbu fikrlar maktabgacha ta'lismuassasalar (MTM)ga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ta'lism turlari sanab o'tilib, uning birinchi turi - "Maktabgacha ta'lism" ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lism bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Buta'lism olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lism muassasalarida olib boriladi", - deyilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga uzlusiz ta'limga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, 3.3 bandida uzlusiz ta'limga dastlabki bosqichi maktabgacha ta'lism ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Darhaqiqat, ta'lism-tarbiya qanchalik erta boshlansa uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insонning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. «Maktabgacha ta'lism» atamasi 1997 yilda YUNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzlusiz ta'lism tiziminining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Bu albatta quvonarli hol. Hozirgi davrimiz texnologiya asri bo'lganligi uvhun har bir tarbiyalanuvchining zamon bilan hamnafas qilib ostirish maqsadida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning 9-moddasida "Barcha bosqichdagi ta'lism jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi", - deb aytilgan.

Shuningdek YUNISEF tashkilotining «Bolaga yo'naltirilgan ta'lism dasturi»da MTMlarning ta'lism-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan

foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan. Yuqorida bayon qilingan dalillar MTM bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va maktab ta'llimiga tayyorlash dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Yosh bolalar tevarak-atrofqa, voqeа va xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziquvchan bo'ladi. Hamma narsani ushlab, paypaslab, yurgizib, harakatga keltirib ko'rishni yoqtiradilar.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

- 1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;
- 2) tovushda;
- 3) musiqada;
- 4) animatsiyada;
- 5) multifikasiyada.

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ihtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTMlarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. MTMlarning ta'lism-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar - kompakt disklar, turli xil faqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lism-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi.

Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Mutimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti.

MTMlari ta'lim- tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zları tayyorlashi mumkin bo'lган dasturli va rolli multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video disk multimedianing texnik vositasi sifatida bir necha afzallikkarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

MTMlarda multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarining kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta'lim o'yninlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan

so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTM tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarining bilimini baholash ham kompyuter so'tirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o'yinlar, mashqlar, faqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari shart.

Xulosa qilib aytganda, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilanganidek: «Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mehanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvirlarni andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruchi kuchidir» deyiladi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarza shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rta sidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni istiyorli qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTMlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning

dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'satadiki, 80-90% bolalarkompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tas'virdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Ushbu maqolada mazkur masalalarga oydinlik kiritildi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

3.2. Avtomatlashtirilgan ta'lif tizimlari bilan ishlash

Bugungi globallashuv jarayonida insonlarga qulaylik yaratish maqsadida juda ko'p avtomatlashtirilgan elektron tizimlar tadbiq qilinmoqda. Bunday tizimlarga bank tizimi, soliq tizimi, hukumat tizimi, tashkilot va ta'lif tizimlari kabi juda ko'p misollar olish mumkin. Tizimga kirish uchun foydalanuvchilar o'zlarining login (tizimdag'i ism) va paroliga ega bo'lishi zarur. Ularning login va parollari tizim ma'lumotlari omborida maxsus unikal kod-identifikator (ID) bilan farqlanadi. Foydalanuvchi paroli tizim himoyasining old qatori hisoblanadi. Parol tizim ma'lumotlar omboridagi foydalanuvchi IDsini aniqlaydi. Identifikatorga foydalanuvchi haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

□ ID foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan-o'tmaganligini va qancha vaqt foydalanish huquqi berilganagini aniqlaydi;

□ ID foydalanuvchiga qanday rol berilganligini aniqlaydi, ya'ni foydalanuvchi faqat ma'lumotdan foydalanishi yoki qo'shimcha uni taxrirlashi mumkin;

□ ID foydalanuvchining to'liq ma'lumotlarini aniqlaydi.

Foydalanuvchi paroli tizim uchun muhim ahamiyatga egaligini anglash maqsadida elektron tizimlarda foydalanuvchi parolini himoya qilishning eng samarali usullaridan biri – parolni yashirish, uni ochiq holda qoldirmaslikni ko'ramiz.

Foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan parol faqat tizimga ma'lum bo'lgan ihtiyyoriy o'zgaradigan matn (IM) bilan shifrlash qoidalari asosida kodlanadi va hosil bo'lgan kodlangan

matn (KM) foydalanuvchi paroli sifatida ma'lumotlar omboriga joylashtiriladi. Parollar omborida foydalanuvchining asl paroli o'rniiga boshqa kodlangan matn hosil bo'lishi tizimning hafizligini kuchaytiradi. Bu foydalanuvchi parolisiz tizimga kirish imkoniy yoqligini yoki bu uchun ko'p vaqt ketishini anglatadi.

Kodlangan matnni topish murrakabligini oshirish maqsadida tizimning IM ga quyidagicha talablar qo'yiladi:

□ Bir-xil parollar bo'lishini oldinini oladi, yani bir nechta foydalanuvchilar bir-xil parol qoyganda ham IM orqali turli-xil kodga o'zgaradi;

□ Parol uzunligini ortiradi va bu parolni topilish ehtiymolini pasaytiradi. Agar IM ning uzunligi 16 ga teng bo'lsa, KM ning uzunligi o'z-o'zidan 16 dan katta bo'ladi;

□ Foydalanuvchilar porol qo'yishidagi kamchiliklarini tusatadi.

Foydalanuvchi tizimga qayta kirishida, foydalanuvchi paroli dastlab parollar omboridagi IM bilan shifrlash algoritmidagi kodlanadi va ombordagi KM bilan taqqoslanadi. Shundan so'ng foydalanuvchiga tizimga kirishga ruxsat beriladi.

Tizim xavfsizligi mutaxassis dasturchilar, tizim administratorlari tomonidan mustahkamlangandan so'ng muammo foydalanuvchi parolida qoladi. Agar foydalanuvchi o'z parolini birovga oshkor qilsa yoki topilishi oson bo'lgan parol qoysa, tizimga ruxsatsiz kiruvchilar hosil bo'ladi. Buning natijasida ma'lumotlar omborining yaxlitligi buziladi va tizimning xavfsizligi buziladi.

Albatta, harf, raqam va maxsus belgilardan mukamal foydalanuvchi sakkiz belgili parol doimiy xavfsizlik garovi bo'laolmaydi. Kompyuter texnologiyalaring tez rivojlanib borishi, ularning ishlash tezligi oshgan holda millionlab vazifalarni bir soniyada bajarishi extimoldan holi emas. Ammo bu ma'lum bir vaqt talab etadi. Shuning uchun parolni tez-tez yangilab turish maqsadga muvofiq.

Misol sifatida elektron bank tizimini olaylik. Juda ko'p rivojlangan davlatlar bank tizimlarida, mijozlar e-banking

xizmatidan foydalanish va o'zlarining hisob saxifalariga ko'rish uchun quyidagilarni kiritishadi:

- Login – o'zgarmas, bankda dastlabki ro'yxatdan o'tishda beriladi;
- Parol – foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy vaqtida o'zgartirish mumkin;
- Kalit – bu bank tomonidan berilgan elektron qurilmadan kiritiluvchi sonlar;
- Kalit elektron qurulmasidagi sonlar qisqa vaqt ichida (20-30 soniyada) ixtiyoriy o'zgaradi, bu o'zgarish bankning ro'yxatdan o'tqazuvchi serveridagi sonlar bilan bir-xil vaqtida va bir-xil sonlarga o'zgaradi.

Avtomatlashtirilgan elektron tizimlarning ortib borishi foydalanuvchilarga ularga kirish parolini eslab qolish yoki havfsiz parol qo'yish muammosini olib kelmoqda.

Parol(ing, password) bu - amaliy munosabat boshlash uchun ishlatalidigan, subektning siri hisoblanadigan identifikator. Tizimga kirish uchun klaviatura tugmalarini bosish ketma-ketligi. Parol simvollar (harflar, raqamlar, maxsus belgilar) kombinatsiyasi bo'lib, uni faqat parol egasi bilishi kerak.

Kompyuterning zamonaviy operatsion tizimlarida paroldan foydalanish o'rnatilgan. Parol xeshlangan holatda kompyuterning qattiq diskida saqlanadi. Parollarni taqqoslash operatsion tizim (OT) tomonidan foydalanuvchi huquqiga mos imkoniyatlar yuklangunga qadar amalga oshiriladi. Lekin, kompyuterning OT dan foydalanishda kiritiladigan foydalanuvchi parolidan tashqari, Internetda ro'yxati keltirilgan ayrim «texnologik» parollandan ham foydalanish mumkin. Ko'pgina kompyuter tizimlarida identifikator sifatida, foydalanishga ruxsat etilgan subyektni identifikatsiyalovchi kod yozilgan yechib olinuvchi axborot tashuvchilardan foydalaniladi.

Foydalanuvchilarni identifikatsiyalashda, tasodifiy identifikatsiyalash kodlarini hisilqiluvchi – elektron jetonlardan keng foydalaniladi. Jeton – bu, harflar va raqamlarning tasodifiy ketma-ketligini (so'zni) yaratuvchi qurilma. Bu so'z kompyuter

tizimidagi xuddi shunday so'z bilan taxminan minutiga bir marta sinxron tarzda o'zgartirib turiladi. Natijada, faqatgina ma'lum vaqt oralig'ida va tizimga faqatgina bir marta kirish uchun foydalanishga yaraydigan, bir martalik parol ishlab chiqariladi. Doshqa bir turdag'i jeton tashqi ko'rinishiga ko'ra kalkulatorga o'shab ketadi. Autentifikatsiyalash jarayonida kompyuter tizimi foydalanuvchi monitoriga raqamli ketma-ketlikdan iborat so'rov chiqaradi, foydalanuvchi ushbu so'rovni jeton tugmalari orqali kiritadi. Bunda jeton o'z indikatorida akslanadigan javob ketma-ketligini ishlab chiqadi va foydalanuvchi ushbu ketma-ketlikni kompyuter tizimiga kiritadi. Natijada, yana bir bor bir martalik qaytarilmaydigan parol olinadi. Jetonsiz tizimga kirishning imkonи bo'lmaydi. Jetondan foylanishdan avval unga foydalanuvchi o'zining shaxsiy parolini kiritishi lozim.

Atributivli identifikatorlardan (parollardan tashqari) ruxsat berilish va qayd qilish chog'ida foydalanilish mumkin yoki ular ish vaqtiga qadar ishlatalayotgan qurilmaga doimiy ulangan holda bo'lishi shart. Qisqa vaqtga biror joyga chiqilganda ham identifikator olib qo'yiladi va qurilmadan foydalanish blokirovka qilinadi. Bunday apparat-dasturiy vositalar nafaqat qurilmalardan foydalanishni cheklash masalalarini hal qila oladi, shu bilan birga axborotlardan noqonuniy foydalanishdan himoyalashni ta'minlaydi. Bunday qurilmalarning ishlash prinsipi qurilmaga o'rnatilgan OT funksiyalarini kengaytirishga asoslangan.

Autentifikatsiyalash jarayoni kompyuter tizimlari bilan ruxsat etilgan subyekt orasida amalga oshiriladigan dialogni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ruxsat etilgan subyektga bir qator savollar beriladi, olingan javoblar tahlil qilinadi va ruxsat etilgan subyektning aslligi bo'yicha yakuniy xulosa qilinadi.

Kompyuter tizimlarning xotira qurilmalarida, odatda tizim konfiguratsiyasi haqidagi ma'lumotlar saqlanadi. Bunday ma'lumotlarga: qurilmaning (bloklarning) turi va ularning taysiflari, tashqi qurilmalarning soni va ulanish sabablarini o'ziga xos xususiyatlari, ish rejimlari va boshqalarni kiritish mumkin. Konfigursiyaning muayyan tuzilishi kompyuter

tizimlarining va Otning turiga qarab aniqlanadi. Har qanday holatda ham dasturiy vositalar yordamida KT konfiguratsiyasi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va taqqoslashni tashkil etish mumkin. Agar kompyuter tarmoqda ishlayotgan bo'lsa, hech bo'limganda uni tarmoqqa ulash paytida kompyuterning konfiguratsiyasi nazoratdan o'tkaziladi. Nazoratning yanada ishonchli va tezkor usuli, qurilmaning maxsus kod - identifikatoridan foydalanish hisoblanadi. Bu kod qurilma vositalarida hosil qilinadi va xotira qurilmasida saqlanishi mumkin.

Himoyalovchi apparat-dasturiy komplekslarning ko'pchiligi maksimal sondagi himoyalash mexanizmlaridan foydalaniladi. Bu mexanizmlarga quyidagilar kiritish mumkin:

- foydalanuvchilarni identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash;
- fayllar, papkalar, disklardan foydalanishga ruxsatni cheklash;
- dasturiy vositalar va axborotlar butunligini nazorat qilish;
- foydalanuvchi uchun funksional yopiq muhitni yaratish imkoniyati;
- OTni yuklanish jarayonini himoyalash;
- foydalanuvchi yo'qligida kompyuterni blokirovka qilish;
- ma'lumotlarni kriptografik o'zgartirish;
- hodisalarni qayd qilish;
- xotirani tozalash.

Axborotni muhofaza qilishda yetarli darajadagi yutuqlarga erishish uchun huquqiy, tashkiliyva texnik choralarni birgalikda amalga oshirish zarur. Bu himoyalananidan axborotning konfedensalligi, tahdidning tasnifi va himoya vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Umumiyl holda xavfsizlikni ta'minlashning kompleks choralariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ruxsatsiz foydalanishdan kompleks himoya qilish vositalari;

- apparat-dasturiy vositalar;
- kriptografik muhofaza qilishning kompleks vositalari;
- injener-texnik tadbirlar;
- texnik kanallarni blokirovkalash kompleks vositalari;
- obyektlarni jismoniy qo'riqlashni kiritish mumkin.

Bu choralarning har biri boshqasini to'ldiradi, birona usulning yo'qligi yoki yetishmasligi yetarli darajadagi himoyaning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda elektron tizimlarga kirish uchun foydalanuvchi tomonidan qo'yiladigan parol tez-tez yangilanib turilishi va belgilar soni sakkiztadan ko'p bo'lgan raqamlar, katta-kichik harflar va kabi belgilar birlashmasidan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3.3. O'rnatuvchi ekspert tizimlar haqida ma'lumot to'plash

Zamonaviy jamiyatda tobora o'sib borayotgan axborot oqimi, axborot texnologiyalarining turli-tumanligi, kompyuterda yechiladigan masalalarning murakkablashuvi ushbu texnologiyalardan foydalanuvchining oldiga bir qator vazifalarni qo'ydi. Kerakli variantlarni tanlash va qaror qabul qilish ishlarni insondan EHMga o'tkazish masalasi yuzaga keladi. Bu vazifani yechish yo'llaridan biri - bu ekspert tizimlarni yaratish va foydalanish sanaladi.

Ekspert o'zidan kelib chiqib sharoitni tahlil etadi va nisbatan foydali axborotni aniqlab oladi, chorasisz yo'llardan voz kechgan holda qaror qabul qilishning eng maqbul yo'llarini vujudga keltiradi. Ekspert tizimida ma'lum bir predmet sohasini ifodalaydigan bilimlar bazasidan foydalaniladi.

Ekspertdegan so'z sizga nimani anglatadi, ekspert deb atalgan inson qanday ishlarni bajaradi. Ekspertning bajaradigan ishlarni kompyuter amalga oshira olsa biz qanday afzalliklarga erishishimiz mumkin. Bu muammolar ustida do'stlariningiz bilan birgalikda bosh qotiring va biror bir yechimga kelgandan so'ng quyidagi material bilan tanishishni davom ettiring.

Ma'lum muammo sohasidagi masalalarni yechishga mo'ljallab yaratilgan intellektual sistema ekspert Sistemasi deyiladi. Ekspert sistemalari bilimlarini to'ldirish manbai bo'lib, shu soha ekspertlari xizmat qiladi. Barcha ekspert sistemalarning ishi konkret muammo sohasidan olingan qat'iy ekspert ma'lumotlariga asoslanadi.

Farazqilaylik, quyidagi masalani yechish uchun ekspertlar guruhi yig'ildi. daryo bo'yida joylashgan korxonalardan istalgani oqizgan bo'lishi mumkin bo'lgan neft dog'lari daryoda kuzatildi. Asosiy maqsad qaysi korxona neftni oqizganini topish va ifloslanish sabab, oqibatlarini bartaraf etishdir. Eng avvalo, bunday masalani yechuvchi ekspert sistemasi hisoblashni biliishi kerak. Neft oqizilgan joyni taxminan bilish uchun neftni suvgaga aralashish vaqtin, daryo oqimi tezligi va yo'naliishi kabi ma'lumotlarni ishlatish kerak. Bunday ma'lumotlar yig'ilib, neft oqizilgan joy taxminan aniqlangandan keyin maxsus qoidalardan, masalan E1 va E2, foydalanib, aybdorni aniq topish mumkin. Bu qoidalalar evristik qoidalalar deyiladi. Evristik qoidalalar oddiy qoidalalar asosida emas, balki ekspertning amaliy bilimiga asoslanadi.

E1 qoida: AGAR neft tashlangan joydan daryo oqimi bo'yicha 1 km oraliqdagi yuqorida bir korxona joylashgan bo'lsa, u holda shu korxona neftni daryoga oqizgan. E2 qoida: AGAR neft tashlangan joydan daryo oqimi bo'yicha 1km oraliqdagi yuqorida bir necha korxona joylashgan bo'lsa, u holda eng ko'p neft ishlatuvchi korxona neftni daryoga oqizgan. Maqsadga erishish uchun ko'rib chiqilayotgan variantlar sonini kamaytirishga xizmat qiluvchi va fikrlash samarasini oshiruvchi soddalashtirishlar qo'llaniladi. Ekspert sistemalarida evristik qoidalalar asosida ishlatiladigan soddalashtirish mexanizmi evristik qidiruv mexanizmi deyiladi.

Evristik qidiruv mexanizmi suvni ifoslantirgan eng ehtimoli ko'p bo'lgan aybdorni aniqlaganidan keyin, ilgari surilgan gipotezani tekshirish uchun ekspert sistema boshqa qoidalari to'plamini ishlatishi mumkin. Eng avvalo korxona neft quvuri sistemasidagi nosozliklar qaraladi. Bunday evristik

qoida foyda keltirishi mumkin: AGAR fabrika neft quvurining tuchastkasidagi bosim suv bosimidan kichik bo'lsa, U holda $\frac{1}{2}$ yoki $\frac{3}{4}$ uchastkalarni tekshirish kerak. Bunday qoidani faqat shu sohani biluvchi inson, ya'ni ekspert aytishi mumkin.

Ekspert tizimlarning ishlatilish sohalarini qisqacha keltiramiz:

- tibbiy diagnostika va davolash;
- kimyoiy analiz va sintez;
- molekulyar biologiya va gen injenerligi;
- sanoatda rejalashtirish va ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- signallarni qayta ishlash;
- qurilmalar nosozligi diagnostikasi;
- geologik razvedka;
- avtomatlashtirilgan loyixalashning intellektual sistemalari;
- o'lchov sistemalari: ko'rish, boshqarish, ma'lumotlar taxibili;
- texnologik jarayonlarni boshqarish.

Ta'lim jarayonida talabaning kasbiy hamda individual rivojlanishi jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv sifatida ixtisoslik fanlarini intellektual tizimlar asosida o'qitishning maqsadi, tarkibi va qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muamolaridan biri hisoblanadi.

O'qitishning intellektual tizimi sun'iy intellekt metodlari va vositalarining avtomatlashtirilgan o'qitish sohasida qo'llanishining amaliy natijasi bo'lib, ta'lim tizimlarining yangi avlodи hisoblanadi. Ta'lim jarayonida talabaning bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishning yuqori ko'rsatkichlariga erishish uchun, ixtisoslik fanlari o'qituvchisi uch asosiy tipdagи bilimlardan foydalanadi: o'qitilayotgan ixtisoslik fani bo'yicha bilimlar, o'qitish metodlari to'g'risidagi bilimlar va ta'lim oluvchi haqidagi bilimlar. O'qitishning an'anaviy avtomatlashtirilgan tizimlarida bu bilimlarning ko'pgina qismlari tanlangan o'qitish metodikasiga mos ravishda o'quv fanining alohida bo'limlariga

qat'iy ravishda kiritilgan. O'qitishning intellektual tizimida zarur bo'lgan bilimlar ajratib olinadi va sun'iy intellektning turli metodlari va texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladi. O'qitishning intellektual tizimida o'quv materialini taqdim etishda, bu bilimlardan foydalananib va talabaning psixofiziologik va intellektual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, eng samarali o'qitish metodlari, usullari va sur'atlarini, fanning mazmuni, hajmi va topshiriqlarning murakkablik darajasini aniqlash va tartibga solish mumkin bo'ladi.

Ixtisoslik fanlarini o'qitishning intellektual tizimi bilimlar bazasi, boshqarish tizimchasi, o'qitish tizimchasi va muloqot tizimchasidan iborat. Ixtisoslik fanlarini o'qitishning intellektual tiziminining asosi bo'lib bilimlar bazasi hisoblanadi. Har bir ixtisoslik fani bo'yicha bilimlar bazasi o'z navbatida, o'zaro bog'langan bir necha ma'lumotlar bazasidan iborat bo'ladi va har biri o'qitilayotgan fanning ma'lum bir qismlarini tashkil etadi: «Atamalar va asosiy tushunchalar», «Nazariya», «Amaliy-laboratoriya ishlari», «Mustaqil ishlar».

O'qitish metodlari haqidagi bilimlar «Topshiriqlar» ma'lumotlar bazasida yig'ilib boradi, bu bazada o'quv fanining barcha bo'limlari bo'yicha didaktik materiallar tasniflangan va tartibli tarzda, o'qitish metodlariga mos ravishda namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi haqidagi bilimlar «O'qitish natijalari» ma'lumotlar bazasida yig'iladi. Bunda har bir talabaning individual kartasi tuzilib, unda o'qitilayotgan fan bo'yicha talaba ega bo'lgan bilimlar darajasi va sifati haqida, uning psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Bilimlar bazasini boshqarish tizimchasi yangi bilimlarni kiritish va to'plash uchun mo'ljallangan. Birinchi bosqich tizimni o'rGANISHdan iborat bo'ladi, ixtisoslik fani bo'yicha barcha bilimlar yangi hisoblanadi va bu bilimlarni yig'ish tizim va ekspert o'rtasidagi muloqot (dialog) jarayonida amalga oshiriladi. Keyingi bosqichlarda yangi bilimlarni izlash avtomatik tarzda amalga oshiriladi: barcha qabul qilinayotgan axborotlar mavjud bo'lgan axborotlar bilan solishtiriladi,

mavjud bo'lgan bilimlarga tayangan holda yangi axborotlar saralanadi, tahlil qilinadi va ularning tasnifi bir yoki bir necha variantda taqdim etiladi. Masalan, biror buyumga ishlov berishning yangi usuli topilganda, uni bajarish yo'llari, kerak bo'ladigan asbob-uskunalar va moslamalar, foydalaniladigan materiallar, qo'llaniladigan sohalar haqidagi ma'lumotlar o'rGANISH uchun taqdim etiladi.

O'qitish tizimchasi aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish va qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan hamda bu tizimcha uch moduldan iborat bo'ladi: o'qitishni boshqarish, topshiriqlarni shakllantirish, natijalar ni tahlil qilish. O'qitishning har bir bosqichida, talabaning individual kartasini tahlil qilish natijalariga asoslangan holda o'qitishning maqsadi aniqlanadi, o'qitish vazifalarini tanlanadi yoki ishlab chiqiladi. Agar talaba mustaqil ravishda ishlaydigan bo'lsa, uning harakatlari kuzatilib, xatoliklari, duch kelgan qiyinchiliklari qayd qilib boriladi, qachon o'quv jarayoniga aralashish, yordam ko'rsatish, talabaning individual kartasiga o'zgartirishlar kiritish lozimligi aniqlanadi. Yordam talab qilinganda, uni ko'rsatishning optimal shakllari tanlanadi (xatoni ko'rsatish, talabaning o'zi xatolarini tuzatishi yoki bilmaganlarini to'ldirishi uchun informatsion materiallar taklif etish va h.k.). Barcha qarorlar talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinishi bois, intellektual tizim ta'lim jarayonining talaba uchun optimal tarzda kechishini ta'minlaydi.

Muloqot tizimchasi ilm oluvchi bilan individual tarzda va tarmoq rejimida ishlashda, masofadan turib o'qitish jarayonida o'zaro muloqotni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bu tizim talabaning shaxsini aniqlashga, uning o'qitish tizimchasidan bilimlar bazasidan, ma'lumotlar va o'quv-axborot materiallaridan foydalana olishini ta'minlashga qaratilgan. Talaba va tizim o'rtasidagi muloqot tushunish uchun qulay bo'lgan shakllarda va sodda tilda amalga oshirilishi lozim.

Ixtisoslik fanlarini o'qitishning intellektual tizimini amalga oshirish jarayonining umumiyo ko'rinishini quyidagi shaxma tarzida ifodalash mumkin: foydalanuvchining shaxsi

tasdiqlangandan keyin, uning tizimga kirish huquqi aniqlanadi, o'qitishni boshqarish tizimchasing moduli talabaning individual kartasining holatini tahlil qiladi, navbatdagi o'qitishning maqsadi, metodikasi va vazifalarini belgilaydi. Topshiriqlarini shakllantirish moduli tanlangan metodika va bilimlar bazasi ma'lumotlariga asoslanib, o'qitish vazifasini ishlab chiqadi. Talaba qo'yilgan vazifani bajaradi (nazariy materialni o'rganish, amaliy ishni bajarish, test, savollarga javob yozish va h.k.), bunda tizim bilan muloqot ta'minlanib turiladi, ya'ni talabaning ishi nazorat qilinib, kerak bo'lsa, yordam ko'rsatib turiladi. Natijalarni tahlil qilish moduli yo'l qo'yilgan xatoliklarni, sodir bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va talabaning individual kartasiga o'zgartirishlar kiritadi. Shu bilan o'qitish sikli yakunlanadi va tizim keyingi jarayon uchun tayyorlik holatiga o'tadi. Foydalanuvchining o'zi vazifani aniqlashi mumkin (ekranga nazariy materialning kerakli qismini yoki topshiriqni chiqarish, mavjud bo'lgan lug'atlar va manbalarga murojaat etish, individual kartani ko'rib chiqish va h.k.).

Ixtisoslik fanlarini o'qitishning intellektual tizimi talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, yopiq tizimda, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositasida, mustaqil, individual, jamoaviy va masofaviy shakllarda shaxsning kamolotiga yo'naltirilgan, aniq maqsadlarga qaratilgan ta'lim jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.


Ekspert tizimlari bugun bir necha mingdagi har xil dasturiy majmuallarni birlashtiradilar, ularni har xil mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin (3.1-rasm).

Har bir mezon bo'yicha tasnifni ko'rib chiqamiz. Echilayotgan vazifa bo'yicha tasnif.

Ma'lumotlarning interpretatsiyasi. Bu ekspert tizimlar uchun an'anaviy vazifalarning biridir. Interpretatsiya ostida ma'lumotlarning ma'nosini aniqlash tuShuniladi, uning natijalari kelishilgan va aniq bo'lishi kerak. Odatda ma'lumotlarning ko'p variantli tahlili ko'zda tutiladi.

Diagnostika (tashxis). Diagnostika ostida ba'zi bir tizimdagini nosozlikni topish tuShuniladi. Buzuqlik-bu me'yordan chetga chiqishdir. Bunday talqin ham uskunalar va texnik vositalarning nosozligi va ham tirik organizmlarning kasalliklari va ehtimol bo'lgan tabiiy anomaliyalarni yagona nazariy nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi. Diagnostikanayotgan tizimning vazifaviy tuzilishi (anatomiyasi)ni tuShunish zaruriyati muhim o'ziga xoslik bo'ladi.

Monitoring. Monitoringning asosiy vazifasi vaqtning haqiqiy qo'llashida ma'lumotlarni uzluksiz interpretatsiyalangan va u yoki bu o'lchamlarni yo'l qo'yiladigan chegaradan tashqariga chiqishi haqida xabar berishdir. Asosiy muammolar tashvishli vaziyatni "o'tkazib yuborish" va "yolg'ondan" ishlab ketishning inversli vazifasidir. Bu muammolarni murakkabligi tashvishli vaziyatlar alomatlar (simptom)larini emirilib ketishi va vaqt kontekstini hisobga olishning zaruriyatidan iborat.



3.1-rasm. Ekspert tizimlarining tasnifi

Loyihalashtirish. Loyihalashtirish oldindan belgilangan xususiyatlarga ega "ob'ektlar"ni tayyorlashga ixtisoslikni

tayyorlashdan iboratdir. Ixtisoslik ostida zaruriy hujjatlar rasm, izohli yozuv va x.k.ning butun majmuasi tuShuniladi. Bu erda asosiy muammolar - ob'ekt "haqidagi" bilimlarning aniq tarkibiy bayonni olish va "iz"ning muammosidir. Samarali loyihalashtirish va yanada ko'proq darajada qayta loyihalashtirishni tashkil qilish uchun nafaqat loyiha qarorlarini o'zini balki ularni qabul qilish sabablarini shakllantirish zarur. Shunday qilib loyihalashtirish vazifalarida tegishli ET doirasida bajariladigan ikkita asosiy jarayonlar: xulosalarni chiqarish jarayoni va izohlash jarayoni yaqindan bog'lanadi.

Bashoratlash. Loyihalashtirilayotgan tizimlar berilgan vaziyatlardan ehtimol bo'lgan oqibatlarni mantiqan keltirib chiqaradi. Loyihalashtirilayotgan tizimda odatda parametrik dinamik modeldan foydalaniladi, unda parametrلarning ma'nosi berilgan vaziyat ostiga to'g'rilanadi. Ushbu modeldan chiqarilayotgan natijalar ehtimollik baholarga ega bashoratlar uchun asosni tashkil qiladi.

Rejalashtirish. Rejalashtirish ostida ba'zi bir vazifalarni bajarishga qodir ob'ektlarga tegishli harakatlar rejalarini topish tuShuniladi. Bunday ETda rejalashtirilayotgan faoliyat natijalarini mantiqiy chiqarish uchun haqiqiy ob'ektlar xulqi modelidan foydalaniladi.

O'qitish. O'qitish tizimi qandaydir fanni EHM yordamida o'rganishda xatolarni diagnostikalaydi va to'g'ri qarorlarni aytib beradi. U gipotetik "o'quvchi" va uning o'ziga xos xatolari haqidagi bilimlarni jamlaydi, keyin ishslashda o'qiyotganlar bilimlaridagi kuchsiz joylarni diagnostikalash va ularni bartaraf qilish uchun tegishli vositalarni topishga qodir. Bundan tashqari ular bilimlarni uzatish maqsadida o'quvchining muvaffaqiyatlariga ko'ra o'quvchi bilan muloqot qilish hujjatini rejalashtiradilar. Umumiy holda, bilimlarga asoslangan barcha tizimlarni tahlil vazifasini echuvchi tizimlar va sintez vazifasini echuvchi tizimlarga bo'lish mumkin. Tahlil vazifalarining sintez vazifalaridan asosiy farqlari quyidagilardan iborat: agar tahlil vazifalarida ko'pchilik echimlarni sanash va tizimga kiritish mumkin bo'lsa, unda sintez vazifalarida echimlarning

ko'pchiligi potentsial tarkibiy qismlarining echimlaridan yoki muammo ostida quriladi.

Nazorat savollari:

1. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi nimalar asosida namoyon bo'ladi?
2. Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi haqida tushuntiring.
3. Identifikatorga foydalanuvchi haqida qanday ma'lumotlar beriladi?
4. Kodlangan matnni topish murrakabligini oshirish maqsadida tizimning IM ga qanday talablar qo'yiladi?
5. Parol(ing. password) bu-... ?
6. Jeton nima?
7. Himoyalash mexanizmlariga himalar kiradi?
8. Ekspert tizimlarning ishlatalish sohalariga misollar keltiring.

4. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHDA TAMOYILLARI

4.1. Ta'limni pedagogic dasturiy vositalari yordamida rivojlantirish

Ta'lim, shu jumladan oliv ta'lim muassasalari ta'lim darajasi va sifati mamlakat taraqqiyoti – uning iqtisodiyoti, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, mazkur yurtda yashaydigan insonlarning turmush darajasi, ijtimoiy yutuqlarini belgilaydi. Mamlakatimizda bo'lganidek eng yaxshi deb hisoblagan ta'lim darajasi aholining ijtimoiy, huquqiy hayot darajasi, kommunikatsion savodliligi, ta'lim olishga qiziqishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Ta'lim darajasi va sifati ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratigagina emas, balki, aynan ta'lim tizimining asoslariga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'limning rivojlanish yo'li fanlar sonining va o'rganiladigan mavzularning ortishi hisobiga olinadigan bilimlar bilan kengayishi mumkin. Fanlar sonini kengaytirish, talabalarga yuklamalarni ko'paytirish bilangina emas, balki o'qituvchi-pedagoglarning o'zları ta'lim berayotgan fanlariga har tomonlama va zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda saboq berishlari uchun ularning malakalarini oshirib borish ham muhim omildir.

Ta'limni rivojlantirishning - intensiv yo'li, birinchidan, ta'lim metodini o'zgartirishni, qo'shimcha bilim berish yo'llarini izlashni talab etadi. Axborotlar bilan mustaqil ishslashni bilish, topish, anglab yetish va nihoyat mavjud axborotlar asosida yangi bilimlarni uyg'unlashtirishni bilish, mana shu o'quv jarayonini rivojlantirishning eng istiqbolli yo'li bo'lishi mumkin. Mana shunday yondashuvda ta'lim olish jarayoni markazining tayyor, to'g'ri ma'lumotlar olish va ularni yodlab olishdan axborotni izlash, qayta ishlab chiqish va bir shakldan boshqa shaklga aylantirish ko'nikmalarini egallashga yo'naliш sodir bo'ladi. Zamonaviy talabalarning bilim olish manbalarini

kuzatadigan bo'lsak, unda o'qituvchi eng muhim manba bo'lib qeloyotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan ungagina muhim rol - o'quvchiga aniq bir fan bo'yicha bilim berish, klassifikatsiyalash, o'zgartirish tizimini berish roli yuklatiladi. Har bir fan bo'yicha mazmunli qadriyatli yo'naliшlar tizimini yaratish va o'quvchiga yetkazish - o'qituvchining eng asosiy funksiyasi hisoblanadi va shunday bo'lib qolmoqda.

Keyingi vaqtida, shaxsiy kompyuterlardan keng foydalanish bilan internet va maxsus o'quv kompyuter dasturlari orqali bilim olish keng rivojlanmoqda. Internet manbaidan olingan bilimlar ishonchligini baholashni talab qiladi. Axborot olish manbalariga ishonch masalasi o'qitishning an'anaviy metodlarida umuman muhokama qilinmaydi. Internet va ommaviy axborot vositalarining ta'lim tizimi, o'quvchi va o'qituvchilar dunyoqarashiga ta'siri haqida ko'plab fikrlar mavjud. Darslik va dasturlar mualliflarining, muxbirlar hamda sharhlovchilar va boshqalarning bilib yoki bilmay yo'l qo'yan kamchiliklari borliqni to'g'ri anglashda ta'sir ko'rsata oladi.

Turli axborot olish manbalarini haqiqiy o'quv jarayoniga kirish, ushbu bilim manbalariga ishonchni baholash, boshqa, yanada ishonchli manbalarni topa bilish talabalarning mustaqil ishslashga qiziqishlarining o'sishiga olib kelishi kerak. Turli manbaldandan olingan bilimlarni solishtirish va umumlashtirish, ularni ijodiy qayta ishlab chiqishni bilish ham juda muhim bo'lib hisoblanadi. Ba'zan bilimlar sinovi sifatida taklif etiladigan o'quvchining tanlangan mavzu bo'yicha referat tayyorlash o'rniغا (referat nima, uni yozish qoidalari, referatlar bilan to'g'ri ishslash uchun boshqa zarur ma'lumotlar muktab dasturi doirasida o'rganilmaydi) va oqibatda, odatda internetdan topilgan tayyor referatlarni oddiy ko'chirib olish sodir bo'ladi. O'z fikrini ifoda etish va bayon etish o'rniغا o'quvchi boshqalarning fikrlarini ko'chirib olib va anglab yetmagan holda o'zinikidek ko'rsatish bilan almashtiriladi.

Faqat turli axborot manbalarini bilan ishslash sohasida maxsus metodik ishlanmalar, shu jumladan, texnik vositalar

(kompyuter, televizor va boshqalar)da taqdim etilgan materiallar yordamida mana shu kabi muammolarning oldini olish mumkin. Ushbu yo'nalishda ta'lim bilan birlashtirilgan mediata'limga sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli maktab fanlari bilan birlashtirilgan mediata'limga standartini ishlab chiqish - katta axborot muhitida pedagoglar va talabalarni hayotga tayyorlashda katta, ahamiyatli hissa hisoblanadi. Mediata'limga maqsadlari quyidagi ko'rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o'rgatish; ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o'zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;
 - maktabdan tashqari axborotlarni umumiy tayanch ta'lim mazmunida fan sohasidagi bilim va malakalarda shakllantiriladigan tizimga kiritish;
 - talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.

Ushbu vazifalar ikki o'zaro bog'liq bo'lgan sohalarda tadqiqotchilik va amaliy ishlar: bir tomondan, mакtab dasturi fanlarini o'qitish sohasidagi metodik ishlar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi metodik ishlar olib borilishini ko'zda tutadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq vazifalar guruhi mакtab dasturi tayanch fanlaridan alohida ekanligi va texnik vositalardan to'g'rifoydalanish malakasinitalabetishitushunarli holdir. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va qo'llash zamonaviy mакtabda ta'lim samaradorligini oshirish muhim yo'llaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining va demak, ularni ta'minlash texnik vositalarining ahamiyatli roli, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tan olingan rivojlanishi omili sifatida va bunga shubha yo'q.

O'qituvchi va o'quvchi zamonaviy axborot texnik va texnologik imkoniyatlarini qayerda va qanday o'rGANishi kerak?

Ushbu masalalarini hal etishda «Informatika» fani asos bo'lib qolmoqda. Zamonaviy informatikaning roli va o'rnnini faqat hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishslash texnik vositalari va metodlarini o'zlashtirishdan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Umuman, informatikani texnik ta'minlashni faqat kompyuterlar bilan chegaralash to'g'ri emas. Zamonaviy dunyoning axborot muhiti boshqa texnik vositalardan, masalan, televizorlar va videomagnitofonlar, foto va videokameralar, telefon apparatlari va ko'plab boshqalar ham foydalanadi.

Texnika bilan ishlash qoidalarini, turli qurilmalarning o'qaro bog'liqliklarini va kompleks foydalanishni o'rganish, asborot bilan va uni qayta ishslash texnik vositalari bilan ishlashda huquqiy maydonini bilish - «Informatika» fanining uralmas qismi hisoblanadi.

Informatikaning rivojlanishi va uning metodlari hamda modellarining deyarli barcha maktab fanlariga asta-sekin ugyiy kirib borishi an'anaviy kurslar tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchining fan haqida tizimli tasavvurining «loyihachisi» sifatidagi roli qoladi va yanada ortib boradi, lekin shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlari hajmi ham ortib borishi kerak, bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida ishtirok etadi.

Talabalarning mustaqil ishlari texnika va tegishli texnologiyalardan ommaviy foydalanishni ko'zda tutadi. Shunda agar o'quvchi informatika mashg'ulotlarida turli manbalar va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologik qoidalari bilan ishlash tayanch ko'nikmalarini olsalar, fan o'qituvchisi ushbu masalalarni hal etishga e'tiborni kuchaytirishi kerak, «Pedagogik dasturiy vositalar» mashg'ulotida talabalarning o'lgan bilim va malakalarini o'z predmeti sohasida qo'llashi mumkin.

Shu tariqa, o'quvchi axborotni izlaydi, anglab yetadi, o'gartiradi; ko'plab texnika manbalaridan foydalaniib, hunday ishlarni tez, sifatli bajarish imkonini beradi; o'qituvchi talabalarning olgan bilimlarini umumlashtiradi, tizimlashtiradi, alarning ishlarini boshqaradi, yo'naltiradi, yordam ko'rsatadi,

tuzatib boradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni shunday tashkil etilganda, texnik vositalar mustaqil ahamiyatga ega bo'ladi, texnik vositalar uning to'la huquqli tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Texnik vositalardan foydalanish har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlashi va turli darajadagi murakkablikka ega topshiriqlarni ishlab chiqish, individual qobiliyati hamda tayyorgarligiga qarab bir mashg'ulot doirasida turli talabalarga taklif etishni ta'minlashi mumkin bo'ladi.

4.2.Texnik vositalar

4.2.1. Hisoblash texnikasining tarixiy evolyutsiyasi

Informatikaning vujudga kelish tarixiga nazar tashlasak, dastlab mexanik kompyuterlar yaratilgan.

1642 yilda Blez Paskal qo'shish amalini mexanik ravishda amalga oshiruvchi qurilmani ixtiro qildi, 1673 yilda esa Gotfrid Vilgelm Leybnits to'rt arifmetik amalni bajaruvchi mexanik qurilma arifmometrni konstruksiyasini yaratdi. XIX asrdan boshlab arifmometrlar juda keng masshtabda qo'llanila boshlandi. Bu qurilmada o'ta murakkab hisoblashlar ham amalga oshirilar edi, xattoki o'sha vaqtida "hisoblovchi - inson" deb nom olgan maxsus kasb ham mavjud edi. Bu kasb egasi berilgan instruksiya asosida topshirilgan vazifani arifmometr yordamida aniq va tez amalga oshirar edi. Lekin ayrim hisoblashlarning o'ta murakkabligi ulardan olinadigan natija uchun sarflanadigan vaqtning sekinlashuviga sabab bo'lgan. Bunday hisoblashlar uchun xafthalab, oylab vaqt sarflanar edi. Buning asosiy sababi, bu ko'rinishdagi hisoblashlarni amalga oshirish va natijalarini yozib borishni inson o'zi bajarayotganligidir.

1833 yilga kelib ingliz matematigi Charlz Bebbidj insonning aralashuvisiz, mustaqil ravishda hisoblashni amalga oshiruvchi universal hisoblash qurilmasi - "analitik mashina"ning proyektini yaratdi. Lekin, Bebbidj bu ishini oxiriga yetkaza


olmag'an bo'lsada, uning fikrlarini asos qilib olib, 1941 yilda nemis injeneri Kondrat Tsuze tomonidan analitik mashina yaratildi. 1943 yildan boshlab esa Amerikalik Djon Mochli va Prospera Ekerta rahbarliklari ostida dastlabki elektron lampali mashinalarning ixtirolari amalga oshirila boshlandi.

Keyinroq Mochli va Ekerta dasturni o'z xotirasida saqlaydigan yangi mashinaning konstruksiyasi ustida ish olib bordilar va bu ishga mashhur matematik Jorj fon Neymanni ham hamkorlikka chaqirdilar.

Birinchi elektron kompyuterlar AQSHning Pensilvaniya Universitetida 1946 yilda yaratilgan. Bu kompyuter ENIAC nomi bilan mashhur bo'ldi, uning hajmi juda katta bo'lib, og'irligi 30 tonna edi, ENIAC 18000 elektron lampadan iborat va 500 amalni 1 seknda bajarardi. (1940-1955y) Tarkibi elektron lampalardan iborat bo'lgan barcha EHMLar - birinchi avlod mashinalari deb nomlangan.

1955 yildan boshlab ikkinchi avlod EHMLari paydo bo'la boshlandi. Ulardan elektron lampalar o'rniga yarim o'tkazgichlar - tranzistorlar bilan almashtirilgan. Yangi avlod EHMLarining avvalgisidan afzalligi o'lchovi kichiq, elektr energiyasini kamroq talab qilganligidir.

Ammo, zamonaviy EHM arxitekturasi deb ataluvchi EHM tuzilishining asosiy prinsiplari qaror topguncha bir necha yillar o'tdi.



Bu prinsiplar buyuk matematik Jorj Fon Neyman tomonidan 1946 yilda asoslab berildi. Uning fikricha markaziy


protsessor xotirada saqlanayotgan dasturni boshqaradi. U ikki qismidan iborat bo'ladi -

- boshqaruv qurilmasi, ya'ni dastur buyruqlarini qabul qiluvchi va ularning bajarilishini ta'minlovchi;

- arifmetik-mantiqiy qurilma, faqat hisoblashlar uchun mo'ljallangan.


Undan tashqari "tezkor xotira" – doimiy saqlovchilardan markaziy protsessorga borish va qaytish yo'lida oraliq ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniлади. Bu oraliq ma'lumotlarni saqlovchi qurilma (bufer) operativ xotira deb ataladi. Huddi shunda fon Neyman kompyuterning asosiy funksional ishlash prinsiplarini tavsiflab bergan.

Elektron hisoblash mashinalari xozirgi kunda inson foydalananayotgan xolatiga kelguniga qadar bir qancha davrlarni bosib o'tgan va ular o'zlarining turli afzallik, kamchiliklari bilan farqlanganlar.




EHMning tuzilishi. SHEHMning asosiy qurilmalari

Shaxsiy Kompyuter (ShK) asosiy va qo'shimcha qurilmalardan tashkil topgan bo'lib, asosiy qurilmalarga quyidagilar kiradi (4.1-rasm):



4.1-rasm. 1. sistemali blok; 2. monitor; 3. klaviatura; 4. sichqoncha.



4.2-rasm. Sistemali blokning tuzilishi

Kompyuterning samaradorligini belgilovchi asosiy qurilma sanalmish sistemali blok o'z navbatida quyidagi ichki qurilmalardan tashkil topgan:

Protsessor (CPU) - ma'lumotlarni qayta ishlovchi va hamma hisob ishlarini amalga oshiruvchi qurilma;

Operativ xotira (DIMM, DDR) - kompyuter yoqilgan vaqtida bajarilayotgan dasturlarva ishlatilayotgan ma'lumotlarni vaqtincha saqlash qurilmasi;

Doimiy xotira qurilmasi yoki qattiq disk, vinchester (HDD) - ma'lumotlarni doimiy saqlash qurilmasi. Agar operativ xotiradagi ma'lumotlar kompyuter tok manbaaidan uzilishi bilan o'chib ketsa, doimiy xotiradagi ma'lumotlar esa aksincha saqlanib qoladi;

Videoplate - bu qurilma monitorga tasvirlarni uzatish uchun xizmat qiladi, ya'ni tasvirlarni hosil qiladi.

Zvukoplate - tovush, ovoz, musiqani hosil qiluvchi qurilma.

Disk yurituvchi qurilma, diskovod (FDD) - egiluvchan magnit disklardagi (disketadagi) ma'lumotni o'qish va unga ma'lumot yozish qurilmasi;

CD-ROM disk yuritish qurilmasi - kompakt (lazer) disklardagi ma'lumotlarni o'qish qurilmasi;

Ona plata (Mainboard)- yuqoridagi qurilmalarni birlashtiruvchi asosiy plata.

Bundan tashqari tizim blokiga qo'shimcha vinchester, disk yuritish qurilmasi, operativ xotira, kompakt disklarga yozish qurilmasi (CD-Writer), ichki modem, lokal kompyuter tarmog'iga ulanish qurilmasi (tarmoq platasi), va boshqa qurilmalar joylashtirilishi mumkin.

Doimiy xotira qurilmalari va disk yurituvchilarining mantiqiy nomlari mavjud bo'lib, ular doimo lotin harflari bilan belgilanadilar.

Kompyuter yoqilishi bilan quyidagicha qurilmalar nomlana boshlaydi:

A: - 3,5 dyuymli disketalarni o'quvchi qurilma;

B: - 5,25 dyuymli disketalarni o'quvchi qurilma, agarda


mavjud bo'lsa;

C, D, E,... - qattiq diskning mantiqiy nomlari;

Qattiq diskning nomidan so'ng kompakt disklarni o'quvchi qurilma nomi (CD-ROM), so'ng boshqa qurilmalar (flo-disk, CD-R,...) nomlanadi.


Kompyuter imkoniyatlarini oshirish maqsadida unga turli qo'shimcha qurilmalar ulanishi mumkin. Bu - printer, "siehgoncha", modem, skaner va xokazolardir.

Har bir qurilma protsessorda joylashgan mos ulagichga ulanadi yoki o'rnatiladi. Qo'shimcha qurilmani ulashdan avval kompyuterni o'chirish zarur, aks holda kompyuter ishdan chiqishi mumkin. Quyida ular to'grisida batafsil ma'lumot beriladi.



Printer - ma'lumotlarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma. Barcha printerlar matnli ma'lumotlarni ko'pchiligi esa rasm va grafiklarni ham qog'ozga chiqaradi. Rangli tasvirlarni chiqaruvchi maxsus printerlar ham bor.


Printerlar quyidagi turlari mavjud: ignali, siyohli va lazerli.



Hewlett-Packard CM8060 Inkjet Printer




Plotter - murakkab va katta hajmdagi chizmalarini qog'ozga chiqaruvchi qurilma. Plotterlar 2 xil bo'ladi -barabanli va planshetli. Barabanli plotter, rulonli, planshetli plotter esa varaqli qog'ozga chizmalarini chiqaradi. Plotterlar asosan chizma loyihalarini avtomatlashtirishda foydalaniлади.




3D-printerlar - 3D kompyuter modelini 3 o'lchamli shaklda tasvirlab chop etish uchun ishlataladi. 3D modelning kesim shaklida chop etish uchun inkjet chop qilish tizimini ishlataladi. So'ngra kukun ob'ektning bir qatlamini shakkantirish uchun sachratish yordamida tasvirni tayyorlaydi. Bu jarayon ob'ekt to'la chop etilmaguncha davom etadi. 3D chop etish odatda aviakosmik kompaniyalar, avto tayyorlov va boshqa intensiv loyihalash kompaniyalarida qo'llaniladi.

«Sichqoncha» - kompyuter bilan foydalanuvchi muloqotini yengillashtiruvchi manipulyator. "Sichqoncha" stol yoki maxsus yuzada harakati natijasida ekrandagi kursorni mos ravishda harakatlantiradi. menyuning birortasini bajarish uchun "Sichqoncha" mos tugmachasi bosiladi. Ba'zi bir amaliy dasturlar faqatgina "Sichqoncha" bilan ishlashga moslashgan.

Sichqon (trekbol) kiritish qurilmasi o'zining harakatlanish va tugmalarining (ikki. Uch va undan ortiq) bosilish haqida tizimga ahborot uzatib turadi. Bu qurulma kompyuterga ahborot kiritishni osonlashtiradi. Asosan tasvirliy ahborotni.



CD ROM - kompakt disklardan ma'lumotlarni o'qish imkonini beradi. Bu kompakt disklar ishonchliroq, 650 Mbayt hajmdagi ma'lumotni saqlaydi.



Kompakt disk CD-ROM qurilmaga joylanadi. CD-ROM-qurilmani ilki turi mavjud; oddiy va ahborotlarn yozish uchun. Agar shahsiy kompyuteringizga oddiy CD-ROM-qurulma o'rnatgan bo'sangiz, siz faqatgina kompakt-disklardan qattiq disk (vinchester)ga ahborotlarning ko'rib olishingiz mumkin, balki ahborotlarning qattiq disk vinchestordan kompakt-diskka yozib olishingiz ham mumkin. Buning uchun kompyuteringizda mahsus dasturlar o'rnatilgan bo'lish shart.

Skaner - Kompyuterga matnli yoki tasvirli ma'lumtolarni tasvirliy ravishda kirituvchi qurilma. Skanerlar 2 xil bo'ladi;

avtomatik va avtomatik bo'lмаган. Birinchisi ma'lumotni varaqlab o'qiydi, ikkinchisi satrlab, buning uchun skanerni kerakli satrga qo'l bilan surib turish kerak.




Multimedia - Kompyuter yordamida musiqa ijro etilishini ta'minlovchi qurilma. Odatda u kolonka va mikrofon bilan birgalikda sotiladi. Uning yordamida musiqani tahrirlash inson nutqini yozib olish mumkin.


Modem - telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumot almashuvini ta'minlaydi. Modemlar ma'lumot uzatish tezligi bilan farqlanadi.




Trackball - sichqoncha kabi, shar shaklidagi manipulyator. Sharni aylantirish natijasida mos ravishda ekranagi tasvir ham suriladi.



Tarmoq adapteri - Kompyuterni mahalliy tarmoqqa ulash imkonini beradi.



USB-yig'gich
BU safar so'z yangi qurilmalar haqida boradi. Ular qattiq jismonli flash hotiraga yig'ishlar bolib, USB interfleyslidir.



fleshka - Bu hotira qurilmasi uncha katta tezlikka ega bo'lмаган ham elektr manbaadan uzilganda so'ng axborot va

ma'lumotlarni saqlab qolish imkoniga ega. Hozirda bunday qurilmalar qimmat bo'lsa ham lekin texnologiyalar doim takomillashuvi tufayli ularning narxi pasayishdan xoli emas. Flash hotira formasi va o'lchamlarri bilan jajigalka yoki xushtakni eslatadigan ko'rinishga ega. Konustruksiyasiغا ko'ra qalpoqchasi va svetioddan iborat. Svetiod ichki simidan joylashgan bo'lib, uni ish harakatidan darak berib turadi. Agar qurilma ulangan bo'lsa svetiodiod yonib turadi, turadi o'chgan bo'lsa ish holati yakunlanganini ko'rsatadi bemolol shahsiy kompyuterdan uzib qo'yish mumkinligini bildiradi.

Bu qurilma hotira hajmi 128-mg, 51 mg, 1gb bo'lishi mumkin.

Bunday qurilmalardan axborot yozish man etuvchi tugmachalar bo'lishi extimoldan xoli emas.

Telvizion tyunerlar

TV-tyunerlar odatta kengaytirish platasi yoki tashqi qurilmalar bo'lib, yuqori chastotali kabel signallarini yoki antenna signallarini hamda pas chastotali analogli video magnitafon yoki video kamera video signallarni monitor tasviriga aylantirib beruvchi qurilmalardir.



TV-tyunerlar komplektiga tizimli masofadan turib boshqarish kanalarga o'tish taymer o'ratish sozlash imkoniga ega windows uchun dastur taminoti kiradi.

4.2.2. Interfaol texnik vositalar va ularning tahlili


Kompyuter va mobil qo'rilmalar bilan birgalikda, ta'lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o'qitish texnik vositalari keng qullanib kelmoqda. Interfaol vositalar yordamida, yangi maydoni o'rganishda, talabalar bilimini mustahkamlashda va tekshirishda, grafika, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yaratilgan mul'timedia mahsulotlaridan maksimal darajada unumli foydalanish mumkin. Bunda bilim olish jarayoni qiziqarli va kreativ tus oladi.

Quyida zamonaviy o'qitish texnik vositalarini urganib chiqamiz.




Activeboard (interfaol doska) bu - kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta'lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o'zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta'minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi.

Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishechi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Ya'ni, elektron qalam yordamida kompyuterning grafik interfeysi boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish va h.k. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo'shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo'yish yoki tashqi axborot tashuvchi vositalarga ko'chirib olish mumkin. Interfaol doska maxsus elektron qalam orqali, shuningdek qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin, bu interfaol doskanining qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi. Bunda, maxsus elektron qalam yoki qo'l barmoqlari kompyuter sichqonchasi kabi ishlaydi.



Ta'lim jarayonida interaktiv doskadan ikki rejimda foydalanish mumkin: birinchi rejimda elektron qalam faqat kompyuter sichqonchasining vazifasini bajaradi, ikkinchi rejimda esa u maxsus dasturiy ta'minotning barcha uskunalarini vazifasini bajaradi (masalan - oddiy qalam, marker, mo'yqalam, o'chirgich, qaychi, lupa va boshqalar). Elektron qalamning doska yuzasidagi holati va harakatlariga oid ma'lumotlar elektron doskadan USB kabel orqali kompyuterga uzatiladi va ushbu ma'lumotlar qayta ishlanib elektron qalamning harakatiga mos amallar bajariladi.

Interfaol qurilma – bu proektsion doskaga (magnitli doska, marker doskasi, sind doskasi, sind devori) yoki proektorning o'ziga o'rnatiladigan va har qanday tekis, silliq ishchi yuzani interaktiv holatga keltiradigan elektron qurilmadir. Ular uchun alohida maxsus doska talab etilmaydi.



Interaktiv qurilmalar tarkibiga qurilmaning o'zi, ya'ni maxsus elektron qalamdan chiqayotgan signalni qabul qiluvchi moslama, ushbu qabul qiluvchi moslamaga infraqizil yoki

ultratovushli signallarni yuboruvchi elektron qalam, interaktiv qurilma va kompyuterning o'zaro aloqasini ta'minlovchi USB kabeliyoki simsiz qabul qilgich uskunasi, dasturiy ta'minot vositalari kiradi. Ular infraqizil yoki ultratovushli texnologiyalar asosida ishlaydi.

Interaktiv qurilmalar bajaradigan vazifasiga ko'ra interaktiv doskalarga to'liq mos keladi. Lekin, ulardan farqli ravishda mobil qurilma hisoblanadi. Ixcham va yengil bo'lganligi uchun ularni birxonadan ikkinchisiga tez olib o'tib o'rnatish mumkin, bu o'z navbatida bunday qurilmalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Darsdan keyin esa interaktiv qurilmani yig'ishtirib mas'ul xodimga topshirish yoki o'qituvchilar xonasidagi belgilangan maxsus joyga olib qo'yish mumkin.

Interaktiv qurilmalar kompyuterga to'g'ridan-to'g'ri USB kabel orqali yoki simsiz qabul qilgich uskunasi yordamida olinishi mumkin. Interaktiv rejimda, o'qituvchi, huddi interaktiv doskadagi kabi keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Hususan:


- * kompyuterni doska oldida turib boshqarish imkoniyati: Microsoft Office dasturlari bilan ishlash, dars jarayonini oldindan tayyorlangan taqdimotlar, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar bilan nomoyish etish;

- * interaktiv qurilma dasturiy ta'minotining uskunalarini yordamida ekranidagi tasvir ustiga yoki yangi varaq (slayd) ustiga chizish, bo'yash, rasm solish, yozish, tayyor ob'ektni o'rnatish, ob'ektlarni kattalashtirish, kichiraytirish, boshqa joyga ko'chirish, ma'lum bir qismini belgilash imkoniyatlari;

- * doskada bajarilgan ishlarni fayl ko'rinishida kompyuter sotirasida saqlash yoki doskada amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarni videofayl formatida yozib olish;

- * o'zining shaxsiy interaktiv dars ishlanmalarini yaratish, bunda interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minot kutubxonasiidagi mavjud shablon va tasvirlardan foydalanish;


- * interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minoti tarkibiga kiruvchi tasvirlar kutubxonasiini o'zi tayyorlagan yangi materiallar bilan boyitib borishi va boshqa imkoniyatlar.



ActiveTable (interfaol stol) – o'z aktiv yuzasiga ega qurilma sanaladi. Unga foydalanuvchi talabidan kelib chiqib dasturiy ta'minotlarni yuklab olish mumkin. Bu ta'lim olish, ta'lim berish va turli xil tadbirlar uchun zamonaviy uskunadir. Bu uskuna kishilarda kuchli va qiziq shaklda aks ettirilgani tufayli kuchli taassurot tug'diradi. Bu stolni didga ko'ra 32 dan 55 dyungacha razmerlarda tanlash mumkin.

Interaktiv stolning barcha turlari aviatsion alyuminiyidan qilinadi va sensorli yuza 6 mm qalinlikdagi shisha bilan qoplanadi. Interaktiv stolning eng muhim komponenti yorqin sensorli ekran sanaladi. Multitach ekran hattoki yorug'likda ham a'lo darajada ko'rishni ta'minlaydi. Barcha modellarida kuchli quvvatlagich o'rnatilgan bo'lib, musiqaning va ovozli xabarlarning baland ovozda va ravshan eshitilishini ta'minlaydi. Bu stolning ishga tushirilishi juda ham oddiy bo'lib, yon tomonida joylashgan tugmacha orqali yoqish va o'cherish amallari bajariladi. Ushbu turdag'i stolning bolalar uchun mo'ljallangan turlari ham mavjud bo'lib, unga ko'plab rasmlarni o'rnatish va bir vaqtning o'zida 4 ta o'rganuvchi foydalanishi mumkin.

Interfaol proektor - bu – o'zida interaktiv doskaning imkoniyatlarini mujassam etganproektordir. Bunday proektorlar uchun alohida maxsus doska sotib olish talab etilmaydi, tasvirlar proektsiyasi oddiy sinf doskasiga, marker doskasiga yoki sinf devoriga ham tushirilishi mumkin. Oddiy proektordan farqli ravishda interaktiv proektorlar kompyuterdan tegishli signallarni qabul qilib tasvirlarni ekranga namoyish qilish bilan bir qatorda, elektron qalamning ekrandagi joriy holati va harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ham aniqlab kompyuterga yuboradi va kompyuter bilan ikki tomonlama aloqani o'rnatadi.



Overhed-proektor - A4 formatli shaffof plenkalarga qayd etilgan tasvirlarni yoritib berishda foydalilanadi. Oqirligi va hajmiga qarab, apparatlar portativ, yarim-portativli va ko'zg'almas modellarga bo'linadi. Portativli overhed-proektorlari 7 kg oshmaydigan yig'ma tuzilishga ega. Oddatda, bunday modeldagilar oson yig'ilishi bilan juda qulay bo'lib, ko'chirish uchun mahsus jamlanish sumkachalar to'plamiga ega. Odatda qo'zg'almas overhed-proektorlari 8 kg dan 17 kg gacha og'irlikda bo'lib, auditoriyada doimiy ravishda o'rnatilib qo'yishga mo'ljallangan. Modellerdag'i proektsiyalashni umumiy hisusiyatlarga ko'ra overhed-proektorlari nur o'tqazuvchi va surʼi o'zida aks ettiruvchi turlarga bo'linadi.

Hujjat-kameralar - uncha katta bo'lмаган, vizual tasvirni yoritib beruvchi fotosurat, slaydlar, hujatlarni asl nushasini elektron tasvirini tez fursat ichida namoyon qilib beruvchi oddiy qurilma.

Tuzilishi jihatidan: mahsus sharnirda yoki «egiluvchan bo'yin» aylantirish imkonи bo'lgan miniyatyrulari kamerali boshchadan iborat. Videokonferenciylar vaqtida, kamerali boshchasiga bevosita mikrofon o'rnatiladi, bunday o'chamlarda rang muvozanatlantiruvchi avtomatik ravishda amalga oshiriladi, tasvirni keskinligini oshirish ho'lda bajariladi. Boshlang'ich darajali kameralarda 5 ta videosignal va kompozit chiqish mavjud. Bazi modellar foydalanish qo'llamini kengaytiruvchi: mikroskoplar, 35-mm slaydlar

uchun adapterlar to'plamlaridan iborat. Murakkab tuzilgan hujjat-kameralarida mahsus funkciya ko'zda tutilgan bo'lib, rang muvozanatlantiruvchi ham avtomatik ravishda ham ho'lda amalga oshiriladi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda va bizning fikri ojizimizcha, mamlakatimizdagi ta'limgarayonida innovatsion usullarni tezkorlik bilan va keng miqyosda tadbiq qilishni amalga oshirish uchun zudlik bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Ta'limgazirliklari qoshida interaktiv elektron kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalari va alohida fanlar bo'yicha masofaviy ta'limgurslari tayyorlash bo'yicha respublika ishchi kengashini (tashkilotini yoki kompaniyasini) tashkil qilish va uning zimmasiga respublika miqyosida zamonaviy hamda sifatli interaktiv elektron kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalarni hamda masofaviy ta'limgurslarini (platformalarini) tayyorlash vazifalarini yuklash;

- Bu ishga majburiy tarzda mamlakatda informatsion texnologiyalar tadbipi bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlarni, ta'limgazirliklari, muassasalarini, kompaniyalarini va yetakchi universitetlarni jalg qilish;

- Vazirlar Mahkamasi yoki Prezident Devoni qoshida eng malakali mutaxassislarini jalg qilgan holda bu ishlarni muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhini (yoki Kengashni) tuzish;

- Barcha ta'limgazirliklari uchun interaktiv elektron kitoblar hamda o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish va ularidan foydalanish ustivor vazifa ekanligini talab qilish;

- Chet ellarda ishlab chiqilgan va aprobatiyadan o'tgan hamda biz uchun muhim bo'lgan interaktiv o'quv qo'llanmalar, elektron kitoblar, ta'limgazirliklari oid kompyuter o'yinlari, masofaviy ta'limgazimlari va saytlarni o'zbek tiliga o'girib, ularni mahsus respublika fondiga jamlab, internetdagi mahsus portalga joylashtirish hamda barcha ta'limgazirliklari foydalanish uchun tarqatish;

- Har yili ommaviy axborot vositalarini keng jalg qilgan holda eng yaxshi interaktiv kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalar,



ishgatushirligani masofaviy ta'limgazirliklari hamda ta'limgazirliklari bilan bog'liq kompyuter o'yinlari tanlovini o'tkazish;


- O'zbekistondagi turli sohalarda o'rta mahsus va oliy ta'limgazirliklari istagan fuqarolarning ishdan ajralmagan holda ta'limgazirliklari imkon beradigan masofaviy ta'limgazimlari yaratish va ishga tushirish. Bu - birinchidan, barcha ta'limgazirliklari istovchilar uchun teng imkoniyatlar yaratса, ikkinchidan, ta'limgazimlari uchun sarflanayotgan mablag'larni ancha hamaytirishgaimkon beradi va uchinchidan, davlat tomonidan sarf-harajat talabqilmaydigan juda ko'p ish joylarini yaratadi;

- Respublika Test Markazi o'tkazadigan testlarni ham interaktiv usullar vositasida himoyalangan onlayn ko'rinishda tashkil qilish ham ta'limgazirliklari muassasalariga qabul qilinayotgan abituriyentlarning sifati ancha oshishiga ko'mak bergen va holistikni ta'minlangan bo'lar edi;

- Interaktiv kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalarini va masofaviy ta'limgazimlari yaratib, ularni ishga tushirganlarni yaxshilab moddiy va ma'naviy taqdirlash ham ularning sifati va soni o'sishiga ta'sir qilgan bo'lar edi.

O'qitishning texnik vositalari - didaktik ta'minlangan barcha texnik qurilmalar, optimalik bilan axborotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan va o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun qo'llaniladi.






O'qitishning texnik vositalari - ikkita tushunchaga ega: texnik qurilmalar (apparat) va o'qitishning didaktik vositalari (axborotlarni ifodalash), Ingliz tili manbalarida O'TV nomi audiovizual vositalar, ba'zan qattiq (hardware) va yumshoq (softvare) ifodalanadi.

Audiovizual vositalar. Qattiq (hardware)



Magnitofon



Proektor



Televizor




Kompyuter


Audiovizual sredstva.Yumshoq (softvare)




magnit lenta



magnit va Optik disklar



kinofilmlar



Gramplastinka axborotlarni ifodalash O'qitishning texnik vositalarining tasnifi

O'qitishga oid axborotlarni uzatishning texnik voitalari, bilimlarni nazorat qilish, o'qish va mustaqil o'qish, trenajyor, ko'makchi, kombinatsiya qilingan.

4.2.3. O'qitishga oid axborotlarni uzatishning texnik voitalari

O'qitishga oid axborotlarni uzatishning texnik voitalari: diaproektorlar, grafoproektorlar, epiproektorlar, magnitofonlar, radioqurilmalar, musiqiy markazlar (audiosistemalar), proigrivatellar, radiouzllar, kinoproektorlar va kinoustanovka, televizorlar, videomagnitofonlar, SHEHM va boshqalar.

Ba'zi chet el pedagoglari o'quv jarayonida o'qitishning texnika vositalaridan keng ko'lamma foydalanish o'qituvchining mashina va uni boshqaruvchi muhandis bilan almashtirilishiga olib boradi, deb hisoblaydilar. Bunda o'qituvchi tashkilotchi rolini bajaradi, o'qitish vazifasi esa texnika vositalariga

yoldanadi. Ammo o'qitish jarayonida faqat bilim berilibgina ko'may, o'qituvchi shaxsining murakkab ta'siri amalga oshiriladi buki, buning natijasida o'quvchining dunyoqarashi, xulq - atrov normalari shakllanadi, shaxsning kamol topishi sodir bo'ladi. Bunga esa o'qituvchining ishtirokisiz erishib bo'lmaydi: uning axloqiy prinsiplari chuqur bilimlar hamda keng saviya bilan birgalikda har gal takrorlanmaydigan intelektual aloqaning shunday sharoitini yaratadiki, bunday sharoitsiz akbat natijada o'qitish va tarbiyalashda muvaffaqiyat qozonish mumkin bo'lmaydi.

Darslarda yangi materialni bayon etishda o'qituvchi go'ya eshittirib fikrlaydi, bunda u o'quvchilarga bilim beribgina qolmasdan, ularga mantiqan fikrlash, fan muammolarini hal qilishga ijodiy yondoshish o'quvlarini singdiradi. O'qituvchi o'quvchilar uchun bilimlar manbai va o'quv jarayonini rasbarigina emas, balki taqlid qilish uchun namuna hamdir. O'qituvchini o'qitishning texnika vositalari bilan almashtirish o'quv jarayonida juda muhim narsani – o'quvchiga pedagog shaxsing ta'sirini chiqarib tashlaydi, bu esa o'quv jarayonini juda kambag'allashtirib yuboradi. Barcha texnika vositalarining, shu jumladan, o'qitish mashinalarining ham imkoniyatlari cheklangan – ular faqat o'qituvchining o'quvchilarga ko'resatadigan ta'sirini oshiradigan quroldir.

Kasb – hunar maktablarida yuqori malakali usta va o'qituvchilar, boy texnikaviy imkoniyatlar, o'quvchilarning texnikaviy ijodiyoti keng rivojlanganligi tufayli o'quv xonalarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashga, bu vositalarni biliim yurtlarida tayyorlashga, sanoatda ishlab chiqarilgan texnika vositalarini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Xonalarni o'qitishning texnika vositalari bilan jisozlashda quyidagi asosiy texnikaviy-pedagogik talablarga samal qilish kerak:

1. O'quv kabinetlarini o'qitishning texnika vositalari bilan jixozlashda o'quv jarayonida ulardan kompleks tarzda foydalanishini hisobga olishi zarur.

2. O'quv xonasining istagan joyida ko'rish va eshitish

uchun yaxshi sharoit ta'minlash lozim.

3. O'quv xonalarida o'qitishning texnika vositalari ishlataliganda shovqin manbalarini yo'qotish kerak.

4. Barcha texnikaviy qurilmalar puxta va buzilmay ishlashi darkor.

5. Texnika vositalarining tuzilishi va ishlatalishi oddiy bo'lishi kerak.

6. O'qitishning barcha universal va maxsus texnika vositalaridan birgalikda oqilona foydalanish lozim.

7. Ishlatilishi iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lishi zarur.

O'quv kinosi - o'qitishning eng ko'p tarqalgan texnika vositosi bo'lib, ob'ekt hamda xodisalarni harakatda va rivojlanishda namoyish qilishga, materialni tekshirish va umumlashtirishga, shuningdek, aniq idrok etishdan abstrakt idrok etishga o'tishga imkon beradi. O'quv filmidan o'qituvchi o'quv materialini bayon etishida illyustratsiya sifatida, shuningdek, o'quvchilar uni mutaqil o'rganishi uchun foydalanishi mumkin.

Film bilan ishlashning so'nggi bosqichida o'quvchilar savollar berishiga imkoniyat yaratish kerak. Javob qaytarishga film materialni yaxshi bilib olgan o'quvchilarni jalb etish lozim.

Diafilm va diapozitivlar, o'quv kinosi kabi, ko'rsatmalilik vositosi hamda o'quvchilar bilimlarining dastlabki manbai bo'lishi mumkin. Ko'pincha diafilmdan ko'rsatmalilik vositosi sifatida foydalaniladi, bu holda yassi ko'rsatma qo'llanmalarga qanday talablar qo'yilsa, diafilmlarga xam shunday talablar qo'yiladi. Diafilm va diapozitivlarga qo'yiladigan o'ziga xos talablardan quyidagilarni ko'rsatib o'tish kerakki, kasb-hunar mакtablarida ularni tayyorlashda bu talablarni hisobga olish zarur:

□ diafilm va diapozitivlarning mazmuni, avvalo, tasvirlash yo'li bilan berilishi kerak;

□ subtitrlar (bayonlar, tushuntirish yozuvlari) o'quvchilar ko'zini charchatmasligi lozim;

□ rangli diafilmlardan rang didaktik masalalarni hal

qilishga yordam bera olgan taqdirdagina foydalanish darkor; □ qora oq tasvirdagi diapozitivlar seriyalarini komplektlashda ularga rangli diapozitivlar kiritgan ma'qul.

4.3. Didaktik vositalar

4.3.1. Didaktik vositalar to'g'risida umumiyl tushunchalar

O'quv-metodik ta'minot - o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi. Bunda asosiy o'rinn darslik va o'quv qo'llanmalariga ajratilgan. Qolgan o'quv-metodik ta'minot asosiy darslik bilan yaqindan bog'langan bo'lib, darslikdagi g'oyalarni tushuntirish va rivojlanti-rishga xizmat qilishi lozim.

O'quv-metodik majmua - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali hujayidan iborat majmua.

Darstik — davlat ta'lrim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lrim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik sususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik — davlat ta'lrim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lrim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik sususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yoki xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim. Shu holdagina o'quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxish insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan boshlangan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta'riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muhuquqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lmoqi zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

O'quv qo'llanmalar - bu darslikni to'ldiruvchisidir. O'quv qo'llanmalar fanni to'liq qamrab olmasligi, ya'ni aynan bir qismini (bir nechta bo'limini) qamrab olishi mumkin. Darslikdan farqli ravishda o'quv qo'llanmalarda nafaqat aprobatsiyadan o'tgan, umumiylab qabil qilingan bilim va qoidalarni, balki u yoki bu muammoni hal qilishga doir turli fikrlar kiritilishi mumkin. O'quv rejaga yangi fan kiritilganda dastlab o'quv qo'llanmalar yaratiladi. Darslik odatda o'quv qo'llanmalar aprobatsiyalari bazasida yuzaga keladi.

O'quv qo'llanmalar - bu darslikni to'ldiruvchisidir. O'quv qo'llanmalar fanni to'liq qamrab olmasligi, ya'ni aynan bir qismini (bir nechta bo'limini) qamrab olishi mumkin. Darslikdan farqli ravishda o'quv qo'llanmalarda nafaqat aprobatsiyadan o'tgan, umumiylab qabil qilingan bilim va qoidalarni, balki u yoki bu muammoni hal qilishga doir turli fikrlar kiritilishi mumkin. O'quv rejaga yangi fan kiritilganda dastlab o'quv qo'llanmalar yaratiladi. Darslik odatda o'quv qo'llanmalar aprobatsiyalari bazasida yuzaga keladi.

Didaktik materiallar - bu fanni o'qitishda foydalaniladigan tarqatma materiallar, modellar va maketlar, ko'r-gazmalardir.

Didaktik materiallar - bu fanni o'qitishda foydalaniladigan tarqatma materiallar, modellar va maketlar, ko'r-gazmalardir.

O'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarqatma materiallarga: kartochkalar, savolnomalar, yarqonomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni fashil etish bo'yicha texnologik xaritalar va xokazolar kiradi.

4.3.2. Didaktik vositalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi

Ta'limnitog'ritashkiletishning asosiy komponentlaridan biri bu didaktik vositalar hisoblanadi.

Didaktik vositalar - bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihatlar, kompyuterli vositalar va texnik vositalar, asbob - uskulalar va mahsulotlardir.

Didaktik vositalarni turlari:

- o'rgatuvchi didaktik vositalar - o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- test didaktik vositalar - egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llanildi;
- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi didaktik vositalar.

Fanlardan yaratiladigan didaktik vositalarga qo'yiladigan talablar:

1. Didaktik vositalar - o'quv materialini taqdim etishning tushunarli, obrazli va harakatli komponentlarining o'zarobog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Didaktik vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zarobog'liqligining hisobga olinishi.

3. Didaktik vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni

amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi
(M: Taqdimot).

O'quv-metodik ta'minotning hozirgi davrdagi muhim bir bo'lagi bu, elektron o'quv-metodik materiallardir. O'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiysi, an'anaviy materiallardan foydalanish-dan tashqari, quyidagi elektron o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

O'quv-metodik ta'minotning hozirgi davrdagi muhim bir bo'lagi bu, elektron o'quv-metodik materiallardir. O'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiysi, an'anaviy materiallardan foydalanish-dan tashqari, quyidagi elektron o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

- elektron ma'lumotnomalar;
- elektron o'quv qo'llanmalar;
- elektron darsliklar;
- elektron ensiklopediyalar;
- elektron plakatlar;
- elektron laboratoriya ishlari va hokazo.

Vizual taqdimot nima uchun kerak?

- Muloqotni yaxshilash uchun;
- Vaqt ni tejash uchun;
- Motivatsiyani oshirish uchun.

Taqdimotning afzalliklari:

- Ko'rgazmalilik;
- Motivatsiya;
- Tizimlilik;
- Samarali natija;
- Takdimotching vazifalari;
- Ma'ruba tayyorlash;
- Auditoriyaga yetkaza olish;
- Ta'lim vositalarini to'g'ri qo'llay olish.

Taqdimot maqsadi:

- Diqqatni to'plash;
- Qiziqtirish;

* Ishontirish!

Taqdimotni olib borish qoidalari:

- Kiyinish madaniyati;
- Taqdimotning boshlanishi va yakuni;
- Nutqi (so'zlash usuli, ritorika);
- Harakat bilan ifodalash (jestikulyatsiya);
- Ta'lim vositalarini to'g'ri qo'llay olish;
- Vaqt taksimoti.

Taqdimotni olib borish qoidalari:

Sizga HECH QACHON ikkinchi imkoniyat berilmaydi
(t-darsingiz);

- Tinglovchilarda ilk ijobiy taassurot qoldirish uchun;
- "Taqdimotni jozibali boshlang va yakunlang";
- Taqdimotni olib borish qoidalari;
- Muhimi;
- Nima gapirliganda emas;
- Nima tushunganlikda;
- Berilayotgan materialni qisqa va lo'nda bayon eting;
- Misol keltiring va taqqoslang;
- Muhim ma'lumotlarni takrorlang;
- Muhim ma'lumotlarni takrorlang;
- "Men" dan ko'ra "Biz" so'zini ko'proq qo'llang;
- Slaydlarni o'zgartirayotganda izoh berib boring;
- Auditoriya bilan vizual aloqani yo'qotmang;
- O'zingizni ishonchli va erkin tuting;
- Harakatlaringizni maromida va qo'llaringiz old
tomonda erkin bo'lsin;
- Taqdimot qilayotganda bir joyda turib qolmang;
- Auditoriyaga teskari turmang;
- Auditoriya diqqatini ko'rgazmalarga yo'naltiring.

Nutq so'zlash qoidalari:

- Ravon nutq;
- Nutq tempiga e'tibor berish;
- Ovozni baland-past pardalarda o'zgartirib turish;
- Auditoriyaga qarab gapirish;
- So'z bo'g'inlarini to'liq talaf-fuz qilish.

Taqdimotni olib borishda texnik vositalardan foydalanish qoidalari:

- Ekranda proeksiya tushishini tekshiring;
- Proektor ishlashiga halaqit bera-digan narsalarni olib qo'ying;
- Auditoriya diqqatini ko'rgazma-larga maqsadli yo'naltiring;
- Ekranga qarab tasvirlangan matn-larni o'qimasdan, o'z so'zlarining bilan ifodalashga harakat qiling.

Taqdimotni olib borishda texnik vositalardan foydalanish qoidalari:

- Xonaning sharoiti va texnik vositalarning sozligini tekshiring;
- Taqdimot uchun mo'ljallangan dasturlardan foydalaning;
- Texnik nosozliklarga har doim tayyor turing;
- Taqdimot jarayonida ekrandan emas, kompyuter monitoridan foydalaning.

Taqdimotda vaqt taqsimoti:

- Taqdimot uchun ajratilgan vaqtning oldindan aniqlab oling;
- Ajratilgan vaqtning nazorat qilish uchun soatdan foydalaning;
- Soatga ko'p nazar solmang;
- Bir mavzudan ikkinchi mavzuga o'tayotganda pauza qilishga harakat qiling.

Slaydlarni tayyorlash:

- Har bir slaydni nomlash va kodlash;
- Har bir slaydda axborotlarni aniq va lo'nda, xatosiz yozish;
- Chalkashtiruvchi iboralarni kiritmaslik;
- Materialni ketma-ketligini ta'minlash;
- Slaydda yozuvlar hajmi kamida 20 shriftda yozish;
- Har bir slaydda so'z birikmalari 7-8 qatorдан oshmasligi;
- Slayd mazmunini yoritishda sxematik tarzda, har-xil

shaxtlardan foydalanish;

- Slayd tayyorlashda ranglarni to'g'ri tanlash;
- Ranglardan maqsadli foydalanish;
- Slaydni tayyorlashda och ranglardan foydalanish;
- Slaydni tayyorlashda och ranglardan foydalanish;
- Slayd foni ga to'q ranglarni ishlatmaslik;
- Slaydning yozuvlariga to'q rangni ishlatish;
- Sabzi rang tahsil oluvchi kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olish;
- Qizil rangni faqatgina biror-bir elementga urg'u berish uchun ishlatish;
- To'q ko'k va yashil ranglardan qora rang o'rnila foydalanish;
- Slayd mazmunidan kelib chiqib, rasmlar tanlash va ulardan o'rnila foydalanish;
- Slayd mazmunidan kelib chiqib, animatsiyalash hattihakaratlar hamda ovoz berish;
- Taqdimot vaqtiga ko'ra vaqtini to'g'ri taqsimlash hamda belgilash.

4.3.3. Didaktik ta'lim vositalari talim jarayoni samaradorligini oshirish omili

Bugungi kunga kelib uzluksiz ta'lim tizimida va jamiyatda pedagoglik kasbi eng nufuzli, sharaflı kasbga aylanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonga tajribali va istedodli pedagoglarni jalb qilishni taqozo etadi. Ushbu dolzarb muammoni hal etishda, yani davlat talim standartlari talablari darajasidagi kadrlarni tayyorlash ishlari pedagoglar tomonidan faqatgina zamonaviy oqitish texnologiya va ouvdidaktik hamda vizual vositalarni qo'llab didaktik jarayonni tashkil etish va obyektiv boshqarish orqali ijobiy amalga oshirilishi mumkin.

Mashg'ulotlarni didaktik vositalardan foydalanib o'tkazish o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. Shuning uchun didaktik vositalardan umumiy o'rta maktablarda darslarida,

profesional ta'limi va oliv ta'lim muassasalarida esa ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va o'tkazish nazarda tutilgan. Buning uchun dastlab o'quv dasturi, mavzu mazmuni yaxshilab o'rganilib, elektron o'quv darsligi yoki qo'llanmasi, virtual ko'rgazmalar, didaktik materiallar tayyorlanadi. Bunda asosan nazariy ma'lumotlarni bayon etish, talabalarda nazariy-teknik tafakkurni rivojlantirish, kurs mazmuniga kiziqishni uyg'otish, mutaxassislikka tayyorlanish motivlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

1. Didaktik vosita yordamida o'quv mashg'ulotini tayyorlash.

Didaktik vositalar majmuini o'quv mashg'ulotlarida tadbiq etganda, ayniqsa, audiovizual vositalarni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Didaktik vositalarni o'quv mashg'ulotiga tayyorlash;
- didaktik vosita ma'lumotlarini idrok etishga o'quvchilarini tayyorlash;
- didaktik vositalar mazmunidagi materialarni namoyish etish uchun o'qituvchining qisqa izohi.

d) didaktik vositalardagi ma'lumotlarni o'quvchi xotirasida mustahkamlashni tashkil etish;

j) didaktik vositalar majmun mazmunidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun uya topshiriqlar berish va h.k.

Shuningdek, texnika vositasi, audio, video vositalarini darsga tayyorlaganda, ularni bir necha marta sinab ko'rishi, mutaxassis bilan maslahatlashib apparaturani sinovdan o'tkazishi lozim. Shunga ishonch hosil qilgandan so'ng didaktik vositani namoyish etishga kirishish mumkin.

b) didaktik vosita ma'lumotlarini idrok etishga o'quvchilarini tayyorlash uchun, avvalo, didaktik vosita namoyish qilinishdan oldin, unda aks ettirilgan ma'lumotning o'quv fani, o'quv dasturi, o'quv mavzusi tizimida tutgan o'rnnini o'quvchilar diqqatiga havola etish uchun ular haqida izoh berish talab etiladi.

Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarini didaktik vositalar majmui mazmunini idrok etishda tayyorlar ekan har doim va

hamma vaqt:

- didaktik vosita mazmunidagi ma'lumotlar bilan o'quv mavzusi ma'lumotlarining uzviy birligi;
- didaktik vositaning ma'lumotlarinixato o'zlashtirilishini oldini olishni;
- didaktik vosita yordamida o'quvchilar bilimini chiqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni kengaytirish kabi masalalarni yoddan chiqarmaslik lozim.
- didaktik vosita yordamida o'quv ma'lumotlarini bayon etish.

Zamonaviy virtual ko'rgazmalar dasturiy maxsulotlar bo'lib, ularni yaratishda kamida ikki kishi qatnashadi: mazmun qismi muallifi va dasturchi.

Vitual ko'rgazmani yaratishdagi muammolardan yana biri, muallif ijodini kompyuter dasturi ko'rinishiga keltirishda muallif va dasturchini o'zaro hamkorligidir. Qiyinchilik shundan iboratki muallif kompyuter dasturlari imkoniyati to'g'risida ya'shi tasavvurga ega bo'lmaydi, dasturchi esa yaratilayotgan darslik predmeti bo'yicha mutaxassis emas.

Virtual ko'rgazmalar bir-biridan tubdan farq qiladigan uch shakldagi dasturga ajratildi:

Interaktiv namoyishlar. Ko'p hollarda namoyishli dasturlar kompyuterli laboratoriya bo'la olmaydi, chunki etarli interaktiv elementlarga ega bo'lmaydi, lekin funktsiyalarini tajriba o'tkazish buyurtmasi bo'yicha bajarishi mumkin. Ko'p hollarda bunday dasturlar o'quv materialini qabul qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida elektron darslik qismi bo'lishi mumkin.

Oddiy modellar: Eng ko'p uchraydigan turi. Oddiy model odatda tajriba ishi modeli bo'ladi. Ba'zi belgilariga ko'ra birlashtirilgan oddiy modellar to'laqonli virtual kompyuter laboratoriysi bo'ladigan tajriba ishlari to'plami bo'ladi.

Bunday turdag'i laboratoriyanı keng tarqaganligi, ularni yaratish osonligida, chunki bitta yoki ikkita matematik ifoda bilan yoziladigan bitta oddiy jarayon ko'rib chiqiladi, turlicha laboratoriya ishlari esa bir-biriga bog'liq bo'limgan holda

turli dasturchilar tomonidan bajarilishi mumkin. Bunday yondashuvni universal tizim yaratish shart bo'lmagan, uncha katta bo'lmagan tajriba ishlari kursi yaratish uchun tavsya qilinadi.

Universal laboratoriya: Agar uning imkoniyatlaridan bitta tajribada turlicha hodisalarni tajribadan o'tkazishda foydalanish imkoniyati bo'lsa, kompyuterli laboratoriylar haqiqatda universal hisoblanadi. Universal laboratoriya-larni yaratish tajribali dasturchilar guruhi tomonidan, ko'p hollarda ilmiy yoik ishlab chiqarish bilan bog'liq modellashtirish tizimini tajriba sifatida qo'llab amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlargaerishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va amalga oshiriladi. O'qitish texnologiyasi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv maqsadlarini o'ta aniq darajada ishlab chiqarish, ularni o'lhash va baholash mezonlarini tanlab olish;

- qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq ifoda etish;

- o'quv maqsadlarini, butun o'quv jarayonini, o'qitish natijalariga kafolatli erishishga yo'naltirish;

- o'qitish natijalarini, operativ zudlik bilan baholash va o'qitish jarayonida tuzatishlar kiritish;

- o'qitish natijalarini, operativ zudlik bilan baholash va o'qitish jarayonida tuzatishlar kiritish; o'qitish natijalarini yakuniy baholash.

Shunday qilib, nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida didaktik vositalar majmuidan foydalanish, birinchidan, talabalarning o'quv didaktik va texnik tafakkurini shakllantirishga, zamonaviy texnika vositalari bilan ishslash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam bersa; ikkinchidan o'rganadigan fanlar mazmunini yangi davr talablaridagi ma'lumotlar bilan to'ldirishni, manbalar bilan mustaqil ishslash ko'nikma va malakalarini shakllanishiga amaliy yordam ko'rsatadi; uchinchidan, didaktik vositalar majmuini mashg'ulotlarga keng qo'llashga o'qituvchi-professorlarni

yo'naltiradi; to'rtinchidan, talaba- o'quvchilarning xotirasini, ijodiy qobiliyatlarini, jismoniy barkamolligini rivojlayshini ta'minlaydi; beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish, mukammallashtirishning pedagogik asoslarini huvhaytiradi va o'qishning insonparvarlashtirish tamoyilini ra'yobga chiqarish orqali bo'lajak mutaxassislarni ma'naviyatdoqiy salohiyati va kasbiy mahoratni oshirishga imkon yaratadi.

Shuning uchun ham, o'qitishning didaktik vositalarini nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayoniga tadbiq etish kadirlar tayyorlash milliy dasturi nazarda tutgan asosiy vazifa hisoblanadi.

4.4. Dasturiy vositalar

4.4.1. Umumiy tushunchalar

Axborot texnologiyalarining eng muhim tarkibiy qismi - apparat ta'minot (hardware) va dasturiy ta'minot (software) lardir.

Apparat ta'minoti - birinchi navbatda kompyuternin qasosiy va qo'shimcha qurilmalaridir.

Dasturiy vosita(ta'minot) bu - kompyuterning ikkinchi muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ma'lumotlarga ishlov beruvchi dasturlar majmuasini va kompyuterni ishlatish uchun zarur bo'lgan dasturlarni o'z ichiga oladi. Kompyuterning apparat va dasturiy ta'minoti orasida bog'lanish qanday amalga oshiriladi? Avvalo, ular orasidagi bog'lanish interfeys deb atalishini bilib olishimiz lozim. Kompyuterning turli texnik qismlari orasidagi o'zaro bogianish apparat interfeysi, dasturlar orasidagi o'zaro bogianish - dasturiy interfeysi, apparat qismlari va dasturlar orasidagi o'zaro bogianish - apparat-dasturiy interfeys deyiladi. Shaxsiy kompyuterlar haqida gap ketganda kompyuter tizimi bilan ishslashda uchinchi ishtirokchini, ya'ni insonni (foydalanuvchini) ham nazarda tutish lozim. Inson kompyuterning ham apparat, ham dasturiy vosita-lari bilan

muloqotda boiadi. Insonning dastur bilan va dasturning inson bilan o'zaro muloqoti foydalanuvchi interfeysi deyiladi.

4.4.2. Dasturiy vositalarning tasnifi

Barcha dasturiy ta'minotlarni uchta kategoriya bo'yicha tasniflash mumkin:

- tizimli dasturiy ta'minot;
- amaliy dasturiy ta'minot;
- dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari.

Tizimli dasturiy ta'minot (System software) - kompyuterning va kompyuter tarmoqlarining ishini ta'minlovchi dasturlar majmuasidir.

Amaliy dasturiy ta'minot (Application program package) aniq bir predmet sohasi bo'yicha ma'lum bir masalalar sinfini yechishga mo'ljallangan dasturlar majmuasidir.

Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari - yangi dasturlarni ishlab chiqish jarayonida qo'llaniladigan maxsus dasturlar majmuasidan iborat vositalardir. Bu vositalar dasturchining uskunaviy vositalari bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular dasturlarni ishlab chiqish (shu jumladan, avtomatik ravishda ham), saqlash va joriy etishga mo'ljallangan.

4.4.3. Tizimli dasturiy ta'minot

Tizimli dasturiy ta'minot quydagilarni bajarishga qaratilgan:

- kompyuterning va kompyuterlar tarmog'ining ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash;
- kompyuter va kompyuterlar tarmog'i apparat qismining ishini tashkil qilish va profilaktika ishlarini bajarish.

Tizimli dasturiy ta'minot ikkita tarkibiy qismidan - asosiy (bazaviy) dasturiy ta'minot va yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotdan iborat. Asosiy dasturiy ta'minot kompyuter bilan birgalikda yetkazib berilsa, xizmat ko'rsatuvchi dasturiy ta'minot alohida, qo'shimcha tarzda olinishi mumkin.

Asosiy dasturiy ta'minot (base software) kompyuter ishini ta'minlovchi dasturlarining minimal to'plarnidan iborat. Uarga quydagilar kiradi:

- operatsion tizim (OT);
- tarmoq operatsion tizimi.

Yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi) dasturiy ta'minotga asosiy dasturiy ta'minot imkoniyatlarini kengaytiruvchi va foydalanuvchining ish muhitini (interfeysi) qulayroq tashkil etuvchi dasturlar kiradi. Bular tashxis qiluvchi, kompyuterning samaradorligini oshiruvchi, antivirus, tarmoq ishini ta'minlovchi va boshqa dasturlardir. Shunday qilib, tizimli dasturiy ta'minotni sxematik ravishda quydagicha tasvirlash mumkin.



Operatsion tizim (OT). Kompyuterning yoqilishi bilan ishga tushuvchi ushbu dastur kompyuterni va uning resurslarini boshqaradi, foydalanuvchi bilan muloqotni tashkil etadi, bajarish uchun boshqa dasturlarni (amaliy dasturlarni) ishga tushiradi. OT foydalanuvchi va amaliy dasturlar uchun kompyuter qurilmalari bilan qulay muloqotni (interfeysi) ta'minlaydi.

Drayverlar. Ular OT imkoniyatlarini kengaytiradi. Jumladan, kompyuterning kiritish-chiqarish qurilmalari

(klaviatura,sichqoncha,printerlarvaboshqalar) niboshqarishda yordam beradi. Drayverlar yordamida kompyuterga yangi qurilmalarni ulash yoki mavjud qurilmalardan nostandard ravishda foydalanish mumkin.

Hozirgi davrda ko'plab OTlar mavjud:- UNIX; Linux, MS DOS; OS/2; MS WINDOWS,Solaric.Birinchi shaxsiy kompyuterlar OT ga ega emas edi.Kompyuter tarmoqqa ularishi bilan protsessor doimiy xotiraga murojaat etar edi. Ularda murakkab bo'limgan dasturlash tili, masalan, BASIC yoki shunga o'xshash tilni qo'llovchi, ya'ni uni tushunib, unda yozilgan dastur bilan ishlay oluvchi maxsus dastur yozilgan bo'lar edi.Ushbu til buyruqlarini o'rganish uchun bir necha soat kifoya qilar, so'ngra kompyuterga uncha murakkab bo'limgan dasturlarni kiritish va ular bilan ishlash mumkin bo'lar edi. Kompyuterga magnitofon ulangach, chet dastumi ham yuklash imkoniyati yaratildi. Buning uchun bitta LOAD buyrug'i kifoya edi, xolos. Kompyuterga disk yurituvchilar ularishi bilan OTga bo'lgan zamriyat pay do bo'Tdi. Disk yurituvchi magnitofondan shunisi bilan farq qiladiki, bu qurilmaga erkin murojaat etish mumkin.

Diskdagi dasturlarni faqat nomi orqali yuklash imkonini beruvchi operatsion tizim ishlab chiqildi va u disk operatsion tizimi (DOT) deb nom oldi. DOT nafaqat diskdagi fayllarni yuklash, balki xotiradagi fayllarni diskka yozish, ikkita faylning bitta sektorga tushishining oldini olish, kerak bo'lgan paytda fayllarni o'chirib tashlash, fayllarni bir diskdan ikkin-chisiga ko'chirish (nusxa olish) kabi ishlarni ham bajara oladi. Umuman olganda, DOT foydalanuvchini alohida qog'ozlarda ko'plab yozuvlarni saqlashdan halos etdi, disk yurituvchilar bilan ishlashni soddalashtirdi va xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirdi.


OTlarning keyingi rivojlanishi apparat ta'minotining rivojlanishi bilan parallel bordi. Egiluvchan disklar uchun yangi disk yurituvchilar pay do bo'lishi bilan OTlar ham o'zgardi. Qattiq disklarning yaratilishi bilan, ularda o'nlab emas, balki yuzlab, hatto minglab fayllarni saqlash imkoniyati yaratildi. Shu

sababli fayllar nomida ham anglashilmovchiliklar paydo bo'la boshladi. Ana shunda DOTlar ham ancha takomillashdi. Ularga disklarni kataloglarga bo'Tuvchi va ushbu kataloglarga xizmat ko'tsatuvchi vositalar (kataloglar orasida fayllarni ko'chirish va nusxa olish, fayllarni saralash va boshqalar) kiritildi. Shunday qilib, disklarda faylli struktura paydo bo'ldi. Uni tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish vazifasi esa OTga yuklanadi.

Qattiq disklaryanada katta o'lchamlarga ega bo'lishi bilan OTularni bir nechta mantiqiy disklarga bo'lishni ham «o'rganib» oldi. Har bir yangi paydo bo'layotgan OT kompyuterning tezkor xotirasidan yanada unumliroq foydalana oladi va yanada qvvatli protsessorlar bilan ishlay oladi. 1981 yildan 1995 yilgacha IBM PC kompyuterlar-ning asosiy operatsion tizimi MS DOS edi.MS DOS foydalanuvchi bilan kompyuterning apparat ta'minoti o'rtasidagi «vositachi» bo'lib xizmat qildi.Shuning bilan birga u insonga qaraganda kompyuterga yaqinroqdir. Kompyuterni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'pgina ishlar ham MS DOSda bajarilar edi. MS Windows grafik interfeysi OT hisoblanadi, chunki u foydalanuvchi bilan grafik tasvirlar (yorliqlar,belgilari) yordamida muloqot qilish imkonini beradi.Tarmoq OT. Tarmoqqa ulangan kompyuterlarning yakkahol va birgalikda ishlashini ta'minlovchi maxsus dasturlar majmuasidan iborat OT - tarmoq operatsion tizimi deb ataladi. Ushbu OT, jumladan, tarmoq ichra ma'lumotlarni ayirkoshlash, saqlash, qayta ishlash, uzatish kabi xizmatlarni ko'rsatadi. Asosiy dasturiy ta'minotni qo'shimcha ravishda o'rnatiladigan xizmat ko'rsatuvchi dasturlar to'plarni to'ldirib turadi. Dunday dasturlarni ko'pincha utilitlar deb atashadi.Utilitlar ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'shimcha operatsiyalarni bajarishga yoki kompyuterga xizmat ko'rsatishga (tashxis, apparat va dasturiy vositalarni testlash, diskdan foydalanishni optimallashtirish va boshqalar) mo'ljallangan dasturlardir.

4.3.4. Amaliy dasturiy ta'minot

Kompyuteming dasturiy ta'minoti orasida eng ko'p qo'llaniladigan amaliy dasturiy ta'minot (ADT) dir. Bunga asosiy sabab - kompyuterlardan inson faoliyatining barcha sohalarida keng foydalanilishi, turli predmet sohalarida avtomatlashtirilgan tizimlarning yaratilishi va qo'llanilishidir.



Amaliy dasturiy ta'minotni quyidagicha tasniflash mumkin. Muammoga yo'naltirilgan ADTga quyidagilar kiradi:

- buxgalteriya uchun DT;
- personalni boshqarish DT;
- jarayonlarni boshqarish DT;
- bank axborot tizimlari va boshqalar.

Umumiy maqsadli ADT - soha mutaxassis bo'lgan foydalanuvchi axborot texnologiyasini qo'llaganda uning ishiga yordam beruvchi ko'plab dasturlami o'z ichiga oladi. Bular:

- kompyuterlarda maiumotlar bazasini tashkil etish va saqlashni ta'minlovchi maiumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- matnlujijatlamiavtomatikravishdabichimlashtiruvchi, ulami tegishli holatda rasmiylashtiruvchi va chop etuvchi matn protsessorlari;
- grafik muharrirlar;

- hisoblashlar uchun qulay muhitni ta'minlovchi jadval protsessorlari;

- taqdimot qilish vositalari, ya'ni tasvirlar hosil qilish, ulami ekranida namoyish etish, slaydlar, animatsiya, filmlar tayyorlashga moijallangan maxsus dasturlar.

Ofis ADT idora faoliyatini tashkiliy boshqarishni ta'minlovchi dasturlami o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- rejalovchi yoki organayzerlar, ya'ni ish vaqtini rejalashtiruvchi, uchrashuvlar bayonnomalarini, jadvallarni hisoblashuvchi, telefon va yozuv kitoblarini olib boruvchi dasturlar;

- tarjimon dasturlar, ya'ni berilgan boshlang'ich matnni ko'rsatilgan tilga tarjima qilishga mo'ljallangan dasturlar;

- skaner yordamida o'qilgan axborotni tanib oluvchi va matnni ifodaga o'zgartiruvchi dasturiy vositalar;

- tarmoqdagi uzoq masofada joylashgan abonent bilan foydalanuvchi orasidagi o'zaro muloqotni tashkil etuvchi kommunikatsion dasturlar. Kichik nashriyot tizimlari «kompyuterli nashriyot faoliyati» axborot texnologiyasini ta'minlaydi, matnni bichimga solish va tahrirlash, avtomatik ravishda betlarga ajratish, xat boshlarini yaratish, rangli grafikni matn orasiga qo'yish va hokazolami bajaradi. Multimedia dasturiy vositalari dasturiy mahsulotlarning nisbatan yangi sinfi hisoblanadi. U ma'lumotlarni qayta ishlash muhitining o'zgarishi, lazerli disklarning paydo bo'lishi, ma'lumotlarning tarmoqli texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shakllandi. Sun'iy intellekt tizimlari. Bu sohadagi istanishlami to'rt yo'nalishga bo'lish mumkin:

- Ijodiy jarayonlarni imitatsiya qiluvchi tizimlar. Ushbu yo'nalish kompyuterda o'yinlami (shaxmat, shashka va b.b.) dasturlash va boshqalami amalga oshiradigan dasturiy ta'minotni yaratish bilan shug'ullanadi.

- Bilimlarga asoslangan intellektual tizimlar. Ushbu yo'nalishdagi muhim natijalardan biri ekspert tizimlarning yaratilishi hisoblanadi. Shu tufayli sun'iy intellekt tizimlarini

ma'lum va kichik sohalarning eksperti sifatida tan olinishi va qo'llanishi mumkin.

- EHMLaming yangi arxitekturasini yaratish. Bu yo'nalish sun'iy tafakkur mashinalari (beshinchi avlod EHMLari) ni yaratish muammolarini o'rganadi.

- Intellektual robotlar.

Bu yo'nalish oldindan qo'yilgan manzil va maqsadga erisha oladigan intellektual robotlar avlodini yaratish muammolari bilan shug'ullanadi.

4.3.5. Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari

Hozirgi paytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog'liq yo'nalish tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunday uskunaviy vositalar dasturlar yaratish va sozlash uchun kuchli va qulay vositalarni tashkil etadi. Ularga dasturlar yaratish vositalari va Case-texnologiyalar kiradi. Dasturlar yaratish vositalari. Ushbu vositalar dasturlar yaratishda ayrim ishlarni avtomatik ravishda bajarishni ta'minlovchi dasturiy tizimlami o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- kompyulyator va interpreterlar;
- dasturlar kutubxonasi;
- turli yordamchi dasturlar.

Kompyulyator dasturlash tilidagi dastumi mashina kodidagi dasturga aylantirib beradi. Interpreter yuqori darajadagi dasturlash tilida yozilgan dastuming bevosita bajarilishini ham ta'minlaydi. Dasturlar kutubxonasi oldindan tayyorlangan dasturlar to'plamidan iborat. Dasturlar yaratish vositalariga Makroassembler MASM, Visual Cutt for Windows Professional Edition kompyulyatori, Visual Basic for Windows va boshqalar kiradi.

CASE-texnologiyasi informatikaning xozirgi paytda eng tezkor rivojlanayotgan sohalaridan biridir. CASE (Computer Aided Sistem Engineering) - axborotlar tizimini avtomatlashtirilgan usulda loyihalash degani bo'lib, Case-

texnologiyasi turli mutaxassislar, jumladan, tizimli tahlilchilar, loyihachilar va dasturchilar ishtirok etadigan ko'pchilikning qismashishi talab etiladigan axborot tizimlarini yaratishda qo'llanadi. Case-texnologiyalari vositalari o'tgan asming oo yillari oxirida shakllangan yo'nalishdir. Ulardan keng ta'mida foydalanish qimmatligi tufayli chegaralangandir. Case-texnologiyasi - murakkab dasturiy tizimlami tahlil etish, loyihalash, ishlab chiqarish va kuzatib turish texnologik orayonini avtomatlashtiruvchi dasturiy ta'minotdir. Case-texnologiyasining asosiy yutug'i -kompyuterlaming mahalliy farmonida ishlayotgan mutaxassislami birqalikda, hamkorlikda loyiha ustida ishlashini tashkil eta olishi, loyihaning ixtiyoriy fragmentini eksport-import qila olishi va loyihani tashkiliy boshqara bilishidadir.

Nazorat savollari

1. EHMLining asosiy qurilmalari va ularning vazifalarini tushuntiring.
2. EHMLining yordamchi qurilmalari va ularning vazifalarini.
3. Shaxsiy kompyuterdan foydalanish qoidalarini tushuntiring.
4. Mikroprotsessorning vazifasi nimadan iborat?
5. Kiritish va chiqarish qurilmalarining ishlash printsipi qanday?
6. Kompyuter qanday tuzilishga ega va qanday qurilmalardan iborat?
7. Monitoring vazifasi nimadan iborat?
8. Klaviaturaning asosiy tugmalar guruhiba qaysi tugmalar kiradi?
9. Sichqoncha bilan ishlashning afzallik tomonlari qanday?

5. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR BIRLIKLARI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

5.1. Foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari

Bilimlar bazasini unda qo'llaniladigan interfeysga ko'ra shartli ravishda uchga ajratish mumkin.

Birinchisi-intellektual axborotli izlash tizimlari. Bu tizim orqali ish joyidan turib bilimlar bazasidan kerakli axborotni izlash va tarmoq kutubxonalaridan foydalanishi mumkin.

Ikkinchisi-Hisoblash-mantiqiy tizimlar. Ular yordamida modellarning murakkabligiga qaramasdan boshlang'ich ma'lumotlar asosida boshqarishning ilmiy masalalarini rejalashtirish va loyihalashtirish masalalarini hal qilish mumkin.

Uchinchisi- ekspert tizimlar.

Ekspert tizimlar- xulosa chiqarish qoida va mexanizmlari yig'indisiga ega bo'lgan bilimlar bazaini o'z ichiga olgan sun'iy intellekt tizimi. Intellektual axborotli izlash tizimlari muloqotni tabiiy tilga juda yaqin ko'rinishda olib borish imkonini beradi.

Hisoblash-mantiqiy tizimlar esa dasturlarni to'plashni tashqillashtirish printsipiiga asoslangan.

Pedagogik dastur vositalarini shartli ravishda uchta uskunaviy dastur vositalari, nazorat qilish dastur vositalari va urgatishni takomillashtiruvchi dastur vositalari kabi asosiy guruxlarga ajratish mumkin.

Uskunaviy dastur vositalari foydalanuvchining qandaydir bir yunalishdagi masalalarni yechishga muljallangan dastur qobiqlaridir (masalan, Power Point dasturi). Bunday dasturlar o'qituvchi tomonidan ma'lumotlar bazaidagi ma'lumotlarni qayta ishlagan xolda ma'lum darslarni yaratish (savol va javoblar tuplamini ifodalash, chizma va rasmlarni hosil qilish hamda harakatlantirish, ovozli va rangli effektlarni namoyish etish) imkonini beradi.

Nazorat qilish dastur vositalari, asosan, test dasturlaridan

iborat bo'jadi va ma'lumotlar bazaidagi savollardan foydalangan holda yoki o'qituvchi tomonidan tuzilgan testlar asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilish imkonini beradi.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalariga predmet o'qituvchisi, psixolog, dasturchi, dizayner kabi qator mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar kiradi. O'qituvchi ular asosida predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini olib borishi mumkin. Bunday darslarni tashkil qilish o'quvchilarda shaxsiy qobiliyatlarni, ya'ni diqqat, ko'satuvchanlik, mantiq, fikrlash tezligi, xulosa chiqarish qobiliyati kabi qator ijobjiy xususiyatlarning rivojlanishiga va dars samaradorligining oshishiga olib keladi.

Nazorat qilish dastur vositalari, asosan, test dasturlaridan iborat bo'jadi va ma'lumotlar bazaidagi savollardan foydalangan holda yoki o'qituvchi tomonidan tuzilgan testlar asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilish imkonini beradi.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalariga predmet o'qituvchisi, psixolog, dasturchi, dizayner kabi qator mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar kiradi. O'qituvchi ular asosida predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini olib borishi mumkin. Bunday darslarni tashkil qilish o'quvchilarda shaxsiy qobiliyatlarni, ya'ni diqqat, ko'satuvchanlik, mantiq, fikrlash tezligi, xulosa chiqarish qibiliyati kabi qator ijobjiy xususiyatlarning rivojlanishiga va dars samaradorligining oshishiga olib keladi.

Bilimlar bazai yoki pedagogik dastur vositalaridan dars yoki darsdan tashqari jarayonlarda foydalanan katta didaktik shamiyatga ega. Bunday dasturlardan foydalanan afzallik tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'quvchilarda kerakli texnikaviy ko'nikmalarni hosil qilish vaqtini qisqaradi;
- bajartirishga muljallangan topshiriklar soni va topshiriqni mustaqil bajarish ko'لامi ortadi;
- talabaning ishida optimallash tabiiy ravishda hosil qilinadi;
- o'qitishda tabaqlashtirish faollashadi;

talaba ta'limning sub'ektiga aylanadi, chunki dastur undan faol boshqarishni talab qiladi;

kompyuter animatsiyasi darslarni jonli olib borish imkonini beradi;

o'qishga nisbatan motivlar oshadi dastur bilan muloqot o'quvchilarda darsga ishtiyogni oshiradi;

darsda ma'lumotlar bazaining o'zoqdagi manbalaridan (Ye-mail, Internet va x.k.) ma'lumot olish va shu asosda dars mazmunini boyitish ta'minlanadi.

Pedagogik dastur vositalarining kamchiliklariga o'quvchilarda nutq madaniyati, grafik va yozish madaniyatini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmasligi misol bo'ladi.

O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish keng quloch yoymoqda va bu orqaga qaytmaydigan jarayon. SHunday ekan, ta'lim jarayonida pedagogik dastur vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va mavjud muammolarni tadkik qilish lozim. Zero, zamonaviy o'qitish texnologiyalarisiz ishda yuqori samaraga erishib bo'lmaydi.

5.2. Pedagogik dasturiy vositalar larni yaratish bo'yicha asosiy mezonlar

Hozirgi kungacha kompyuterlarni o'qitish vositasi sifatida qo'llab o'qitish samaradorligini oshirish bilan birga o'qitish vaqtini qisqartiradigan yaxlit, sezilarli darajali pedagogik nazariya yaratilgan emas. Biroq kibernetika, didaktika, psixologiyada turliche qarash va nazariyalar mavjudki, ularni ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish nuqtai nazaridan o'rGANIB, akademik litseylarning informatika fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun pedagogik dasturiy vositalarini yaratish bloklarini ishlab chiqish zarur. "Agar ilmiy asoslangan pedagogik dasturiy vositalarni tayyorlash yo'llari atroflicha tadqiq qilinsa, ta'lim sub'yeqtлari kompyuter bilan muloqot qilish madaniyatini to'liq o'rgansa, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida ulkan yutuqlarga erishiladi". Shu ma'noda pedagogik dasturiy vositalarning bloklarini ishlab chiqish,

ularda bajariladigan amallar mazmunini tahlil qilish kerak bo'ladi.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish uchun mutaxassis pedagog-o'qituvchilar tomonidan ma'lum bir ta'lim jarayoni loyihalashtiriladi. Boshqa mutaxassis pedagog-o'qituvchilar bilan muhokamadan o'tkazgach, loyiha matni dasturchilarga beriladi. Dasturchilar loyiha bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng, uni tayyorlash uchun kerakli bloklarni mutaxassis pedagog o'qituvchilar bilan kelishgan holda tanlaydilar. Dasturchilar pedagogik dasturiy vositalarni shunday ixcham qilib yozishi kerakki, pedagogik dasturiy vositalari tez va aniq, har bir qadami nazoratli bo'lishi hamda har bir bloki uchun mukammal dastur va barcha bloklarni o'zida qamrab olgan ma'lumotlar ombori tuzilgan bo'lishi kerak.

5.3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan istonuligini tasdiqlovchi qator ijobjiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga arixtadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi:

1. -Bilimlar bazasini unda qo'llaniladigan interfeysga ko'ra nechaga ajratish mumkin?
2. Intellektual axborotli izlash tizimlari nima?
3. Hisoblash-mantiqiy tizimlari nima?
4. Ekspert tizimlari nima?
5. Nazorat qilish dastur vositalari nimalardan iborat?
6. Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga qanday kiradi?

6. ELEKTRON DARSLIK VA UNING TURLARI

6.1. Elektron darsliklarning ta'lindagi roli va uni yaratish muammolari

Respublikada elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga mo'ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o'qitishni tashkil etish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. 2004 yildan e'tiboran elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishning ikkinchi tajribasinoz bosqichi boshlanishiga qaramay, ta'lim muassasalarini uchun elektron darslik yaratish bo'yicha ishlar ancha suts ketmoqda. Bu ham bo'lsa elektron darslik yaratish uslubiyati, uning tuzilishi, o'z ichiga oladigan komponentalarining aniq bir tizimga solinmaganligida bo'lsa kerak. Elektron o'quv adabiyotlarining uchinchi – o'quv jarayonida keng foydalanish bosqichiga o'tib, o'quv adabiyotlarning yangi avlodini keng ishlab chiqarish va ta'lim muassasalarini ta'minlash uchun ushbu yo'nalishdagi vazifalarni jadallashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifalardan biri fanlardan elektron darslik yaratishdir.

Darslik – davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashrdir.

Elektron darslik esa, yuqoridaq talablarni hisobga olgan holda, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga, hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib: - o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida; - o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda; - multimedia

(multimedia – ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida; - taktil (his qilinuvchi, seziladigan) surʼusiyatlari, talaba (talaba, tinglovchi) ni «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklida ifodalanadi.

Ta'lim texnologiyasi markazida talaba (talaba), texnologiya mazmunida – talaba(talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish; o'quv faoliyat asosida hamkorlik yotadi.

Elektron darslik ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar hajarish va teskari aloqa (talabalar tomonidan bilimlarni o'slashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni) e'tiborga olinishi kerak.

Elektron darslik bilan ta'limning eng qulay senariysini tanlashni ta'minlaydigan interfaol tartibda ishslash talabalar bilim olishini faollashtiradi.

Elektron darslik abstrakt mavjudotlar uchun emas, balki shaxs bilan ishslashga mo'ljallangan. Talaba o'zining qobiliyati, fanga qiziqishi va uning tayyorgarlik darajasiga qarab ta'lim usulini tanlashi kerak.

Elektron darslik yaratishda WEB texnologiyalardan unumli foydalaniadi. Bu texnologiyaning qurollari sifatida Front Page va Domino tizimlarini, HTML va DHTML tillarini keltirish mumkin.

Intellektual ta'lim tizimlarining maqsadi, o'qitish foydalananuvchi va o'qitish strategiyasi sohasidagi bilimlardan foydalangan holda, shaxsni o'rganish va o'rgatishdir.

Intellektual ta'lim tizimlari texnologiyasidagi mavjud konsepsiyalarni moslashuvchanlik bo'yicha quyidagi turrlarga ajratish mumkin: moslashgan, moslashtiriladigan va moslashuvchan.

1. Moslashgan (adapted) gipermedia – tizimlari.
2. Moslashtiriladigan gipermedia – tizimlari.

3. Moslashuvchan (adaptive) gipermedia – tizimlari.

Bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri turli predmet sohasini o'z ichiga olgan bilimlar omborini yaratish deb hisoblash mumkin. Yangi axborot texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish ta'limga an'anaviy o'qitish jarayonidan talabaning o'zi ta'limga jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi.

Katta oshkoraliykda o'tadigan bu jarayon kelajakda ta'limga tizimida keskin inqilob qilishga qodir bo'ladi. Ko'pchilik iqtidorli talabalar o'zlarining qobiliyati va qiziqishiga ko'ra mos ravishda mustaqil bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'limga tizimida chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar bilimlarini talabalarga yetkazishda anchagina qiyinchiliklarni yengishga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda ta'limga muassasalarining hammasida ham kompyuterli ta'limga hozircha bemalol deyish mumkin emas. Elektron darslik yaratish borasida anchagina ishlar qilanayotgan bo'linsada, hali elektron darsliklarga yetishishda, oddiy kutubxonaning kitoblariga ega bo'lishdek, ochiq tizimlar mavjud emas. Albatta, ta'limga tizimini rivojlanishi bilan bunday kamchiliklar asta-sekin yo'qolib boradi.

Elektron darslik yaratish muammolari. Elektron darsliklar yaratish juda murakkab va qiyin ishdir. Ta'limga texnologiyasi markazida talaba, texnologiya mazmunida talabalar tomonidan mustaqil ravishda ta'limga olish qobiliyatini rivojlantirish, o'quv faoliyat asosida hamkorlik yotadi. Elektron darslik ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va teskari aloqa (talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni) e'tiborga olinishi kerak. Elektron darslik to'laligicha bir faylda bo'lishi maqsadga muvofiq emas. U juda katta bo'ladi. Bu darslikni kompyuteriga yuklashdagi tezlikni kamaytiradi va materialni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Har bir mavzu bitta hujjat sifatida tayyorlanishi yuqoridaq kamchiliklarni yo'q qiladi.

Elektron darslik yaratishda yuqori sifatdagi rasmlarni

doji boricha kamroq qo'llash kerak. Chunki ular darslikni kompyuteriga yuklashni sekinlashtiradi. Yaxshi elektron darslik ma'ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter siniflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repetitor, mustaqil ta'limga olishga vosita, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Lekin elektron darslikda yuqorida sanalgan imkoniyatlarni mujassamlanishi uchun darslik yaratayotgan mualliflardan pedagogik mahorat, bilim va ularda o'rjanayotgan predmet xususiyatini hisobga oluvchi murakkab uslubiy ishlanmalarning bo'lishi talab etiladi.

Avvalo elektron darslikda boblar alohida bo'lishi va unga ka'rgazmalilik, ijobjiy emotsiyal fon tamoyil, xushfe'llik va qo'yilgan masalani yechishda keng yordam berish tamoyillari qo'llanilishi zarur.

Elektron darslik bilan ta'limga eng qulay ssenariysini tanlashni ta'minlaydigan interfaoltartibdaishlash talabalar bilim ishini faollashtiradi. Elektron darslik abstrakt mavjudotlar uchun emas, balki shaxs bilan ishlashga mo'ljallangan. Talaba o'sining qobiliyati, fanga qiziqishi va uning tayyorgarlik darajasiga qarab ta'limga usulini tanlashi kerak.

Elektron darslik talabani bilim olishini vaqt bo'yicha chegaralamaydi. Shuning uchun ham o'quv materialni o'zlashtirish vaqtini talabaning xohishiga ko'ra qisqarishi yoki uzayishi mumkin.

Elektron darslik talabalarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni ishlarini bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin. O'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, testlarni, bir vaqtini o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotga ega

bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda u kursning asosiy axborotni qismini bayon etuvchi taqdimot qilish tashkil etuvchisi olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar; talabalarning bilimlarini oqilona baholash imkoniyatini beradigan testlar kabi uchta komponenti bo'lishi zarur.

Kompyuterga mo'ljallangan darslik:

- bir onda teskari aloqani ta'minlashi;
- zarur axborotni tezlikda topishga yordam berishi;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat qilishda vaqtini iqtisod etishi;
- ekranga matnni to'g'ridan-to'g'ri chiqaribgina qolmay, balki multimedia texnologiyasi orqali ovozli tahlil qilish va modellashtirishi;
- aniq bir bo'lim bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajalariga mos holda tezlikda bilimini baxolay olish imkoniyati;
- zarur o'quv axborotlarni yangilash imkoniyatini mavjudligi bilan an'anaviy darsliklardan farq qiladi.

Boshqacha aytganda, elektron darslik o'quv materiallarini ilmiy va ko'rgazmali qilib tasvirlash; taxliliy imkoniyati; axborotni to'la, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda tasvirlash, o'quv materialini bir tizimda berish va faollashtirish kabi axborot-bilim; muammoli; o'quv materialini o'zlashtirilishining mustahkamligi; ta'limni differensiallashgan va yakkama-yakkalanganligi; moslanuvchanligi va emotSIONAL ta'sirchanligi kabi psixologo-pedagogik; to'la didaktik ta'lim davriyligi, ta'limni interfaolligi, teskari aloqa, o'z-o'zini boshqarish vazifalarini amalga oshirish kabi boshqarish, shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlash jarayonida darslik bilan ishlash mumkinligi; ishlashda qulaylilik; katta hajmdagi axborotni saqlashning osonligi va o'quv adabieti bilan ishlash uchun zarur maxsus texnik jixozlarni (masalan, kompyuterlarni) mavjudligi kabi tashkiliy-texnologik imkoniyatlari mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Nashr etilgan o'quv materiallarning yuqorida sanalgan didaktik imkoniyatlari -an'anaviy darslik, dasturlashtirilgan


darslik, elektron darslik va o'quv qo'llanmalarni tajribada ishqoslab ko'rildi, eng ko'zga ko'ringan belgilarni oxirgi tur (multimediali) o'quv qo'llanmalarda mavjud ekanligi issidiqlangan.

Elektron darsliklarni yaratishda imkonli boricha uning zarur qismlarini printer orqali chop etish va talabalar xoxlagan paytda uni o'qish imkoniyati ham bo'lishini nazarda tutish kerak. Chunki matnni ekranidan ko'p o'qish talabalar ko'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin.

6.2. Elektron darsliklar yaratishda xorijiy tajribalar

Ko'pchilik xorijiy mamlakatlarda elektron darsliklar yaratishni takomillashtirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta"kid etilganidek, ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlashning elektron vositalari sohasidagi tizimli izlanish 30 yildan ko'proq tarixga ega. Ta'lim tizimiga yangi axborot texnologiyalarni joriy qilish va elektron o'quv adabiyyotlar yaratish muammolari bilan sorija, jumladan Rossiyada V.V.Aleynikov, E.Alenicheva, G.P.Andreev, E.G.Alekseev, P.S.Batishev, O.I.Basina, M.P.Lapchik, A.N.Nebaba, E.N.Balkina, K.E.Demixov, S.YA.Egorova, S.Keer, I.Koncheva, A.YU.Kravsova, E.I.Mashbits, V.G.Manuylov kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Qilingan ilmiy-metodik tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan va tadqiq qilinayotgan muammoning nazariy va amaliy tomonlarining ayrim qirralari E.G.Alekseev, S.B.Abramov, Batishev P.S., C.V.Cimonovich, SHoutsevskaya, Polat, Andreev, Haymin, YU.SHafrin, V.E.Figurnov kabilarning umumta"lim fanlari, jumladan informatika kursiga oid elektron darsliklar yaratish hamda ilmiy tadqiqotlari bag'ishlangan tadqiqotlari, magola o'rganildi hamda tahlil etildi.

Xalqaro internet tarmog'ida bevosita informatika kursi bo'yicha yaratilgan elektron darsliklarni tahliliqa o'tamiz. Jumladan, Alekseev E.G. tomonidan tayyorlangan "Informatikadan elektron o'quv qo'llanma" (internet adresi) shular jumlasidandir. Elektron darslik yordamida o'quvchilar kompyuter grafikasi, axborotlar ombori, elektron jadvallar, kompyuterda masalalar echish texnologiyalari, dasturlash asoslari, amaliy dasturlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari bilan tanishadi. Elektron darslik axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, ulardan foydalanish jarayoni va kompyuterdan o'quvchilarning keyingi faoliyatida foydalanish ko'nkmalarini berishni ta'minlaydi. Quyidagi rasmida elektron darslik zarvarag'i ko'rinishidan lavha keltirilgan(6.1-rasm).



6.1-rasm. Elektron darslik zarvarag'i ko'rinishi

Elektron darslikning mazmuniy tuzilishi quyidagicha: Elektron darslikning 13 bo'limi «Internet global xalqaro tarmog'i» deb nomlanib undan lavha quyidagi rasmida o'z ifodasini topgan (6.2 –rasm).

6. Глобальная компьютерная сеть Internet


- 1.1. Структура и принципы работы Интернет
- 1.2. Протоколы передачи данных
- 1.3. Подключение в Интернет
- 1.4. IP-адреса в Интернет
- 1.5. Поиск информации в Интернет
- 1.6. Телекоммуникации
- 1.7. TCP/IP. Сетевой протокол
- 1.8. Администрирование локальной сети
- 1.9. Гипертекст
- 1.10. Гипертекстовые языки

Глобальная компьютерная сеть, объединяющая сети, шлюзы, серверы и компьютеры, использующие для связи единий протокол. Интернет не является коммерческой организацией и никому не принадлежит; оплачивается только услуги организаций, представляющих возможность подключения к Интернету.




6.2 –rasm.

Batshev P.S. muallifligidagi "Informatikadan elektron darslik" internetda adresida joylashgan bo'lib tuzilishi, mavzu bayoni, spetsifikasi bo'yicha oldingi elektron darslikdan farq qiladi. U ikki qismdan iborat.



Elektron darslikning mazmuniy tuzilishi quyidagicha: Натиевская томонидан тайyorlangan "Informatika

nazariyasi va amaliyoti" (internet adresi) nomlanim, u mazmunan ikki qismidan nazariy va amaliy qismidan tashkil topgan.



Ayrim ta"lim portallarida bir nechta elektron darslik va qo'llanmalar birgalikda uchraydi.

[Архивы](#) [Словарь терминов](#) [Гостевая книга](#) [Оценки](#)

Электронный учебник по информатике

Электронная таблица

В данном разделе рассмотрены темы:
Структура ЭТ
Типы данных
Основные функции ЭТ

6.3. Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi

Hozirda deyarli barcha sohaning elektron nashrlari mavjud. Lekin hammasini ham foydali deya olmaymiz. Ma'lumot undan foydalanilgandagina kerakli bo'lishi mumkin. Shunday ekan elektron darsliklar tayyorlashda ham ushu jihatga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Ayni paytda yangi axborot texnologiyalari sohasida gipermedia tizimlarini qo'llash rivojlanib bormoqda. Bunday texnologiyalar asosida an'anaviy o'quv matnnini yanada takomillashtirilgan o'quv materiali asosida kengaytirish va chuqurlashtirish hamda kurslar va animatsion lavhalardan foydalanish yo'li bilan almashtirish g'oyasi yotadi. Bunda u yoki bu holda ajratib berilgan matn lavhalari orasida o'zaro bog'anish tugunlari barpo etiladi. Mutaxassislarning ta'rifiga ko'ra, gipermatn inson intellektining katta xajmdagi axborotni esda saqlash kobiliyatini va mazkur axborotlar ichidan kommunikatsiya (muloqot) va tafakkur jarayonlarini assotsiatsiyalash yo'li bilan qidiruv ishlarini olib borishni imitatsiya (o'zida aks) qiladi. Boshqacha qilib aytganda, gipermatn murakkab darajada tashkil etilgan o'quv materiallari tizimi bo'lib, ko'plab statistik va dinamik axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi hamda umumlashgan tarmoq tuzilishiga ega bo'ladi. Bunda axborot lavhalari ahamiyatini matn, grafik, sxema, videolavha, ijrochi dastur va animatsiya (qarakatlari jarayon)lar o'ynaydi. Matnlar esa, o'z navbatida, yanada kichik matnchalardan tashkil topib, ular «matryoshka» («qo'g'irchoq ichida qo'g'irchoq») ko'g'irchog'i kabi ko'p marta ichma-ich joylashishlari mumkin. Bir matndan ikkinchisiga o'tish (chiqarish) EDning tarkibiga kiruvchi ma'lum munosabat orqali amalga oshiriladi. Matnlar orasidagi o'zaro bog'lanishlardan tashqari matn va videolavhalar, matn va ijrochi dastur hamda matn va animatsion effektlar orasida ham bog'lanishlar mavjud bo'lishi zarur. Bu bog'lanishlar ham ma'lum nisbatlar to'plamida keltirilgan nisbatlar ko'rinishida berilgan bo'ladi. Buz gilermatnlarni graf-daraxt ko'rinishida tasvirlashimiz mumkin, bunda matnlarning lavhalari, grafik tasvirlar, videolavhalari,

ijrochi dasturlar va animatsiyalar doirachalar (graf tugunlari) ko'rinishida, ular asosidagi munosabatlar esa, mos doirachalarni tutashtiruvchi yo'ylar shaklida ifodalanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, gipermatnlardan foydalanishning samaradorligi ko'p jixatdan bog'lanishi mumkin bo'lgan axborotlarning usubiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqligiga bog'iq bo'ladi. Chunonchi, nisbatlar to'plami har bir elementga hos bo'lgan aniq vazifalarning muayyanlashtirilishi, ularning muqobililik darajalari bilan harakterlanadi. Matnlar lavhalarida izox talab etuvchi («kalit») so'zlar, tushunchalar, matnning boshqa parchalari, jumladan, videolavhalar bilan bog'langanligini ko'rsatish maqsadida alohida rang bilan ajratilgan (yoxud tagiga chizilgan) holda berilishi mumkin. Shunday qilib, gipermatn tizimidan foydalanuvchilar graf tugunlari bo'ylab «sayohat»ga chiqib, uning uchlaridan mos axborot bo'lagini, yoylaridan esa, foydalanish tartibini aniqlashlari mumkin. Foydalanuvchining axborot lavhalari bo'ylab bunday «sayohati» navigatsiya deyiladi.

Gipermatn tizimi, kitobni varaqlagan kabi yoxud kitobning mundarijasi bo'yicha (boblar, paragraflar va betlarni) hierarkik kuzatish singari, matnlarni ketma-ket qarab chiqish, shuningdek, oldindan ma'lum bog'lanish «yo'llari» bo'yicha istiyoriy yo'nalishda navigatsiya qilish imkonlarini beradi.

Xulosa qilib aytganda, navigatsiya, ma'lumotlar bazasi mazmunini tadqiq qilish yoki zaruriy axborot bilan aniqlangan tugunlarning biridan ikkinchisiga o'tish xarakati jarayonini tasviflaydi. Bunday murakkab shaxobchali tuzilma navigatsiya bilan bog'liq ayrim muammolarni vujudga keltirishi tabiiy. Xususan, gipermatnli xujjatni o'qish uchun har bir tugundagi matn yoxud boshqa axborot lavhalarining mazmunini bilishning o'zi yetarli bo'lmay, yo'ldan adashmagan va chalkashmagan holda, mazkur xujjat bo'ylab to'g'ri navigatsiya qilish lozim bo'ladi. O'quv qo'llanma yoki darslik uchun mo'ljallangan elektron kitoblarni yaratish maqsadida gipermatn tizimlarini qo'llashning aloxida xususiyatlari mavjud. Bular ichida eng muhimmi foydalanuvchi (elektron kitob o'quvchisi) elektron

qo'llanmada keltirilgan asosiy o'quv materialining mazmunitdan uzoqlashmasligi lozim, ya'ni u faqat gipermatn tizimi bo'ylab navigatsiya qilmogi kerak. Bu esa, o'z navbatida, navigatsiya jarayonida matnning asosiy lavha uchun bog'lanishlar sonini, ma'lum darajada chegaralashni taqozo qiladi. Uslubyyot nuqtayi nazaridan, ma'lum paragrafdan keyingilariga chiqish, undan oldingi paragraflarga chiqishdan farqli o'laroq, alohida bog'lanishlar bilan berilgani ma'qul bo'ladi. Bu ED dan birinchi marta foydalanuvchilar uchun qator qulayliklar yaratadi.

Gipermatn xujjatlarini ishlab chiqishda ushu instrumental vositalar: Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word va boshqalardan foydalaniladi. Strategik illyustratsion o'quv materiallarini (turli manzaralar) ni yaratishda rastorli yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator va boshqalar kiradi. Dinamik illyustratsion o'quv materialari roliklarini yaratishda esa, ularni tuzish uchun maxsus muharrirlar va quyidagi Web-animatorlardan foydalaniladi: Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, Soft Image 3d, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier va boshqalardan foydalaniladi. Tovush bilan kechadigan yozuvlar va tovushni taxrir qilish Sonic Foundry Sound Forge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar bazasidan foydalanish zarurati tug'ilganda, Microsoft Excel kabi ma'lumotlar bazasi yordamga chaqiriladi. Elektron darslik yohud o'quv qo'llanma uchun illyustrativ materialarni yaratishda, shuningdek, skanerlar, videoushlash va yig'ish platralari, tovush platralari kabi apparatli vositalardan foydalaniladi. Matnli protsessorlar va maxsus dasturlar yordamida elektron darsliklarni yaratishda, o'quvchida undan qisman foydalana olmaslik bilan bog'liq muammolar tughilishi ham tabiiy. Gap shundaki, foydalanuvchi darslikni yaratish dasturiga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Shuningdek, darslikni

INTERNET tarmog'iga joylashtirish bilan bog'liq muammo ham tug'ildi. HTML gipermatn xujjatlaridan foydalanishda bunday muammolar tug'ilmaydi, chunki HTML-INTERNET tizimining gipermatni tili hisoblanadi va HTML xujjatlarini o'qish dasturi Microsoft Windows operatsion tizimi tarkibiga kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, bunda elektron darslikning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi.

Elektron dasrliklar yatuvcchi dasturlarning nomlari har si, lekin ularni boshqarilish tamoyillari deyarli bir xil bo'ladi. Bularning ba"zilari qo'shimcha imkoniyatlari mavjudligi va ularda darslik tayyorlash qulayligi bilan farqlanadi. Dastlab elektron darsliklar o'ta sodda ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa endilikda turli inson ruhiyatiga ta"sir etadigan tasviriy vositalar bilan boyimoqda. Bunday vositalarga turli animatsiya va video fayllarni kitish mumkin. Dastlab bu imkoniyatlar mavjud bo'lmagan. Vaqt o'tishi bilan Flash, 3D Max dasturlarini ishlab chiqilishi elektron darsliklar tayyorlashni yanada mazmunderorroq va foydalanuvchiga mazmuni tushinarliroq bo'lishiga olib keldi. Bularning barchasi axborotlarni elektron usulda tezkor almashish va o'zlashtirish imkonini beradi. Elektron darsliklar iqtisodiy tejamkorlikka olib keladi. Buning uchun tayyorlangan ma'lumotlar foydalanuvchiga kerakli bo'lishligi ahamiyatlidir. Dunyoda axborot ko'payib keganidan beraddilarini tanlab olish muammo bo'lib bormoqda. Ana shu hotatlardan qochish maqsadida ko'plab nufuzli muassalar u'sharing elektron darsliklarini imkon qadar asosiy va talaba u'shachtirishi muhim bo'lgan ma'lumotlar bilan boyitmoqda. Albitta bu jarayonda elektron darsliklar yaratuvchi dasturlarning o'rni ahamiyatlidir. Vaqt o'tishi bilan bunday dasturlarning imkoniyatlari kengaygan ko'rinishdagilari amaliyotda qo'llanilmoqda. Bunday dasturlar bozorida arzon bo'lgan, foydalanish uchun qulay va sifatli elektron darslik tayyorlovchi dasturlar turli ko'rinishlarni olmoqda.

Elektron o'quv qo'llanmaning birinchi shakli matnli ko'rinishida ishlab chiqildi. Hozirda esa uning ko'rinishi

mukamal holga yetib keldi. Elektron o'quv qo'llanmaga hozirda matn, ovoz, musiqa, video va boshqa axborot texnologiyalari imkoniyatlari qo'shib borilmoqda. Multimedia o'quvchi va o'qituvchilarining ekran dizayniga bo'lgan bog'liqligini kamaytirdi.

Hozirgi kunda ma'lumotlar foydalanuvchilarga yangi imkoniyatlarni bilan yetkazib berilmoqda. Shu bilan bir qatorda turlimuammolar, bog'liqliklar, masalan, axborot manbalari yetishmaydigan, maxsus bilimlarning egallashning qiyinligi masalasi ko'ndalang turadi. Bu muammoning yechimini zamonaviy elektron o'quv qo'llanmalar ko'rsatib berdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti strategiyani ma'lumotdan bilimga o'tish yo'nalishini belgilaydi. Kompyuter dasturlari bilimlarni tashish vazifasini bajaradi degan fikr faqat ma'lumot yoki uning shakli, belgilangan butunlik bilan ta'minlanadi. Darhaqiqat, birinchi elektron o'quv qo'llanmada algoritmlash amalga oshirilib, muallif butun o'qitishni shakllantirishga erishdi.

Bu elektron o'quv qo'llanma evolyutsiyasiga multimedianing taraqqiyoti sabab bo'ldi. Ammo aynan u foydalanuvchilar axborot resurslarining kelajagini belgilaydi. Eng yaxshi elektron o'quv qo'llanmalarda chuqr ma'no, yana metodik va pand - nasihat darajasi strategiya va algoritmiga ega. Elektron o'quv qo'llanma ma'lumotlar fazosining elementi hisoblanadi. U foydalanuvchilar manbalari, boshqa elektron o'quv qo'llanma, insoniyat yaralishi, davlat, nashriy va yetkazib beruvchilarining madaniyatini belgilab beradi. Tan olish kerak, o'qituvchi, o'quvchi, ona - ona, sinfdosh yuzasidan insoniyat yaralishi maktab ta'limi uchun ma'lumot yechimini bajaradi. O'rta maktab darajasida yuqori obro'li shaxs vazifasini o'qituvchi bajarishini tan olish kerak. Qanday zamonaviy elektron o'quv qo'llanma bo'lmashin, agar u, ota - onalar yig'ilishida o'qituvchi tomonidan tavsiya etilmasa, o'quvchiga bu o'quv qo'llanmadan hech qanday qo'shimcha imkoniyatlarni yetib bormaydi. Kamchiligi, o'qituvchi o'quvchini, ota - onalar va o'quvchilarining o'zlari ham savdo tarmoqlari

yoki INTERNETga kirib qolishlariga sababchi bo'lshlari mumkin. Bugungi kunda jiddiy nashriyotlar chetlatilib, elektron o'quv qo'llanmaga qaratilgan, lekin sotilishi mumkin bo'lgan, o'quvchiga mo'ljallangan ma'lumotlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Yagona mo'ljal narx va tijoriy reklama, do'st va tanishlar maslahatlaridan iborat. O'qituvchi biladiki elektron o'quv qo'llamma kichik uy kompyuterlariga ham mos bo'lib u farmoqiz ishlashi ham mumkinligini hisobga olib o'quvchilarga mustaqil o'qishlarni uyga berishi ham mumkin bo'ldi. Elektron darslikni ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o'quv materialini bayon etish, amaliy mashg'ulotlarni bajarish va testkari aloqa (o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni) e'tiborga olinishi kerak. Elektron darslik to'laligicha bir faylda bo'lishi maqsadga muvofiq emas, chunki, u katta xajmda bo'ladi. Bu darslikni kompyuterga yuklashdagagi tezlikni kamaytiradi va materialni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi. Har bir bob bitta xujjat sifatida tayyorlanishi yordagi kamchiliklarni bartaraf qiladi. Darslikning matni uchun ixtiyoriy matn muharriri qo'lanilishi mumkin bo'lib, tayyorlangan xujjatlarni txt formatida yoki birdaniga HTML da yosib qo'yish mumkin. Matn darslikning faqat axborotli qismidir. Eng kerakli narsa darslikni tayyorlashning umumiyl uslubi hisoblanadi. Freymlar monitorda zarur hollarda ko'rinishi kerak bo'ladigan doimiy axborotlarni hosil qilish imkoniyatini beradi. Bunday axborot sifatida darslik muallifining ismi va sharifi, o'quv muassasasining nomi va boshqalar olinishi mumkin. Buni ijobjiy tomoni, shundaki, darslikning mazmunini joylashtirish va matn bo'yicha xarakatlanish (sahifalash) qulay. Buni aytish joizki, freymlarning o'zları axborot joylashadigan sohralarning ko'p qismini egallaydilar va natijada, matnlarga joy kam koladi. Elektron darslikning yaratilishini oddiy kitobga o'xshash, ya'ni betma-bet chiqadigan qilib freymlarsiz yaratish ham mumkin. Bunday holda darslikni yuklash vaqtiga bera payadi, chunki kitobning o'zi katta xajmda bo'ladi. Unda xarakat qilish, ya'ni ekranda sahifalashning osonligi yo'qoladi. Lezin, bunda axborot fazosi anchagina iqtisod qilinadi. Matn

bo'yicha xarakatlanishni osonlashtirish uchun ekranda doimiy joylashgan maxsus ob'ekt yaratgan ma'qul.

Elektron darslik yaratishda yuqori sifatdagi rasmlarni iloji boricha kamroq ishlatalish kerak. Chunki ular ham darslikni kompyuterga yuklashni sekinlashtiradi. Elektron darslik ma'ruza mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishslash mashg'ulotlarida repetitor, mustaqil ta'lif olish vositasi, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar uchun masala va mashqlar ta'minotchisi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Elektron darslik yuqorida sanalgan imkoniyatlarni mujassamlashtirilishi uchun darslik yaratayotgan mualliflardan pedagogik mahorat, bilim va ularda o'rganilayotgan predmet xususiyatini hisobga oluvchi murakkab uslubiy ishlanmalarning bo'lishini talab etadi. Avvalo, elektron darslikda boblar alohida bo'lishi va unga ko'rgazmalilik, ijobiy emotsiyalon fon, xushfe'llik va qo'yilgan masalani yechishda keng yordam berish tamoyillari qo'llanilishi zarur. Elektron darslik bilan ta'limning eng qulay stsenariyeini tanlashni ta'minlaydigan interfaol tartibda ishslash o'quvchilar bilim olishini faollashtiradi. Elektron darsliklarni yaratishda imkonli boricha uning zarur qismlarini printer orqali chiqarish va o'quvchilar hohlagan paytda uni o'qish imkoniyati ham bo'lishini nazarda tutish kerak. Chunki matnni ekrandan ko'p o'qish o'quvchilar ko'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Asosiy shakllar. Elektron o'quv qo'llanma yaratish muallifning talanti va ustaligiga bog'liq bo'lib, har qanday murakkab tizimlarni yaratish imkoniyatini beradi. U albatta yaxshi jihozlangan va elementlari tartibli joylashgan bo'lishi kerak.

Test. Tashqaridan qaraganda u oddiy elektron o'quv qo'llanmaga o'xshaydi. Asosiy qiyinchilikni savollarni yig'ish va shakllantirish, savollarga javoblarni moslashtirish tashkil etadi. Yaxshi testdan bilim ob'ektiv kartinasini, fikrlash va fan, belgilangan predmet sohasini egallahda foydalilanadi.

Juddi to'g'ri qo'yilgan tashxis salomatlikning birinchi qadami sanalganidek, ob'ektiv testdan o'tkazish bilim cho'qqisiga erishishning optimal yo'lini belgilaydi.

Entsiklopediya. Bu elektron o'quv qo'llanmaning umbor ko'rinishidir. To'zilish sathida entsiklopediya atamasi ma'lumot, elektron o'quv qo'llanmada markazlashtirilishi tushunchasini beradi. Elektron nashr - bu grafik, matn, raqamli, musiqali, video, foto va boshqa axborotlarni va yana foydalanuvchilar uchun bosma xujjalalar yig'indisi. Elektron nashrdan elektron tashuvchilar - magnitli (magnit tasma, magnit disk), optik (CD-ROM, DVD, CD-R) va yana kompyuter tarmoqlaridan foydanish mumkin.

Elektron o'quv nashr - ilmiy malakaviy bilimlar maydonida tizimlashtirilgan materiallarda tashkil topgan bo'lib, bu maydonda o'quvchi, studentlarning bilimlarini faol ravishda o'stirib borish ta'minlanadi. Elektron o'quv qo'llanma yuqori darajada foydalanish va badiiy ko'rgazmaga mo'ljallangan bo'lib, to'liq axborot, metodik ko'rsatmalar sifati, texnik foydalanish sifati, aniqlik, mantiqiylikka ega.

O'quv qo'llanma - o'quv nashri, o'quv tartiblari tizimi yoki uning bo'limi, qismi.

Elektron o'quv qo'llanma asosiy elektron o'quv qo'llanma yuqori metodik va ilmiy darajada yaratiladi. U elektron ko'rinishda bo'lib, bunda ilmiy teznikarivoji va yuqori sifat mavjud.

Gipermatn - bu matn elektron shaklda va belgilangan tizimlar aloqasining ko'rinishi. U daraxt ko'rinishida bo'ladi.

Kompyuterlashtirilgan tushuntirish - tushuntirish turi, aniqlik va ravshanlikdan fodalanish, savollarga induktiv aqliqlik va shakllantirilgan tushunchalar yo'li bilan "ha" yoki "yo'q" tipidagi javoblardir.

Kompyuterlashtirilgan yechim - yechim metodi, oddiy va yagona yo'l bilan bajariladi, kompyutersiz qabul qilib bo'lmaydi va shuning bilan yuqori tezlik va hisoblash talab qilinadi.

Vizuallilik - rasm, garfik va harakatlarning aniq shaklidagi

ko'rinishi. Elektron o'quv qo'llanmaga ta'rif. Zamonaviy ta'lif taraqqiyoti shunday imkoniyatlarga yaratilgan kompyuter paketlaridan tashkil topishi mumkin, uyd shaxsiy kompyuterlarda, mustaqil ishlash uchun jihozlangan oliygohlarda, kompyuter sinflarida, yotoqxonalarda, maxsuslashtirilgan malakaviy auditoriyalarda foydalanishimiz mumkin.

Elektron o'quv qo'llanma - o'quv adabiyotining yangi janri. Elektron o'quv qo'llanma (hatto eng zo'r) kitob shakliga almashtirish shart ham, kerak ham emas. Ekranslashtirilgan o'quv adabiyotining bu janri mutloqo yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janri yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar video, kartinka, ma'lumotnomalar, matnlar joy olgan. Elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo'lishi kerak.

Ko'rgazmali o'qitish. Ko'rgazmalilik tushunchasi. Uning turlari va funktsiyalari Ya.Kamenskiy VII asrdayoq ko'rgazmolilikni shunday ta'riflaydi: xar bir narsani hissiyotlar bilan anglash, o'rganilayotgan ob'etni his-tuyg'ular orqali anglash, maket va modellarni o'quvchilar orqali ko'zatish, o'qitish ko'rgazmaliliginini avval aniq ob'ektini anglash deb tushunilgan, masalan: real predmet va hodisalar o'z boshlang'ich ko'rinishida mashinalar modellari, ko'rgazmali (tarqatma material, jadvallar, va ayrim chizmali dasturlar, o'quv kinofilmlar. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydi, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat konkret vizual predmetlarga tayanish, balki modellarga ham model - bu ob'ekt yoki ob'ektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan ob'ektning tashqi ko'rinishi haqida tasavvur hosil qiluvchi natural predmetlar anglatadi. Model esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu

tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur, o'rganilayotgan hodisa uchun izomorf. O'rganish vositasi ko'rgazmali bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalalarini ko'ratish (ya'ni model o'rganilayotgan hodisaga izomorf bo'lishi kerak), modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni Davo'do orqali ilmiy fikrlash asosi deb topildi. O'quv modellarini u ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflaydi. Modellashni Davo'dov ko'rgazmalilikni to'ldiruvchi didaktik printsip deydi.

Tasvirlar soni va turlari. Elektron dasturning maqsadi o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasvir material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi. Bizningcha, o'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo'shimcha ko'rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy bloklarining uyg'unlashishi va tartiblashishi uchun. Kompyuter texnologiya elektron dasturga hamma axborotni sig'dirish maqsadi qo'yilmaydi. Bu o'quvchini matn parchasini o'rganishdan chalg'itadi. Talabaga beqiyos ozodlik berish havfli. Rasmdan foy atga, boshqa gipermatnga ko'chish maqsadga muvofiq emas. Lekin, uni ozodlikdan mahrum etish ham kerak emas. Ongli kelishuv zarur o'qitish usulidagi bir chiziqlik yoki modullik yaratilishi kerak. Gipermatnda harakatli rasmlar ko'pligi, dinamikasi bir chiziqlik bilim olishni susaytiradi, bu animatsiya to'liq bilim olishga halaqt beradi. Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerakq. Bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va xarakteriga bog'lik. Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar kerakliq. Bir marta tasvir qo'rib, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq. Misol uchun siz yumuq ko'z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdagidan xonani tasvirlashni so'rasiz, unga 3-5 sekund ichida ko'rgani ma'qul. Xonani tasvir vositasi orqali qanday tasavvur etsa bo'ladiq Tasvir soni va beti aniq belgilanmaydi, quyidagi faktorlari asoslanadi:

□ O'quv matnnini mazmuni va xarakteriga ko'ra;

- O'quv uslubiga ko'ra;
- O'quv muassasasiga ko'ra.

Ko'rgazmali vositalar asosida o'qitish tasnifi

Mazmun va xarakteri bo'yicha tasnif 3 guruhga bo'linadi:

1. Tasvirli ko'rgazmalilikka:

- rasmlar reproduktsiyasi;
- arxitektura va haykataroshlik fotoreproduktsiyasi;
- o'quv matnlar uchun yaratilgan rasmlar;
- rasm va aplikatsiyalar;
- videoeparchalar;
- audioparchalar;
- videofilmlar.

2. Shartli-chizmali ko'rgazmalilikka:

- jadvallar;
- sxemalar;
- blok-sxemalar;
- diagrammalar;
- grafiklar;
- xaritalar;
- planshetlar kiradi.

3. Predmetli ko'rsatmalilikka:

- muzey eksponatlari;
- maketlar;
- modellar.

Axborotni ko'z odiga keltirish deb anglash jarayoniga yoki ko'z, yoki quloq, yoki baravariga ikkalasi yoki hissiyotlarni ulashdir. O'quv dasturini anglash uning ko'z oldiga keltirishdan boshlanadi. Shuning uchun barcha sezgi organlari ishga tushadi, shu tufayli tez va oson o'quv matnni o'zlashtiriladi. Tasvirni material bo'lishi kam, u tushunarli va o'zaro bog'langan, aktual bo'lishi kerak. Bunda tasvir vositalaridan foydalanadi.

Yaxshi jihozlangan o'quv matni umumiyl holatga ijobjiy ta'sir etadi. Ranga qiziqish oshadi. Diqqat va faoliyat uyg'unlashadi, ko'zatuvchanlik va sezgirlik oshadi, xotira tayerlanadi, fikrlash jarayoni yengillashadi, o'quv materiali o'zlashtiriladi.

Jadvallar turlari. Tasvirni oddiy va samarali vositasi bu jadvallar. Ular yordamida asosiy mazmunni aniqlash, o'rjanilaetgan materialni osonlashtirish va fikrni eslab qolish, tushuncha va qoidalarni umumlashtirish mumkin. **Doirali jadvallar** - asosiy chizma elementlaridan biri bu doira. Uslubiy nymati shundaki, materialni kompozitsiyasini ososhlashtiradi, chegaralashtiradi va umumlashtiradi.

Sxema - materialning grafik ko'rinishi, hodisalarning ayrim xossalari shartli belgilari orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro joylashtirilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar bilan beriladi.

Dinamik - animations - ob'ektning harakati samarasini belgilashdir, turli statik jadval to'zishga imkon beradi. Qulayligi shundaki, materialni qismlab berish, oz-ozdan, jadvalni o'zgartirish imkonibor, bir elementni boshqasi bilan o'zgartirish mumkin. Xarakatli jadvallarni qulayligi o'rganish va mustahkamlashga yordam beradi.

O'quv axborotini taqsimlash, chizma tasvir ob'ektlashni to'g'ri tanlash harakatning samarasiga olib keladi. Turli qismli usatishlarni tarqatish imkonini kompyuter texnologiyalar orqali bajariladi.

Blok-sxema. Tasvirning ishrtli-chizma turini ko'rib chiqaniz. Sxema bu materialni chizma tasviri hodisalar qismlari va xossalari shartli belgilari orqali beriladi, aloqa va muloqotlar esa qismlarni o'zaro o'rnatilishi va ikki tomonlama ko'rsatkichlar orqali. Jadvallar kabi sxemalar turli formatda bo'ladi, ular ekran betini qismini egallaydi, butun betni yoki bir necha betli bo'ladi. Chizma vositalar yordamida ~~semanani~~ yana shunday jixozlasa bo'ladi:

- turli ranglar orqali;
- rasmlar orqali;
- shriftlar tanlash orqali;
- aniq sonli qismlar va aloqalar orqali;
- sxemaning harakatlanish samarasini orqali.

Shartli-chizma ko'rgazmalilikka nafaqat sxemalar, balki grafik, diagramma, aplikatsiyalar, sxemali rasmlar kiradi.

Ular xodisa, voqeа, jarayonlarning aloqa va muloqotlari ni aniqlashga ishlataladi, matn qismini obrazli tasavvurini shakllantiradi. Matniqiy ketma-ketlik va ko'p ob'ektlarni tasvir orqali solishtirish hosil bo'ladi. Sxemalar bir necha turlarga bo'linadi: statik va harakatli. Tushuncha, jarayon va hodisalarini tarkibiy qismlarini ko'rsatuvchi mantiqiy qismlar mantiqiy ketma-ketligini aniqlaydi. Boshqa tasvirlarni sxematik tasvir bilan taqqoslash real obraz yaratadi. Sxemani aniq tilga oid material to'ldirishi mumkin, lekin hajmini chegaralash kerak, chunki sxema ortiqcha yuklanadi, bu esa sxemaning qiymatini yuqotadi. Gigiena normasiga keltiruvchi sxemalar yengillashadi, qachonki material zinch o'rnatilsa va shartli belgililar ongli joylashsa. Ular fikr va diqqatni jamlaydi, mezonlarini anglatadi, lekin aniq xulosalar bermaydi, fikrlash faolligi talab qilnadi, mustaqil, abstrakt fikrlashga undaydi, quyidagi talablarga riyo qilish kerak: tushuntiruvchi so'zlar kamroq ishlatalishi yuqori, pastki va joy qoldirish ranglar-rangbarangligini yo'qotish; tarkibiy qismlar soni va aloqalar matn parchasi mazmuni va xarakteriga mos bo'lishi kerak.

Animatsiya. Elektron darslik bosma o'quv materialini barcha tomonlarini saqlash va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga imkon beradi. Dinamik tasvirga statik tasvirni ko'z oldiga keltirish. Animatsiya bu harakat samarasini joriy etish jarayonidir. Animatsiya quyidagilarni taminlaydi:

- matn axborotini qismlab beradi;
- tasvir qismlarini so'zsiz harakatiing jarayoni;
- rasm harakati (so'zsiz);
- tarixiy janglar so'zsiz harakatini;
- fizik va kimyoviy jarayonlar;
- texnologik jarayonlar texnik konstruktsiyalash;
- tabiiy hodisalar jarayoni;
- siyosiy hodisalar jarayoni;
- sotsial hodisalar jarayoni.

Animatsiya usullari. Tasviriy ko'rgazmalilikni joriy etish uchun turli usullar ishlataladi. Uslubiy tomonidan olsak, tasvir eskizini jihozlash va yaratishga oid usullarda to'xtalamiz.

Animatsiya samarasini qo'llashda bir necha usullar bor:

1. Ustma-ustlik usuli. Statik tasvirni tanlab, muallif uni bir tarkibiy qismga bo'ladi va ularni bir - biriga ustma-ust kelish tarkibini belgilaydi. Dinamik tasvir samarasini joriy etiladi. Bu ob'ekt xarakatlanmaydi, lekin yashaydi. Bunday tasvir yig'ik va obrazli tarzda qandaydir qatorni yoki hodisa ketma-ketligini ta'riflash uchun ishlataladi. Nazariy materialni qismlab joriy etish usulli sekinlik bilan jadval to'zishda ishlataladi. Umumlashtirish va o'quv materialni tizimlashda yordam beradi.

2. Fazodagi harakat usuli. Ustma-ustlik usulidan farqi shundaki, qadamlar ketma-ketligini ta'riflaydi, tasvir uchun tanlangan ob'ekt ekran kenligida harakatlanadi. Ko'z oldi qatorini asosini rasmlar tashkil etadi, rasm reproduktsiya o'quv rasmlari va videoqismlar.

Animatsiya va ranglilik yaxshi ta'sir beradi. O'quvchi diqqatini jamlovchi rangli ekran ko'zatish diapazonini chegaralaydi. Kadrlar o'zaro bog'liq, ketma-ketlikda beriladi, mustaqil va avtonom. Ayrim kadrlar imzosi yo'q, ularni ular va qo'shish imkoniyati bor, har xil tarzda beriladi, bir tasvir orqali turli uslub qo'llanadi. Qismlarni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tanlash imkoniyati nazariy o'quv materialni tushuntirishda qulay. Masalan, 3 rasmi kadr berildi, bir abzats mazmunini tasvirlovchi. Bu abzatsni o'qishda ketma-ket 3 rasmi kadr chiqariladi. O'quv materialni o'rganish jarayonida tasvir sifatida animatsiya kadrlardan muammoli savollar ozatib, solishtirish jad-vallari tuziladi. Tasvirlar sharxlar bilan ko'zatiladi.

6.4. Elektron darslikni yaratishda qo'llanilgan dasturiy vositalar

HTML tili. HTML (Hyper Text Marko'p Language) – belgili til bo'lib, ya'ni bu tilda yozilgan kod o'z ichiga mahsus ramzlarni mujassamlashtiradi. Bunday ramzlar hujjat fuinishini faqatgina boshqarib, o'zi esa ko'rinxaydi.

HTMLda bu ramzlarni teg (teg – yorliq, belgi) deb

ataladi. HTMLda hamma teglar ramz-chegegarlovchilar (<, >) bilan belgilanadi. Ular orasiga teg identifikatori (nomi, masalan B) yoki uning atributlari yoziladi. Yagona istisno bu murakkab chegegarlovchilar (<!-- va -->) yordamida belgilanuvchi sharxlovchi teglardir.

Aksariyat teglar jufti bilan ishlataladi. Ochuvchi tegning jufti yopuvchi teg. Ikkala juft teg faqatgina yopuvchi teg oldidan «slesh» (“/”) belgisi qo'yilishini hisobga olmaganda, deyarli bir xil yoziladi. Juft teglarning asosiy farqi shundaki, yopuvchi teg parametrlardan foydalanmaydi. Juft teg yana konteyner deb ham ataladi. Juft teglar orasiga kiruvchi barcha elementlar teg konteyneri tarkibi deyiladi. Yopuvchi tegda zarur bo'Imagan bir qator teglar mavjud. Ba'zida yopuvchi teglar tushirib qoldirilsa ham zamonaviy brauzerlar aksariyat hollarda hujjatni to'g'ri formatlaydi, biroq buni amalda qo'llash tavsiya etilmaydi. Masalan, rasm qo'yish tegi , keyingi qatorga o'tish
, baza shriftini ko'rsatish <BASEFONT>va boshqalar o'zining , </BR> va hokazo yopuvchi juftlarisiz yozilishi mumkin.

Noto'g'ri yozilgan tegni yoki uning parametri brauzer tomonidan rad kilinadi. (bu brauzer tanimaydigan teglarga ham taalluqli). Masalan, <NOFRAME> teg-konteyneri faqatgina freymlarni taniydigan brauzer tomonidan hisobga olinadi. Uni tanimaydigan brauzer <NOFRAME> tegini tushunmaydi. Teglar parametr va atributlarga (inglizcha. attribute) ega bo'lishi mumkin.

Ruxsat etilgan parametrlar yig'indisi har-bir teg uchun individualdir. Parametrlar quyidagi qoida asosida yoziladi:

Teg nomidan so'ng probellar bilan ajratilgan parametrlar kelishi mumkin;

Parametrlar ixtiyoriy tartibda keladi;

Parametrlar o'zining nomidan keyin keluvchi «=» belgisi orqali beriluvchi qiymatlarga ega bo'lishi mumkin.

Odatda parametrlar qiymati « » - «qo'shtirnoq» ichida beriladi.

Parametr qiymatida ba'zan yozuv registri muhim.

HTML 4.0 spetsifikatsiyasida monitor ekranida ishladim etilgan ta'rifdan hujjat strukturasi ta'rifini ajratish asosiy(klyuchevoy) g'oyaga aylandi. Tajriba ko'rsatishi bo'yicha hujjatning bu ikkala ta'rifini bir-biridan ajratish platforma, muhit va shu kabilarni keng miqyosda quvvatlashga qilinadigan sarf-harajatlarni ancha kamaytirar ekan, shu bilan birga hujjatlarga o'zgarishlar kiritishni osonlashtirar ekan. Bu g'oyaga asosan, uslub (stil) jadvali yordamida, xujjatlarni ishladim qilish usulidan ko'plab foydalanish maqsadga muvofiq keladi. HTML – standarti to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni W3C konsortsiumining– Web–saytidan quyidagi adres bo'yicha olish mumkin: <http://www.WZ.org/TR/4.0> spetsifikatsiyasi quyidagi adresda tayinlangan: <http://www.WZ.org/TR/REC.html> 4u-971218 HTML ning asosiy teglari

HTML hujjatlari – bu matnli fayllar bo'lib, ularga hejlash teglari deb nomlangan maxsus kodlar kiritilgan. Bu teglar Web-brauzerlarga matn va grafiklarni qanday qilib sharhash va aks ettirish lozimligini ko'rsatib turadi.

HTML fayl – bu oddiy matnli fayl. Shuning uchun uni istagan matn redaktorida, masalan MS Word yoki oddiy «Blocknote»da yaratish mumkin.

HTML sahifa nima? – bu oddiy text fayl bo'lib, .html qisqartmasiga ega. Eslatib o'tish joiz, hujjat yaratilgach, uni matn formatida saqlash kerak. Lekin, bu ishni bajarishdan oldin uning kengaytmasini o'zgartirish, ya'ni TXT o'rniga HTML yoki HTMni qo'yishni esdan chiqarmaslik kerak. HTML va HTM kengaytmasi HTML fayl uchun standart hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kengaytmalar kompyuterga faylda matnlardan tashqari HTML kodlari ham mavjudligini ko'rsatib turadi. HTML tili harflar razmeriga befarqdır, ya'ni bosh va kichik harflar bir xil qabul qilinadi. Lekin teglarni yozishda ko'pincha bosh harflardan foydalaniladi. Bundan tashqari, HTML sahifani yaratish uchun maxsus dasturlarni qidirib topib, sotib olish shart emas. Matn tahrirlovchi har qanday dastur orqali HTML sahifa yaratish mumkin. Masalan: Windows muxitidagi matn

muxarirlari: Notepad, TextPad, UltraEdit, EdutPlus. Ana shunday matn tahrirlovchi oddiy dasturlardan biri bo'lgan Notepad (Bloknot), Windows muhitida ishlovchi har bir kompuytreda mavjud. Ba'zi matn muxarirlarida HTML hujjatni web brauzerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

HTML xujjatni yaratishga mo'ljallangan maxsus dasturlar (HTML muxarirlar) ham mavjud: FrontPage, Adobe GoLive, Macromedia Dreamweaver, Nestcape Composer. Muharrirlar 2 turga bo'linadi:

□ kod muxarirlari;

□ WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get - nimani ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharrirlar. Bu muharrirlar yordamida foydalanuvchi HTML komandasi va elementlarini yozmaydi, oddiy matn muxarirlaridek matn yozadi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtiradi, formatini o'zgartiradi va h.k. xolos.

Web-sahifa ko'rinishi va aks ettirilayotgan axborotning qanaqaligidan qat'iy nazar, HTML va WWW spetsifikatsiyasiga asosan har bir Web-sahifada ishtiroy etishi zarur bo'lgan quyidagi to'rtta teglar mavjud:

1. <HTML> brauzerga hujjat HTML tilida yozilganligi to'g'risida xabar beradi.

2. <HEAD> HTML-hujjatning kirish va bosh qismini belgilaydi.

3. <BODY> asosiy matn va axborotni belgilaydi.

4. <ADDRESS> bu Web-sahifa to'g'risida ko'proq to'la-to'kis axborot olish uchun kerak bo'ladigan elektron pochta manziliga ega.

Bu teglar Web-brauzerga HTML-hujjatning har xil qismlarini aniqlash uchun juda zarurdir, lekin ular Web-sahifaning tashqi ko'rinishiga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir etmaydi. Ular HTMLga kiritilgan navbatdagi yangi ma'lumotlar uy sahifalarida to'g'ri sharplash, shu bilan birga barcha Web-brauzerlarda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi uchun juda zarurdir.

Demak, HTML tili andozasi bo'yicha hujjatga <HEAD> va <BODY> teglarini kiritish tavsija etiladi. Brauzer HTML

hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq ko'rsatadi. Agar ular bo'lmasa ham brauzer HTML hujjatni to'g'ri o'qydi, lekin hujjat bo'limlari bir-biridan ajralib turmaydi. Shunday qilib, to'g'ri tuzilgan HTML hujjat quyidagi tuzilishga ega:

<HEAD> Sarlavhaga oid ma'lumot
</HEAD>
<BODY> Hujjatning mazmuni
</BODY>

Bunda <HEAD>, </HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumot qismida odatda foydalanuvchiga e'tiborsiz, lekin brauzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

<BODY>, </BODY> orasiga esa to'laligicha uning operatorlari ketma-ketligi joylashtiriladi.

Masalan, sizning Web-serveringizda barcha HTML - hujjatlarni ko'radigan va ularning ro'yxatini tuzadigan dastur ishlga tushirilgan. U <HEAD> teglari ichida joylashgan matnlarni ko'radi, xolos (bu erda hujjatlar nomi ham joylashtirilgan bo'ladi). Shunday qilib, agar uy sahifalarida <HEAD> va </HEAD> teglari bo'lmasa, u holda u ro'yxatga kiritilmaydi. Anchagini nomi chiqqan Web-serverlar - qidiruv vositalarining ko'pchiligi mana shunday ishlaydi. Ular axborotlarni <HEAD> teglaridan oladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Web-sahifada ishtiroy etishi zarur bo'lgan quyidagi to'rtta asosiy teglarni tavsiflashga harakat qilamiz.

① <HTML> va </HTML> teglari

Bu teglar brauzerlarga ular orasidagi matnni xuddi HTML matni kabi sharplash (izohlash) zarurligi to'g'risida sabab beradi, chunki HTML-hujjatlari faqat matnlidir. <HTML> teg esa, faylning gipermatn bog'lanish tilida yozilganligini bildirib turadi.

② <HEAD> va </HEAD> teglari

Bu teglar Web-sahifalar nomlarini belgilaydi. Huning uchun <HEAD> va </HEAD> teglar orasida Web-sahifa nomi kiritiladi.

Ya`ni HEAD bo`limi sarlavha hisoblanadi va u majburiy teg emas, biroq mukammal tuzilgan sarlavha juda ham foydali bo`lishi mumkin. Sarlavha qismining maqsadi hujjatni tarjima qilayotgan dastur uchun mos axborotni etkazib berishdan iborat. Hujjat nomini ko`rsatuvchi <TITLE> tegidan tashqari bu bo`limning qolgan barcha teglari ekranda aks ettirilmaydi. Odatda <HEAD> tegi darhol <HTML> tegidan keyin keladi. <TITLE> tegi sarlavhaning tegidir, va hujjatga nom berish uchun hizmat kiladi. Hujjat nomi <TITLE> va </TITLE> teglar orasidagi matn qatoridan iborat. Bu nom barauzer oynasining sarlavhasida paydo bo`ladi (bunda sarlavha nomi 60 belgidan ko`p bo`lmasligi lozim). O`zgartirilmagan holda bu matn hujjatga «zakladka» (bookmark) berilganda ishlataladi. Hujjat nomi uning tarkibini qisqacha ta`riflashi lozim. Bunda umumiylar ma`noga ega bo`lgan nomlar (masalan, Homepage, Index va boshqalar) ni ishlatmaslik lozim. Hujjat ochilayotganda birinchidagi bo`lib uning nomi aks ettirilishi, so`ngra esa hujjat asosiy tarkibi ko`p vaqt olib, kengayib ketishi mumkin bo`lgan formattash bilan birga yuklanishini hisobga olgan holda, foydalanuvchi xech bo`limganda ushbu axborot qatorini o`qiy olishi uchun hujjatning nomi berilishi lozim.

Front Page da Web sayt yaratish. Buning uchun:

- Ob“ekt bilan tanishib chiqiladi va masalaning qo`yilishini va foydalanishini to`la xal qilib olinadi.

- Qo`yilgan masala uchun mos uslub tanlanadi.

- Saytga mos material (matn, rasm, ovoz, tasvir va boshkalar) olinadi va shular asosida Front Page muxarririga murojaat kiladi. Web sayt yaratish quyidagicha amalga oshiriladi:

Pusk – Programmy - Front Page buyrug‘i bajariladi.

File - New/Sozdat –«Yangi yaratish» buyrug‘i orqali Web (Web sayt) bo`limi tanlanadi va NEW/Sozdat muloqot oynasi ochiladi. Undan quyidagi ko`rsatilgan yo`nalishlardan biri tanlanadi:
Customer Support Web (iste“molchilar taklifi bo`yicha Web sayt)

Projeet Web (Loyixa bo`yicha Web-sayt)

Personal Web(Shaxsiy Web-sayt)
One Page Web (Bitta saxifali Web sayt)
Empty Web(bush Web sayt) va boshq.
Speety The Loeation of the New Web (Saytga yo`l yo`nalish) satriga yo`nalish ko`rsatiladi.

Nazorat savollari:


1. Elektron darslik nima?
2. Elektron o`quv nashrlari tarix ta’limida?
3. O`quv nashrlari qanday turlarga bo`linadi?
4. Elektron xrestomatiya nima?
5. Elektron ma`lumotnomma nima?
6. Didaktik talablarga qaysilar kiradi?
7. Estetik talablar qaysilar?
8. Tarbiyaviy talablarning tutgan o`rni?

7. MULTIMEDIALI ELEKTRON DARSLIK YARATISH

7.1. Multimediani ta'limda qo'llash


Talab darajasida to'hri ishlab chiqilgan multimedia materiallari matnli axborotga qaraganda birmuncha ilgor usul bo'lib, o'quvchilarda aniq va samarali mental model (tasavvur) shakllanishiga yordam beradi. O'tkazilgan kompleks tadqiqot natijalariga ko'ra (Shephard - Shepard) to'hri ishlab chiqilgan multimedia materiallarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Muqobil istiqbollar
 - Faol ishtirok
 - Tezkor ta'lif olish
 - Bilimlarni xotirada saqlash va qo'llay olish
 - Muammolarni yechish va qaror qabul qilish kunikamalari
 - Tizimli ravishda tushuna borish
 - Yuqori darajadagi tafakkur
 - Mustaqillik va e'tiborlilik
 - Axborotlar ketma-ketligi va tezligini (temp)
- boshqarish
- Qo'llab-quvvatlash axborotlaridan foydalanish imkoniyatlari




7.1-rasm. Matn va videooning onlayn usulidagi trening jarayonida birga ishlatalishi.

Multimedia materiallarning potentsial afzalliklari haqida Meyer (Mayer) xam aytib o'tgan. Tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingen ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko'ra multimedianing ma'lum ustunligi mavjud. Ushbu ikkita axborotni qabul qilish kanallarining bir-biridan keskin farq qilishiga qaramasdan, ularning multimediadagi kombinatsiyasi juda xam muvaffaqiyatli chiqqan, chunki bunda ikkala tizimning xam afzalliklaridan samarali foydalaniladi. Matn va grafika o'rtaqidagi aloqalar mavzuni chuqurroq tushunishga va mental model (tasavvur)ning yaxshiroq shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. 1-rasmida Learning Peaks firmasi tomonidan ishlab chiqilgan, sotuv bo'yicha onlayn usulidagi trening ekraniga ko'rsatilgan. Ushbu misolda ekranning o'ng tarafidagi matnda, videooda ko'rsatilayotgan jarayonga qisqacha sharx berib o'tilgan. Multimedianing samaralilik printsiplariga ko'ra (Meyer bo'yicha), ta'limning muvaffaqiyatliligini oshirish uchun tasvir va sharxlovchi matn bir-biriga yonma-yon joylashgan bo'lishi zarur.



7.2-rasm: Mashqlarni bajarish va o'zini baholash uchun foydalanilgan materiallar



7.3-rasm. Axborotni taqdim etish uchun ishlatalgan matn va grafika

Ta'lim jarayonida multimedia qanday ishlaydi? Samarall ishlab chiqilgan ta'lim muhiti (shu jumladan, multimediali ta'lim muhiti) quyidagi 4 ta elementni uz ichiga qamrab oladi:

- Axborotlarni aks ettirish.
 - Ishni nimadan boshlash va qanday davom ettirish bo'yicha qo'llanma.
 - Tushunish va xotirada saqlab qolish uchun mashqlar.
 - O'tilganlarni takrorlash yoki keyingi bosqich (qadam) ga o'tish zarurligini aniqlash uchun uzini baxolash.

Ushbu to'rtta element elektron o'quv resurslaridan foydalangan holdagi ta'limdi yoki an'anaviy ta'lim turlari bilan bo'lgan kombinatsiyalarda ishlatilishi mumkin. Elementlarning barchasini multimediasiz ishlatish mumkinligiga qaramasdan, multimedienda ushbu elementlardan foydalanish ularni yanada samaralirok va muhimrok kiladi. Meyerning tadkikotlaridan

ma'lumotlarni keltirishdan maksad, agar kuyidagi printsiplarga riya kilinsa, axborotlarni xotirada saqlab qolishga va uzatishga multimedia kanday ta'sir etishini ko'rsatishdir. Ushbu printsiplar uz avvalini ishchi xotiraning chegaralanganligi kidayti fikrlar va uzoq muddatli xotirada kodlash printsiplari tahrirdagi ilm-fan tasavvurlaridan boshlagan.

7.1-jadval. Meyer bo'yicha multimedianing samaraliligi tamoyillari

Tamoyil	Tavsifi
Multimedia	Matn va grafikadan foydalangan holdagi ta'lim faqatgina matndan foydalangan holdagi ta'limdan yaxshiroq.
Fazoviy bog'liqlik	Matn va grafikadan foydalangan holda olib borilayotgan ta'limda grafikaning va izoxlovchi matnning yonma-yon joylashtirilishi maqbul.
Vaqt bo'yicha bog'liqlik	Matn va grafikadan foydalangan holda olib borilayotgan ta'limda grafika va izoxlovchi matnning ekranda biridan sung biri emas, balki bir vaqtning o'zida aks ettirilishi yaxshiroq.
Mantiqiylik	Ta'lim jarayonida matn, grafika yoki ovozlarning xaddan ziyyod ortiq bo'limgaganligi ma'qul.
Modallilik	Ta'lim jarayonida ekrandagi animatsiyaning matn bilan izoxlanishidan ko'ra suxandon ovozi bilan sharxlanishi yaxshiroqdir.
Haddan ziyyod mantiqiylik	Ta'lim jarayonida ekrandagi animatsiyaning ham suxandon ovozi, ham matn bilan izoxlanishidan ko'ra faqat suxandon ovozi bilan sharxlanishi yaxshiroq.
Sususiy farqlari	Ushbu tamoyillarning samarasi o'quvchilarga yuqori darajadagi bilimlarni berishdan ko'ra boshlanhich bilimlarni berishda xamda xududiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan xudud o'quvchilaridan ko'ra bir-biridan juda xam olisda joylashgan o'quvchilarni o'qitishda sezilarli darajada namoyon buladi.

Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga bo'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot,

axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha urin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun xam imkoniyatlar yaratadi. Pedagogika fani tajribalari va amaliyotining shaxsga yunaltirilgan ta'lim modeliga diqqati kupa jihatdan ilmiy qarashlari markazida insonga urgu beriluvchi falsafiy qarashlar taraqqiyoti bilan boglangan. Shaxsga yunaltirilgan ta'lim shunday ta'limki, u:

- Ta'lim oluvchiga yunaltirilgan va unga ta'lim jarayonining eng asosiy qadriyati sifatida e'tibor qaratilgan;
- Ta'lim oluvchining shaxsiy sifatlarini namoyon qilishga va shakllantirishga, tafakkurini rivojlantirishga, uning ijodkor, faol va tashabbuskor shaxs sifatida yetilishiga, o'rganishga bo'lgan va ma'nnaviy ehtiyojlarini qoniqtirishga; ularning zexnini, kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini, uzini uzi kamol toptirish va uz ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi;
- yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanlik, yangi ixtisos olishga va bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga qobiliyatli mutaxassislarga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini ta'minlashga yunaltirilgan.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qibiliyatlilik, ijodiy qobiliyatları, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim

resurslari yordamida harbir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individual lashtirish va differenqiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi sub'ekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim olovchi mustaqil uqib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, uzlarning kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun xozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini xosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yunaltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yunaltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yunalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivaqiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turtdagi multimediali o'quv axborotlarining uyhunlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldar ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishni boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarini individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalananuvchining muayyan xoxishi haqidagi dastur so'roviga

javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini xamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediali dan foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimediali da taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'limga oluvchilarga saloxiyatli (kompetentli) uqituvchining kumagi zarur buladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda xam ta'limga strategiyasi ta'limga jarayonida uqituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'limga oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayoni boshqarib borish bilan shuhullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odadta, chiroyli tasvirlar yoki animatsiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni tuldirgan holda zaruriy emotional darajani ta'minlab turishi mumkin. Multimedia vositalari har xil ta'limga yunalishlari (stillari) uyhunligida qo'llanishi va ta'limga olish xamda bilimlarni qabul qilishning turli ruxiy va yoshga doir xususiyatlari ega bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta'limga oluvchilar bevosita o'qish orqali, ba'zilari esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko'rish orqali ta'limga olishni va bilimlarni o'zlashtirishni xush ko'radilar.

Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojiga ega bo'lgan ta'limga oluvchiga noan'anaviy qulaylik tuhdiradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'limga oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari usishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlardidan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi. Multimedia vositalari ta'limga berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u uqituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng kulamdagagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; kurgazmali

va uyhunlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish; asboret turlarini ta'limga oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

7.2. Multimedia vositalarini ta'limga qo'llashning asosiy muammolari va kamchiliklari

Ta'limga multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo'lgan birmuncha salbiy taraflari xam mavjud. Ular jumlaiga diqqatning bulinishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko'proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi kiyinchiliklar va boshka jihatlar kiradi.

Diqqatning bo'linishi. Axborotlarni taqdim etishning murakkab usullaridan foydalanish aksariyat xollarda har shil nomutanosibliklar tufayli ta'limga oluvchilar diqqatini o'rganilayotgan asosiy mavzudan chalgitishi mumkin. Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta xajmdagi ma'lumotlar, turli xavola (sso'lka) va shu kabilalar dars jarayonida o'quvchi diqqatini bo'lishi mumkin.

O'quv materiallарini yaratishdagi murakkabliklar. Multimedia vositalarining audio, video, grafik va boshqa elementlarini yaratish an'anaviy matn ko'rinishidagi materiallarni yaratishdan ancha murakkab.

Vaqtning ko'proq talab etilishi. Multimediali materiallarni mustaqil ravishda yaratish singari multimediali dan ta'limga oluvchi sifatida foydalanish xam birmuncha ko'proq vaqt jarflanishini talab etadi. Ayniqsa, multimediali ta'limga vositalarini yaratish uchun ko'p va diqqat kerak bo'ladi. Dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar. Multimediali ta'limga vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun

dasturiyta'minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo'lishi zurur. Bunda multimediali ta'lif materiallarini taqdim etish jarayoni matnlarni taxrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi.

Axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar. Kompyuter ekranidan axborotlarni o'qish kohozga chop etilgan axborotlarni o'qishga qaraganda noqulayrok. To'liq o'qib chiqishni talab etadigan katta xajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni kohozda chop etilgan variantda o'qish birmuncha qulay. Aksariyat xollarda multimedia vositalarida zarur axborotlarni topish va uni kohozga chop etib olish uchun ma'lumotlarni qidirish quroli taqdim etiladi.

Multimediani ta'lilda qo'llash sohalari. Hozirgi kunda o'quv jarayonini takomillashtirish va qo'llab-kuvvatlash uchun ishlab chiqilgan kuppina kompyuter dasturlari mavjud. Ulardan ba'zilari ta'lif jarayoniga doimiy ravishda tafbiq etilmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari;
- ekspert o'rgatish tizimlari;
- o'quv ma'lumotlari bazasi;
- bilimlar bazasi;
- multimedia tizimlari;
- virtual voqelik tizimlari;
- ta'lif kompyuter telekommunikaciya tarmoqlari.

Avtomatlashgan o'qitish tizimi (AO'T) - ta'lif oluvchi bilan faol dialog tarzidagi ta'sirni tashkil etishga mo'ljallangan dasturiy-texnik va o'quv-uslubiy vositalar (dialogning didaktik va psixologik aspektlari) majmuasi. Dialog AO'T va foydalanuvchi orasidagi o'zaro ta'sirlashuv vositasini hisoblanadi. Ta'lif oluvchi tizimdan ish rejimini belgilab olib, materialning o'rganish usulini tanlab, javoblarni tizimga kiritadi. AO'T materiallarni o'rganish usullarini va yo'llarini tanlaydi va ta'lif oluvchining javoblarini talqin etib beradi, ta'lif jarayonining borish tartibini tanlaydi.

O'quv ma'lumotlar bazasi va bilimlar bazasi - berilgan sinf o'quv topshiriqlarini ma'lumotlar va tanlashni amalga oshirish, saralash uchun multimedia tuplami shakllantirishni faqo'yo etadi. Bilimlar bazasini fanning asosiy tushunchalari, topshiriqlar, ularning yechimi, mashqlar va usullar majmuasi, ta'lif oluvchi yo'l quyishi mumkin bo'lgan xatolar va ularning oldini olish uchun ma'lumotlar tashkil qiladi.

Ekspert o'rgatish tizimlari (EO'T) - ma'lum soxadagi bilimlarni uz ichiga oladi. Multimediali vositalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etish quyidagi instrumental vositalarning keng taklifi yetishmasligi sababli qiyinlashmoqda:

- o'quv jarayonini boshqarish qismi tizimi;
- o'quv topshiriqlarini shakllantirish qismi tizimi;
- o'quv masalalarni yechish vositas;
- o'quvchilarining xatolarini tashxis etish vositalari.

EO'Tni loyihalashtirish va ishlab chiqish maxsus instrumental vositalalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunday vositalarning amaliy foydasi quyidagilardan iborat:

- turli ta'lif soxalarida quylgan talab va chegaralarga javob beradigan EO'Tni ishlab chiqish muddati va narxining qisqarishi;

- ko'p jihatli va formallashtirish qiyin bo'lgan o'quv jarayoni samaradorligini foydalanuvchi tomonidan quyiladigan turi shartlarda tahlil qilish;

- tarmoq tuzilmaga ega bo'lgan EUTni yaratishda ishlab chiqish muddati va qiymatini qisqartirish xamda kompyuter imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Bilimlarning ikki turi farqlanadi: deklarativ bilimlar, ya'n turi xil fakt, hodisa va qonuniyatlar haqidagi bilimlar va protsedurali bilimlar, masalalarni yechish ko'nikmasi. Protcedurali bilimlar faol amaliy mashqlar orqali deklarativ bilimlar asosida shakllanadi. Shu bilimlarning mavjudligi malakali mutaxassis (ekspert)larni yangi o'rganganlardan farqlaydi.

Deklarativ bilimlarni o'rgatishning kompyuter tizimlari anchanidan beri qo'llanib kelinmoqda, ularning sifati esa

zamonaviy gipertekst va multimedia texnologiyalari hisobiga yuqori darajaga kutarilgan. Ma'lum qiyinchiliklar ikkinchi turdag'i bilimlarni uzatish bilan bogliq, chunki buning uchun ekspertning protsedurali bilimlariga asoslangan va masala yechishni o'rgatishga imkon beradigan muhit zarur. Bu kabi tizimlarni algebra va geometriyaning odatiy masalalarini yechish kabi formallahgan soxalar uchun yaratish muammo emas, bu holda ekspert - matematik to'hri yechimga olib keladigan ideal strategiyani ko'rsatishi mumkin. Unchaliq aniqlanmagan bilim soxalarida esa xolat mutlaqo boshqacha. Bu esa nafaqt an'anaviy ma'lumotlarga ishlov berish uslublariga asoslangan, balki bilimlar ombori - muammo soxasidagi ob'ektlar va ularning o'zaro aloqasini ma'lum formallashtirish qoidasi (uslubi) yordamida aks etuvchi bilimlar birligini yaratish va undan foydalanish uslublariga asoslangan dasturiy tizimlar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Yangi axborot texnologiyali kompyuter tizimlari

- qaror qilishni qo'llab - quvvatlash tizimlari (QQQT) - foydalanuvchilarga tuzilmasi aniq bo'limgan soxalarda yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Ular yordamchi vazifani bajarib, foydalanuvchining qobiliyatlarini kengaytiradi, lekin yechim topish jarayonida sub'ektiv fikr hisobga olinishi talab etilganligi sababli to'liq formallashtirilishi va kompyuter orqali amalga oshirilishi mumkin bo'limgan xollarda foydalanuvchi fikri va qarori urnini bosmaydi. Qaror qilishni qo'llab-quvvatlash multimediali tizimlaridan amaliyotda eng keng foydalaniladigan soxa - bu boshqarish faoliyatining turli shakllari uchun rejalashtirish va taxmin qilish. QQQT odatda ma'lumotlar bazasi, turli xildagi ma'lumotlarni qayta ishlash va taqdim etish vositalari, foydalanuvchi bilan muloqotni amalga oshirish vositalari va matematik dasturlash, statistik tahlil, uyinlar nazariyasi, qaror qabul qilish nazariyasi uslublari va modellari xamda tizimning moslashish imkoniyatlari va o'zlashtirishni ta'minlaydigan evristik uslublar majmularini uz ichiga oladi. So'nggi yigirma yil davomida ta'limgarayoni uchun mo'ljallangan ekspert tizimlarini yaratish va foydalanish soxasida intellektual

tizimlar bo'yicha mutaxassislar tomonidan faol tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunday o'quv tizimlarining "ekspertligi" ularda ta'lum berish metodikasi bo'yicha bilimlarning mavjudligidan iborat, bu uqituvchilarga ta'lum berish, o'quvchilarga esa ta'lum oshiga yordam beradi. Ammo xozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan tizimlar aksariyat xollarda o'quvchi bilan muloqotni fashkil etishda cheklangan uslublardan foydalanadi, ish jarayoni son aniq tushuntirilmaydi. Ekspert o'quv tizimlarining paydo bo'lishi o'quv jarayonida multimediali vositalardan foydalanish soxasidagi mavjud yondashuvlarni qayta ko'rishni talab etadi.

O'quv ma'lumotlar bazalari va bilimlar omborlari

ma'lum sinf o'quv masalalari uchun multimediali vositalar niplamini tayyorlash va ularda mavjud bo'lgan ma'motlarni tantash, saralash, tahlil qilish va qayta ishslash imkonini beradi. Bilimlar omborlarida fan soxasidagi asosiy tushunchalar tavsifi, masalalarni yechish strategiyasi va taktikasi, mashqlar va misollar majmui, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan asosiy xatolar ruyxati va ularni bartaraf etish uchun ma'lumotlar keltiriladi.

7.3. Elektron o'quv adabiyotlari yaratishda multimediani qo'llash

Bugungi kunda eng ommabop mavzu - multimedia loyihasini yaratish. Bu yerda har kim o'zining bor ijodiy o'ziga sosligini, aql-zakovatini, bilimini, nozik didini namoyon qilishi mumkin. Afsuski, taqdimot tayyorlash va ma'lumotlar bazasi yaratish bilimlariga ega bo'lmasdan multimediali loyiha tayyorlab bo'lmaydi, shunga qaramasdan maxsus dasturiy vositalar borki, ularning ishslash texnologiyasini o'rganib, ko'p funktsiyali ishslash vositalariga ega bo'lish mumkin. Biz sizga namunali dasturiy vositalar yordamida amalda shunday qilishni o'rgatamiz. Vositalarni kanday o'zlashtirishingiz emas, balki multimediala mahsulotini yaratish texnologiyasining uzi muhim hisoblanadi.

Multimedia mahsuloti o'zi nima? Bu xujjatli filmga juda o'xshash, faqat kompyuterda mavjud mahsulot. Bu

yerda musiqa, rang effektlari, harakat (animatsiya), ovoz bo'lib. Multimedia mahsulotida asosiy narsa nima? Har bir filmda bo'lgani kabi bu - stsenariy. Siz bir vaqtning o'zida xam stsenarist, ham rejissyor, xam rassom, xam operator bo'lishingiz kerak. Faqatgina o'z mavzusini o'ylab topish emas, balki uni kompyuter ekrani maydoniga mos ravishda qismlarga bo'lib taqdim etishni xam o'rganish kerak. Siz rejissyor va rassom sifatida har bir kadr bezagi va ularning o'zaro aloqasini uylab topishingiz kerak. Alovida slaydlar, fragmentlar, ma'lumotlар bazalari yaratish bo'yicha oldindan kup ishlash talab kiliadi. Faqat shundan keyingina avvaldan tayyorlangan barcha fragmentlarni birlashtirishga kirishish mumkin. Kompyuterdagi entsiklopediyalar, elektron darsliklar, dam olish va bilim olish uchun zarur dasturlar va boshkalar xakida gap ketganda xozirgi vaqtida asosan multimedia mahsuloti yaratishga katta e'tibor qaratilmokda.

Multimedia mahsuloti o'zi nima? **Birinchidan**, foydalanuvchiga albatta interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson va kompyuter o'rtaida komandalar va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot. **Ikkinchidan**, turli video va audio effektlar ishlatalidigan muhit. U tomoshabinga o'zicha u yoki bu stsenariyni tanlash imkonini beruvchi videofilmni juda eslatadi. Multimedia mahsuloti - tarkibiga musiqa taralishi, videokliplar, animatsiya, kartinalar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlар bazalari va boshkalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulot. Multimedia mahsulotlarini quyidagi larda bo'lish mumkin:

- entsiklopediyalar;
- o'rgatuvchi dasturlar;
- ongni rivojlantiruvchi dasturlar;
- bolalar uchun dasturlar;
- o'yinlar.

So'nggi yillarda multimedia mahsulotlari keng haridorlar olishi mumkin bo'lgan darajaga keldi. Ularning ishlatalishi har doim ham bir xil emas. Turli multimedia jixozlarini sotib olishda

quyidagi ko'rsatkichlarga axamiyat berish kerak:

- berilayotgan materialning sifati va ishonchhliligi;
- berilayotgan grafik materialning sifati;
- ovoz jurligi (matn, musiqiy bezak va b.);
- videomaterial mavjudligi va ularning sifati;
- interfaollik imkoniyatlari (turli yunalishlarda ishlash, materialni chuqur o'rganish, chop etish imkoniyati va boshqalar);
- do'stona interfeys.

Har bir tayyor multimedia mahsuloti xam ushbu talablarga javob beravermaydi, qolaversa, sizning shaxsiy qisqishlaringiz mualliflar tomonidan taklif qilingan yunalishdan farq qilishi mumkin. Bu xolatda siz tanlagan mayzuingizni ochib beradigan uz dasturiy mahsulotingizni ishlab chiqishingiz va xususiy interfeysingizni yaratishingiz mumkin. Multimedia mahsuloti ishlab chiqish qiyin va qimmat toradigan jarayon bo'lishiga qaramasdan nafaqat dasturchilar, balki kuplab rassomlar, dizaynerlar ushbu o'ziga tortuvchi ishga qo'l urmoqdalar. Multimedia mahsuloti yaratish uchun quyidagi larda bo'lish mumkin:

Butun malakali dasturchilar guruxi bilan ishlashni talab qiluvchi dasturlash tili.

Instrumental vositalar, ya'ni Macromedia Director, Formula Graphics Multimedia System, Multimedia Creator, Asymetrix ToolBook, AuthorWare Professional va boshqa shu kabi maxsus dasturiy mahsulotlar. Bu shaklda yaratilgan toyihalar birmuncha arzon, shu bois unchalik universal emas, qu'llanilgan instrumentlar imkoniyatlari cheklangan bo'lsada, malakali foydalanuvchilar bunday instrumental vositalar yordamida ishlay oladilar.

Ta'lim berish maqsadida multimedia mahsulotini Microsoft Office dasturlari asosida ishlab chiqish mumkin, materialni tayorlash uchun esa PhotoShop (rasmlarni qayta ishlash), Adobe Premier yoki Vstudio2 (videokliplarni qayta ishlash), Stoik Software (tasvirlarni qayta ishlash va morfing yaratish), fonograf Windows 95 (ovozi yozish va uni qayta

ishlash uchun) kabi qushimcha dasturlardan foydalaniladi. Multimediali dasturiy mahsulot kupincha ishlatish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazalaridan tarkib topadi, masalan, Access yoki Works yordamida. Rasmlar yoki kliplar namoyishi PowerPoint dasturi yordamida amalga oshiriladi. Interfaoliik rejimini yaratish uchun to'liqroq izoxga murojaat qilishga yordam beradigan gipermurojaatlardan foydalaniladi. Birinchi navbatda ta'lif beradigan multimediali loyihani yaratib, uning asosida belgilangan mavzular bo'yicha darslar yoki tematik entsiklopediyalar ishlab chiqishingiz mumkin (musiqa yunalishlari, sevimli qo'shiqchilar, mashxur artistlar, kino yangiliklari va b.). Buning uchun ikki xil dasturiy vositalarga ega bo'lish lozim:

- multimedia mahsulotiga qo'shilishi kerak bo'lgan materialni tayyorlash;
- mahsulotning o'zini yaratish.

7.4. Material tayyorlash uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlarning umumiyligi sharxi

Multimedia mahsulotiga qo'shiladigan material rasmlar, audio va videoyozuvlardan, matnlardan xolida berilishi mumkin. Bular ishlash uchun munosib instrumentlarga ega bo'lgan o'z dasturiy vositalari mavjud ma'lumotning turli ko'rinishlaridir. Kuyida ma'lumotning turli shakllari uchun nisbatan mashxur dasturiy mahsulotlar keltiriladi.

Grafik ob'ektlarni qayta ishlash. Grafik ob'ektlar bilan ishlashda faoliyatning ikki shaklini ajratib olish kerak: skanerlash va rasm yaratish (taxrirlash). Skanerlash deganda qogoz ko'rinishidagi ma'lumot tashuvchilardan maxsus qurilma - skaner yordamida axborotning avtomatik o'qilishi va kompyuterga kiritilishi jarayoni tushuniladi. Rasmlarni skanerlash uchun quyidagi dasturiy mahsulotlardan foydalaniladi.

- PhotoEditor - Microsoft Office tarkibiga kiruvchi rasm skanerlashga yordam beruvchi xamda grafik material tayyorlash

uchun ba'zi operaqiyalarni bajaruvchi dastur (kontrast, yoruglik, ranglilik va rasm orientaqiyasini o'zgartirish).

• PhotoPaint - rasmni skanerlash xamda materialga dastlabki ishlov berishga imkon beruvchi dastur (tuzatish, rang o'zgartirish, orientaqiya, masshtab, gamma nurlari bilan tuyinganlik va b. ni o'zgartirish).

• Rasm yaratish va taxrirlash sizga tanish. Bu yerda keng tarqalgan dasturiy vositalarga qisqacha ta'rif berib utamiz:

- PhotoShop - grafik fayllarni qayta ishlashga imkon beruvchi dasturiy mahsulot. Ushbu taxrir dasturi kupgina fayl formatlari (JPG, GIF, PSD, TIF va boshqalar) bilan ishlaydi, rasmlarni standart qayta ishlashdan tashqari ularni turli filtriardan (qayirish, burtma ko'rinish berish, donadorlik, yoritilganlik darajasi va boshqalar) utkazishga imkon beradi.

- Stoik ArtMen - Stoik Software dasturiy mahsulotlari safiga kiradi va turli rassomlar tomonidan chizilganga o'shatib qayta ishlashga yordam beradi, masalan, akvarelda, moybuyoqda, o'yma naqsh, emal va b.

- Paint - rasm orientatsiyasini o'zgartirish, tozalash, belgilangan maydonni kesib olishga imkon beruvchi standart grafik muharrir. Faqat BMP va PCX fayllari bilan ishlaydi.

Videoyozuvlarni qayta ishlash. Videoyozuvlardan bilan ishlash videomagnitofon yordamida yozib olingan tasvirni oldindan raqamli ko'rinishga utkazishni talab qiladi. Tasvirni raqamli shaklga utkazish deganda materialni analog shaklidan kompyuterga kiritish mumkin buladigan raqamli shaklga o'zgartirish tushuniladi. Tasvirni raqamli shaklga utkazish uchun kompyuter maxsus videokarta, TV-tyuner va unga samrox bo'lgan dasturiy mahsulot bilan jixozlanishi kerak. Itaqamli shaklga o'tkazilgan videoyozi TV-tyuner talab qilinmaydi, quyidagi dasturiy mahsulotlar bo'lishi yetarli:

- Vstudio2 - videomagnitofondan videoyozi qoqamliga utkazish uchun ishlatiladi; videoparchalarni turli shaklda montaj qilishga imkon beradi.

- Adobe Premier - fragmentlarni raqamlashtirish va ular orasida kuplab o'tishlar bilan montaj qiluvchi

murakkabroq dasturiy mahsulot. Adobe Premier kadrni ulchamini va ularning orientaqiyasini (aylanish, kadr harakati traektoriyasini) o'zgartirishi mumkin.

• **MorphMan** - Stoik Software tarkibiga kiruvchi va videomaterial montaji xamda morfing yaratishga imkon beruvchi dastur. Morfing deganda bir tasvirning boshqasiga qadamba-qadam o'zgarib o'tishi tushuniladi.

• Ushbu dastur statik morfing bilan birga alohida videofragmentlar orasida xam morfing yarata oladi. Bunday qayta ishlovlar natijasida AVI kengaytmali videofayl yaratiladi.

Matnni qayta ishlash. Matn bilan ishlashda uning qaysidir qismini bevosita klaviatura yordamida kompyuterga kiritish mumkin, katta xajmdagi o'zgarmaydigan matnlarni keyinchalik maxsus dasturiy mahsulotlar yordamida qayta ishlashni kuzda tutib skaner yordamida kiritish qulay.

FineReader - keyinchalik matn muharrirlarida tahrirlash uchun skanerlangan materiallarni matn shakliga utkazuvchi dastur.

Multimedia mahsulotlari yaratishga mo'ljallangan dasturlar sharxi.

Fonograf - Windows 95ning (CD-disklar, mikrofon va chiziqli) ovoz yozishga uni taxrirlash (ovozni ko'tarish/pasaytirish, tezlikni ko'tarish/pasaytirish, exo effekti yaratish) ga imkon beradigan standart dasturi.

Macromedia Director -taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX-tehnologiyalar bilan ishlaydi va tugmalar, slaydlar, klip va animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi.

Formula Graphics Multimedia System - interfaol rejimda ishlovchi multimedia dasturlarini tayyorlashni ta'minlaydi.

Sanab o'tilgan dasturlar qimmat turadi, shuning uchun foydalanuvchilar orasida bular kam ishlatiladi. Maktabda multimedia loyihalarni ishlab chiqish uchun nima qilish kerak, buning uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan Microsoft Office

dasturlaridan foydalanish yetarli. Agar loyihangizga ma'lumotlar bayasi qushishni istasangiz, sizga Access, animatsiya effektlari bilan taqdimot tayyorlashingiz uchun esa PowerPoint dasturi kerak bo'ladi.

7.5. Multimedia loyihasini ishlab chiqish bosqichlari

Multimedia loyihasini ishlab chiqishda o'rtacha solatdag'i mahsulotdan a'lo darajadagi mahsulotni farqlay olish uchun ayrim mezonlarga e'tibor qaratish lozim buladi. Birinchidan, e'tiborga olinishi kerak bo'lgan narsa - bu loyihaning mavzusi. U kupchilik foydalanuvchilarga qiziqarli bo'lishi kerak, shundagina ushbu mahsulot tanila boshlaydi. Mayzuni tanlashda uning dolzarbliji, ko'rib chiqilayotgan masalalarning utkirligi, ijodiy va madaniy rivojlantirish imkoniyatlari, dunyoqarashni kengaytirish darajasi xam uta muhim sanaladi. Loyihani yaratishda ikkinchi muhim narsa - bu uning quyidagilardan iborat buladigan amaliy maqsadidir:

- qandaydir axborotni namoyish etishda (masalan, yoqtirgan qushiqchilaringizni tanlash);
- qaysidir malakalarga o'rgatishda (masalan, sochni qanday turmaklash yoki ovqat tayyorlash);
- qaysidir soxa bo'yicha bilimlarni berish (masalan, o'quv fanlari bo'yicha multimedia darslari yoki ma'lumotnomalar yaratish).
- Loyihani yaratishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan uchinchi narsa yaxshi yozilgan sqenariy va ish jarayonida ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatidir. Sizning loyihangizga bo'lgan talab siz taqdim etayotgan axborotlar bilan ishlashning qulayligiga bogliq. Grafik va videomateriallarning sifati to'rtinchi muhim narsa hisoblanadi.
- Videomateriallarning mavjudligi har qanday axborotni o'zlashtirishni yaxshilaydi, grafikaning yuqori sifatliligi esa rasm va slaydlarni zavqlanib ko'rish imkoniyatini beradi, sifatning past bo'lishi noqulaylik tuhdiradi va materialning o'zlashtirilishiga xalaqit beradi. Bunday sifat loyihaga jalb

etilgan matnlarga xam taalluqli. X, yech qanday orfografiq yoki stilistik xatolarga yo'l quyib bo'lmaydi. Axborotlarning tezkorligi, to'liqligi va xaqqoniyligi xam muhimdir.

Loyiha ustida ish boshlaganda ma'lumotlarni taqdim etish modelini tanlash lozim va u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- axborotlar taqdim etilishining kurgazmaliligi;
- axborotlar kiritishning soddaligi;
- axborotlarni qidirish, ko'rish va tanlash qulayligi;
- loyihani qayta tuzatish imkoniyati (yangi ma'lumot qushish yoki uchirish);

□ interfaol rejimni ta'minlab beruvchi yaxshi interfey.

Multimedia loyihasini ishlab chiqishda ish bosqichlarining muayyan ketma-ketligini saqlash kerak bo'ladi.

I bosqich. Mavzuni tanlash va muammoning qo'yilishi. Mavzu aniqlangandan sung multimedia mahsulotini yaratish uchun aniq topshiriqlarni yozish kerak buladi, u yerda maqsad va vazifalar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

II bosqich. Ob'ektni tahlil qilish.

III bosqich. Stenariyni ishlab chiqish va modelni sintez qilish. Stenariyni ishlab chiqishda mahsulot bilan ishslash ketma-ketligi, ishning o'zgarishi mumkinligi va undan chiqish (ishni tugatish)ni nazarda to'tish kerak buladi. Avariya xolatlarining oldini olish maksadida ularni hisoblab chiqish muhim, shuningdek, ishning kup variantlilik darajasini, ya'nini bir xil natijaga turli yo'llar bilan erishish imkoniyatlarini tekshirib ko'rish kerak. Sqenariyda ish jarayoniga tovush jurligi kiritilgan bo'lishi, masalan, ekranda matn musikiy yoki istalgan tovush jurligida paydo bo'lishi kerak. Bunda unisi xam, bunisi xam ishga xalakit bermasligi va toliktirmasligini hisobga olish lozim. Agar dastur imkoniyatlari yo'l bersa, tovushni uchirib kuyishni xam nazarda to'tish mumkin. Ikkinchchi bosqich tahlili natijalaridan foydalangan holda kelgusi loyihaning muayyan modelini tanlash kerak. Model tanlanganidan sung ilovalar yoki bo'linlar orasidagi boglanishlarni ko'rsatgan holda uning chizmasini chizish kerak.

IV bosqich. Axborotlarni taqdim etish shakli va dasturiy mahsulotlarni tanlash.

□ Stenariy ishlab chiqilib, model yaratilganidan sung loyihani realizaqiya qilish uchun dasturiy mahsulotni Aniqlash kerak buladi. Bu bosqichda ikki xil dasturiy mahsulotlar ta'minlangan bo'lishi kerak:

□ proektni tashkil etuvchi: grafik ob'ektlar, audio- va videoyozuvlari, matnlarni tayyorlash va materiallarni kayta ishslash uchun;

□ multimedia mahsulotini yaratish uchun, ya'ni bevosita ish qurollari.

Dasturiy vositalar tanlab olingandan sung axborotlarni taqdim etish shakli va uni realizaqiya qilish instrumentlarini tanlash zarur. Agar sizning loyihangizga Access ilovasida tayyorlangan ma'lumotlar bazasi kiritilgan bulsa, axborotlarni jadval yoki shakl ko'rinishida berish mumkin. Instrumentlar sifatida "Panel instrumentov" yoki shakl va tugmachalarni yaratish bo'yicha masterlar xizmat qilishi mumkin. PowerPoint axborotlar alohida slaydlar yoki ob'ektlar (matnli yoki grafik) ko'rinishida buladi. PowerPoint instrumentlar sifatida animatsiyalar, rasm chizish yoki formatlash paneli ishlatiladi.

V bosqich. Ob'ektning kompyuter modelini sintez qilish. Ko'rib chiqilgan barcha imkoniyatlar tanlab olinganidan sung loyihangizni kompyuterda amalga oshirishga kirishish mumkin. Kompyuter modelini yaratishda yana ikkita bosqichdan o'tishga to'g'ri keladi.

□ **Ishlash uchun materiallarni tayyorlash.** Bu bosqichda siz tanlangan dasturiy mahsulotlar yordamida grafik, matnli, audio, video materiallar tayyorlanadi. Grafik axborotlar bilan ishslashda shunga axamiyat beringki, siz tanlangan rasmlarning sifati kancha yuqori bulsa, ular vinchesterda va kompyuter xotirasida shunchalik katta joyni egallaydi va sizning mahsulotingiz sekinrok ishlaydi. Videokliplarni yaratishda kadr ulchamlari va axborotlarning siqilish darajasiga e'tibor qarating. Kadr ulchami ekran kattaligidagi bo'lgan videokliplarni yaratishda fayning xajmi bir necha yuz megabaytlarni tashkil

kiladi. Kadr ulchamlari katta bo'lganda va kam darajada sikilganda klipni namoyish qilish tezligi keskin pasayadi. U yolda bu parametrlarni tanlash kompyuteringizning imkoniyatlariga boglik. Materiallarni tayyorlash bo'yicha ishlash tajriba orttirish orkali paydo buladigan yuqori malakani talab etadi.

□ Multimedia mahsulotini yaratish. Bu bosqichda tayyorlangan materiallar va tanlangan dasturiy vositalar yordamida multimedia loyihangizning kompyuter modeli yaratiladi. Keyingi mavzu bu jarayonlarning to'liq texnologiyasini ko'rib chiqishga bahishlanadi.

VI-bosqich. Multimedia mahsuloti bilan ishlash. Endi siz yaratgan multimedia mahsuloti bilan ishlash, ya'nii ko'rish, izlash, axborotlarni tanlab olish mumkin. Raqamli multimedia va yangi axborot texnologiyalarini elektron interfaol o'quv qo'llanmalari va taqdimotlarini yaratishda qo'llash o'quv jarayonida kuchli yordamchi vosita hisoblanadi. O'qitishning elektron vositalari arxitekturasi o'qitish uslublariga bogliq holda turlicha bo'lishi mumkin. Taqdimot yoki film xoxishga ko'ra - axborot uchun ma'lumotlar, bilim berish, namoyish qilish vazifalarini bajarishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari real xolatga uxshagan virtual modellarni yaratish imkonini beradi. Kompyuter grafikasi yangilikdan zaruratga aylandi, lekin multimedia texnologiyalari turli Web-taqdimotlarni loyihalashtirishda alohida axamiyatga ega, ma'ruzalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari shular jumlasidandir. Ular loyihani yaratishda ijodiy yondashuvga e'tibor qaratishga yordam beradi. O'qituvchi yoki kursni loyihalashtiruvchi taqdimotlarni yaratishda turli murakkablikdagi vizual materiallarni taklif etishi mumkin. Bundan tashqari, yakuniy mahsulotga ta'sir etuvchi ishtirokchilarning aqliy rivojlanish darjasini, psixologik barqarorligi va shu kabi omillarni e'tiborga olish zarur. Va nixoyat, extimol, xal qiluvchi omil - vizual grafik animatsiyalar va interfaol ishlanmalar ish jarayoniga kulam va o'ziga yarasha joziba beradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, yuqori ilmiy-uslubiy saviyada

elektron o'quv nashrini yaratish o'quv uslublarini takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Elektron o'quv nashrini loyihalashtirishning quyidagi asosiy bosqichlarini ajratish mumkin:

- o'quv materiallari mazmuni modelini tuzish;
- qo'llanma uchun sqenariy ishlab chiqish;
- o'quv paketi uchun sqenariylar va algoritmlar tuzish.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda elektron o'quv nashrining axborot ta'lim muhiti o'qitish vositalarining majmui bo'lishi mumkin. Uning vazifasi esa muayyan xajmdagi yangi bilimlarni mustaxkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Multimedia ilovalari qanday turlarga bo'linadi?
2. Multimedia deganda nimani tushunamiz?
3. Multimedia ilovalari shakllariga nimalar kiradi?
4. Multimedia mahsulotlari deganda nimani tushunamiz?
5. Multimedia ilovalari instrumental vositalariga nimalar kiradi?
6. Grafik ob'ektlarni qayta ishlashda qaysi dasturiy ta'minotdan foydalilanildi?
7. Videoyozuvlarni kayta ishlash qaysi dasturiy ta'minotdan foydalilanildi?

8. WEB TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARI YARATISH

O'zbekistonda ta'lif-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu jarayonlarga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq bo'lib, respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu masalada "... bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan Internet tizimini keng joriy etish, yoshlarimizni O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, ezgu qadriyatlarimiz, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi dotmo e'tiborimiz markazida turishi lozim"ligini ta'kidlaydi.

Nima uchun bugungi kunda ta'lifda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo'ldi?

Birinchidan. o'qituvchini o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta'kidlash mumkin.

Ikkinchidan. ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek talabalarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta'lif tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

8.1. O'quv-metodik ko'rgazmali materiallar

O'quv vositalari — o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun ta'lif jarayonida o'quv axborotlarni tashuvchisi va o'qituvchi hamda o'kuvchilar faoliyatlar qurollari sifatida foydalaniladigan odam tomonidan yaratilgan ob'yektlar, shuningdek tabiyat predmetlaridir.

Odatda o'qitish vositalarini quyidagi turlarga ajratiladi:

Nashrli (dasrliklar va o'quv qo'llanmalar, o'qish kitoblari, xrestomatiyala, ishchi daftarlari, atlaslar, tarqatma materiallar va boshq.);

□ **Elektron ta'lif ashyolari** (ko'pincha ta'lif multimedia deb yuritiluvchi, multimedia darsliklar, tarmoq ta'lif ashyolari, multimedia universal entsiklopediyalar va boshq.);

□ **audiovizual** (slaydlar, slayd-filmalar, ta'lif videofilmlar, o'quv kinofilmlar, sonli tashuvchilardagi o'quv filmlar (Video-DVD, BluRay, HDDVD va boshq.);

□ **tekis ko'rgazmali** (plakatlar, devoriy kartalar, devoriy illyustratsiyalar, magnit taxtalar);

□ **demonstratsion** (gerbariyalar, mulyajlar, maketlar, stendlar, kesimdagagi modellar, demonstratsion modellar);

□ **O'quv asboblar** (kompas, barometr, kolbalar va boshq.);

□ **trenajyorlar va sport anjomlari** (avtotrenajyorlar, gimnastik jihozlar, sport jihozlari, to'plar va boshq.)

□ **o'quv texnikasi** (avtomobillar, traktorlar va boshq.)

8.2. O'qitish vositalarining umumiylilik dilaktik o'rni

O'quvchilarga ko'proq ta'sir etadigan o'qitish vositalari zamonaviy audiovizual va multimedia (multimedia anglis tilidan «ko'pmuhitli» ma'nosini beradi) vositalardir. Ular o'qitish va tarbiyalashning samarali vositalari hisoblanib, uchriginda audio- va videotexnika ularish vositalariga ega bo'lgan kompyuter mavjud bo'lgan dasturiy-apparatli majmua ususidagi axborot texnologiyalari bilan aniqlanadi.

Multimedia - texnologiya intellektual faoliyatni avtomatlashtirish masalalarini yechishda kompyuter imkoniyatlarini ovoz, matn va grafikni, tirik videooni sintez qilish uchun bizga an'anaviy ovoz va videoaxborotlarni taqdim etish imkoniyatini beradi.

O'qitish vositalarini foydalanish tamoyillari:

□ yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

□ ta'lif maqsadlarida qabul qilishning vizual, audial, kinestik sxemalari orqali bola xis-tug'usiga, aqliga, xulqiga ta'sir etish uchun turli-tuman an'anaviy va zamonaviy o'qitish vositalarini garmonik foydalanishx;

□ didaktikaning tamoyillarini (ko'rgazmali, munosiblik va boshq.) tamoyillarini hisobga olish;

□ o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ij od qilishi;

□ o'qitish vositalarini foydalanishda xavfsizlik qoidalarini usiunligi.

Inerfaol taxta, kodoskoplar (grafoproektorlar), kompyuter texnikasi, sonli tashuvchilarni ishlatshning eng yangi vositalari, Internet tarmog'ini rivojlanishi ta'lim muassasalarida o'qitish vositalarini ishlab chiqishga quyiladigan talablarga ham qattiq o'zgartirdi.

O'quv ko'rgazmali qo'llanmalar (O'KQ) va o'quv jarayonining texnik vositalar (O'JTV) axborotni qayta ishlashni, dinamik jarayonlarni tezlashtiradi, murakkab hodisalarini qbul qilish samaradorligini ko'taradi, bajariladigan va nazorat harakatlarda mo'ljal olishni maqsullashtiradi. O'rgatuvchi (O'O'KQ) va o'rgatuvchi texnik vositalar (O'TV) bajariladian harakatlarni samarali o'tkazishga, axborotni qayta ishlashga, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlash mashqlariga, o'qitishni har bir o'kuvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda yakkalashtirishga yordam beradi.

Nazorat o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar (NO'KQ) va nazorat texnik vositalari (NTV) tekshirish natijalarini tezlashtiradi, bunda qisman yoki to'liq yuqori malakali o'qituvchini laborant yoki xatto bir o'quvchi bilan almashtirishga imkoniyat beradi. Ular o'kuvchilarning ishini nazoartini muqobil va haqqoniyligini ta'minlashga yordam beradi.

Axborot o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalar sinfiga kiruvchi tarqatma axborot

didaktik materallar (jadval, sxemalar, chizmalar) ularni o'qituvchi tomonidan sinf taxtasida tasvirlash va o'kuvchilarga konspekt tuzish bo'yicha mashg'ulotlarning vaqtini iqtisod qilishga imkoniyat beradi.

Avvalo, darslik - Davlat ta'lif standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliyistiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishdarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr ekanligini ta'kidlaymiz.

Elektron darslik esa, kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklida;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida;

- multimedia (multimedia - ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida;

- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatlari, talaba «ekran olamida» stereo nuxsasi tasvirlangan haqiqiy olanga kirishi va undagi ob'yektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.



Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda va

o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinnli foydalaniadi. Yangi asr ta'limini rivojlanish tendentsiyasi - axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga keng qo'llash va tarqatishdir.


Bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri turli predmet sohasini o'z ichiga olgan bilimlar bazasini yaratish deb hisoblash mumkin.

Yangi axborot texnologiyalarini ta'limga tafbiq etish ta'limda an'anaviy o'qitish jarayonidan talabaning o'zi ta'lim jarayonini borishini aniqlaydigan yangi jarayoniga o'tishni ta'minlaydi.

Elektron darsliklar yaratish juda murakkab va qiyin ishdir. Ta'lim texnologiyasi markazida **talaba**, texnologiya mazmunida - talabalar tomonidan **mustaqil** ravishda **ta'lim olish** qobiliyatini rivojlantirish; o'quv faoliyat asosida hamkorlik yotadi.

Elektron darslik ishlab chiqishda **uchta asosiy komponent**: o'quv materialni bayon etish, amaliy mashg'ulotlar bajarish va teskari aloqa (talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash jarayoni) e'tiborga olinishi kerak.

Elektron darslik yaratishda **Microsoft FrontPage** dan foydalanish maqsadga muvofiq. Darslikning matni uchun ixtiyoriy matn muharriri qo'llanilishi mumkin bo'lib, tayyorlangan hujjatlarni **txt** formatida yoki birdaniga HTML da yozib qo'yish mumkin.



Yaxshi elektron darslik **ma'ruza** mobaynida **namoyish etish vositasi**, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan **mustaqil ishlash** mashg'ulotlarida **repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, kompyuterda laboratoriya ishlarini bajarish** mobaynida uslubiy yordamchi, talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini **nazoratchisi, amaliy mashg'ulotlar** uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Elektron darslik talabalarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni ishlarini bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi **bilim shakllarini** tavsiya etishi mumkin. O'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, testlar, bir vaqt ni o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, u kursning asosiy axborotli qismini bayon etuvchi taqdimot qilish tashkil etuvchisi; olinigan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, talabalarning bilimlarini oqilona baholash imkoniyatini beradigan testlar kabi uchta komponenti bo'lishi zarur.

Kompyuterga mo'ljallangan darslik:

- bir onda teskari aloqani ta'minlashi;
- zarur axborotni tezlikda topishga yordam berishi;
- gipermatnli tushuntirishlarga ko'p marta murojaat

qilishda vaqtini iqtisod etishi;

ekranga matnni to'g'ridan - to'g'ri chiqaribgina qolmay, balki multimedia texnologiyasi orqali ovozli tahlil qilish va modellashtirishi;

aniq bir bo'lim bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajalariga mos holda tezlikda bilimini baholay olish imkoniyati;

zarur o'quv axborotlarni yangilash imkoniyatini mavjudligi bilan an'anaviy darsliklardan farq qilishi lozim.

Boshqacha aytganda, elektron darslik o'quv materiallarini ilmiy va ko'rgazmali qilib tasvirlash; tahliliy-sintetik imkoniyati; axborotni to'la, tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda tasvirlash, o'quv materialini bir tizimda berish va faollashtirish kabi *axborot-bilim*; muammoli; o'quv materialini o'zlashtirishining mustahkamligi; ta'limga tabaqalashgan va yakkama-yakkalanganligi; moslanuvchanligi va xis-tuyg'ulik ta'sirchanligi kabi *psixologo-pedagogik*; to'la didaktik ta'lim davriyligini, ta'limga interfaolligi, teskari aloqa, o'z-o'zini boshqarish vazifalarini amalga oshirish kabi *boshqarish*, shuningdek, auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlash jarayonida darslik bilan ishlash mumkinligi; ishlashda qulaylilik; katta hajmdagi axborotni saqlashning osonligi va o'quv adabiyoti bilan ishlash uchun zarur maxsus texnik jihozlarni (masalan, kompyuterlarni) mavjudligi kabi *tashkilly-teknologik imkoniyatlarini* mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Elektron darsliklarni yaratishda imkonli boricha uning zarur qismlarini printer orqali chop etish va talabalar xohlagan paytda uni o'qish imkoniyati ham bo'lishini nazarda tutish kerak. Chunki matnni ekrandan ko'p o'qish talabalar ko'ziga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan elektron darsliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim:

predmetdagi axborotlarning yaxshi tuzilishga egaligi;

o'quv predmetning tuzilishidagi elementlariga gipermatnli, namoyishli, audio va video izohlarga asosiy

mavjularni mos kelishi;

matn va namoyish qilish bilan bir qatorda, darslikni asosiy bo'limlari bo'yicha o'qituvchilarning o'quv materialini video yoki audio yozuvli bayonlarini berilishi;

rasm, grafik, model va sxemalarini tezlikda tushuntirish tizimiga ega

bo'lishi va bunda gipergrafikadan foydalanishi;

ko'p oynalik interfeysni qo'llanishi;

matn qismlarida zarur manbalarga murojaat etishga mo'ljallangan gipermatn tizimini mavjudligi;

matn bilan tushuntirish qiyin bo'lgan predmetning boblari qo'shimcha

videoaxborot va animatsiyalik kliplar bilan ta'minlanishi; audioaxborotlar musiqa bilan olib borilishi;

talabalar auditoriya va auditoriyadan tashqarida bajarishi kerak bo'lgan vazifa va mashqlar hamda ularning javoblarini berilishi;

asosiy tushuncha va modullarning izohli lug'atini mavjudligi bilan an'anaviy darsliklardan farq qilishi kerak. Elektron darslikning har bir bo'limidan so'ng o'quv materialini mustahkamlash uchun savollar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasalarining masofali o'qitishida elektron darsliklardan foydalanish orqali o'quv-tarbiya jarayoni Jadallashtiriladi. O'quv-tarbiya jarayonini *Jadallashtirishning asosiy omillari* qatoriga:

- bir maqsadga yo'naltirilganligini ko'tarish;
- talabarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- o'quv mazmunini axborotli hajmini kengaytirish;
- talabarning o'quv-bilish harakatini faollashtirish;
- talabarning o'quv amaliy darajasini tezlashtirishlarni kiritish mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida elektron darsliklarni yaratish tamoyillarini sanash mumkin. Ular:

- o'quv axborotlarni notejis va ko'p darajali tasvirlash;
- talabaga, mustaqil va yakkalashtirilgan bilim olishga yo'naltirilganligi;

- talabaning ruhiy faoliyatini: kuzatish, fikrlash va amaliy faoliyatlarini rivojlanish xususiyatlarini integratsiyalashdir.

Elektron darsliklar gipermatnga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat **o'rgatuvchi**, xatolarni ko'rsatib beruvchi va to'g'ri xulosaga olib keluvchi **mashq qildiruvchi** va testlar orqali nazorat qiluvchi tizimli **nazorat qiluvchi** qismlardan iborat bo'lib, o'ziga quyidagi koiponentalariga ega bo'lishi zarur:

Axborotning elektron eltuvchisi - axborotni raqamli shaklda saqlash va uzatishning maxsus qurilmasi (disketlar, CD-disk va boshqalar).

Elektron darslik bo'limi - an'anaviy darslikning boblariga o'xshash o'quv fanining turli sohasi.

Elektron darslik moduli - an'anaviy darslikning mavzulariyoki paragraflariga o'xshash, o'quv fanining bo'limlarini tashkil etuvchisi.

Virtual ustaxonalar va laboratoriya stendlari - ustaxona jihozlari va laboratoriya stendlarining kompyuter-imtitsiya moduli.

Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadilar:

ta'limga, o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatlari darajada olib borilishini ta'minlashi;

mustaqil ta'limga olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning hamohangligi;

axborot-ta'limga ashyolarini rivojlantirish xususiyatining hamohangligi;

matn va boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) bilan taqdim etishi.

Elektron darsliklar kompyuter texnologiyalari samaralaridan foydalanib, eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish va yodda olishni maksimal darajada engillashtiradi.

Elektron darsliklarning quyidagi ko'rinishlari

mavjud:

- **Foydalanish maqsadlariga ko'ra:** jamoa bo'lib va yakkama-yakka foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo'lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim ashyolarini talab qilmaydigan bo'lishi kerak, chunki ular server kompyuterga joylashtiriladi, ulardan kompyuter tarmoqlari (internet yoki intranet) orqali foydalanish mumkin.

Yakkama-yakka foydalaniladigan elektron darsliklar o'quv materiallarini o'qituvchining ishtirokisiz o'rganishga mo'ljallangan.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg'ulotlarida ham foydalanish mumkin.

- **O'quv materiallarini taqdim etish bo'yicha:** *tartibli va istiyoriy.* Tartibli elektron darsliklar ma'lum bir bo'limga oid bo'lgan o'quv materiallarini o'zlashtirmasdan keyingi bo'limga o'tishga imkoniyat bermaydi.

O'quv materiallari va axborotlarni yangilash bo'yicha: *uzluksiz va davriy yangilanuvchi.* Uzluksiz ravishda yangilanadigan elektron darsliklar odatda, elektron o'quv bazalariga (portallar, Web - saytlar va boshqalar) va elektron iutubxonalariga joylashtiriladi. *Davriy yangilanadigan* elektron darsliklar asosan elektron axborot eltuvchilar (disketa, CD-disk va boshqa) kabilar bilan taqdim etiladi.

Elektron darsliklar quyidagi tamoyillarga javob berishi kerak:

Kvantlash tamoyili: o'quv materiallarini mazmunan yopiq, minimal hajmga ega modullarga ajratish. Modullar bir necha bosqichdan iborat bo'ladi, ammo 4-5 va undan yuqori bosqichga ega elektron darsliklarning didaktik imkoniyatlari pasayadi.

To'laqonlilik tamoyili: o'quv materiallarining asosiy mazmunini qamrab olgan har bir modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak:

- gipermurojaatga ega kalit so'zlar;
- nazariy yadro;

- nazariya bo'yicha nazorat savollari;
- namunalar;
- mustaqil yechish uchun masalalar;
- modul bo'yicha nazorat savollari (javoblari bilan).

Birinchi bosqich modulida quyidagilar bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- testlar;
- nazorat ishi;
- yordamchi ma'lumotnoma (Help);
- tahlillar.

• **Ko'rgazmalilik tamoyili:** elektron darsliklar modullari matn va vizuallashtirilgan materialarning ma'lum nisbatini saqlagan holda illyustratsiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat bo'lishi zarur.

• **Tarmoqlanish tamoyili:** har bir modul boshqa modullar bilan gipermatnli murojaatlар orqali shunday bog'langan bo'lishi kerakki, foydalanuvchi ixtiyoriy paytda bir moduldan boshqasiga o'ta olish mumkin bo'lsin. Tarmoqlanish tamoyili predmetni ketma-ket o'rganishni amalgaga oshirishni rad qilmay, balki uni tavsiya qilingan o'tishlarni mavjud deb hisoblaydi.

• **Erkin boshqarish tamoyili:** talabalar kompyuter ekranidagi kadrlar almashishini mustaqil boshqarishlari, zarur materiallarni istalgan miqdorda ekranga chiqarishlari va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinash imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.

• **Moslashuvchanlik tamoyili:** elektron darsliklar o'quv jarayonida ma'lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishni ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning murakkabligini va chuqurligini, uning amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'shimcha illyustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlarini ko'zda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

• **Kompyuter qo'llash tamoyili:** o'quv materiallarning mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadida talaba istalgan vaqtida kompyuter qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday

qo'llash kompyuter yordamida uzundan-uzun hisoblashlarni amalgaga oshirishda, turli grafiklar chizishda va olingan natijalarni istalgan bosqichda tekshirishda foydalidir.

• **Yigriluvchanlik tamoyili:** elektron darslik (va boshqa o'quv paket) lari umumiy elektron majmualarga yig'ish (komponovka qilish), kengaytirish va yangi bo'lim va mavzular bilan to'ldirish, shuningdek, alohida predmetlar bo'yicha elektron kutubxona (masalan, kafedra kompyuter sinflarida) yoki talaba, o'qituvchi yoki tadqiqotchining (mutaxassislik va o'qiyotgan kursiga mos ravishda) shaxsiy elektron kutubxonasini shakllantirish imkoniyatini beradigan formatda bajarilgan bo'lishi kerak.

8.3. Fanning elektron o'quv-metodik majmuasi

Fanning elektron o'quv-metodik majmuasi (keyingi o'rinnarda EO'MM) deganda, DTS va fan dasturida belgilangan talabiar asosida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetentlik darajasida rivojlantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natjalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalgaga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, mezonlarini o'z ichiga oladi.

EO'MM DTS asosida tuziladigan fan dasturiga muvofiq hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va zamонавии asborot-kommunikatsiya muhitidagi mustaqil ta'lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqiladi.

EO'MM o'z ichiga **majburiy** va **qo'shimcha** qismlarini qamrab oladi. Majburiy qism: me'yoriy hujjatlar; asosiy mazmunni belgilovchi; uslubiy va baholash kabi 4 ta EO'MMning qo'shimcha qismiga elektron xrestomatiya, elektron jurnallar, Internet saytlariga havolalar va h.k. kiritilishi mumkin.

EO'MMni ishlab chiqishga qo'yiladigan didaktik

talablar. EO'MM an'anaviy o'quv nashrlariga qo'yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak. EO'MMga qo'yiladigan didaktik talablar quyida keltirilgan:

- **Talimda ilmiylikni, fan, texnika va texnologiyalarni so'nggi yutuqlarni hisobga olinishi** EO'MM mazmunining etaricha chuqurligini, ishonchlilagini ta'minlaydi. O'quv materialini EO'MM yordamida o'zlashtirish jarayoni o'qitishning zamonaviy usullari bilan mos ravishda qurilishi kerak. Masalan tajriba, eksperiment, solishtirish, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, o'xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish uslubi, shu bilan birga matematik modellashtirish, shuningdek tizimli tahlil uslubi.

- **O'qitishning erishuvchanlik talabları** - EO'MMda amalga oshiriladi va ta'limga oluvchilarning yoshi hamda individual xususiyatlariga xos o'quv materialini o'rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruriyatini bildiradi.

- O'quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, unda talaba bu materialni egallahsga ojizlik qiladi.

- **O'qitishning muammoligini ta'minlash talabları** - ta'limga olish faoliyatining tavsifi shartlashtirilgan. Agar talaba muammoli topshiriqlar va mashqlarni bajarishga harakat qilsa, uning fikrlash faolligi o'sadi. Ushbu didaktik talabning EO'MM yordamida bajarilish darajasi, an'anaviy darsliklar va qo'llanmalardan ko'ra, sezilarli ravishda yuqori bo'ladi.

- **O'qitishmng ko'rgazmulilagini ta'minlash talabları** - ta'limga oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'yeqtalar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

- **O'qitishni onglitigini, ta'limga oluvchingning mustaqilligi va faolligim ta'minlash talabları** - o'quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o'quv axborotini jalb qilish bo'yicha ta'limga oluvchilarning mustaqil ishlashlari uchun EO'MM bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda ta'limga oluvchi uchun o'quv faoliyati yo'naltirilgan maqsad

va mazmunni anglatadi. Fanlar bo'yicha EO'MM tizimli faoliyat yondashuvi asosida ishlab chiqilishi kerak.

- **EOMMdan foydalanishda o'qitishning tizimlitigi va ketma-ketligi talabları** - o'rganiladigan fan sohasida bilimlar va ko'nikmalarining ma'lum tizimining ta'limga oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ketma-ketligini ta'minlanishini bildiradi. Bilim, ko'nikma va mahorat - ta'limga tizimida mantiqiy tartibda shakllanishi va amalda qo'llanilishda o'z o'rnnini topishi jarur. Buning uchun quyidagilar zarurligi aniqlandi:

- o'quv materialini tizimlashtirilgan va tarkiblashtirilgan holda tavsiya qilish;
- o'quv materialining har bir bo'limga shakllanadigan bilim va ko'nikmalarining rivojlanishini inobatga olish;
- o'rganilayotgan o'quv materialining fanlararo bog'liqligini ta'minlash;
- o'quv materiali va ta'limga beruvchi ta'sirlarining uzatilish ketma-ketligini chuqur o'ylab ko'rish;
- bilim berish jarayonini o'qitish mantiqi bilan aniqlanadigan ketma-ketlikda qurish;

- EO'MM tavsiya qilgan axborotni, o'qitishning mazmuni va uslubi ta'limga oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog'liq holda tanlanishi kerak, masalan, mazmunli o'yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni, haqiqiy jarayonlar va ob'yeqtalar modellarini tavsiya qilish yo'li bilan amaliyot faoliyatga bog'lanishni ta'minlash.

- **EOMMdan foydalanishda bilimlarm o'zlashtirish mustahkamligi talabları** - talabalarning o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishlari uchun, ularni chuqur fikrlash, sotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirish katta shamiyatga ega.

- **EOMMdha o'qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiyalari bajarilishi talabları**.

Ta'limga vazifasidagi ana'anaviy nashrlarga qo'yiladigan didaktik talablardan tashqari, EO'MM yaratish va joriy qilinishida zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarning ustunliklaridan foydalanish kabi quyidagi

o'ziga xos didaktik talablar qo'yildi:

Moslashuvchanlik talablari - EO'MM ta'limga oluvchi individual imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida ta'limga oluvchi bilimlari, ko'nikmalari va psixologik xususiyatlariغا moslashtirilgan bo'lishi kerak.

EO'MM moslashuvchanligining uchta darajasi mavjud.

Birinchi darajasi talabalarning o'zlariga qulay bo'lgan individual tempiga mos holda o'quv materialini o'rganish imkoniyati hisoblanadi.

Ikkinci darajasi - ta'limga oluvchi holatining diagnostik tahlili hisoblanadi, uning natijalari asosida, ta'limga berishning mazmuni va uslubi taklif etiladi.

Uchinchi darajasi - ochiqcha yondashuvga asoslanadi, unda foydalanuvchilarning guruhanishi ko'zda tutilmaydi va mualiflar ta'limga oluvchilarning imkoniyati boricha ko'proq kontingenti uchun, iloji boricha ko'proq variantlarini ishlab chiqishlari tavsiya etiladi.

1. **O'qitishnmg interfaollik talablariga o'qitish jarayonida talaba bilan EO'MMning o'zaro hamkorligini ta'minlash kirdi.** EO'MM vositalari interfaol muloqot va teskari aloqani ta'minlashi kerak. Muloqotni tashkil etishning muhim qismi bo'lib, foydalanuvchi harakatiga EO'MMning reaksiyasi hisoblanadi. Teskari aloqa nazoratni amalga oshiradi, keyingi bajariladigan ishlar bo'yicha tavsiyalar beradi, ma'lumotnomasi va tushuntiruvchi axborotlarga doimiy kirishishni amalga oshiradi.

2. EO'MMning o'quv axborotini taqdim qilishida **kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish talablari.** Zamonaviy elektron vositalar imkoniyatlari o'quv axborotini namoyish qilish sifatini tahlil qilishni ko'zda tutadi.

3. EO'MM bilan ishslashda ta'limga oluvchining **intellektual qobiliyatini rivojlantirish talablari.** Talabalarni fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalarni shakllanishini ko'zda tutadi.

4. EO'MM - o'quv materialini namoyish qilishning

tizimlitlik va funksional bog'liqligi talablarini bajarishi kerak.

5. EO'MM-ta'limga berishning **to'liqligiga uzlucksizligini ta'minlashi** kerak.

Uslubiy talablari EO'MMga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xosligi va xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini izlanish usullarini, axborotga ishlov berishning zamонави usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Fanlardan yaratiladigan EO'MM quyidagi uslubiy talablarni qoniqtirishi kerak:

1. EO'MM - o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. EO'MM o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi va fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlik hisobga olinishi.

3. EO'MMda ta'limga oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni ta'minlash uchun turli yildagi nazoratlarni o'tkazish imkoniyatini yaratilishi.

EO'MMni ishlab chiqish va foydalanishga qo'yilgan uslubiy talablarni hisobga olish bilan bir qatorda, uni yaratishning muvaffaqiyatiligi va sifatiga ta'sir qiluvchi bir qator psixologik talablar ham qo'yiladi.

Quyida EO'MMga qo'yiladigan **psixologik talablari** keltirilgan:

1. EO'MMda o'quv materialini namoyish qilish nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi kerak. EO'MM qabul qilish, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, xotira saqlash kabi psixologik jarayonlari xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

2. EO'MMdagi o'quv materiali ta'limga oluvchilarning yoshini, tayanch bilimlarini inobatga olib tuzilishi kerak.

3. EO'MM obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

EO'MMning tuzilmasi va mazmuni o'quv materialini

chuqur o'rganishga mo'ljallash bilan bir vaqtida o'rganilayotgan fanning o'quv dasturiga mos kelishi kerak.

Ta'lif tizimi uchun yaratiladigan EO'MM quyidagi umumiyl talablarni xam qanoatlantirishi kerak:

- EO'MMning mazmuni va tarkibi ta'lif standartining talablariga mos kelishi kerak;

- EO'MM o'zida muammoli va izlanish topshiriqlarining intellektual o'rgatuvchi tizimiga ega bo'lishi kerak;

- EO'MM o'quv faoliyatining izlash, yig'ish, saqlash, tahlil, ishlov berish kabi ko'rinishlarni avtomatlashtirishni; hisoblashlarni, loyihalash va konstruktsiyalashni, tajriba, eksperimentning natijalariga ishlov berishni, nazorat topshiriqlarni, axborotli ishlov berishni avtomatlashtirishni ko'zda tutishi kerak;

- EO'MM murakkab ob'yektlar (mashina, uskuna, apparat, moslama va x.q.) ishining imitatsiyasini, turli xildagi jarayonlarni real, tezlashtirilgan yoki sekinlashtirilgan vaqt masshtabida o'tish vositalarini tarkibida saqlashi kerak;

- EO'MMning trening vositalari - ta'lif oluvchini kelajakdag'i kasbiy faoliyatiga bog'liq holda virtual muhitda tayyorlashni amalga oshirish kerak;

- EO'MMd'a barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochiq tizimiga ega bo'lishi, o'zgaruvchan o'rganiladigan ob'yektlar yoki

jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi kerak.

Texnik talablar. O'quv fanning tayanch ko'rsatkichi o'quv rejisi va dasturlari asosida ushbu fanga ajratilgan auditoriya soatlari hisoblanadi. Agar nazarda tutilgan soatlarni X bilan belgilasak, qolgan barcha normativ ko'rsatkichlar shu soatlarga bog'liq bo'ladi. Dastlabki normativlar sifatida quyidagilar olinadi: bir ma'ruba soati standart to'rt betdan kam bo'limgan matndan iborat bo'ladi. Qolgan barcha me'yorlar tayanch ko'rsatkichlar vazifasini o'tashga xizmat qildi:

a) asosiy matnning hajmi (sahifalarda) **4X** dan

oshmasligi lozim, **X** - tayanch ko'rsatkichdir (masalan, nazariy ta'lifning hajmi 100 soat, demak $4 \times 100 = 400$ bet - asosiy matnning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal hajmi). Ma'ruba materiallarining asosiy matni o'z tarkibiga fan yusasidan mavjud barcha boblar, ilovalar, adabiyotlar ro'yxati hamda atamalar lug'atini qamrab oladi;

b) *trening hamda savollar miqdori 2X* dan oshmasligi lozim;

v) *nazorat testlari hajmi* (savol va topshiriqlar) **0,5X** chegarasidan chiqmasligi lozim;

g) *kurs ishlari mavzulari miqdori ham 0,5X* dan oshmasligiga erishish zarur;

d) *yakuniy nazorat savollari hajmi 0,5X* miqdorida belgilanadi.

Barcha nazariy materiallar (kurs/ma'ruzalar matni) bo'lim, paragraf va mavzulardan tarkib topadi. Har bir bo'lim, mavzu va paragrafni o'qituvchi alohida fayllarga joylashtiradi. EO'MM matni alohida fayllarga nomlarini yozgan holda tegishli mazmun va tarkib asosida joylashtiriladi.

Matnlı fayllar mazmun-mundarijasiga ko'ra lotin harflari yoki raqamlar asosida raqamlanadi. Masalan: kirish, mavzu 1.1 (birinchi modulning birinchi mavzusi), mavzu 2.1 (ikkinchi modulning birinchi mavzusi), xulosa va boshqalar. Mazkur tavsiyanomadan ko'zda tutilgan asosiy maqsad katta hajmdagi matnlardan zarur ma'lumotlarni topish bilan bog'liq muammolarni hal qilishdan iborat.

Shuningdek, alohida fayllarda muallif-o'qituvchi masbg'ulotlar uchun zarur bo'lgan turli jadvallar, adabiyotlar, glossariylar, mualliflar to'g'risidagi axborotlarni joylashtirish imkoniga ega bo'ladi.

Fayllar MS Word, Power Point va boshqa dasturlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Matn mazmuni quyidagilardan xoli bo'lishi zarur:

- ko'chirmalar
- uzun tire,
- yo harfi,

- qo'sh qo'shtirnoqlar («matn» yoki "matn").

Bu hollar kompyuter ekranida yaqqol aks etishi natijasida EO'MM bilan ishlashda dasturchiga yoki undan foydalanuvchiga muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi.

MS Word dasturida terilganda matnning A-4 formati quyidagi standart sahifaga ega bo'ladi:

- Barcha hoshiyalar - 2 sm;
- satrlararo interval - birlik;
- shrifti - Times New Roman;
- kegl - 12;
- rejimi - «eni bo'yicha tekislash»;
- so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishiga yo'l

qo'yilmaydi.

Materiallarni tizimga joylash uchun muallif-o'qituvchi fayllar paketini tayyorlaydi.

Muallif-o'qituvchi tomonidan tayyorlanadigan paket quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Nazariy material - **NAZARIYA** papkasi.
2. Amaliy material - **AMAL, LAB, SEMINAR, MUSTAQIL** ishlар papkalari.
3. Nazorat materiallari - **NAZORAT** papkasi.
4. **index.doc** fayli - kursning mazmuni.
5. **Intro.doc** fayli - kirish.
6. **Authors.doc** fayli - mualliflar haqida ma'lumotlar.
7. **Glossary.doc** fayli - terminlar lug'ati.
8. **Liter.doc** fayli - adabiyotlar ro'yxati
9. **gif, jpg** - fayli formatlardagi grafiklar.

EO'MMni yaratish bosqichlari:

1-bosqich. EO'MM yaratish rejasi va ijrochilar (fan o'qituvchisi, soha mutaxassislari, Davlat ta'lim standarti va fan dasturlarini ishlab chiquvchilari, elektron ta'lim ashyolarini yaratish bo'yicha muhandis, dasturchilar va dizaynerlar, metodistlar, psixologlar) kafedra majlisida tasdiqlanadi.

2-bosqich. **EO'MM tuzilmasini ishlab chiqish** (o'quv materialining o'quvelementlariga bo'linishi va uning tuzilmastin ierarxiya ko'rinishida ko'rgazmali tasvirlashga yo'naltirilgan

o'quv materiali mazmunining modelini ishlab chiqiladi).

3-bosqich. **EOMMning barcha komponentlaridan sahnalari va elektron versiyalarini yaratish** (EO'MM komponentining sahnasi bu - ta'lim bosqichining mazmuni va uning jarayonli qismining turli darajadagi va vazifadagi dasturli tuzilmalar doirasida kadrlar bo'yicha taqsimlanishidir. Jarayonli qism mazmuni qismini ochib berish va namoyish qilish uchun monitor ekranida tasvirlanishi zarur bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Har bir mavzu bo'yicha sahnalar yaratiladi hamda alohida nazariy ma'lumotlarga, laboratoriya va amaliy ishlарiga, seminar mashg'ulotlariga fayl (1-mavzu-ma'ruza.doc, 1-mavzu-laboratoriya.doc, 1-mavzu-seminar.doc, 1-mavzu-test.doc) yaratiladi).

4-bosqich. EO'MM barcha komponentlari bo'yicha yaratilgan sahna va fayllarni gipermatn va giperhavola texnologiyalari orqali dastur tuziladi.

Nazorat savollari::

Kitobni nashr etgandan so'ng, kitobni brauzer oynasi yoki Adobe Flash Player yordamida ko'rish mumkin.



Glossariy elektron axborot ta'lif resurslarining eng asosiy qismi hisoblanadi. Glossariy yoki katalog yaratish uchun Katalog tanlanadi. Zagolovok interaktivnosti bo'limiga Glossariy nomi kiritiladi. Noviy element yordamida har bir termin uchun oyna ochiladi. Element qismida termin nomi va pastki maydonda uning izohi kiritiladi. Barcha termin va uning izohlarini kiritib bo'lgandan so'ng Publikatsiya elementi yordamida glossariyni interaktiv ko'rinishga o'tkazish mumkin.

10.4. Hot Potatoes dasturi

Hot Potatoes dasturi tarmoqda sinov mashqlarini tashkil qilish imkonini beradi. Unda yaratilgan mashqlarni ixtiyoriy brauzer (Internet Explorer, Mozilla, Opera, Chrome, Finiks, Safari, Google,...) bilan ta'minlangan kompyuterda qo'llash mumkin. Mashqlar HTML va JavaScript da yaratiladi lekin siz bu tillar haqida hech qanday tushunchaga ega bo'lmasdan ham dasturni qo'llashinigiz mumkin. Aytmoqchimanki, bu dasturda dasturlash tillaridan xabari bo'lman foydalanuvchi ham bemalol unda har xil turdag'i interaktiv mashqlarni yarata olishi mumkin. Siz bajarishingiz kerak bo'lgan harakat sinov mashqidagi ma'lumot(savol, javob)larni kiritish va so'nggi amal Sozdat Veb-stranisi tugmasini bosishdan iborat bo'ladi. Hattoki, dastur interfeysi o'zbek tilida tashkil qilishingiz mumkin(Vyibor-Interfeys-Perevod interfeysa). Shuni ta'kidlash kerakki, dastur HTML va JavaScript tillarida ishlashni biladigan mutaxassislar uchun unda ixtiyoriy o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Hot Potatoesda beshta sinov mashqlarini yaratuvchi dasturlar mavjud bo'lib ular quyidagilar:

JQuiz dasturida to'rt xil turdag'i sinov mashqlarini tashkil qilishi mumkin: alternativ, qisqa javobni yozish, gibrid (qisqa javobning savoli bir necha urinishlardan so'ng alternativ savol ko'rinishiga keladi), multi tanlovli(bunda ta'limga oluvchi berilgan variantlardan bir nechtasini to'g'ri deb tanlab olishi mumkin).

Alternativ sinov mashqida ta'limga oluvchi javob variantlaridan birini tanlaganida quyidagi holat yuz beradi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, (smayl) aks holda X belgisi chiqadi. Shu bilan birga ta'limga oluvchi berilgan javob nima uchun to'g'ri yoki noto'g'rili haqida izohni ko'rishi mumkin. Agar javob noto'g'ri berilgan bo'lsa, ta'limga oluvchi to'g'ri javobni topgunicha tanlashda davom etadi. Baholash albatta mos ravishda urinish sonlariga nisbatan belgilanadi. Ta'limga oluvchi to'g'rijavob berishi bilan bahosi belgilanadi. Lekin dastur ta'limga oluvchi to'plagan

bahosini yo'qotmagan holda, qolgan alternativ javoblarning izohlari bilan ham tanishib chiqish imkonini beradi. Buning uchun alternativ javoblar tugmasini bosish kerak bo'ladi. Bu imkoniyat ta'limga oluvchida alternativ fikrlashni rivojlantirib, Yechim variantlarini taqqoslash va baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

JQuizning qisqa javobni yozish sinov mashqi ko'rinishida esa, ta'limga oluvchi javobni yozishi kerak bo'ladi. Bunda ta'limga oluvchi Hint tugmasidan foydalanishi mumkin. Bu tugma so'zni tashkil etuvchi harflarini bittadan ko'rsatib, yordam berish vazifasini o'taydi. Bunda baholash mos ravishda murojaatlar soniga bog'liq bo'ladi. Sinov mashqining bu shakli so'zlarni yodda tutishga undash bilan birgalikda, uni orfografik xatosiz yozishni o'rgatadi.

Gibrid sinov mashqida alternativ savol bilan qisqa javobni yozish mashqi kombinatsiyalashadi. Ya'ni ta'limga oluvchi bir necha Hint yordamchi tugma urinishlardan so'ng ham javobni yozishda qiyalsa, Check tugmasini bosishi bilan savol alternativ ko'rinishda namoyon bo'ladi. Albatta bunda ham baholash mos ravishda murojaatlar soniga bog'liq bo'ladi.

Multi tanlovli sinov mashqi tashkil qilinganda javob variantlaridan bir nechta to'g'ri bo'lishi mumkinligi nazarda tutilishi lozim. Ta'limga oluvchi to'g'ri javoblarni barchasini tanlamaguncha baho e'lon qilinmaydi. Bu sinov mashqi an'anaviy alternativ test sinovidn farq qilib, ta'limga oluvchi fikrlash doirasini kengaytiradi.

JCloze dasturida sinov mashqi quyidagicha tashkil qilinadi. Gapning orasiga shunday kiritish maydonchalar tashkil qilinadi, bu maydonchadagi so'zlar gapning kaliti hisoblanadi. Ya'ni kalit so'z gapni to'ldiradi. Bunday maydonchalarni xohlagancha tashkil qilish mumkin. Har bir kalit so'zga yordamchi izohlar tashkil qilish mumkin. Shu o'rinda ta'limga oluvchi yana Hint yordamchi tugmaga murojaat qilib to'g'ri javobning harfma-harf tashkil qilishi ham mumkin. Undan tashqari dastur bir necha kalit so'zlar ro'yxatini tashkil qilishi va ta'limga oluvchi to'g'ri so'zni tanlash orqali ham javob

berish shaklini tashkil qilish mumkin. Buning uchun fayl konfiguratsiyasini o'zgartirish kerak.

JCross dasturida krossvordlar yaratish mumkin. Setkani xohlagan o'lchamda tashkil qilish mumkin. YUqoridagi dasturlarda aytib o'tilganidek, yordamchi Hint yordamchi tugma imkoniyati bunda ham mavjud. Sinov mashqini krossvord ko'rinishida tashkil qilish, sinovni qiziqarli mashg'ulotga aylantiradi. Bunda ta'lif oluvchi savollarga javob berish jarayonida, so'zlarni orfografik yozilishini ham o'rganadi.

MyTest X - bu kompyuter sinovlarini yaratish va o'tkazish, natijalarni to'plash va tahlil qilish va testda ko'rsatilgan shkala bo'yicha reytinglarni tuzish uchun dasturlar tizimi (talabalar uchun test dasturi, test muharriri va natijalar jurnali).

MyTest X to'qqizta ish turi bilan ishlaydi:

yagona tanlov bir nechta tanlov tartibni o'rnatish, muvofiqlikni aniqlash, bayonotlarning haqiqati yoki yolg'onligini ko'rsatuvchi belgi raqamlarni qo'lda kiritish, qo'lda matn kiritish, rasmdagi joyni tanlash, harflarni qayta tartiblash.

Dastur uchta moduldan iborat:

Sinov moduli (MyTestStudent),

Sinov muharriri (MyTestEditor)

Sinov jurnali (MyTestServer).

Bundan tashqari, exe formatida mustaqil testlarni yaratish uchun qo'shimcha MyTestBuilder moduli mavjud.

Sinov moduli (MyTestStudent) - "sinov o'yinchisi". Bu sizga tarmoqdagi sinov faylini ochish yoki olish va sinovdan o'tish imkonini beradi. Sinov jarayoni, xato signalizatsiya, sinov natijasini ko'rsatish usuli tahrirlovchida ko'rsatilgan sinov parametrlariga bog'liq.

Sinovlarni yaratish uchun juda qulay usul mavjud. sinovlar (MyTestEditor) do'stona interfeysga ega. Tahrirlovchidan foydalanib, siz yangi testni yaratishingiz yoki mavjudini o'zgartirishingiz mumkin. Sinov jarayoni shuningdek muharrirda sozlangan: vazifalar va tanlovlardan tartibi, vaqt chegarasi, reyting shkalasi va boshqalar.

Sinov jurnali (MyTestServer) sizga testlarni yanada qulayroq usulda tashkil qilish imkonini beradi. Undan foydalanib, siz test fayllarini tarmoq orqali tarqatishingiz, barcha sinov qilingan kompyuterlardan natijalarni olishingiz va ularni qulay usulda tahlil qilishingiz mumkin.

Dasturda mavjud boy matn formatlash imkoniyatlari savol va javob variantlari. Siz shriftni, belgilarni fonnning rangini belgilashingiz, pastki va pastki satrlardan foydalanishingiz, matnni paragraflarga ajratishingiz va ularga ilg'or formatlashni qo'llashingiz, ro'yxatlardan foydalanishingiz, rasmlar va formulalar qo'yishingiz mumkin ...

Dastur bir nechta mustaqil rejimlarni qo'llab-quvvatlaydi: ta'lif berish jarima zarbasi bo'shashmasdan eksklyuziv.

Erkin rejimda test topshiruvchisi istalgan ketma-ketlikda savollarga javob berishi, istalgan savolga mustaqil ravishda o'tishi (qaytishi) mumkin.

Eksklyuziv rejimda dastur oynasi butun ekranni egallaydi va uni minimallashtirish mumkin emas.

Sinov parametrlari, vazifalar, tovushlar va har bir sinov uchun topshiriqlar uchun tasvirlar - barchasi bitta sinov faylida saqlanadi. Ma'lumotlar bazasi yo'q, qo'shimcha fayllar yo'q - bitta sinov - bitta fayl. Sinov fayli shifrlangan va siqilgan..

MyTest X dasturlaridan foydalanib, siz mahalliy va tarmoq sinovlarini tashkil qilishingiz mumkin. Tarmoqni sinovdan o'tkazish paytida test natijalari tarmoq orqali Journal moduliga uzatilishi yoki elektron pochta orqali yuborilishi mumkin.

Dastur bilan o'rnatiladigan faylning hajmi 3 MB dan kam va yordam bilan birga sinov namunalari 5 MB dan oshmasligi kerak (to'plamdagli testlar soniga qarab).

Agar elektron testdan kompyuter sinovlarini o'tkazish imkonsiz bo'lsa, siz tezda "qog'oz" testini shakllantirishingiz va chop etishingiz mumkin. veb-saytdagi tavsifni yuklab olishingiz va o'rganishingiz mumkin mytest.klyaksa.net Saytdagi forumda savollar

berishingiz mumkin www.klyaksa.net yoki elektron pochta orqali_pochta@klyaksa.net Y Test dasturini o'rnatish

MyTestX dasturi ikkita versiyada - o'rnatuvchi va arxiv ko'rinishida mavjud.

O'rnatuvchi bilan versiya - Ajam foydalanuvchi uchun eng yaxshi va ishonchli tanlov. Faqat sizga faylni yuklab olish va ishga tushirish kerak, shundan so'ng o'rnatish jarayoni sizning aralashuvningizsiz amalga oshiriladi. O'rnatuvchi sizga dasturni osongina o'rnatishga yordam beradi, shuningdek yorliqlar yaratadi, fayllarni birlashtiradi, kerakli interfeysi tilini belgilaydi.

Dastur arxivi U maxsus o'rnatish ehtiyojlariga ega bo'lgan, boshqarish uchun etarli huquqlarga ega bo'lman yoki oddiygina o'rnatuvchilarni yoqtirmaydiganlar uchun mo'ljallangan. Arxiv barcha kerakli fayllar bilan to'ldirilgan, ular shunchaki arxivchini ochish uchun etarli.

O'rnatish vositasi yordamida dasturni o'rnatish Diqqat! Dasturni o'rnatish uchun siz ushbu havolada topishingiz mumkin bo'lgan ma'muriy huquqlar talab etiladimyest. klyaksa.net

O'rnatish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

O'rnatish tili

Sizga o'rnatish tilini tanlash imkoniyati beriladi, uni ro'yxatdan tanlang. Davom etish uchun "OK" ni bosing.

Litsenziya shartnomasi

Ushbu nuqtada siz davom ettirish uchun litsenziya shartnomasini qabul qilishingiz kerak bo'lgan oynani ko'rishingiz kerak. Uning matnini o'qing, "Men kelishuv shartlarini qabul qilaman" -ni tanlang va agar chindan ham rozi bo'lsangiz, "Keyingi" ni bosing.

O'rnatish uchun joy

Keyingi oynada siz dasturni o'rnatadigan joyni tanlashingiz kerak. Agar siz standart o'rnatish joyiga mos bo'lsangiz, "Davom etish" ni bosing.

Komponentlarni tanlash

Keyingi bosqichda siz o'rnatmoqchi bo'lgan

dastur tarkibiy qismlarini tanlashingiz kerak. Aksariyat foydalanuvchilar uchun "To'liq o'rnatish" mos keladi.

Boshlash menyusi yorliqlari

Yorliqlarning joylashuvi to'g'risida sizdan menyuda papkaning nomi haqida so'raladi. Odatiy ism sizga mos kelishi mumkin, agar bu to'g'ri bo'lsa "Keyingi" ni bosing. Ushbu nuqtada siz ushbu yorliqlarni ham olib tashlashingiz mumkin.

Qo'shimcha vazifalar

MyTestX-ni o'rnatish paytida bajarilishi kerak bo'lgan qo'shimcha vazifalarни tanlang, so'ng "Keyingi" ni bosing. Siz ish stolida yorliqlar yaratish, fayllarni dastur bilan bog'lash, namoyish sinovlari uchun papkani belgilash, dastur interfeysi tilini tanlash imkoniyatiga egasiz.

O'rnatish tugadi

"O'rnatish" tugmachasini bosgandan so'ng, MyTestX o'rnatiladi. Agar biron bir xato yuzaga kelmasa, o'rnatish bir necha soniya ichida yakunlanadi. Uni bajarish uchun "Finish" ni bosing.

O'rnatishdan so'ng, dastur Boshqarish panelida o'rnatilgan dasturlar ro'yxatida ko'rindi.

Agar o'rnatish jarayonida siz tegishli variantlarni ko'rsatgan bo'lsangiz (bekor qilmagan bo'lsangiz), keyin ish stolida va Ishga tushirish - Barcha dasturlar menusida dastur yorliqlari paydo bo'ladi. Ulardan foydalanib, siz dasturni tezda ishga tushirishingiz mumkin.

Agar o'rnatish jarayonida siz fayllar birlashmasini ko'rsatgan bo'lsangiz (bekor qilmagan bo'lsangiz), kelajakda sinovli fayllarni ikki marta bosish orqali ochishingiz mumkin.

Arxivdan dasturni o'rnatish

Windows-da arxivlar, fayllar va kataloglar bilan qanday ishlashni bilsangiz, arxivdan o'rnatish juda oson. Siz faqatgina yuklab olingan faylni diskingizdagи katalogga, masalan, "C:\MyTestX" ochishingiz kerak va shundan so'ng kerakli dastur modulini ".exe" kengaytmasi bilan bajariladigan fayldan ishga tushirishingiz kerak. Odatda, ish stolida, Ishga tushirish menusida yoki tez ishga tushirish panelida ushbu faylga

yorliqlar yaratish juda keng tarqalgan. Siz ularni Windows-dan foydalanib yoki sozlamalar menyusi elementlaridan foydalanib yaratishingiz mumkin (saytdagi ma'mur huquqlarini talab qiladi)mytest.klyaksa.net).

Arxivda:

MyTestStudent.exe - sinov dasturi

MyTestEditor.exe - muharriri

MyTestServer.exe - jurnal

help.chm - yordam

MyTestStudent_Config.txt-sinov dasturining sozlamalari
language.txt - interfeys tilini ko'rsatuvchi fayl

ReadMe.doc

Sinovlar \\ DemoTest01.mtf - namunaviy sinov fayllari

Sinovlar \\ DemoTest02.mtf - namunaviy sinov fayllari

Sinovlar \\ DemoTest03.mtf - namunaviy sinov fayllari

Sinovlar \\ GIA2010inf.mtf - GIA2010 kompyuter fanidan test


Shuningdek, boshqa testlar ...

Shuningdek, dastur bilan arxivda uning har qanday modullari ishlashi uchun zarur bo'lgan boshqa xizmat fayllari ham bo'lishi mumkin.

Qulaylik uchun siz yorliqlar yaratishingiz va fayllar bilan bog'lanishingiz mumkin (MyTestStudent sozlamalariga qarang).

Dasturda testni qanday yaratish kerak Mening sinovim Test muharririni ishga tushiring (Boshlash - Barcha dasturlar - MyTestX - MyTestEditor Test Editor). Muharrir fayli paydo bo'ladi


easyQuizzy dasturi haqida




asyQuizzy bilimlarni nazorat qilish uchun elektron vositalar, ya'ni kompyutertestlarini yaratish dasturi hisoblanadi.

Dastur pedagoglar uchun o'quvchilarning bilimini nazorat qilishni ancha osonlashtiradi va ishlarni tekshirishda ularning vaqtini tejaydi, bu kiritilgan parametrlarga muvofiq bahoning avtomatik chiqarilishi hisobiga amalga oshiriladi.

easyQuizzy dasturining (*aktivatori bilan birga*) arxivga joylangan faylini yuklab olishingiz mumkin, eng qizig'i esa, uning sozlamalari tarkibida **o'zbek tiliga** o'tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Dastur birinchi navbatda ta'lif tizimi xodimlariga mo'ljallangan. U juda qisqa vaqt ichida har xil darajadagi bilimlarni nazorat qilish vositalarini ishlab chiqish imkonini beradi.





Dastur foydalanuvchiga keng imkoniyatlarni taqdim etadi:

1. Har xil turdag'i test topshiriqlarini yaratish. Turli xil vazifalarni bir test fayliga joylashtirish mumkin, ularni tasvirlar, formulalar va jadvallar bilan to'ldirish mumkin.

2. Test topshiriqlarini birlashtirish. Ushbu funksiya bir nechta test fayllarini bir joyga "yig'ish" yoki shunchaki kerakli topshiriqlarni nusxalash imkonini beradi.

3. easyQuizzy'ning eng ommabop xususiyatlaridan biri – bu bilimlarni baholashning turli xil tizimlaridir. Bunda testlarni tuzuvchi shaxs berilgan baholash shakllaridan birini tanlashi yoki o'ziga qulay bo'lgan shaklni yaratishi mumkin. Natija to'plangan ballarning yig'indisi, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning foizdagi nisbati yoki **5** va **10 balli** tizimlardan birida baho ko'rinishida chiqadigan qilib sozlanishi mumkin.

4. Savollarni o'ndan ortiq tillarda yaratish mumkin.

5. Yakuniy hisobotlar turli shakllarda chiqarish mumkin. Ular barcha savollarning natijalarini, shuningdek tanlab olingen: to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarni o'z ichiga olgan holatda chiqarilishi mumkin.

6. Testlarning himoyalanganligi – bu testdan o'tuvchilarning javoblarni oldindan kuzatishini cheklaydi. Parolni bilmagan foydalanuvchi esa faylga hech qanday o'zgartirish krita olmaydi.

easyQuizzy dasturi qulay va intuitiv interfeysga ega. Test faylini yaratish uchun ucta asosiy bo'lim ishlataladi:

- test haqida ma'lumot;
- savollar va javoblar;
- test sozlamalari.

Dasturning ichki muharriri **MS Word** matn muharriri bilan deyarli bir xil. Bundan tashqari, matn va multimedia ma'lumotlarini har qanday matnli ma'lumotni qayta ishlash dasturidan osongina nusxalash mumkin. Aktivatsiya kodini hosil qiluvchi dasturni **easyQuizzy** dasturi bilan birga yuklab olishingiz mumkin.

easyQuizzy ko'p vaqt sarflamasdan testlarni yaratish va o'tkazish imkoniyatini beradi. Testlash uchun qo'shimcha dasturi ta'minotni o'rnatish shart emas, tayyor paket ***.exe**

kengaytmasi bilan saqlanadi. Dastur **Windows**'ning barcha versiyalarida ishlaydi, tizimga bo'lgan talablari minimal, bundan tashqari shaxsiy kompyuterlarda ko'p joy egallamaydi.

11. MASOFAVIY TA'LIM

Masofaviy o'qitish yangi va ancha progressiv bo'lgan o'qitish shaklidir. Bu usulni turli ta'limga muassasalariga, xususan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy sohalarga tatbiqi o'quvchitalaba va o'qituvchi (pedagog)larning dunyoning ilg'or ilmiy mактабларining yuqori sifatli o'quv uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so'nggi axborotlaridan, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyatini beradi. Bularning barchasini e'tiborga olgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligi «Ustoz» fondi qiyofasida jahon institutlari bilan oliy ta'limda masofaviy o'qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi.

11.1. Masofaviy ta'limga tizimi tamoyillari va qoidalari

Masofaviy o'qitish talabaga ijobiy ta'sir etadi. O'zini o'zi tashkil etishda, bilim olishga intilishda, kompyuter texnikasi bilan o'zaro ishlash va mustaqil ma'suliyatli vazifalarni hal qilishda uni ijodiy va tafakkur salohiyatini o'stiradi. Masofaviy o'qitish sifati kunduzgi ta'limga olish tartibidan sifat jihatidan qolishmaydi. Masofaviy o'qitish quyidagi ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta'sir etishi lozim;

- ta'limga xizmatlarida aholining ehtiyojini amalga oshirish;
- sifatli tayyorlangan mutaxassislar bilan davlat ehtiyojlarini qondirish;
- aholining ijtimoiy va kasbiy oshirish;
- tadbirkorlik va ijtimoiy faolligi, o'zligini anglashi tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish;
- davlatimizning oliy maktablarida yig'ilgan bilimlar hamda kadrlarning moddiy salohiyatini saqlash va ko'paytirish;
- Rossiya, MDH, Butunjahon Hamjamiyati chegarasida ta'limga fazasining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta'limga olish imkoniyatini ta'minlashni o'z ichiga olgan yaxlit ta'limga fazosini rivojlantirish;
- geosiyosiy masalalarni yechish.

Masofaviy o'qitishning asosiy vazifalarlari quyidagidan iborat:

O'qitish mazmuni. O'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibini amalga oshirish uning tarkibi bilan ifodalanadi. Bu o'quv axborotning tarkibi, tuzilishi va ma'lumoti hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plami, ular kasbiy malaka va idroklarni shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

O'qitish obyekti. Masofaviy o'qitish ta'limgiz xizmatlaridan foydalanuvchi ushbu usulda ta'limgiz oluvchilar obyekti bo'ladi.

O'qitish subyekti. Masofaviy o'qitish subyekti o'qituvchi (pedagog)lar hisoblanadi. O'qituvchi (pedagog) ta'limgiz jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi (pedagog) faoliyatining muhim sohasi bo'lib hisoblanadi.

O'qitish usullari. Masofaviy o'qitish tartibi o'z ichiga beshta umumdidaktik o'qitish usullarini qamrab oladi: axborotretseptiv, reproduktiv muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalarning o'zaro harakat pedagogik aktlarining butun to'plamlarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'qitish vositalari. Masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'limgiz bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan ham foydalilanadi. Ular kompyuter texnikasi, telekommunikatsiyani qo'llashga, hamda ta'minot texnologiyasi sohasida so'nggi erishilgan natijalarga asoslangan.

O'quv-ilmiy moddiy asosi. O'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'quv va o'quv yordamchi joylarni, o'qitish texnika vositalari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy materiallarni oladi.

Moliyaviy-iqtisodiy tizim. Ta'limgizda bozor munosabatlari qatnashchilari sifatida faqat ta'limgiz muassasalarini va ta'limgizni buyurtmachilari bo'lib kelmasdan, balki davlat ham buyurtmachi va iste'molchi bo'ladi.

Masofaviy o'qitishning tashkiliy asoslari. Masofaviy

o'qitish texnologiyasidan foydalanuvchi o'quv tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, umumiyligi tashkillashtirishning o'ziga xosligini ochib berdi:

- uzluksiz ta'limgiz;
- o'quv jarayonining olib borilishiga individual yondashish;
- geografik joylashishi uzoq bo'lgan o'quv muassasalarini yetakchi oliy o'quv yurtlari bazasi markazida masofaviy o'qitishni markazlashtirish;
- tinglovchilar yo'naliishiga ko'ra o'qituvchi (pedagog)-maslahatchilarining mavjudligi.

Masofaviy o'qitishning qulayligi. Kelgusida maqsadga muvofiq ravishda laboratoriya amaliyotlarini o'tkazishni qisqartirish mumkin.

Masofaviy o'qitish nazorati. Bu o'rganilayotgan o'quv materiallarni nazariy o'zlashtirish natijalarini tekshirishdan iborat. Test, haqiqatdan ham fan bo'yicha juda ko'p savollardan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Talaba ular orasidan to'g'ri javobni tanlashi lozim. Testlar o'z-o'zini tekshirishga yaxshi mo'ljallangan va individual mashg'ulotlar uchun juda qulay.

Masofaviy o'qitish qatnashchilari ya'ni, tinglovchilar, o'quvchi-talabalar va o'qituvchi (pedagog)lar yetarli darajada tayyor bo'lishlari, ya'ni masofaviy o'qitishni o'rganish usullaridan, vositalaridan va tashkiliy shakllaridan foydalana bilishlari kerak. Shuning uchun ham fundamental informatika tabiiy-ilmiy fan sifatida masofaviy o'qitishning ajralmas qismi bo'lishi shart.

Oliy ta'limgiz sohasidagi o'qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'limgiz sifatining yanada ortishi kutilmoqda. Bu boroda masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimedia kabi texnologik usullar o'quvchi-talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, qo'llanmalar asosida kompyuter dasturlari ishlab chiqish vazifasini qo'ymoqda. Zero, masofaviy o'qitish

har qanday sohada ham jahon ta'limgan markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so'nggi axborotlarni olish, jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi.


Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'limgan shakllaridan farq qiladi. U o'quvchi-talabalarni o'ziga qulay vaqtida, joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. O'quv kursiga bog'liq bo'limgan holda shaxsiy va guruh talabi asosida o'quv rejalarini ishlab chiqiladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga ilmiy axborot va ma'lumotlar bo'yicha markazlashgan tarmoq orqali o'zaro axborot almashinuvini joriy etish mumkin. O'quv maydonlari, texnik va transport vositalaridan samarali foydalanish, ma'lumotlarni yig'ib bir tizimga solingan holda ifodalab berilishi va mutaxassislarni qayta tayyorlashda ham xarajatlarni kamaytirishga erishishi kutilmoqda. Ta'limgan tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va texnologiyalardan foydalaniadi.

Masofaviy ta'limgan o'qituvchi (pedagog) mutaxassislarning ham vaqtini tejab, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda moddiy manfaatdorligini oshirish bilan mustaqil ta'limgan olish uchun keng sharoit yaratib beradi. Ta'limgan sohasida erishilayotgan yutuqlarning jahon ta'limgan tizimi doirasida almashinuvini tashkil etish, bu sohadagi yutuqlarni qo'lga kiritishni ta'minlashi shubhasizdir.

Masofaviy o'qitish usuli mutaxassis o'qituvchi (pedagog) larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'yamoqda. Chunki, o'quv materiallarini to'ldirib borish, ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan malakasini oshirishlari va bu ko'rsatkichlarni jahon ilmi yutuqlari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etilmoqda. Bu o'qitish usuli ta'limgan talabiga asosan o'quvchi-talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv-uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib, to'ldirilishi mumkin.

Masofaviy ta'limgan berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o'tib, MDH va jahon miqyosidagi yirik ta'limgan markazlari

bilan muloqotda bo'lib, ta'limgan olishning yangi zamonaviy yaxlit ta'limgan imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.



11.2. Masofaviy ta'limgan afzalliklari va kamchiliklari

Masofaviy o'qitishning qulayligi. Kelgusida maqsadga muvofiq ravishda laboratoriya amaliyotlarini o'tkazishni qisqartirish mumkin.

Masofaviy o'qitish nazorati. Bu o'rganilayotgan o'quv materiallarini nazariy o'zlashtirish natijalarini tekshirishdan iborat. Test, haqiqatdan ham fan bo'yicha juda ko'p savollardan tashkil topgan bo'lishi kerak hamda har bir savol uchun bir nechta javob variantlari taklif etiladi. Talaba ular orasidan to'g'ri javobni tanlashi lozim. Testlar o'z-o'zini tekshirishga yaxshi mo'ljallangan va individual mashg'ulotlar uchun juda qulay.

Masofaviy o'qitish qatnashchilari ya'ni, tinglovchilar, o'quvchi-talabalar va o'qituvchi (pedagog)lar yetarli darajada tayyor bo'lishlari, ya'ni masofaviy o'qitishni o'rganish usullaridan, vositalaridan va tashkiliy shakllaridan foydalana bilishlari kerak. Shuning uchun ham fundamental informatika tabiiy-ilmiy fan sifatida masofaviy o'qitishning ajralmas qismi bo'lishi shart.

Oliy ta'limgan sohasidagi o'qitish usullari zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta'limgan sifatining yanada

ortishi kutilmoqda. Bu borada masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Internet, multimedia kabi texnologik usullar o'quvchi-talabalar uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari, qo'llanmalar asosida kompyuter dasturlari ishlab chiqish vazifasini qo'yamoqda. Zero, masofaviy o'qitish har qanday sohada ham jahon ta'lism markazlarining uslubiy adabiyotlari, zamonaviy hamda so'nggi axborotlarni olish, jamlab foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'lism shakllaridan farq qiladi. U o'quvchi-talabalarni o'ziga qulay vaqtida, joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. O'quv kursiga bog'liq bo'lмаган holda shaxsiy va guruh talabi asosida o'quv rejalarini ishlab chiqiladi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga ilmiy axborot va ma'lumotlar bo'yicha markazlashgan tarmoq orqali o'zaro axborot almashinuvini joriy etish mumkin. O'quv maydonlari, texnik va transport vositalaridan samarali foydalanish, ma'lumotlarni yig'ib bir tizimga solingan holda ifodalab berilishi va mutaxassislarini qayta tayyorlashda ham xarajatlarni kamaytirishga erishishi kutilmoqda. Ta'lism-tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va texnologiyalardan foydalaniladi.

Masofaviy ta'lism o'qituvchi (pedagog) mutaxassislarning ham vaqtini tejab, imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda moddiy manfaatdorligini oshirish bilan mustaqil ta'lism olish uchun keng sharoit yaratib beradi. Ta'lism sohasida erishilayotgan yutuqlarning jahon ta'lism tizimi doirasida almashinuvini tashkil etish, bu sohadagi yutuqlarni qo'lga kiritishni ta'minlashi shubhasizdir.

Masofaviy o'qitish usuli mutaxassis o'qituvchi (pedagog) larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'yamoqda. Chunki, o'quv materiallarini to'ldirib borish, ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan malakasini oshirishlari va bu ko'rsatkichlarni jahon ilmi yutuqlari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etilmoqda. Bu o'qitish usuli ta'lism talabiga asosan o'quvchi-talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish,

ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishslash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv-uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib, to'ldirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi bilan masofaviy o'qitishni bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni yechishda ham joriy etish mumkin. Ta'lism sohasiga bo'lgan fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishda qulayliklar yaratish bilan respublikamizning malakali mutaxassislariga bo'lgan talabi ham qondiriladi. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy va kasbiy faoliyklarini oshirishga erishish mumkin. Xususiy tadbirkorlik bilan mashg'ul shaxslarning jamiyat hayotidagi faolligini mustahkamlab, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Bu esa, oliy ta'lism tizimida yig'ilgan ilmiy yutuqlar, mutaxassis xodimlar va ularning ishtirokida yurtimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashdekk ustuvor rejalarini amalga oshirish vazifasini qo'yamoqda.

Masofaviy ta'lism berish usuli respublikamiz sarhadlarini bosib o'tib, MDH va jahon miqyosidagi yirik ta'lism markazlari bilan muloqotda bo'lib, ta'lism olishning yangi zamonaviy yaxlit ta'lism imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Masofaviy o'qitish geografik jihatdan uzoqda joylashgan mакtablar va akademik ta'lism uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lism-tarbiya jarayonini uzoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada masofaviy o'qitish uslubi asosida o'qitish tez vaqt ichida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Masofaviy o'qitish bo'yicha Xalqaro Kengashning tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda jahon miqyosida 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lism olishmoqda. AQShda shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda hamda ular milliy kadrlarni zamon talablari asosida tayyorlash va qayta tayyorlash afzalliklariga egadir.

Masofaviy o'qitishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1.O'qitishning ijodiy muhiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi (pedagog) ilm beradi, o'quvchi- talabalar esa faqat berilgan materialni o'qiydilar. Taklif qilinayotgan masofaviy o'qitish asosida esa o'quvchi-talabalarning o'zları kompyuter axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi hamda o'z o'rniда mehnat ta'limi olishini rag'batlantiradi.

2. Mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish boshlang'ich, o'rta, oliy va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi. Tayyorgarligi turli darajada bo'lgan inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

3. Ish joyidagi katta o'zgarishlar. Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda muhim o'r'in tutadi.

4. O'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositali. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, masofaviy o'qitish asosida ta'lim olish Oliy o'quv yurti tomonidan qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarning boshqalardan ustunligi ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchi (pedagog)lar bilan ta'minlanishidadir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda o'qituvchi (pedagog) auditoriyada o'qitish shartlaridan holi bo'lishi kerak.

11.3. Masofaviy o'qitish jarayonida zaruriy bo'lgan texnika vositalar

Axborot texnologiyasi – obyekt, jarayon yoki hodisalarning holati haqidagi yangi ma'lumotlarni olishda ma'lumotlarni yig'ish usullari, ma'lumotlarni yetkazib berishdan va vositalar majmuidan foydalanish jarayonidir. Axborot texnologiyalari ta'limiy mahsulot va xizmatlarini tashkil etishda dastgoh hisoblanadi.

Ta'limiy mahsulot – ta'lim jarayoniga tatbiq qilish uchun ifodalangan ma'lumotlar majmuidir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi - shaxsiy kompyuter va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi axborot texnologiyasidir.

Jamiyatni axborotlashtirish – fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini va ularning huquqlarini amalga oshirishni qanoatlantirishdagi maqbul shartlarni, davlat va hokimiyat, mahalliy va o'zini o'zi boshqarish organlarini, axborot resurslaridan foydalanish va ularnishakllantirish asosida jamoat birlashmalarini tashkil etishni yaratishning tashkillashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonidir.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish - jamiyatni axborotlashtirishning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish quyidagi qulayliklarga ega:

- jamiyatning har bir a'zosi haqidagi ma'lumot va bilimlarni olishga yo'l ochib beradi;

- shaxsnинг intellektual va ijodiy qulayliklarini rivojlantiradi;

- jamiyatning har bir a'zosi faoliyat bilan malakasini oshirib, faoliyat fazasini tezkor o'zgartiradi;

- masofaviy o'qitish yordamida ta'lim samarasini oshirishni ta'minlaydi.

Ta'lim mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish uchun quyidagi axborot texnologiyalar qo'llaniladi:

- guruhash, turlash, hisoblash, ma'lumotlarni agregatlash uchun ularni qayta ishlash axborot texnologiyalari ;

- masofaviy o'qitish qatnashchilarining axborot talablarini qondirish uchun boshqaruv axborot texnologiyalari;

- fanlar bo'yicha ekspertlar mahsulotlarini masofaviy o'qitishning foydalanuvchilar tomonidan olish imkoniyatini beruvchi ekspert tizimlarining axborot texnologiyalari.

Jahon iqtisodiy tizimlarining dunyo miqyosida umumiy keng tus olishi, jahondagi bir nechta ilg'or mamlakatlarni axborotlashtirish jamoa bosqichiga kirishi va davlatning jahon iqtisodiyot kengashiga olib chiqilishi uchun respublikamiz Prezidenti tomonidan qo'yilgan masalalar, shu bilan birga shartli bo'lgan «raqobatni» hamma tarmoqlarga kiritish, ayniqsa davlatning olyi ma'lumot tarmog'iga kiritilishi davlatimizning olyi ma'lumot tizimidagi raqobatchilik to'g'risidagi muammosi dunyo bozorida faol bo'lishi turgan gap. Berilgan muammoning asosiy yechimlaridan biri yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, shu bilan birga respublikaning olyi ta'lim tizimida masofaviy o'qitish uslubi o'z o'rnini egallashi keraklidigidir. Dunyoda masofaviy o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha juda katta tajriba orttirilgan. Jumladan, tajribali o'qituvchilar, mutaxassislar o'qitilayotgan kishiga yakka tartibda yordam berishi, talabalar o'qishini turli uslubda nazorat qilinishi, ularning bilim saviyasini baholash yo'llari tufayli talaba va o'qituvchilarning o'qish sifati va mehnat unumдорligi oshadi.

Masofaviy o'qitish uslubini sifatli qo'llanishiga quyidagi yo'llanmalar kiradi:

O'qitilayotgan borliqni markazlashtirish. Respublikamiz va xorij olimlari hamda mutaxassislarining bilim va tajribalarini qo'llash, zamonaviy o'quv qurollaridan foydalanish e'tiborda tutiladi. Bunda turli o'quv manbalaridan foydalanish, talabalarni axborot bilan ta'minlash, bu axborot esa o'z navbatida, butun dunyo mutaxassislarini bilimlaridan, elektron kutubxonalardan olingan axborotlarni ishlatalish talaba va o'qituvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'qituvchiga talabni kuchaytirish. Ta'lim jarayonining standart holda jamlanishi, tushunarli holda o'qituvchi (pedagog) larning bilim darajasini oshirish majburiyatini yuklaydi. Bu

uslublar ularning ish natijasi va bilim darajasini ko'tarilishiga yordam beradi.

Oydinlashtirilgan ta'lim berish jarayonining ta'minlanishi, uzluksiz monitoring imkoniyati, o'quv jarayonlarining to'g'ri nazorat qilinishi va boshqarilishini, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va o'quv yurtlari tomonidan o'qituvchi va talabalarning bilim saviyasini tekshirilishini (ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchilarning harakatlarini nazorat qilish, bunga talabaning faolligi va o'qituvchi ishining unumliligi, talabalarning attestatsiyadan o'tkazish amallari ham kiradi) ta'minlanishiga olib keladi. O'qituvchilarni qayta tayyorlash va qayta o'qish tizimlarining samaradorligini oshirishga erishiladi.

O'qitish turining egiluvchanligi. Qulay vaqtida shug'ullanish mumkinligi, qulay joyda va qulay tezlikda o'quvchi-talabalarning bilim qabul qilishining turli shakllarini qo'llash mumkinligi, ular tomonidan modellashtirish va ko'rgazmali vositalarni joyida qo'llash, axborot va bilimlarni yetkazishda ko'rgazmalilik, tasavvurlar hamda o'qitishning o'yin shakllaridan foydalanish kiradi.

O'qituvchining o'rni va xilma-xil imkoniyatlarni ko'tarish. O'qituvchining o'quvchi-talabaga nisbatan shaxsiy yondashuvining turli shakllarini qo'llash. Har bir o'quvchi-talabaning bilim darjasasi va tayyorgarligiga hamda uning qobiliyatiga mos ravishda shaxsiy yondashishni qo'llash mumkin.

O'quvchi-talabaning bilim va tadqiqot motivlari hamda stimullarini rivojlantirish. O'quvchi-talabaning o'qituvchi (pedagog)ga va o'zaro muloqotdagi ishonchsizlik hissiyotidagi psixologik to'siqlarni yo'qotish, talabaning intellektual va ilmiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi tashkillashtirishni rivojlantiradi.

O'quvchi-talabaning shaxsiy faoliyati va o'qitishni birga olib borish. Tejamlik o'qitish jarayonidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. O'quv xonalaridan foydalanishi, yo'l xarajatlari va taklif qilingan malakali o'qituvchi (pedagog)lar mehnatiga haq to'lash. Ular o'z bilimlarini masofadan o'qitish shaklida uzatishlari mumkin. Sog'lig'i, ijtimoiy va moddiy ta'minlanganligidan qat'iy nazar

bilim olishning keng imkoniyatlari yaratilib, ijtimoiy tenglik yuzaga keladi.

O'qitish doirasida musobaqa muhitini yaratish.. Masofadan o'qitish texnologiyasi - jamiyatni axborotlashtirishning umumiyligi oqimi va yo'llari bilan jipslashgan bo'lib, masofaviy o'qitishning texnik vositalarini axborotlashtirish tizimlari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini avtomatlashtirish tizimlarini zamonaviy axborotlashtirish texnologiyasi asosida birlgilikni ta'minlaydi.

Masofaviy o'qitish usulidan foydalanishning kamchiligi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita muloqot va psixologik birlikning chegaralanganligidir.

O'zbekiston Respublika Oliy va O'rta maxsus ta'limgazalarining 2018 yil 21 mayda "Maxsus sirtqi ta'limgaz o'quv jarayonini elektron ta'limgaz resurslari asosida qo'llab-quvvatlashni tashkil etish to'g'risida"gi 447-sonli buyrug'iga asosan yangi o'quv yildan boshlab pedagogika yo'nalihidagi maxsus sirtqi bo'lim talabalari o'quv jarayonini tashkil etishda masofadan turib mustaqil ta'limgaz olishi belgilangan.

O'zbekistonda elektron ta'limgazning ilk bor oliy ta'limgaz tizimida amaliyotga joriy qilinishi rasman e'lon qilindi. Elektron darslarni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar oliy ta'limgaz tizimi amaliyotida ilk bor qo'llanilayotgani sababli, tizimni yo'lga qo'yish bilan bog'liq qator savollar paydo bo'lishi tabiiy, deyiladi. Ta'limgaz muassasalarida elektron ta'limgazni joriy etish markazi axborot xizmatida.

Xo'sh elektron ta'limgazni yo'lga qo'yishdagi tashkiliy jarayonlar qanday amalga oshiriladi?

Barcha tashkiliy jarayonlar beshta bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda 15 ta oliy ta'limgaz muassasasidan jami 450 nafar professor - o'qituvchilar va xodimlarni elektron o'quv resurslarni yaratishga o'rgatish uchun vebinar texnologiyasidan foydalanilgan holda masofaviy o'quv kurslari orqali o'qitiladi. Bu jarayon avgust oyining so'ngiga qadar amalga oshirib bo'linadi.

Ikkinci bosqichda mas'ul professor-o'qituvchilar va xodimlar tomonidan 8 xil pedagogika yo'nalihidagi 144 ta fan elektron o'quv resurslari yaratiladi. Hozirda yaratiladigan elektron o'quv resurslarning tarkibi quyidagicha bo'lishi rejalashtirilmoqda. Unga ko'ra, 1247 ta video ma'ruba, 1247 ta mustaqil o'rganish uchun nazariy ma'lumot, 12000 ta glossariy, 25920 ta bilimlarni nazorat qiladigan interfaol elementlar, 87 ta labaratoriya ishlarni bajarish uchun interfaol elementlar, 24940 ta test sinovlar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqichda mas'ul professor - o'qituvchilar tomonidan yaratilgan o'quv resurslar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tashkil etilgan Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Elektron o'quv resurslar Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan tasdiqlangach, resurslar professor -o'qituvchilar tomonidan platformaga (mooc.edu.uz) joylanadi.

To'rtinchi bosqichda oliy ta'limgaz muassasalarini maxsus sirtqi bo'limida dars berayotgan professor-o'qituvchilarni elektron ta'limgaz tizimidan foydalanish bo'yicha masofaviy tarzda o'qitiladi.

So'nggi bosqichda maxsus sirtqi bo'lim talabalari elektron ta'limgaz tizimidan foydalanadi.

12. MASOFADAN O'QITISH DASTURIY VOSITALARI

12.1. Zoom dasturi

Zoom — Zoom Video Communications kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan videokonferesiylar uyuştirish imkonini beruvchi dastur. Pullik va bepul rejimlari bor. U bepul akkauntlar uchun eng ko'pi 100 kishini qo'shish mumkin bo'lgan vaqt rejimi 40 daqiqagacha chegaralangan videoteleponiya servisini taqdim etadi. Foydalanuvchilar pullik tariflardan birini tanlagan holda 500 kishigacha qo'shish imkonini beruvchi va cheklanmagan vaqtga ega bo'lgan videokonferensiyalarni uyuştirishlari mumkin. 2020-yilgi pandemiya vaqtida masofadan ishlovchilar va masofadan ta'lif oluvchilar va internet orqali jamoaviy suhabatlar uyuştiruvchilar soni oshgani sababli Zoom dasturi dunyo bo'ylab ancha ommalashdi.

Zoom birinchi marta platformalar bozorida 2011 yilda paydo bo'lgan bo'lib, uning asoschisi Erik Yuan hisoblanadi. Erik Yuan Zoom platformasini yaratishdan avval Sisso'da dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'yicha vitse-prezident bo'lib ishlagan. 2011 yilda Yuan rahbariyatga yangi videokonferensaloqa tizimini taqdim etdi, ammo uning loyihasi rad etilgandan so'ng u o'z kompaniyasini ochish uchun va mustaqil bo'lish uchun Sisso'dan ketishga majbur bo'ladi. Yangi platformaning asosiy maqsadi videokonferensaloqa, onlayn uchrashuvlar, chat va mobil hamkorlikni birlashtirgan bir tizim yaratish edi. 2013 yil may oyiga kelib Zoom foydalanuvchilari soni bir millionga yetdi.

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ko'p qismi ushbu dasturni tanlashmoqda, chunki foydalanish uchun qulay shuningdek ishonchli ulanish tizimi Zoom'ni eng yaxshi platformalardan biriga aylantirdi. Foydalanuvchilarning eng faol o'sishi pandemiya davrida, videokonferensaloqa xizmatlari har qachongidan ham ko'proq talabga ega bo'lgan paytga to'g'ri keldi. Bu davrda kompaniya tarixdagi eng katta

daromadni qayd etdi - Erik Yuan 3 oy ichida 4 milliard dollar ishlab oldi.

Erik videoqo'ng'iroqlar platformasini yaratish g'oyasini talabalik davrida o'ylab topdi, chunki u bo'lajak rafiqasini ko'rish uchun 10 soatcha yo'l yurishi kerak edi. Bunday sayohat mablag' ham vaqt sarfini talab qilgani uchun Erik doimo rafiqasini yo'lda ko'p vaqt sarflamasdan qanday ko'rishi mumkinligi haqida o'ylardi. Aynan mana shu fakt kelajakdagি Zoom Video Communications kompaniyasini yaratishga turtki bo'ldi.

90 yillarda Erik Amerikaga ko'chib o'tadi. U Internet va texnologiya kompaniyalari tez orada odamlar hayotida ko'p narsalarni o'zgartirishiga ishongan. Erik bir necha bor Amerika vizasi uchun harakat qilgan, u juda ko'p marotaba rad javobini olgan. Nihoyat, 9-urinishda u viza olishga muvaffaq bo'lgan.

U 1997 yilda Silikon vodiysida ishlay boshladi, u yerda o'sha paytda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan VebExda muhim professional tajribaga ega bo'ldi. 2007 yilda VebEx Amerikaning Sisso transmilliy kompaniyasi tomonidan sotib olindi, u yerda Erik muhandislik bo'yicha vitse-prezident lavozimiga ko'tarildi. U dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bilan shug'ullangan va bu sohada rivojlana boshlagan - u doimiy ravishda foydalanuvchilarning konferens-qo'ng'iroqlar sifatini yaxshilash bo'yicha talab va takliflarini o'rgangan.

Aynan o'sha paytda Erik o'z loyihasini amalga oshirish vaqt kelganini tushunib yetadi. Va rahbariyat 2011 yilda VebEx xizmatini takomillashtirish bo'yicha uning g'oyalarini ko'rib chiqishdan bosh tortgach, u 40 ga yaqin hamkorlarni jalb qilgan startap tashkil qiladi. Zoom 2012 yilda ishga tushiriladi va 2020 yilga kelib 40 milliardga yaqin konferensiyaga mezonlik qiladi.

Shuningdek, 2018 yil oktyabr oyidan beri Yuan muhandislar jamoasi bilan kompaniya uchun Zoom Phone nomli yangi mahsulotni yaratish ustida ishlamoqda. Bundan tashqari, kompaniya yangilangan yangi avlod Zoom Room videokonferensaloqa xonalarini taqdim etdi.

Aynipaytdata birkorningo'zi San-Xosedagi (Kaliforniya) uyda istiqomat qiladi, bu uning doimiy ofisidir. Erik Yuan o'zi yaratgan platformadan faol foydalanadi va hamkasblari bilan asosan Zoom orqali ish uchrashuvlarini o'tkazadi.

Zoom kompaniyalarning barcha masofadan turib ishlovchi xodimlar, shuningdek, pandemiya davrida masofadan turib o'qishga majbur bo'lgan maktab o'quvchilari orasida keng tarqaldi. COVID-19 davrida kompaniya xodimlar va izolyatsiya qilingan talabalar o'rtasida yaxshi muloqot va o'zaro munosabatni ta'minlash bilan faol shug'ullandi. Pandemiya boshlanganidan beri kompaniya aksiyalari 125 foizga oshdi va Zoom top ilovalardan biriga aylandi. Hozirgi kunda Zoom platformasisiz masofadan turib ishlashni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Sayt 2020 yilning bahorida mashhurlik cho'qqisiga chiqdi. Ko'pgina korxonalar ish tamoyillarini o'zgartirishga majbur bo'ldi – xodimlarni ommaviy ravishda uzoqroq joyga ko'chirish va yangi voqelikka moslashish kerak edi. Ammo ishni davom ettirish uchun barcha xodimlar o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlash kerak edi - bu erda uchrashuv va videokonferensiya platformasi Zoom yordamga keldi.

Agar siz Zoom'ni boshqa raqobatchilar bilan solishtirsangiz, farqni ko'rishingiz mumkin: 2020 yil martiga kelib, 40 millionga yaqin kishi Skype'dan foydalanar edi va 200 million a'zo allaqachon Zoom'ga ulangan. Kompaniyaning o'sish sur'atlarini tushunish uchun: 2019 yilda Zoom foydalanuvchilari soni atigi 10 millionni tashkil etar edi.

Play Marketdan yuklab olishlar soni 50 000 000 martaga yetishi uchun kompaniyaga bir necha hafta kerak bo'ldi. Va bu faqat bitta virtual do'kon. 2020 yilning 11 marti, kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, Zoom tarixidagi eng muvaffaqiyatlari kun bo'ldi, chunki shu kuni xizmat mijozlar tomonidan yuklab olishlar bo'yicha rekord qayd etdi.

Zoom – dasturidan foydalanish



Albatta Zoom (talaffuz qilganda 'zum') dasturini eshitgansiz. Keling dasturdan foydalanishni ketma-ket amallarni ko'rib chiqamiz:

1- Qadam: Dasturni yuklab olish:

Dastur yuklab olishda siz qaysi qurilmadan foydalanishizngiz bog'liq: mobil telefon yoki kompyuter. Dasturni yuklab olish uchun quyidagi havolalardan foydalanamiz:

Kompyuter uchun Yuklab olish

Android(Samsung, Xiamo, ...) telefon yoki planshet uchun Yuklash olish

iPhone telefonlari yoki iPad uchun **Yuklab olish**

Manba: zoom.com (Ushbu saytga tashrif buyursangiz qurilmangiz o'zlarini moslab dasturni ko'rsatadi)

2 – Qadam: Dasturni o'rnatish

Mobil qurilmalar uchun:

Telefon qurilmalarida dastur avtomatik ravishda yuklab olishni bosgandan so'ng o'zi o'rnatiladi.

Kompyuter uchun:

Yuklab olingan faylni ochamiz.


3 – Qadam: Ro'yhatdan o'tish

Yuqorida oynadan "Sign In" tugmasini bosamiz:



Agar kompyuteringizda Facebook yoki Google profillarindan biri bo'lsa, Sign in with Google / Facebook ni bosamiz. Shu orqali kirish oson hech qanday login yoki parollarni yaratishga hojat yo'q va keyingi bosqichga o'tsangiz ham bo'ladi.


Agar ushbu profillaringiz bo'lmasa, "Sign Up Free" tugmasini bosamiz. Yoki quyidagi Havolaga ham kirsa bo'ladi



Ushbu oynadan so'ng Tug'ilgan kuningiz va E-mail ma'lumotlaringizni kiritasiz. Va E-mail aktivlash uchun havola jo'natiladi, o'sha havolaga kiramiz.

4 - Qadam

Ro'yhatdan o'tgamizdan so'ng, dastur avtomatik ravishda asosiy oyna ochiladi.



New Meeting – Bu o'zingiz yangi video konferensiyani boshlaysiz.

Join – Budo'stingiz boshlagan konferensiyaga qo'shilasiz.

12.2. Google meeting tizimi



Google Meet — Google tomonidan ishlab chiqilgan video-qo'ng'iroq xizmati. Oldingi Google Hangouts o'rniiga kelgan ikkita ilovadan biridir, birinchi ilovasi Google Chat servisi bo'lgan. Xizmat 2022-yil oxirida Google Duo o'rnini egalladi, keyinchalik Duo mobil ilovasi Meet deb qayta nomlandi va Duo faoliyati bosqichma-bosqich to'xtatildi.

COVID-19 pandemiyasi davrida Google Meet ilovasini faqat Google Workspace foydalanuvchilari emas, balki qolgan

foydalanuvchilar uchun ham taqdim qildi. Google Meetdan foydalanish 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 30 baravarga oshdi. Zoom kundalik foydalanuvchilari 200 millionga yetgan paytda Google Meet ilovasiga kuniga 100 million nafar foydalanuvchi tashrif buyurdi.

2017-yil fevral oyida alohida mijozlar uchun iOS ilovasi ishlab chiqilgach, Google Meet ilovasini 2017-yilning mart oyida rasman ishga tushirdi. Xizmat dastlab 30 ta ishtirokchiga ega video-konferens-aloqa ilovasi sifatida taqdim etildi. Shunindek, Meet ilovasi Hangouts korporativ mijozlari uchun qulay versiya sifatida tanilgan.

2020-yil avgust oyida Google Duo ilovasini Google Meet bilan birlashtirish rejalashtirilayotgani haqida xabar berdi. 2021-yil dekabr oyida reja bekor qilindi. Duo platformasini ishlab chiqish davom ettirildi va yangilandi. 2022-yil iyun oyida Google o'z rejalarini o'zgartirdi va Duoning Meet bilan birlashishini e'lon qildi. Platformalarni birlashtirish avgust oyida boshlandi, Duo mobil ilovasi Meet nomiga o'zgartirildi. Google Duo veb-ilovasi ham Google Meet veb-ilovasiga yo'naltirildi.

Google Meet quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Ikki tomonlama va ko'p tomonlama audio-video qo'ng'iroqlar
- Dastur litsenziyasiga qarab, 720p yoki 1080p gacha bo'lgan video aloqa
- O'zaro hamkorlar suhbati
- Foydalanuvchilar qo'ng'iroqlarini shifrlash
- Shovqinni kamaytiruvchi audio filtr
- Video qo'ng'iroq uskunalar: umumiy doska, reaksiyalar, so'rovnomalar, ovoz berish va savol-javob uskunalar
- Google hujjatlarni ularish
- Ekranlarni almashtirish

Jamoaviy faoliyatlar birgalikda YouTube va Spotify tomosha qilish, UNO! Mobil, Kahoot! kabi mini o'yinlarni o'ynash.

Google Taqvim va Google Contacts bilan integratsiya

Yig'ilishlarda kirish raqami orqali qo'ng'iroq qilish imkoniyati

Qo'ng'iroqqa foydalanuvchining kirishini rad etish, foydalanuvchini o'chirish, mikrofon va videoga kirishni boshqarish

Video filtrlari, effektlar, fon va yuz maskalari^[24]

Veb-brauzer, Android va iOS ilovalari orqali uchrashuvlarga qo'shilish imkoniyati va boshqalar.

Google Workspace hisoblari

Google Workspace hisobi foydalanuvchilari quyidagi qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishadi:

- Google Workspace Starter tarifi egalar uchun 100 ta qo'ng'iroq, Google Workspace Business tarifi 150 tagacha va Google Workspace Enterprise foydalanuvchilari uchun 250 tagacha qo'ng'iroq qilish
- Boshqa mamlakatlar telefon raqami orqali qo'ng'iroq qilish
- Video-qo'ng'iroqlarni yozib olish
- Google Workspace Enterprise tarifi foydalanuvchilari uchun telefon raqamlarni parol bilan himoyalash.
- Speech Recognition funksiyasi.
- Orqa fonni xiralashtirish va virtual fonlar qo'shish.
- Real vaqt rejimida avtomatik tarjima va boshqa imkoniyatlar.

Shaxsiy hisoblari.

2020-yil mart oyida Google Meetni shaxsiy Google hisobi foydalanuvchilari uchun ham chiqardi. Bepul Meet qo'ng'iroqlari faqat bitta host va 100 tagacha ishtirokchiga ega bo'lishi mumkin. Meet biznes qo'ng'iroqlaridan farqli ravishda, foydalanuvchi qo'ng'iroqlari yozib olinmaydi va saqlanmaydi. Googlening ta'kidlashicha, Meetdagi foydalanuvchi ma'lumotlaridan reklama tavsiyalari uchun foydalanimaydi. Biroq, Google qo'ng'iroqlar davomiyligi, kimlar qatnashayotgani va ishtirokchilarning IP manzillari haqidagi ma'lumotlarni to'plash huquqini o'zida saqlab qoldi.

Texnologiya.

WebRTC standartiga asosan, Google Meet video oqimini ixchamlash uchun VP8 va VP9 video kodeklaridan va ovoz oqimini sozlash uchun Opus audio kodeklaridan foydalanadi. 2020-yil aprel oyida Google AV1 video kodekni qo'llab-quvvatlashini e'lon qildi.

Google Meet audio va video oqimini boshqarish uchun xususiy dasturiy protokollardan foydalanadi. Bunda, asosan, SIP/H.323 asosidagi konferensiya uskunalarini va dasturiy ta'minotlari qo'llaniladi. Shuningdek, Google Workspace hisobi foydalanuvchilari uchun uchinchi tomon xizmatlari ham mavjud.

Texnik ta'minoti.

2020-yilning may oyida Asus konferensiya xonalarida Google Meetdan foydalanish uchun mo'ljallangan video-konferens-aloqa uskunasini taqdim etdi, unga „Meet Compute System“ deb nom berildi.

2020-yil 15-sentyabrda Google Lenovobilan hamkorlikda Meet Series Oneni taqdim etdi. Ushbu to'plam Meet Compute System, „Smart Camera“, shovqinni kamaytiruvchi „Smart Audio Bar“, masofadan boshqarish pulti va sensorli ekranni o'z ichiga oladi. Shuningdek, Google Assistantni ham qo'llab-quvvatlaydi.

13. SMART SINFLARDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR BILAN ISHLASH

13.1. SMART ta'lim texnologiyasi

“SMART” atamasi dastlab 1954 yilda olim, iqtisodchi, publitsist, pedagog Piter Ferdinand Druker tomonidan kiritilgan, 1965 yilda Paul J Meyer, 1981 yili esa George T. Doran o'z ilmiy ishlarida qo'llagan.

SMART - “Specific” (aniq, o'ziga xos), “Measurable” (o'lcovli), “Attainable” (erishiladigan), “Relevant” (muvofiq, resurs), “Time-bound” (vaqt bo'yicha chegaralar, aniq muddatli) inglizcha so'zlarining bosh harflari bilan ifodalangan.

Texnologiya – (ingl: technology, rus: texnologiya) muayyan ishlab chiqarish sohasidagi usullar va jarayonlar majmuasi.

Respublikamiz etakchi olimlaridan A.A. Abduqodirovning ta'kidlashicha, Smart- texnologiyalar – o'zaro ta'sir va tajriba almashish negizida protseduralarga uzatiladigan, avvallari axborot va bilimlarga asoslangan texnologiyalardir.... «Smart» ning tayanch xossasi atrof - muhit bilan o'zaro ta'sir etish va unga moslashish qobiliyatidir. Uning ushbu xususiyati mustaqil qiymatga ega va shahar, universitet, ta'lim, texnologiya, jamiyat va ko'pgina boshqa kategoriyalarga qo'llanishi mumkin.

SMART – bu tizim yoki jarayonning hususiyati bo'lib, atrof - muhit bilan o'zaro munosabatlarda o'zini namoyon qiladi va tizimga

qobiliyatini qayta ishlashga, tashqi muhitdagi o'zgarishlarga darhol javob qaytarish, o'zgaruvchan sharoitga moslashish, mustaqil taraqqiyot va o'zini o'zi boshqarish, natijalarni samarali bajarishga imkon beradi.

Bugungi kunda SMART-texnologiyalarning asosiy vositalarini IoT (Internet of things) – buyumlar interneti tashkil etmoqda. Buyumlar interneti IoT (Internet of things)

bu - maxsus elektronika, dasturiy ta'minot, sensorlar, qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarning o'zaro ma'lumot almashinuvidan iborat tarmoq tizimi bilan jihozlangan sun'iy intellekt yordamida masofadan boshqariluvchi maishiy texnikalar, transport vositalari va boshqalar. IoT texnologiya tadqiqotchilariga kamroq quvvat sarflaydigan va deyarli har qanday turdag'i qurilmaga ularishi mumkin bo'lgan kichikroq va arzonroq simsiz tizimlarni ishlab chiqish uchun kuch beradi.

"Internet – buyumlar" (ba'zan "buyumlar interneti" yoki "internet ashyolari" degan atama ham ishlataladi) ingliz tilidagi Internet of Things so'zlaridan olingan bo'lib, bir-biri yoki tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirlashuv uchun ichiga joylashtirilgan texnologiyalar bilan jihozlangan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni qayta qura oladigan hodisa kabi tarmoqlarni tashkil etishni ko'rib chiqadigan, harakat va operatsiyalar ichidan inson ishtiroti zaruriyatini inkor etadigan, fizik jarayonlar hisoblash tarmog'i konsepsiysi hisoblanadi.

Internet ashyolarni, bizni o'rab turgan barcha predmetlar va qurilmalar (uy asboblari va jihozlar, kiyim-kechak, mahsulotlar, avtomobillar, sanoat qurilmalar va boshqalar) miniyaturlari (kichik o'lchamli) identifikatsion va sensorli (sezgir) qurilmalar bilan jihozlangan deb tasavvur qilish mumkin. U holda ular bilan zarur aloqa kanallari bo'lganida nafaqat bu ob'ektlarni va ularning parametrlarini fazoda va vaqt bo'yicha kuzatish, balki ularni boshqarish, ular haqidagi ma'lumotlarni umumiy – "Aqli planeta" ga kiritish mumkin bo'ladi. Boshqacha aytganda, Internet ashyolar bu kompyuterlar, datchiklar (sensorlar) va ijrochi qurilmalarning (aktuatorlarning) IP (Internet Protocol) internet protokoldan foydalanish orqali o'zaro bog'laydigan global tarmoq hisoblanadi.

Cisco IBSG - tarmoq jihozlarini va dasturlarini ishlab chiqaruvchi jahonda etakchi AQSHning kompaniyasi hisobotiga ko'ra internetga ulangan buyumlar soni 2015

yilda 25 milliardga etgan bo'lsa, 2020 yilga borib esa bunday buyumlar soni 50 milliardga etishi kutilmoqda.

Bundan ko'rilib turibdiki, bugungi kunda "Buyumlar interneti" inson faoliyatining ko'plab sohalarida qo'llanilmoqda. «Aqli muzlatkichlar», «Uyni aqli yoritish» va boshqa «aqli» sifati bilan ataluvchi maishiy texnikalar hayotimizni yanada engillashtirib, tashvishlarimizning bir qismini ular zimmasiga yuklashga imkoniyat yaratadi. Hozir bunday qurilmalarda telefondagidek oddiy sim-kartadan foydalaniladi. Mikroelektronikani rivojlantirish, mikrokontrollerlaryuqori ish faoliyatini ta'minlash va energiya sarfini kamaytirish, mikrosxema narxini pasaytirish – bularning barchasi yangi echimlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar ta'lim tizimiga bir qator rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Xitoy, Yaponiya, Shvetsiya va h.k.) keng joriy etilmoqda.

13.2. Ta'lim sohasida SMART - texnologiyalari



YUNESKO tashkiloti tomonidan e'lon qilingan XXI asrda «Life Long Learning» ya'ni - «Butun hayot davomida o'rganish», «Ta'lim - hamma uchun» ta'lim tamoyillarini amalga oshirish uchun SMART- ta'lim orqali shart-sharoitlar yaratiladi. SMART-ta'lim «har doim, har joyda va istalgan vaqtida» ta'lim olish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. SMART - jamiyat oliy o'quv muassasalari oldiga zamonaviy

fikrlash va ishslash imkoniyatiga ega kreativ salohiyatl mutaxassislarni tayyorlash kabi global vazifalar qo'yemoqda. Buning uchun ularda quyidagi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish lozim: ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish, foydali axborotlarni izlash va tanlash, elektron manbalar bilan ishslash, o'quv jarayoni muhitini o'zgartirishni talab etuvchi shaxsiy ma'lumot bazasini yaratish.

Axborotlashgan ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyasi tahlili shuni ko'rsatadi, jamiyatda o'qitishning an'anaviy modelidan elektron ta'limga o'tish, so'ngra esa "smart-inson"ning shaxsini shakllantirish va ta'lim oluvchida yangi bilimlarni generatsiya qilishga ijozat beruvchi samarali texnologiyalari mavjud, qaysiki qidirish, axborotni tahlil etish va innovatsiyalar yaratish uchun takomillashgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo'lgan SMART - ta'limga o'tishni taqazo etadi [89].

SMART - ta'lim (education) - mohiyat jihatdan yangi ta'lim muhitidir; butun jahon bilimlarni foydalanish va passiv kontentdan faol kontentga o'tish uchun o'qituvchi, mutaxassis va talabalarning kuchlarini, ya'ni ta'lim faoliyatini birlashtirishdir. Smart - o'quv jarayoni - innovatsiyalar va internetdan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonidir; u tizimli ko'p o'lchovli ko'rish va ko'p aspektliligi va yangilanishining uzlusizligini e'tiborga olgan holda predmetlarni o'rganish asosida kasbiy kompetensiyalar egallashga imkoniyat beradi.

Biz o'z tadqiqotlarimizda A.A. Abduqodirovning ushbu fikrini SMART - ta'lim uchun ishchi ta'rif sifatida qabul qildik.

V.P.Tixomirov bugungi ta'lim taraqqiyotining asosiy o'rni haqida juda aniq izoh bergan: «Ta'limning eski tizim parametrlari kishilarni SMART-jamiyatda yashashi va ishlashi uchun tayyorlay olmaydi. SMART-texnologiyalarisiz innovatsion faoliyat mumkin emas. Agarda ta'lim tizimi ushbu taraqqiyot yo'nalishdan ortda qolsa, u holda to'xtab qoladi».

Ta'lim sohasida SMART - texnologiyalar deganda quyidagilar tushuniladi: aqli - doskalar, aqli-o'quv

qo'llanmalari, aqli proektorlar, interaktiv va kommunikativ xarakterdagи elektron o'quv materiallarini yaratish va tarqatishning dasturiy ta'minotlari. "SMART-ta'lim" ta'limni axborotlashtirishni rivojlanтирishning yangi paradigma bo'lib hisoblanadi. U ta'limni individuallashtirishnitalab bo'yicha xizmat ko'rsatish va ochiq ta'lim muhitini qo'llab - quvvatlaydi.

Oqilona ta'limning mohiyati aqli texnologiyalarni qo'llash orqali aqli muhitni yaratishdir, shuning uchun aqli pedagogikada shaxsiylashtirilgan ta'lim xizmatlarini taqdim etish va o'quvchilarning qobiliyatini kuchaytirish, shuningdek, qiymatni yaxshiroq baholash, yuqori fikrlash sifati va yanada kuchli xulq-atvorga ega bo'lgan donolik qobiliyatini kuchaytirish mumkin.

SMART-ta'limning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim dasturlarida ko'zda tutilgan o'quv masalalarini hal etishda dolzarb axborotlardan foydalanish: har qanday kasbiy faoliyatga doir ta'limning axborotlar oqimi tezligi va hajmi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda, bu esa o'z navbatida talabalarni amaliy muammolarni hal etishga tayyorlash uchun amaldagi o'quv materiallarini real vaqtgagi ma'lumot bilan to'ldirishni taqazo etadi.

2. Talabalarning mustaqil bilim olishini, tadqiqotchilik va loyihalovchilik faoliyatini tashkil etish. Ushbu tamoyil talabalarning muammolarni hal etishda ijodiy izlanishlar va ilmiy- tadqiqot ishlarini olib borishida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

3. O'quvjarayoninitarqalgan keng o'quv muhitida amalgalashish. Ta'lim muhitini o'quv muassasasi hududiy yoki masofaviy ta'lim tizimi chegaralari bilan cheklash kerak emas. Ta'lim jarayonidoimiy bo'lishi kerak.

4. Ta'lim yo'nalishlarining moslashuvchanligi va ta'limni individuallashtirish, ya'ni shaxsga yo'naltirish. Ta'lim berish faoliyatining xilma-xilligi talabalarga ta'lim dasturlari va kurslarini o'qitish, o'quv jarayonida asbob- uskunlardan foydalanish, ularning sog'lig'ini saqlash

imkoniyatlari, moddiy va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda keng imkoniyatlar berishni talab qiladi. N.P. Kapustinning ta'rifiga ko'ra moslashish (lot. adaptatio- adaptiv, moslashish) - bu "ta'lim oluvchining tug'ma iste'dodi, qobiliyatiga mos ravishda intellektual rivojlanishni optimal darajaga ko'tarish imkonini beruvchi ta'lim tizimi. Egiluvchanlik, ochiqlik kabi xususiyatlarga ega moslashuvchi o'qitish tizimlari ta'lim oluvchining ehtiyojiga moslashgan holda uning yashirin imkoniyatlarini rivojlanishning bir muncha yuqori darajasiga olib chiqadi".

Bugungi kunda dunyoning bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida (Janubiy Koreya, AQSH, Singapur, Angliya, Rossiya va h.k) SMART- universitetlar va Smart Campus paydo bo'lmoqda. "SMART - ta'lim" texnologik innovatsiyalar va Internet orqali amalga oshiriladi, bu esa talabalarda tizimli keng tafakkur va ixtisoslikka oid kasbiy malakalarini shakllantirish imkonini beradi.

SMART- universitetda o'qitish talabaning imkoniyatiga imkon qadar moslashtirilgan va bugungi kunda hammaga ma'lum bo'lgan texnologiyalarga asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa SMART- universitetlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: moslashuvchanlik, muvofiqlashuvchanlik, innovatsiyalar. Ta'limda SMART-texnologiyalar juda katta ahamiyatga ega, bir tomonidan ular o'quv muassasasi moddiy- texnika ta'minoti uchun xarajatlarini optimallashtirishga, boshqa tomondan, ta'lim xizmatlari va mahsulotlarning sifatini yangi darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Smart Campus - bu faol ta'lim dasturiga ega bo'lgan hamkorlik markazi bo'lib, Yevropa Komissiyasi tomonidan qo'llab- quvvatlanadigan asosiy foydalanuvchilar (talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar) bilan hamkorlik orqali o'quv muassasasi tomonidan foydalaniladigan asbob-uskunalar va energiya manbalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan loyiha.

Smart Campus da ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha uchta asosiy kategoriyalarga ajratish

mumkin: Smart Living, Smart Learning va Smart Safety & Security. Buning barchasi talabalarning diqqatini jalb etishi, ta'lim muassasasining hayot tarziga kirishiga ko'maklashishi va kerakli yutuqlarga erishish uchun ularga barcha zaruriy resurslarni olishlarida yordam beradi.

Ta'lim tizimi sohasida Smart Campus yangi o'quv va o'qitish modellarini amalga oshirish uchun har bir talabaga yakka personal hisoblash vositalarini yaratadi. Smart Campus texnologiyasi talabalarning an'anaviy ta'lim olish usullarini o'zgartirishlari mumkin. Davomat, ovoz berish va o'quv binolariga kirishni avtomatlashtirish uchun qo'llaniladigan Smart ID kartalari talabalar ma'lumot tizimlari bilan birlashtiriladi. Talabalar va o'qituvchilarni jismoniy bo'shliqdan xalos qilgani kabi, ular vaqt o'tishi bilan ko'proq moslashuvchanlik va erkinlikka ega bo'ladilar. Barcha ma'ruzalarni yozib olish va arxivlash orqali, kasal talaba darsni o'tkazib yuborganida yoki shunchaki nazoratdan oldin ko'rib chiqishni xohlaganida, har bir ma'ruzaning har soniyasini ko'zdan kechirishi mumkin. Smart Campus dasturlarida ishtirok etadigan ko'plab texnologiyalar mutlaqo yangi emas - ular yangi usulda qo'llaniladi. Smart Campus platformasi uchun juda muhim bo'lgan narsa - bu ochiq API (ochiq interfeys). Ochiq API - bu turli xil qurilmalar va tizimlarni, hatto turli xil kirish usullaridan foydalanganda ham, real vaqt rejimida bir-biri bilan o'zaro aloqa qilish uchun bog'lovchi vosita bo'lib hisoblanadi.

I. G. Borisenko SMART - ta'limning konsepsiysi haqida so'z yuritar ekan: "Bu konsepsiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim jarayonida ishtirokchilarning kompetentligini doimiy rivojlanishi uchun intellektual muhit yaratish, shu jumladan, rasmiy va norasmiy ta'lim tadbirlarini tashkillashtirish, yangi kompetensiyalarni qo'llash yo'lida ko'rsatilayotgan tartib-qoida o'zgarishlari natijalari. Bunday ta'limni amalga oshirishning texnik bazasi talabalar va ta'lim muassasalariga tegishli bo'lgan quyidagi qurilmalar

hisoblanadi: oddiy statsionar kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar, tarmoq qurilmalari va boshqalar.


2. Maqsad - raqamli jamiyat va aqli iqtisodiyot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ta'minlash.

V.P.Tixomirov va N.A.Tixomirova ta'limdagi "SMART-texnologiya" quyidagilarni o'z ichiga olishini ta'kidlagan:

1. Ta'lif tarmoqlari (Elektron universitetlar konsorsiumi);
2. Smart e-learning;
3. Elektron ta'limning sifati (E-metrix, standartlashtirish va sertifikatlash);
4. Tez boshlash.

G.A. Pollak ta'lif oluvchilar uchun "SMART - ta'lim" uzluksiz ta'lif tizimi (maktab, oliy ta'lim muassasalari, korporativ ta'lim) uchun quyidagilarni taklif etgan: moslashuvchan ta'lim dasturlari, portfolio; talabalar faoliyati to'g'risida kengroq ma'lumotlar; hamkorlik ta'lim texnologiyalari - bilimlarni yaratish; o'quv jarayoniga qurilmalar orqali mustaqil kirish; inson faoliyatining ko'pgina funksiyalarini kompyuterlarga o'tkazish; ta'limni yangi darajada individuallashtirish.

A.A. Aletdinova va A.A. Melnichenko SMART -ta'lim tushunchasini ilmiy tahlil qilar ekan, quyidagi yo'nalishlarni belgilab bergan (1.1.1 -rasm): SMART - ta'limiy kabi intellektual vosita; SMART - birlashgan o'quv muassasalari va professor- o'qituvchilar tuzilmasi; SMART - yangi ko'rinish kabi, ya'ni, ta'limga yangicha yondashuv, yuqori natijalarga erishishga imkon berish yoki ko'proq samarali usullar; SMART yangi smart-kompetentlikni shakllantirish mazmunida inson shaxsiyatining takomillashuvi.



Horijiy mamlakatlarda bugungi kunda SMART-texnologiyalar va IoT - "buyumlar interneti" ning ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tamiz.

Singapur politexnika universitetida "Aqlii kampus" mavjud bo'lib, unga kirgan har bir talaba elektron konserj tomonidan identifikasiya qilinadi. Elektron konserj - bu Internet xizmati tizimi bo'lib, turli sohalar bo'yicha tezkor ma'lumotlar olish, so'rovlar javoblar, navigatsiya va boshqa xizmatlarni bajaradi. Bu tizim talabalarni universitetdagi yangiliklar, professor - o'qituvchilar tomonidan tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi. Ma'lumotlar tahlili mukammal tizimlashgan bo'lib, hatto, kurs ishlarini o'z vaqtida topshira olmaydigan talabalarni oldindan aniqlab, ular haqida fan o'qituvchilarinabardor qilishga imkon beradi.

Avstraliyaning Jon Kertin nomidagi universitetida buyumlar internetidan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim yordamida olingan ma'lumotlar asosida auditoriya va kutubxonalar bandligi, davomat hamda professor - o'qituvchilar

va talabalar kundalik hayoti to'g'risida xulosalar qilinadi.

Malayziya texnologik universitetida esa sun'iy intellekt asosida ta'larning boshidan to oxiriga qadar talabalar haqida ma'lumotlar yig'adi. Bunday kuzatuv yordamida ularning mashg'ulotlardagi ishtiroki o'rganiladi va bu ma'lumotlar keyingi qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Sun'iy intellekt orqali o'tilgan dars mashg'ulotlar tahlil etib, uni sifatini yanada oshirish yo'llari haqida maslahatlar beradi.

Yaponiyada o'quvchilar virtual reallikning to'la komplektidan foydalanib, "virtual maktab" ga qatnashishlari, smartfonlar uchun chiqarilgan maxsus dastur yordamida o'qituvchilarni tinglashlari va testlar topshirishlari, alohida tashkiletigan platforma orqali boshqa maktab o'quvchilar bilan muloqot qilishlari mumkin. O'quvchilarga alohida o'qituvchilar biriktirilgan bo'lib, o'quvchilar ulardan o'z savollariga telefon yoki elektron pochta orqali javob olishlari, zarurat tug'ilganda o'qituvchi bilan uchrashishlari ham mumkin.

AQSH ning Kaliforniya shtati San-Fransisko shahridagi SweetRush tizimi (<http://www.sweetrush.com/>) elektron va mobil ta'lim uchun ta'lim echimlarini ishlab chiqadi va sinovdan o'tkazadi. O'qituvchi – yo'riqchi rahbarligida real vaqt rejimida qayta muloqot qilish imkonini beradigan individual ta'lim olish mumkin. Kurs musobaqali o'yinlar va audio - video animatsiyalar kabi vositalardan tashkil topgan bo'lib, ular ishtirokchilarni ko'plab jalb qilishga yordam beradi.

AQSHning Vashington shahrida BLACKBOARD tizimi K-12 va undan keyingi ta'lim bosqichlari uchun "Bog'langan ta'lim malakasi va qo'llab-quvvatlash tarmog'i" deb ataluvchi tizimni yaratgan. Raqamli ta'lim muhiti shaxsga yo'naltirilgan ta'limni shakllantirsa, virtual sinflar texnologiyasi o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Maxsus veb saytlar ota-onalar va talabalarga oxirgi olingan baholar, yangiliklar va tadbirlar haqida ma'lumotlar taqdim etadi. Blackboard Mobile Credential kompaniyasi talabalarga talaba ID larini iPhone va Apple Watch lardagi maxsus dasturdan ro'yxatdan o'tkazish bilan kampus binosiga kirish va ovqatlanish hamda boshqa

xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Buyuk Britaniyaning Ueymut shahrida Magicard tizimi talabalar uchun turli xildagi smart kartalar ishlab chiqaradi. Ushbu kartalar IoT (Internet of things)lar yordamida talabani autentifikatsiya qiluvchi nazorat tizimlariga ulanadi. IoT lar yordamida talabalar turli xil manbalarga (kurs ishlari, masofaviy ta'lim uchun elektron resurslar va boshqalarga kirishga va ulardan foydalanishga ruxsat oladilar, turli xizmatlar uchun to'lovlarini amalga oshiradilar.

Shunday qilib, "SMART-ta'lim" bo'lajak mutaxassis shaxsi rivojlanishi imkoniyatlarini kengaytirib, ularda zarur bo'ladigan ijodiy salohiyatini shakllantiradi. Bunda SMART-teknologiyalar va "buyumlar interneti" (IoT) ta'limda o'qitishning asosiy yordamchi vositalari bo'lib hizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda SMART- texnologiyalar va IoT-buyumlar interneti vositalaridan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha konsepsiya va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan aniq metodik tavsiyalar hali ishlab chiqilmagan.

Zamonaviy oliy ta'larning ajralib turadigan xususiyatlari bu moslashuvchanlik, samaradorlik va amaliy yo'naltirish ekanligi sababli, bunday bilimlar almashinuvni an'anaviy bilimlarni reproduktiv uzatishdan ijodiy ta'lim shakliga o'zining innovatsion usullari, shakllari va vositalari bilan o'tishini anglatadi. Bu ham Web2.0 texnologiyalarining rivojlanishi tufayli mumkin bo'ldi. Aqlii ta'lim moslashuvchan ta'larning paydo bo'lishining asosiy sharti bo'lib, u dunyo miqyosida jamoat mulki bo'lgan tarkibdan foydalangan holdainterfaol ta'lim muhitida ishlaydi.

Shakllanayotgan Smart – ta'lim tizimidan: kunduzgi ta'limda – talabalarning mustaqil ishlarini sifatli va samarali tashkil etishda; masofali o'qitishda; mutaxassislarning malakasini oshirishda; aholining umumiylor rasmiy ta'lim tizimida muvafakkiyatli foydalanilishi mumkin.




13.3. SMART - ta'lim platforma (asos) si

SMART - ta'lim platforma (asos) sini umumiy ta'riflaydigan bo'lsak, SMART ta'lim bu - mafkura, o'z navbatida u uchta bo'g'indan iborat. Bular:

- 1) **SMART muhit** - innovatsion texnologiyalarga asoslangan intellektual virtual o'quv muhiti;
- 2) innovatsion metodologiya bilan quollangan **SMART pedagogika**;
- 3) Ilg'or ta'limiy maqsadni ko'zlagan **SMART qobiliyatlar**. (1.3.2.-rasm.)

SMART pedagogika - shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik va kontekstli ta'limni moslashtirilgan o'quv xonalarida tashkil etish jarayonidir.

SMART qobiliyatlar bu maqsad va mohiyatni aniqlash, o'rganish va tadbiq qilish, hamkorlik, yaratuvchanlik hamda murakkab muammolarini hal etish kabi faoliyatni o'z ichiga oladi. Aqli pedagogika aqli qobiliyat bilan uzviy aloqada, jumladan, intellektual virtual o'quv muhiti aqli pedagogikani shakllantirsa, u esa o'z navbatidamotivatsiyani oshirish maqsadida aqli qobiliyatlar faoliyatiga murojaat qiladi.



AQSH da 2015 yilda Discovery Education kompaniyasi tomonidan qator fanlardan "Smart education" ta'lim muhitida ishlashga mo'ljallangan texnologik darsliklar yaratilgan. Mazkur texnologik darslik o'zining tuzilmasi, o'quv materiallarning rang-barangligi, interfaol muloqot va o'quvchilarning individual ta'lim olish traektoriyalarini tanlash imkoniyatlari nazorat va tarqatma materiallar, o'qituvchilar uchun uslubiy ta'minotning mavjudligi hamda uning mazmuni takomillashtirish uchun ochiqligi bilan ajralib turadi. Darslikdahar bir mavzu bo'yicha nazariy materialni o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar va nostandard vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash va tadbiq qilishga doir turli xil interfaol mashq va topshiriqlar o'rinni olgan.

Yuqorida sanab o'tilgan ilmiy ishlarda, ko'pgina hollarda tasnif ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish, ularning xossalari va joriy qilish muammolariga asoslangan bo'lsada, ularni o'qitish metodikasiga qo'yildigan talablar va joriy

qilish muammolari, ulardan foydalanish metodikasi yetarlicha o'rganilmagan.

"Tarmoq texnologiyalari" fani bo'yicha integrativ elektron o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda quyidagi talablar bajarilishi zarur deb hisoblaymiz:

1. Umumiy pedagogik talablar: elektron o'quv materiallar tarkibiy tuzilmasiga ko'ra o'quv fanining mazmuniga mos kelishi lozim; elektron o'quv materiallar muammoli va ijodiy izlanishni talab etadigan topshiriqlar, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga imkonberuvchi tizimga ega bo'lishi kerak; elektron axborot ta'limga resursi o'quv faoliyatining axborotni izlash, yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ishlov berish, loyihalash, konstruksiyalash, tajriba natijalariga ishlov berish hamda nazorat topshiriqlarni izchil bajarib borishni borasidagi harakatlarni avtomatlashtirishni ko'zda tutishi shart; laboratoriya mashg'ulotlarida tarmoqlarni imitatsion modellashtirish, tarmoqlarni loyihalash va tuzish jarayonlarini simulyatorlar yordamida virtuallashtirish lozim. Buning uchun UNenLab (Unified Networking Lab), Boson NetSim, HP Network Simulator, Huawei eNSP, Common Open Research Emulator, Line Network Emulator, Modeler va Cisco Packet Tracer kabi simulyator dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Metodik talablar – o'quv materiali fikrlashning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayanganholda taqdim etilishi hamda tizimlashtirilgan bo'lishi zarur; talabalar elektron axborot ta'limga resursidan foydalanar ekan, o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

3. Psixologik talablar - o'quv materialini virtual usuldanamoyish qilish nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensor (hissiy) va ko'rgazmali holatlariga mos kelishi kerak; Elektron shakldagi o'quv-axborot resursida talabalarda obrazli va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi, simulyatorlar yordamida kompyuter tarmoqlarini loyihalashda qurilma va jihozlarning sxematik tasvirlarini fizik ko'rinishiga

qiyoslay olish imkoniyati mavjud bo'lishi.

4. Texnik talablar - tarmoq texnologiyalari modulidagi bitta ma'ruza standart ya'ni, to'rt-besh betdan oshmagan matndan iborat, nazorat testlari hajmi (savol va topshiriqlar) bir ma'ruza mashg'uloti uchun 10 tagacha bo'lishi lozim. Elektron axborot ta'limga resursini yaratishda imkon qadar ssenariya va rasmlarning eskizlari kadrlarga bo'lingan bo'lishi zarur.

5. Dasturiy talablar - elektron axborot ta'limga resursining dasturiy qismi TCP/IP transport protokolidan foydalangan holda HTML – bichimida bo'lishi; elektron axborot ta'limga resursi bazasidagi ma'lumotga bir vaqtida bir nechta foydalanuvchining murojaat qilish imkoniyatining ta'minlanganligi; tizimli WEB-serverlar imkoniyatidan foydalanish; elektron axborot ta'limga resursi ishlaydigan muhitning Windows 7 va undan yuqori bo'lishi; ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun serverdan foydalanish; multimedia vositalari (ovozi, video va shu kabilalar)dan foydalanish va xakozo.

Ma'lumki, "Tarmoq texnologiyalari" faniga doir zamонавиъ eksperimental qurilmalarning ko'pchiligi ancha murakkab, katta hajmli va qimmat turadigan majmualardan iborat bo'lib, ular narxi, o'lchamlari, ishlatilishi shartlari bo'yicha biroz murakkab va shuning uchun ko'plab oliv ta'limga muassasalarda o'quv jarayonida ko'pgina laboratoriya ishlari va eksperimentlar kam o'tkaziladi. SHuning uchun mavjud muammolarni hal qilish usullaridan bira - bu virtual laboratoriya va imitatsion modellardan foydalanish mumkinligini e'tiborga olib, biz virtual texnik laboratoriyalarning quyidagi turlaridan foydalanishni taklif etamiz: asbob va uskunalar, bo'yicha virtual laboratoriyaning asosiy vazifasi - bu eksperimentlardan foydalilaniladigan asboblar va qurilmalarni o'rganish hamda zarur malakalarni egallash. Asbob va anjomlar amaliyotini o'tkazish uchun ishni haqiqiy qurilmalarda to'liq bajarishga (taqlid qilib takrorlashga imkon beruvchi) haqiqiy uskuna va asboblarning virtual analoglari (o'xshashlari) kerak bo'ladi.

Ayniqsa, bu ana shu asbob va uskunalarini boshqarish organlari va usullariga taaluqlidir; texnik virtual laboratoriylar - ularning vazifasi nazariy materialni o'zlashtirishni mustahkamlash uchun standart tajribalar va eksperimentlarni o'tkazish malaka va metodikasini egallash; kognitiv virtual laboratoriylar - ma'ruza mashg'ulotlarini ta'lif oluvchi uchun yangi, uning empirik tajribasiga zid bo'lmagan mavzular bo'yicha tashkil etishni taqozo etadi; gnoseologik virtual laboratoriylar - ularning vazifasi ta'lif oluvchining odatdagagi empirik bilimidan farq qiluvchi, ko'pincha ularga zid keluvchi yangi tushuncha va tasavvurlarni o'zlashtirishda yordam berish hisoblanadi; kreativ virtual laboratoriylar - ta'lif oluvchining ijodiy tafakkuri shakllantirishga va qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi; tadqiqotchilik virtual laboratoriylari - ilmiy-tadqiqot ishlarni o'tkazishga va yangi bilimlarni egallashga mo'ljallangan. Bunday laboratoriylar uchun virtual laboratoriya asosiga qo'yilgan matematik model hisoblash imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

SMART-texnologiyalar va "Buyumlar interneti" ni qo'llash orqali o'quv jarayonida quyidagi imkoniyatlarga erishish mumkin:

1. Butun dunyo bo'yicha ta'lif oluvchilar va ta'lif beruvchilarni birlashtirish: Bunda ta'lif oluvchilar bosma adabiyotlarni qisqa vaqt ichida C-Pen Reader OCR Brauzer yoki Scanmarkerlardan foydalanib elektron ko'rinishga o'tkazadilar, uy yoki auditoriyada raqamli markerlar, interaktiv doskalardan foydalanib dunyo bo'ylab o'z tengdoshlari, o'qituvchi va murabbiylar bilan hamkorlik qila oladilar. Talabalar QR ya'ni Quick Response - tezkor javoblarni qo'llab topshiriqlar oladilar yoki boshqa turdagи ta'lif resurslariga bog'lanadilar. QR kodlarni o'qishda o'z mobil smartfonlaridan (telefon) foydalanishlari mumkin.

2. Texnologik jihatdan zamonaviy takomillashgan SMART - universitetlar tashkil etish: "Buyumlar interneti" aqli universitetlarni fizik va tuzilmaviy muhitini yaxshilashga yordam beradi. Zamonaviy oliy ta'lif muassasalarning eng

muhim jihatlaridan biri uning uzluksiz tarzda faoliyat olib boruvchi yuqori darajadagi shaxsga yo'naltirilganligidir. OTMlardagi kerakli ma'lumotlar va ko'rsatmalarni uzatish va qabul qilib olishda Wi-Fi tarmog'idan foydalanadi.

"Buyumlar interneti" nivazifasigako'rao'quvmuassasalar asab tizimi desa ham bo'ladi. Chunki, ular "aqli" dars rejalarini tuzish, darslarni kuzatib borish, axborotlardan foydalanish darajasini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va boshqa shunga o'xshash vazifalarni bajarishda asosiy rol o'ynaydilar. Bugungi kunda "Buyumlar interneti" texnologiyalari auditoriya va undagi uskunalarini boshqarishning zamonaviy usuli sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

3. Havfsiz va ishonchli ta'lif muhitini ta'minlash: O'quv binosi vauning atrofini himoya qilish va havfsizligini ta'minlash masalasi ham bugungi kunning eng asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'lgan

masalalardan biri hisoblanadi. Texnologik jihatidan yuqori darajali sensorlar, kuzatuv kameralari, RFID (ingl. Radio Frequency IDentification, radiochastotali identifikatsiya) va boshqa turdagи tarmoqqa ulangan uskunalar binolarni monitoring qilish va kuzatish uchun xizmat qiladi.

4. Mobil qurilmalar va ularga o'rnatilgan maxsus dasturlar hamda ilovalardan samarali foydalanish: Smartfonlardan samarali foydalanish bilim olish va ta'lif berish usullarini asta-sekin o'zgartiradi. Bu qurilmalar yordamida talabalar o'zida grafika, video va animatsiyalarni jamlagan 3D grafika va darsliklar yaratish imkonini beradi. Bu erda IoT-buyumlar interneti o'yinni o'zgartirish vositali sifatida qaraladi va u foydalanuvchiga turli tuman ta'limiylarini taklif qiladi. Bunday tashqari yangi o'qitish metodlarini ham taklif etadi. IoT qurilmasi motorining datchiklari yangi va qiziqarli narsalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

5. Innovatsion muloqot: IoT (Buyumlar interneti) talabalarga turli usullar va qurilmalardan foydalanish orqali o'qituvchilar bilan muloqot qilishga yordam beradi. O'qituvchi har bir talabani kuzatib borishi va onlayn vositalardan samarali foydalanish orqali ularga uy vazifalari yoki boshqa ta'lif

loyihalarini topshirishi, shuningdek, ish faoliyatini natijasini ham kuzatishi mumkin. IoT talabalarni zamonaviy va xavfsiz muhitda so'z va harakat erkinligini ta'minlaydi.

6. Smartboards (Aqli doskalar): Talabalar ma'ruzalarini oson tushunishlari uchun Smartboards - aqli doska kabi yangi vositalarni ishlatishadi. Talabalar shuningdek, onlaysen taqdimotlar va videolarni tayyorlashlari ham mumkin. Vebga asoslangan uskunalar va dasturlar talabalarga yangi materialni yaxshi o'zlashtirishlarida bo'r va oddiy an'anaviy doskalardan ko'ra ancha samarali yordam beradi. SmartBoard interaktiv doskasi bilan SmartNotebook dasturi bir to'plam bo'ladi. Ushbu dastur doskada chizilgan va yozilgan barcha ma'lumotlarni saqlash bilan birga yaratilgan taqdimot slaydlarini shakllantirishi ham mumkin. Bunda qo'lyozma matnni aniqlashtirish va bosma holatiga o'zgartirish, ya'ni klaviatura bilan kiritgan kabiga o'tkazish mumkin. Adobe Photoshop, Corel Draw kabi grafik muharriri dasturlarida tayyorlangan umumiyligi materiallarni SMART Notebook dasturiga o'tkazsa (import) bo'ladi. Vaholanki, talabalarda butun loyiha qamrovida ishlash sharoiti tug'iladi (grafiklar, animatsiyalar qo'yish).

Davomatni nazorat qilish: Ushbu tizim o'quv muassasa administratsiyasiga talabalar davomatini nazorat qilishga yordamlashadi.

Tizim talabaning sababli va sababsiz holda necha marotaba mashg'ulotlarda ishtiroy qilmaganini hamda ularning talablarini o'rganadi.

O'quv jarayonida SMART-ta'lismi texnologiyasining qo'llanilishi muhim pedagogik anglash, ijodiy yondashuvchi va faol fikrlovchi pedagog, ta'lismi jarayonini modellashtirish usuli va o'z faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilishni talab etadi. Elektron ta'lismi resurslari va o'quv-metodik majmualarni SMART-ta'limga qo'llanilishi uchun loyihalash ko'nikmasi o'qituvchi professionalizmining bir qismi hisoblanadi. O'quv jarayoniga SMART-texnologiyani tadbiq etish ta'limga barcha sub'ektlari uchun shubhasiz ko'pgina afzalliklar tuhfa etadi.

SMART-ta'limi ta'lismi muassasalarini, o'qituvchilar va

talabalarni Internetda umumiy standartlar va texnologiyalar asosida ta'lismi faoliyatini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashtiradi, shuningdek, ularning akademik mobillik darajasini ko'taradi. Shu bilan birga, o'qitish muhiti moslashuvchan, dolzarb, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, har bir o'qituvchi va talaba zamonaviy kompyuter texnologiyalariga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'lishi hamda o'quv jarayoniga yangi o'qitish usullarini joriy etish imkoniga ega.

13.4. SMART- ta'limgining asosiy xususiyatlari, tavsiflari va afzalliklari

SMART- ta'limgining asosiy xususiyatlari:

1. Moslashuvchanlik - turli xil operatsion tizimlar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotning muvofiqligini ta'minlash. U foydalaniladigan qurilmalar turidan qat'i nazar, o'quv jarayonining uzviyligi va uzuksizligi hamda ta'limiylar axborot makonining yaxlitligini ta'minlash imkoniyatini nazarda tutgan holda, ta'lismi berish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

2. Makon bo'yicha mustaqillik, mobillik (harakatchanlik), doimiylik, uzuksizligi va ta'lismi ma'lumotlariga kirishning qulayligi.

3. Ta'lismi beruvchi va ta'lismi oluvchilarga ma'lumotlar bazasiga kirish uchun mobil qurilmalaridan foydalanishi hisobiga mustaqilligi.

4. Turli xil imitatcion modellarni yaratish.

5. Ish beruvchilar va o'quv muassasaning individual hamda tashkiliy maqsadlari o'rtasidagi munosabatlari.

6. O'quv jarayonining samaradorligi nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar, balki ularni amalda qo'llash qobiliyati bilan o'chanadi.

7. Talabalarning qiziqishi va individual qobiliyatlari moslashuvchan ta'lismi (talabalarning individual parametrлari bo'yichata'lismi olishga moslash imkoniyati).

Smart - ta'lismi quyidagi tavsiflarga ega: a) o'qitishning individual traektoriyasi; b) interaktiv muhiti o'qitish; v) mumiy tartibga solingan o'qitish dasturlari; g) xalqaro o'quv kontentini

qo'llagan holda ihtiyyoriy vaqtida va istalgan joyda o'rganish imkoniyati; d) on-layn rejimda talabalarning mustaqil ishlari bilan auditoriya mashg'ulotlarini oqilona mujassamlashtirish; e) mutaxassislik bilimlarni egallash bo'yicha o'qitish bilan bir yo'la ishslash imkoniyati.

O'qituvchilar uchun afzalliklari: O'quv materialini taqdim etishda innovatsion yondashuv; talabalar bilan tezkor qaytar aloqa; birlashgan real va virtual olamni shakllantirish; o'quv jarayonini oson boshqarish; multimediyaning maksimal xilma-xilligi; umumiy axborot-ta'lif muhiti; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bilan yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish; talabalarning ehtiyoji va darajasiga qarab layoqatini tez va oddiy holda aniqlash; bir qancha o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va axborot almashishuchun tarmoq yaratish imkoniyati; ta'lif berishning jadalligi vasifatining oshishi.

Talabalar uchun afzalliklari: axborot oluvchi manbalar sonining ko'pligi; texnik imkoniyatlarning mavjudligi; har qanday ta'lif xizmatlarining qo'llab-quvvatlanishi; mustaqil alohida va guruhi ishlari hajmining ortishi; ta'lifning mobilligi (harakatchanligi); ijodiy va tadqiqot loyihalari sonining ortishi; ta'lif traektoriyasining o'ziga xosligi tamoyili; o'qituvchi va boshqa talabalar bilan tezkor qaytar aloqa; ijodkorlikning taraqqiyoti va mustaqil amalga oshirish imkoniyatlari; joylashgan xududi va vaqtiga bog'liq bo'limgan sharoitlarda zarur axborotlarni olish imkoniyati; har qanday vaziyatda tayyorgarlik uchun o'rganishni boshlashga izm berish imkoniyati.

Yuqorida bayon qilingan tamoyillarni inobatga olib, SMART- texnologiyalar bilan qurollangan integratsiyalashgan o'quv muhitida tarmoq texnologiyalari fani bo'yicha elektron axborot ta'lif resursi yaratish va o'quv jarayonida qo'llash orqali oliy ta'lif muassasalarida bo'lajak mutahassislarini kasbga yo'naltirish va fandan bilish faoliyatini shakllantirish maqsadi amalga oshiriladi.

14. MOODLE TIZIMINING INTERFAOL IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB ELEKTRON O'QUV MATERIALLARNI YARATISH

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini masofaviy ta'lilda qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchishartibutexnikjihozlar bo'lsa, ikkinchishartiesamaxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir. Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi Internet tarmoqlari, videokonferentsiya jihozlari va hokazo. Dasturiy ta'minotga: mavjud qurilmalarni ishlataidan dasturiy ta'minotlardan tortib, shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'pami kiradi.

So'nggi yillarda G'arbda ta'lif tizimini boshqarishda qo'llanilib kelinayotgan Internet yoki Intranet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lif turi e-learning (elektron ta'lif) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'lif – axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'lifning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elektron ta'lifni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);
- Virtual ta'lif jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);
- Ichki kontentni boshqaruvchi tizimlar CMS (Content Management Systems).

14.1. MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari

MOODLE tizimi masofadan turib o'qitish kurslari va web-saytlarni yaratishni dasturiy ta'minlash paketidan iboratdir. Tizimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Tizim hozirgi zamon pedagogika yutuqlari va o'quvchilar orasidagi hamkorlikka bo'lgan ehtibor, muhokamani hisobga olingan holda loyihalashtirilgan.
- Masofadan turib o'qitish uchun ham, kunduzgi

o'qitish uchun ham foydalanish mumkin.

- Oddiy va samarali web-interfeysga ega.
- Dizayn modul strukturasiga ega va osongina modifikatsiya qilinadi.
- Ulanadigan til paketlari to'liq mahalliylashtirish imkoniyatini beradi. Ayni 'aytda 43 ta til qo'llab-quvvatlanmoqda.
- Talabalar o'zlarini hisob yozuvlarini tahrir etishlari, fotosuratlar qo'shishlari va ko'plab o'z shaxsiy ma'lumotlar va rekvizitlarini o'zgartirishlari mumkin.
- Har bir foydalanuvchi o'z mahalliy vaqtini ko'rsatishi mumkin. Bunda tizimdagi barcha sanalar uning uchun mahalliy vaqtga o'tkaziladi (forumlarda xabar berish vaqtleri, topshiriqlarni bajarish vaqtleri va boshqalar).
- Kurslarning turli strukturalari (tarkiblari) qo'llab-quvvatlanadi: "kalendarniy" (taqvimi), "forum", "tematik".
- Har bir kurs qo'shimcha ravishda kod so'zi bilan himoyalaniши mumkin.
- Chat, Forum, Glossariy, Rabochaya tetrad (Ish daftari), Urok (Dars), Test, Anketa, Scorm, Survey, Wiki, Seminar, Resurs (matn yoki web sahifa yoki katalog ko'rinishida) kurslari uchun modul tuzuvchilar boy to'pami mavjud.
- Foydalanuvchi oxirgi marta kirganidan keyingi kursda ro'y bergan o'zgarishlar, kurs birinchi varag'ida aks ettirilishi mumkin.
- Deyarli barcha teriladigan matnlar (resurslar, forumga xabarlar, daftarlarga yozuvlar) ichiga joylashtirib qo'yilgan WYSIWYG Rich Text – muharrir tomonidan tahrir etilishi mumkin.
- Barcha baholar (Forumlardan, Ish daftarlardan, Testlar va Topshiriqlardan) bitta sahifada to'lanishi mumkin (yoki fayl ko'rinishida).
- Foydalanuvchining tizimga kirishi va ishi bo'yicha, jadvallar va turli modullar detallari (jihatlari) ustida olib borgan ishlari to'g'risidagi to'liq hisobot (oxirgi kirish, o'qish sonlari, xabarlar, daftarlardagi yozuvlar) ni olish mumkin.
- E-mail ni yo'naltirish mumkin – xabarlar, forumlar va

o'qituvchilar baho va sharhlarini jo'natish mumkin.

Tizim imkoniyatlardan foydalanish uchun Internet tarmog'iga ulangan kompyuterga ega bo'lish lozim, Ishni boshlash uchun qatorda web - brauzer URL server adresini terish lozim. So'rovga ishlov berilgandan keyin brauzer tizim start sahifasini ko'rsatadi (1-rasm).

Hozirgi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Masofaviy texnologiyalarni tizimli tarzda tadbiq etish ta'lim samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayoniga masofaviy texnologiyalarni tizimli tarzda joriy etish uchun eng avvalo, maqsad va vazifalarni aniqlash, kerakli usul va vositalarni tanlash, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish hamda erishilgan natijalarni tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bosqichlari amalga oshiriladi.

14.2. MOODLE platformasining masofaviy ta'limni boshqarish imkoniyatlari va funktsiyalari

MOODLE tizimi. MOODLE (<http://www.moodle.org>)

– web-saytda o'qitish va online rejimidagi darslarni tashkil qiluvchi ilova. Bu proekt ta'limga sotsio-konstruktiv qarashni tarqatish uchun ishlab chiqarilgan. Qisqacha qilib quyidagilarni aytish mumkin:

- yangi bilimlar oldingi olingan bilim va individual tajribalar asosida olinadi.

• o'quv jarayonida o'quvchi olgan bilimini boshqalarga tushuntirib berishida ko'proq samaraga ega. Bu qarashni qo'llaganda siz o'quvchining tajribasiga suyanasiz, bu kerakli o'quv materialini o'zlashtirishdagi eng samarali usul. Bu usul o'quv jarayonidagi o'quvchini ham o'quvchi ham o'qituvchi sifatida qatnashishini ta'minlaydi.

- o'qituvchining funktsiyasi o'zgarishi mumkin: bilim manbai o'rniqa, "ta'sir markaziga" va sinf madaniyatining modeliga aylanadi. O'qituvchi har bir o'quvchining bilim talabiga qarab individual munosabatda bo'lishi kerak.

LMS MOODLE tizimlari masofaviy ta'lrim jarayonini tashkil etishda quyidagi funktsiyalarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarni (o'qituvchilarni, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqalarni) ro'yxatga olishi;
- foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish muhitini yaratish;
- o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro individual yoki guruh bo'lib, hamkorlikda ishlashini (Web elementlarini ishlatish orqali) tashkil etish;
- guruhlar yaratish va ularni boshqarish;
- oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga yopiq turdag'i test, ochiq turdag'i nazorat, moslikni to'ishga oid, ketma-ketlikni to'g'ri joylashtirish, bo'sh qoldirilgan joyni to'ldirish va boshqa turlari kiradi);
- har xil turdag'i ijtimoiy so'rovlar tashkillashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish;
- sertifikatlar (diplomlar) berish imkoniyati;
- elektron axborot resurslarini (elektron kutubxonalar) tashkillashtirish;
- elektron o'quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari;
- tizim foydalanuvchilarining (o'quvchilar, o'qituvchilar-tyutorlar, kurs yaratuvchi pedagoglarning)

tizimga qachon, qancha vaqt davomida o'quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi IP-manzil orqali kirganligini (bu esa qaysi davlatdan tizimga kirganligini aniqlashga yordam beradi), brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud foydalanuvchilarning faolligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati;

- o'qituvchi (tyutor yoki elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan elektron o'quv resurslarni yaratishi;
- Authoring tools larda SCORM, TinCan yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan elektron o'quv resurslarini yuklashi;
- o'quvchilarning boshqa o'quvchilar/o'qituvchilar bilan (Chat, Forum, videokonferentsiya, umumiyl elektron doskalar yoki tizimning ichki/tashqi xabarlar almashish moduli orqali) muloqotini tashkillashtirish;
- o'quv jarayonida bo'ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi;
- iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin.

14.3. MOODLE tizimidagi o'qitish modullari

MOODLE masofaviy o'qitish jarayonini to'la qo'llab-quvvatlash uchun keng doiradagi imkoniyatlarni beradi- o'quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o'zlashtirish nazorati alohida tahkidlab o'tish maqsadga muvofiq. MOODLE da 15 turdag'i interaktiv o'quv modullari mavjud bo'lib, ularning soni oshib bormoqda. Kurs yaratuvchisi tizimning bunday imkoniyatidan foydalangan holda o'qitiladigan fanni talabalarga (bilim oluvchilarga) interaktiv ko'rinishda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari:

- Forums,
- Materials,
- Messenger,

- Chat,
- Exercises,
- Group work,
- Student tracking va boshqa modullari mavjud.

Boshqa LMS lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko'p qo'shimcha pligin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua aynan, MOODLE dasturiy majmuasi hisoblanadi.

SCORM yoki AICC standart paketlari. Bu o'quv materiallari orqali bilim oluvchining o'rganilayotgan o'quv kontent ustida bajaradigan xarakatlarini tizimga hisobot ko'rinishda yuborib turadi. Masalan bilim oluvchi kontentda mavjud bo'lgan slayd(bet)larning hammasi bilan tanishgan yoki tanishmaganligi, har bir slayd(bet)ni talaba qancha vaqt davomida o'rganganligini, bu standartda (ya'niy SCORM yoki AICC) yaratilgan o'quv kontentni boshqa LMS tizimiga eksport qilish imkoniyati ham mavjud. Hozirgi vaqtida mavjud bo'lgan taniqli mualliflik uskunalarining (authoring tools) ko'pchiligi yaratiladigan o'quv kontentni aynan SCORM yoki AICC standarti ko'rinishda eksport qilish imkoniyati mavjud. LMS tizimlari uchun elektron ta'lim resurslarini aynan SCORM yoki AICC standart paketlari asosida yaratish tavsiya etiladi.

MOODLE tizimi masofaviy o'quv kursiga qo'yiladigan resurs va elementlar.

Bularga quyidagilar kiradi:

- Wiki (Viki) – bir nechta foydalanuvchi tomonidan elektron materiallarni qo'shishi, kengaytirishi va o'zgartirish imkoniyatini beruvchi, Web 2. Kontseptsiysi asosida yaratilayotgan hujjat ustida bir vaqtida hamkorlikda ishslash imkoniyatini beradi.
- So'rovlari – tizimdagagi foydalanuvchilar orasida o'quv maqsadidan kelib chiqqan holda har xil ko'rinishdagisi so'rovlarni tashkillashtirish imkoniyatini beradi.
- Ma'lumotlar bazasi – o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini xamkorlikda yoki yakka tartibda shakllantirish imkoniyatini beruvchi modul.

- Glossariy – kursning barcha hujjatlari bo'yicha havolalarni avtomatik tashkil qiladigan tahriflar ro'yxati. Agar tahrif glossariyga kiritilgan bo'lsa, u holda agar u kurs matnlarida uchrasha, havola glossariyning yordamchi elementiga avtomatikta'minlanadi. Yaratilgan glossariy orqali elektron nazorat turlarini tashkillashtirish imkoniyatini beradi.

- Topshiriq – o'qituvchi javobni elektron ko'rinishda olish uchun ishlatish mumkin (ixtiyoiy formatda).

- Ma'ruza – har bir sahifasi talaba javob berishi lozim bo'lgan savol bilan tugaydigan sahifalar to'plami. Javobning to'g'riligiga bog'liq holda, talaba keyingi sahifaga o'tadi yoki oldingi sahifaga qaytdi.

- Bu Ta'lim yo'naliшини aniqlashni va o'qitiladigan fan tushunarsiz bo'lib qolmasligini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda ta'limgi individualalashtirish imkoniyatini beradi. Bu turdag'i o'quv element orqali bilim oluvchining shaxsiy tayyorgarligidan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan o'quv kursi tizim orqali tanlab beriladi.

- Sharh – kurs sahifasidagi ixтиори matn va grafika.

- Ish daftari – berilgan mavzu bo'yicha talaba fikrini bildiradigan joy.

- Resurs – avtomatik tasvirlanadigan turli fayllarni yuklash va tasvirlash vositasi. Masalan, Ma'ruza audioyozuvini yuklashda u mediapleyr sifatida tasvirlanadi.

- Seminar – qatnashchilar bir-birining ishini baholaydigan topshiriq.

- Testlar – turli variantli testlar to'plami. Savollar bir nechta variantli javoblardan, to'g'ri/noto'g'ri tanlovdan, qisqa matnli javobdan va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

- Forum – forumning 3 ko'rinishi mavjud (savol-javob, hammaning o'z mavzusi, standart muzokara).

- Chat – real vaqtdagi muzokara olib borish imkoniyatini beradi.

MOODLE ning asosiy yutuqlari quyidagilar: keng tarqalgan:

- 160 mamlakatda 72 xil tilda(o'zbek tilini ham

qo'shgan holda) 37.000 versiyasi joriy qilingan.

- Yuqori hajimda (masshtabda): Oksford universiteti (OUUK), Kaliforniya universiteti (HSU California) va Yangi Zelandiya ochiq politexnik (Open polytechnic NZ) markazlari tomonidan 100,000 dan ortiq foydalanuvchilar qayd etilgan bepul imkoniyat: GPL Code(kod)

• Ta'lim maskanlariga litsenziya uchun hech qanday haq to'lamasdan, uzoq muddatli egalik qilish, hatto kelgusida yangilab turish imkonini beruvchi qurilmani o'rnatishga ruxsat beradi. Internetga asoslangan o'quv muhiti: tartiblashtirilgan o'quv mashqlari va o'quv mazmuni bilan ta'minlash.

- O'qishni Boshqaruv Tizimi (OpBT): Kursning dizayni va o'tkazilishini qo'llab quvvatlash(tyutorlik, monitoring va sertifikatsiya).

Boshqa LMS lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko'p qo'shimcha plugin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua aynan, MOODLE dasturiy majmuasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida dunyoning aksariyat ta'lim muassasalari o'z masofaviy ta'lim tizimlarini tashkil etishda MOODLE dasturiy majmuasini joriy etmoqdalar.

Ochiq kodli MOODLE dasturiy majmuasi o'quv jarayonini boshqaruvchi Web ga yo'naltirilgan maxsus tizim bo'lib, Internet (interanet) tarmog'ida foydalanishga mo'ljallanilgan. Tizimni yaratishda ochiq kodli dasturiy ta'minotlardan foydalanilgan. Uni ishlatalish uchun ma'lumotlar omborini boshqarish dasturi (MySQL yoki PostgreSQL), pHp protsessori, Web xizmati dastur (Apache yoki IIS) lari sozlangan server zarur. Opertsion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan tizimlardan biridan foydalanish mumkin (Windows, Linux, Mac OSX, Novell Netware).

14.4. LMS MOODLE tizimida o'quv kursi tarkibi va uni yaratish

MOODLE tizimi O'qituvchi uchun o'quv jarayonini tashkillashtirish va olib borish borasida juda ma'qul bo'lgan vositalarni o'z ichiga oladi. Bular tizimida qabul qilingan "MOODLE tizimi tushunchalari – ob'ektlari" bo'lib hisoblanadi:

- Kontekst (Kontekst - tugal fikr anglatuvchi matn parcha yoki multimediyali ob'ekt).
- Kategoriya (Kategoriya – biror umumiyl belgi va bog'lanishlari bo'yicha turkumlanish).
- Kurs (Kurs).
- Meta-Kurs (Meta Kurs).
- Resurs (Resurs).
- Interaktivnost(Interfaollik).
- Deystvie (Ish faoliyat-harakati).
- Blok (Blok).
- Obuslovlennoe Deystvie (Shartli ravishdagi faoliyat – ish harakat).
- Zavershenie Deystviya/Kursa (Kurs ishini yakunlash).
- Gruppa (Guruuh).
- Gruppirovka (Guruuhlash).
- Rol(Rol).
- Polnomochie(Vakolat – huquqga ega).
- Vozmojnost (Imkoniyat).

Kurs elementlari bilan tanishish. Boshqa LMS tizimlariga qaraganda Moodle tizimi orqali masofaviy ta'lim tizmini tashkil etishda keng imkoniyatlar mavjud:

- Kurs mazmunini boyitish uchun o'nlab kurs elementlarini mavjudligi;
- Talabalar uchun resurslarning bir qancha turdaligi;
- Foydalanuvchi hohlagan tilida ishlay olishligi;
- Har bir kursda darslar modullarga bo'lib tashkil etilishligi va boshqalar.

Moodle LMS tizimida quyidagi rasmida aks ettirilgan kurs elementlari mavjud:

Пакет SCORM

Вики

Внешний инструмент

Тест

Форум

Чат

Семинар

Пакет SCORM

Вики

Внешний инструмент

Тест

Форум

Чат

Семинар

Kurs elementlari ro'yxati:

Anketa (So'rovnama) – elementining uch turdag'i anketalari masofaviy ta'limga kurslarini baholash va rag'batlantirish uchun xizmat qiladi. Professor-o'qituvchilar anketa moduli yordamida o'z talabalarini yaqindan bilishga yordam beruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, dars samaradorligini oshirishga yordam beruvchi talabalar fikrlariga ham ega bo'lishlari mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu modul savollari oldindan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi. Talabalar uchun maxsus anketa taqdim etishda Teskari aloqa (Obratnaya svyaz) xizmatidan foydalanish mumkin. 200

Chat (Chat) – elementi kurs ishtirokchilari o'rtaida o'zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi. Kursga kirish imkonи bo'lgan foydalanuvchilar chat modulidan ham faol foydalanishlari mumkin. Chat modulini yaratishda chatning ishlash vaqtini ko'rsatish zarur. Chat faol bo'ladigan vaqtlar oldindan belgilanadi. Masalan: bir marta, har kuni belgilangan vaqtida hamda har hafta belgilangan vaqtida. Chat faollashish vaqt hamda undagi xabarlar bilan bog'liq sozlash ishlarini professor-oq'ituvchi chatni yaratish vaqtida belgilaydi. Chat modulidan kurs ishtirokchilari bir-birlari bilan ko'rishishning imkonи bo'lmay qolganda foydalanish tavsiya etiladi. Chat modulidan quyidagi holatlar yuz berganda foydalanish mumkin:

turli joyda yashovchi bir kurs ishtirokchilari bir-birlari bilan axborot almashish maqsadida; talaba o'qituvchining yoniga suhbat uchun borishni imkonini topa olmaganda; talabalar erishgan yutuqlarini talabalar va o'qituvchilar bilan muhokama qilish zarur bo'lganda; talabalardan mavzuga tayyorgarlik ko'rish uchun yordam olish maqsadida.

Leksiya (Ma'ruza) – o'quv elementi masofaviy ta'limga tizmining asosiy mazmunini yoritib beruvchi elementlardan biri hisoblanadi. Uning yordamida ma'ruza, amaliy mashg'ulot darslarining ma'lumotlari tashkil etiladi. Ma'ruza sahifalar to'plami asosida tashkil etiladi. Odatda, sahifalarning har biri savollar bilan yakunlanib, savollarga berilgan javobga qarab, talabalar keyingi bosqichga o'tishi yoki oldingi bosqichni qayta o'zlashtirishi aniqlanadi. Ma'ruza elementi quyidagi funksiyalarga ega: har bir dars baholanish imkoniga ega bo'lib, olingan natijalar baholar jurnaliga yozilib boriladi; har bir dars tarkibida bir necha sahifalar yaratish imkonи mavjud; o'zlashtirilgan darslarga bajarilganlik haqida belgi qo'yiladi; yangi mavzularni mustaqil o'rganish mumkin; darslarni nazorat qilish uchun turli xildagi test savollaridan foydalanish mumkin.

Vneshniy instrument (Tashqi uskuna) – elementi boshqa web-saytlarda joylashgan ta'limga resurslari va faol namunaviy elementlarni kursga bog'lash imkonini yaratadi. Masalan, tashqi uskuna kursga tegishli bo'lgan yangi ma'lumot yoki ilova bo'lishi mumkin. Tashqi uskuna elementi Giperssylka resursidan quyidagi ko'rsatgichlar bilan farqlanadi:

- Tashqi uskuna uzoqda joylashgan resurni o'z resursi kabi namoyon etadi;
- Tashqi ilovalarni o'qish, yangilash hamda o'chirish natijasida baholarga ega bo'linadi;
- Mazkur tizim bilan tashqi ilova o'rtaida o'zaro aloqa o'rnatilish, ularning birbiriga ishonchli deb topilgandagina bog'lanish paydo bo'ladi.

Forum (Forum) – elementi uzoq vaqt davomida foydalanuvchilar o'rtaida muloqotni tashkil etadi. Forum modulini chat modulidan farqi bo'lib, chat aniq bir vaqt

mabaynida qisqa xabarlar orqali muloqot tashkil etish uchun xizmat qiladi. Forum esa chatga qaraganda kengroq tushuncha bo'lib, aniq bir masala bo'yicha uzoq vaqt davomida foydalanuvchilar o'rtasida muzokara olib borish imkonini yaratadi. Muzokara mobaynida foydalanuvchilar matnli va grafikli ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Forum yangiliklariga a'zo bo'lgan foydalanuvchilar forum yangiliklari haqida doimiy xabardor bo'lib turadilar. Forum xabarları professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan ham baholanishi mumkin. Natijaviy baholar jurnaliga yozilishida ikkala guruh a'zolari bergen baholari birlashtiriladi. Forum elementidan quyidagi holatlarda foydalanish mumkin:

- Talabalar bir-birlari bilan yaqindan tanishish uchun ochiq muloqot interfeysi sifatida;
- Kurs e'lonlaridan (yangiliklar forumiga a'zo bo'lganlar uchun) xabardor bo'lish uchun;
 - Kurs mundarijasi yoki kurs ma'lumotlarini muhokama qilish uchun;
 - Shaxsiy uchrashuvlarda tashkil etilgan muloqotni davom ettirish uchun;
 - Professor-o'qituvchilar hamkorlik muxitini tashkil etish uchun (yashirin forum shaklida);
 - Maslahat markazi uchun (professor-o'qituvchilar va talabalar uchun);
 - "Jumboq", "Aqliy hujum" kabi mavzular doirasida muhokama-munozara olib borish maqsadida.

Glossariy (Izohli Lug'at) – elementi foydalanuvchilarga resurs va ma'lumotlarning tizimlashtirilgan hamda faoliyat doirasida foydalaniladigan lug'at tashkil etish imkonini beradi. Professor-oq'ituvchilar izohli lug'atga fayllarni biriktirish uchun ruxsat berishlari mumkin. Biriktirilgan faylli yozuvlar o'qituvchi tasdig'idan so'ng izohli lug'atda ochiq holatda namoyon bo'ladi. Izohli lug'at yozuvlarini alifbo, kategoriya, kiritilgan sana va muallifi bo'yicha qidirib topish mumkin. Agar izohli lug'atda avtobog'lanish filtri yoniq bo'lsa, u holda kursda ishlataligan so'zlar va jumlalarga mos kelgan atama haqida

ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

Baza dannых (Ma'lumotlar ombori) – elementi foydalanuvchilarga barcha joydan yozuvlarni izlash, yaratish va xizmat ko'rsatish kabi imkoniyatlar yaratadi. Yozuv strukturasi o'qituvchilar tomonidan maydonlar soni orqali aniqlanadi. Maydonlarning esa menu, matnli soha, bir tanlovli va ko'p tanlovli maydon, qalqib tushuvchi ro'yxat, giperhavola, rasm va fayl yuklovchi maydon kabi turlari mavjud. Ma'lumotlar ombori ma'lumotlarini ko'rish va tahrirlash visual aks etishi ma'lumotlar ombori qolipi yordamida amalga oshiriladi. Baza dannых elementidan mavjud kurslarda andoza sifatida hamkorlikda foydalanishi mumkin. Shuningdek, professor-o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini import va eksport qilishlari ham mumkin. Agar Baza dannых ning avtobog'lanish filtri yoqilgan bo'lsa, u holda ma'lumotlar omborining har qanday yozuvi mavjud kurslarda uchraydigan so'zlar va jumlalarga avtomatik bog'lanadi. Professor-o'qituvchilar ma'lumotlar ombori yozuvlarini sharxlashga ruxsat berishi mumkin. Shuningdek, yozuvlar professor o'qituvchilar va talabalar tomonidan baholanishi mumkin. Natijaviy ballar baholar jurnaliga yozilishida birlashtirilishi mumkin. Baza dannых dan quyidagi holatlarda ko'proq foydalaniladi:

- Web-havola, kitob, kitobga berilgan taqriz, jurnal havolalari, bibliografik ro'yxat kabi hamkorlik to'plamlari uchun;
- Yaratilgan surat, plakat, web sayt yoki ertaklarlarni talabalar ko'rishlari va o'zaro sharxlashlari uchun.

Seminar (Seminar) – o'quv elementi talabalar ishini o'zaro baholash, jamg'arish, ko'rib chiqish hamda taqriz berish imkonini yaratadi. Talabalar o'z ijodiy ishlarini har qanday fayl ko'rinishida taqdim etishlari mumkin. Masalan, Word hujjati, Excel elektron jadvali, shuningdek, matn maydoni yordamida matn ko'rinishida ham taqdim etishi mumkin. Taqdim etilgan ma'lumotlar bir qancha baholash mezonlari asosida topshiriq bergen o'qituvchi tomonidan baholanadi. Talabalarning bir yoki bir nechta kursdoshlarini baholash vakolatlari mavjud.

Taqdim etilgan ishlar va taqrizlar zarur bo'lsa, yashirin holatda bo'lishi mumkin. Talabalar seminar uchun ikkita bahoga ega bo'ladilar. O'zining ishi uchun baho hamda bajargan ishi uchun kursdoshlari tomonidan berilgan baho. Olingen bahoning har ikkisi ham baholash jurnaliga yoziladi.

Opros (So'rov) – elementi professor-o'qituvchilarga so'rov o'tkazish imkonini beradi. Yaratilgan so'rov tarkibida faqat bitta savol bo'ladi. Javoblar soni esa istalgancha bo'lishi mumkin. So'rov javoblaridan bir yoki bir necha variantlarini tanlash imkoniyati ham mavjud bo'lib, bu imkoniyat so'rov yaratilish jarayonida belgilanadi. So'rov natijalari belgilangan muddatda keyin namoyon b o'lishi yoki umuman natijalar ko'rsatilmasligi mumkin. Natijalar talabalar nomi bo'yicha yoki yashirin holda aks etishi ham mumkin. So'rov quyidagi hollarda foydalaniladi:

- Mavzuni tanlashda tezkor ovoz berish maqsadida;
- Xotirani tezda tekshirish uchun;
- Talabalarning qaror qabul qilishida yordam berish uchun.

Zadanie (Topshiriq) – o'quv elementi talabalar ishlarini jamlash, baholash va ularni sharxlash hamda o'qituvchilarga kommunikativ topshiriq qo'shish imkonini yaratadi. Talabalar har qanday raqamli fayllarni yuborishlari mumkin. Jumladan, Word hujjatlari, elektron jadvallar, rasmlar, audio yoki video fayllar. Qo'shimcha yoki yordamchi o'qituvchilar talabalardan javoblarini matn muharriri orqali kiritishini talab qilishlari mumkin. Tizimdan tashqarida bajariluvchi yoki raqamli fayl bo'lмаган topshiriqlar ham berilishi mumkin. Bunday hollarda topshiriq javobi matn muharriri orqali topshiriladi. Topshiriq o'qituvchi tomonidan baholanib, faylga javob mulohaza ko'rinishida, talaba yuborgan faylni to'g'rilangan shaklida yoki audio fayl ko'rinishida javob qaytarilishi mumkin. Javoblar ballar, foydalanuvchilarning baholash shkalalari yoki "Ilg'or" uslublar yordamida baholanishi mumkin. Natijaviy ko'rsatkichlar baholar jurnaliga kiritiladi.

Wiki – elementi ishtirokchilarga bog'langan web-sahifa

to'plamini yaratish va tahrirlash imkonini beradi. Wiki individual (faqat muallif o'zgartira olishi mumkin) va hamkorlik (hamma o'zgartirish huquqiga ega) da yaratilishi mumkin. Wiki da har bir ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarning har bir sahfasi saqlanib qoladi. Wikidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- Dars yoki qo'llanmalarga guruhli belgi qo'shish uchun;
- Kafedra va fakultet a'zolarining umumiy ishlarini rejalashtirish uchun;
- Murabbiy tomonidan berilgan mavzu bo'yicha talabalar hamkorlikda kitob yaratishlari uchun;
- Har bir ishtirokchi yozgan satrlari yordamida hamkorlikda tarix zarvaraqalarini yozish yoki she'r yaratish uchun;
- Tadqiqotlar yoki to'g'rilashlar natijasida erishilgan belgilar asosida shaxsiy jurnal yaratish uchun (Individual Wiki da qo'llaniladi).

SCORM (Sharable Content Object Reference Model)

-«berilgan ob'yeqtida hamkorlikda foydalanish uchun namunaviy modeli») – elementi o'quv ob'yeqtiali uchun muvofiqlikda kelishilgan standart fayllar to'plamini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular arxiv fayl ko'rinishida bo'ladi. SCORM paketi bir necha sahifa ko'rinishida bo'lib, fayldan foydalanish davomida fayllar biridan -biriga xarakatlanishi mumkin. Ularning aks etilishi turli xil bo'ladi. Masalan, qalqib chiquvchi oyna, mundarija hamda navigatsion tugmalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. SCORM paketida odatda savollar va javoblar mujassam bo'ladi. Javoblar uchun berilgan qiymatlar baholar jurnaliga kiritiladi. SCORM paketidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- Multimediyali va animatsion fayllarni aks ettirish uchun;
- Baholash uskunasi sifatida.

Shunday qilib ba'zi turdag'i materiallar talaba va o'qituvchining o'zaro hamkorligiga qaratilgan bo'lsa, boshqalari talabalar orasidagi o'zaro faoliyatga asoslangandir.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari
2. MOODLE platformasining masofaviy ta'limdi boshqarish imkoniyatlari nimadan iborat?
3. MOODLE platformasining masofaviy ta'limdi boshqarish funktsiyalari nimadan iborat?
4. MOODLE tizimidagi o'qitish modullariga nimalar kiradi?
5. LMS MOODLE tizimida o'quv kursi tarkibiga nimalar kiradi?
6. LMS MOODLE tizimida o'quv kursini yaratish jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?

15. AVTOMATLASHTIRILGAN O'RGANUVCHI TIZIMLAR. TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI

15.1 Avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlar

Ish joylarini kompyuterlashtirish — avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ) yaratishning asosi. AIJ tushunchasi. AIJga qo'yiladigan talablar. AIJning asosiy turlari Ish joylarini kompyuterlashtirish deganda, nafaqat uning texnik ta'minoti, balki ish joylarini kompleks avtomatlashtirish uchun lozim bo'lgan barcha texnologik ta'minot ko'zda tutiladi. Shu bois, dastavval, AIJ tushunchasiga batafsil to'xtalamiz. Iqtisodiyotda AIJ tushunchasiga to'xtalishdan oldin, ularning asosiy turlarini yaratish va tashkil qilish prinsiplarining umumiylashtirishiga ega bo'lish kerak. AIJ deganda, rahbar, mutaxassis yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning vazifasini almashtirish emas, balki ularning faoliyatiga yordam berish, ya'ni ularga qulay ish sharoiti yaratish tushuniladi. Hozirgi davrda barcha AIJ asosida beshta texnologik tizimcha ta'minoti mavjud:

- ish faoliyatini ta'minlovchi;
- kasbiy faoliyatni ta'minlovchi;
- qarorlar qabul qilish;
- qo'lda bajariladigan ishlar;
- kommunikatsiya.

Bu tizimchalarning (jumladan, AIJning) axborot ta'minoti quyidagicha:

- tezkor faoliyat ish to'plami;
- elektron taqvim;
- elektron haftalik;
- elektron yozuv daftarchasi;
- shaxsiy arxiv;
- topshiriqlar kartotekasi;
- turli axborot-ma'lumotnomali tizimlar, tahliliy kartotekalar, ekran grafikasi vositalaridan iborat axborotlarni izlash va tahlil qilish vositalari;
- iqtisodiy-matematik modellar, elektron jadvallar,

qarorlar qabul qilish modellaridan iborat boshqaruv va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish vositalari;

- bilimlar bazasidan iborat ekspert tizimlari;

- turli mantiqiy-hisoblash masalalarini yechish vositasi;

- matnli va rasmiy axborotlarni qayta ishlash vositasi.


Barcha axborot ta'minotini bir joyga to'plash qimmat va maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ma'lum bir AIJ funksional yo'naltiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, AIJ ochiq arxitekturalidir. U ma'lum bir foydalanuvchi va foydalanuvchilar guruhiba moslashtiriladi. AIJni yaratish professional dasturchilarsiz foydalanuvchiga qo'yilgan masalani muvaffaqiyatl bajarish imkonini beradi. Barcha dasturiy ta'minotlar AIJ samarali ishlashini ta'minlashi lozim. Shuning uchun bu standartdagi amaliy dasturlar to'plami, servis tizimlari, axborotlarni himoyalash va tashuvchilar bilan muomala qilish qoidalari, shuningdek, AIJ imkoniyatlarini kengaytirishi va xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotnomali axborotlardan iborat bo'lmos'i kerak. Shu sababli barcha AIJ asosida axborotlarni ekranda qayta ishlash tizimi yotadi. AIJni yaratishda quyidagi talablarga amal qilinadi: «do'stonalik», «egiluvchanlik», «samaradorlik». «Do'stonalik» deganda, foydalanuvchini muloqot tartibida qulay va oson ishlashi tushuniladi. Bunda tizimga maksimal kirish imkoniyati yaratiladi. Hech qanday muammolarsiz turli sharoitlardan oson chiqib ketish yo'llarini ko'rsatuvchi ma'lumotlar bilan to'ldirilishi lozim. Hujjatlar odatdagি ko'rinishda, ular bilan ishlash murakkab bo'lmasligi kerak. «Egiluvchanlik» deganda, yangi xarakteristikalar, belgilar kiritish yoki o'zgartirish imkoniyati nazarda tutiladi. Masalan, ekran rangini yoki hujjat ko'rinishini o'zgartirish. «Samaradorlik» deganda, muomala qilingandan boshlab yakuniy natijani olish uchun ketgan vaqt tushuniladi. Bu uch ko'rsatkich AIJda quyidagi uch asosiy funksiyani amalga oshirishni ta'minlaydi:

- matnlarni ekranda qayta ishlash;

- shakllarni ekranda qayta ishlash;

- ish grafikasini ekranda qayta ishlash.

Foydalanuvchilar va ular yechadigan masalalar mazmuniga mos axborotlar bilan ta'minlashni AIJning axborot ta'minoti amalga oshiradi. Tashkiliy boshqaruvda foydalanuvchilar shartli ravishda uch kategoriya qarab quyidagilarga ajratiladi: rahbarlar, mutaxassislar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar. Turli kategoriya foydalanuvchilar uchun yaratiladigan AIJda ma'lumotlardan foydalanish turlicha. Misol uchun, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, odatda, tashkilotning ichki ma'lumotlari bilan ishlaydi, takrorlanuvchi masalalarni yechadi, tuzilmalashtirilgan ma'lumotlardan foydalanadi. Rahbarlar boshqaruv va qarorlar qabul qilish maqsadida ham ichki, ham tashqi ma'lumotlardan foydalanadi. AIJni tatbiq qilish foydalanuvchining odatdagи ish jarayonini buzishi mumkin emas. AIJ mutaxassisni ish joyida kompyuter yordamida reglament-lashtiruvchi hujjatlar majmuasi bilan ishlashini ta'minlaydi. Zamonaviy hududiy boshqaruv organlarining Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) kamida uch darajada dasturiy va texnik vositalar hamda har bir darajaning qo'shimcha vositalari bilan faoliyat yuritishi kerak (15.1-rasm).



15.1-rasm. Hududiy boshqaruv organlarining AAT dasturiy-texnik vositalarini ko'p darajali tashkil qilishning principial sxemasi.

2.Rahbarning avtomatlashtirilgan ish joyi.

Rahbarning AIJ o'zining tuzilmasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- tarqatilgan;
- lokallahsgan.

Rahbarning tarqatilgan AIJ—monitor, klaviatura hamda sichqonchadan iborat va boshqa barcha funksional qismlar uning yordamchisi yoki kotibada bo'ladi. Lokallahsgan tuzilma avtonom ishslash va funksional yopiqlik bilan ta'minlanadi.

Rahbarning AIJni yaratishda ikkita asosiy funksiya hisobga olinadi:

tezkor boshqarish va qarorlar qabul qilish. Shuning uchun ham, rahbarning AIJ quyidagi talablarga javob berishi kerak:

—doimiy ravishda ishonchli axborotlar bilan to'ldirilib boriluvchi, kirish chegaralangan, rivojlangan ma'lumotlar bazasi (MB);

- axborotlarni tezkor izlash;
- axborotlarni ko'rgazmali tasvirlash;

—haqiqiy sharoitga maksimal moslashtirilgan, ishslash uchun optimal kirish sharoitini ta'minlovchi muloqot dasturiy vositalarning mavjudligi;

—boshqa axborot manbalari bilan tezkor aloqani ta'minlash;

—texnik va dasturiy vositalarning yuqori ishonch bilan ishlashi hamda oddiyligi;

—AIJ xotirasida qabul qilingan qarorlar tajribasini to'plash imkoniyati mavjudligi. Shunday qilib, rahbarning AIJish faoliyatini ta'minlovchi; qarorlar qabul qilish; qo'lda bajariladigan ishlar; kommunikatsiya kabi tizim-chalarni qamrab olishi kerak.. Rejalshtirilgan barcha tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini rahbar yordamchisi yoki kotiba bajaradi. Majlislar bayonnomasi rahbarning AIJdagi maxsus elektron yozuv daftarchasiga yoki uning AIJ bilan bir tarmoqdagi boshqa AIJga maxsus faylga yozildi. Faoliyatning ma'lum bir bosqichida bajarilgan ish natijalarini baholash


uchun arxivlashtirish lozimdir. Rahbar o'z ishini dasturning dispatcher bo'limi orqali rejalash-tiradi. Shaxsiy arxiv uzoq muddatga mo'ljallangan yozuvlarni saqlashga xizmat qiladi. Masalan, korxonalar, shaxslarning telefonlari, manzili, shablonlar hamda tez-tez ishlatiladigan shakllar va boshqa shu kabilar. Topshiriqlar kartotekasidan rahbarning shaxsiy topshiriqlari joy oladi.

Mutaxassis—buma'lumbirsohaning kasbegasidir. Uning AIJ shunday bo'lishi lozimki, u shaxsiy hamda muassasaning MBdagi axborotlar asosida tahliliy ish bajarishi va natijani biror hujjat sifatida taqdim etishi lozim. Odatda, ma'lum bir ishni bajarishga ketgan vaqtning 40% uni shakllantirishga ketadi. Mutaxassisning kasbga yo'naltirilganligi AIJning dasturiy va texnik ta'minotiga bo'lgan talabini belgilaydi: —shaxsiy va umumiyl (global) MB bilan ishslash imkoniyati; —boshqa axborot manbalari bilan kommunikatsion muloqot qilish imkoniyati; —to'plangan tajribalar asosida tahlil qilinayotgan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati; —tizimning yuqori darajadagi ko'p funksiyaliligi va egiluvchanligini ta'minlash.

Bu talablardan kelib chiqib, mutaxassisning AIJ ish va kasbiy faoliyatlarni, qo'lda bajariladigan ishlarni hamda kommunikatsiya aloqalarini ta'minlovchi tizimchalardan iborat bo'lishi kerak. Mutaxassis AIJda quyidagi operatsiyalarni bajaradi: —klaviatura yordamida hujjatlardan ma'lumotlarni kiritish (ekranda vizual nazorat qilish bilan); —kompyuterga ma'lumotlarni magnit tashuvchilardan, boshqa AIJdan kiritish; —lokal hisoblash tarmog'ida boshqa AIJdan aloqa kanallari orqali ma'lumotlarni xabarlar sifatida qabul qilish; —ma'lumotlarni tahrirlash va ular bilan amallar bajarish; —ma'lumotlarni to'plash va saqlash; —ma'lumotlarni izlash, yangilash va himoyalash; —foydalananuvchining natijaviy axboroti, shuningdek, turli ma'lumot-nomalar va yo'riqnomali xabarlarni ekranga, chop etish qurilmalariga va magnit tashuvchilarga chiqarish; —ma'lumotlarni shakllantirish va boshqa AIJga fayl sifatida magnit tashuvchilarda yoki hisoblash tarmog'ida aloqa kanallari orqali uzatish; —so'rovlar bo'yicha

tezkor ma'lumotnomalar olish.

Avtomatlashtirish umumiyligi holda texnik, tashkiliy va iqtisodiy xarakterdagi tadbir va harakatlar majmuyini tashkil etadi. U insonning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonidagi u yoki bu vazifasini bajarishida bevosita ishtirokini kamaytiradi yoki butunlay ishtirok etmasligini ta'minlaydi. Shunday qilib, AATning mutaxassislariga axborot xizmatini ko'rsatuvchi, natijaviy axborotlarni oluvchi avtomatlashtirilgan texnologiya va inson faoliyatining turli sohalaridagi boshqaruv jarayonini optimallashtiruvchi inson — mashina deb qarash mumkin. AAT yordamida hisoblashlarning ko'p variantliligi ta'minlanadi, ratsional boshqaruv qororlari qabul qilinadi, shuningdek, ayni vaqt tartibida, kompleks hisob va iqtisodiy tahlil tashkil qilinadi, olinayotgan va boshqaruvda foydalanilayotgan axborotlarning haqiqiyligi va tezkorligi ta'minlanadi. Bunga barcha joylardagi idora mehnatini avtomatlashtirish, mazkur boshqaruv tizimini yaratish orqali erishiladi. Texnologik va funksional jihatlarga ko'ra AATni bir qancha tashkil etuvchilarga bo'lish mumkin (15.2-rasm).



15.2-rasm. AAT va AATEX tuzilmasi. joyiga, natjalarni (hisoblashlarni), qorarlarni qabul qilish uchun boshqaruv organlariga hamda qorarlarni foydalanuvchilarga uzatish.

Odatda, iqtisodiy axborotlar barcha o'zgartirish jarayonlariga duch keladi, ammo ba'zi jarayonlar bo'lmasligi ham mumkin. Ularni baja-rilish ketma-ketligi ham turlicha bo'ladi, bunda ba'zi jarayonlar takrorlanishi mumkin. O'zgartirish jarayonlari tarkibi va xususiyatlari axborotlari avtomatlashtirilgan holda qayta ishlanadigan iqtisodiy obyektga

bog'liq. Axborotlarni o'zgartiradigan asosiy jarayonlarni bajarishning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Axborotlarni yig'ish va qayd qilish turli iqtisodiy obyektlarda turlicha yuz beradi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi xo'jalik faoliyati obyektlarini aks ettiruvchi dastlabki hisob axborotlarini yig'uvchi va qayd qiluvchi sanoat korxonalarini, firmalarni avtomatlashtirilgan boshqaruv jarayonida murakkabroq ro'y beradi. Bu jarayon pul resurslari harakatini qayd etuvchi moliya organlarida yanada murakkabroqdir. Bunda dastlabki axborotlarni to'laligi, ishonchliligi va dolzarbligi juda muhim. Korxonalarda axborotlarni yig'ish va qayd qilish turli xo'jalik operatsiyalarini bajarishda (tayyor mahsulotlarni qabul qilish, materiallarni olish, berish va shunga o'xhash jarayonlarda), banklarda —yuridik va jismoniy shaxslar bilan moliyaviy —kredit operatsiyalarini bajarishda yuz beradi. Hisob ma'lumotlari ish joylarida qayta ishlangan detallar sonini hisoblashda, uzellar, mahsulotlarni yig'ishda, yaroqsiz mahsulotlarni aniqlashda va shunga o'xhash hollarda ro'y beradi. Axborotlarni yig'ish jarayonida material obyektlar tortiladi, sanaladi, o'lchanadi, pul kupyuralari sanaladi, ba'zi bajaruvchilarining ish xarakteristikalarini soni va vaqtini olinadi.

Axborotlarni yig'ish, odatda, uni qayd qilish bilan birga amalga oshiriladi, ya'ni ular tashuvchi materiallarda (hujjatlarda, mashina tashuvchilarida) aks ettiriladi, kompyuterga kiritiladi. Dastlabki hujjatlarga yozuv, asosan, qo'lda amalga oshiriladi, shuning uchun yig'ish va qayd qilish jarayoni hozircha ko'p mehnattalab bo'lib qolmoqda. Shu sababdan hujjat almashinuvini aftomatlashtirish jarayoni o'ta dolzarbdir. Korxonalar boshqaruvini aftomatlashtirish sharoitida axborotlarni yig'ish va qayd qilishda texnik vositalardan foydalanishga, dastlabki axborotlarni o'lchash, qayd qilish, to'plash, kerakli hujjatlarni shakllantirishga yoki olingan ma'lumotlarni tizimda to'plash uchun bevosita kompyuterga kiritish va aloqa kanallari orqali axborotlarni uzatishga katta e'tibor beriladi.

Axborotlarni uzatish turli usullar bilan amalga oshiriladi:

kuryer yordamida, pochta orqali yuborish, transport vositalari bilan yetkazish, aloqa kanallarida boshqa kommunikatsiya vositalarida masofaviy uzatish. Ma'lumotlarni aloqa kanallarida masofaviy uzatish vaqtini tejaydi, lekin uni amalga oshirish uchun maxsus texnik vositalar zarur, bu uzatish jarayonini qimmatlashtiradi. Ish joylariga o'rnatilgan qurilmalar yordamida axborotlarni avtomat ravishda yig'uvchi, so'ngra kompyuterda qayta ishlashga uzatuvchi axborotlarni to'plash va qayd qilish texnik vositalari afzalroq sanaladi. U axborotlarni ishonchliligin oshiradi va mehnat hajmini kamaytiradi. Dastlabki axborotlar paydo bo'lgan joyidan, shuningdek, natijaviy axborotlar teskari yo'nalishda masofaviy uzatilishi mumkin. Bunda natijaviy axborotlar turli display, tablo, chop etuvchi qurilmalarda qayd qilinadi.

Axborotlarni qayta ishslash markazlariga aloqa kanallari orqali kiritish, asosan, ikki usulda amalga oshiriladi: mashina tashuvchilarida yoki maxsus dasturiy va apparat vositalari orqali. Axborotlarni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali masofaviy uzatish doimiy ravishda rivojlanmoqda va takomillashmoqda. Axborotlarni bunday uzatish usuli ko'p darajali va ko'p tarmoqli tizimlarda juda ahamiyatlidir. Ularda masofaviy axborot uzatish, axborotlarni bir boshqaruv darajasidan boshqasiga o'tishini sezilarli darajada tezlashtiradi va ma'lumotlarni qayta ishslashning umumiyligi vaqtini qisqartiradi. Mashinada kodlashtirish —mashina tashuvchilarini va kompyuterda qabul qilingan axborotlarni kodlar yordamida yozish jarayonidir. Axborotlarni mashina tashuvchilariga yozish kompyuterga mustaqil jarayon yoki qayta ishslash natijasi sifatida amalga oshiriladi. Iqtisodiy axborotlarni to'plash va saqlash, uni ko'p marotaba ishlatish, shartli —doimiy, ma'lumotnomali va boshqa axborot turlarini qo'llash, dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlashgacha jamlash zaruratidan kelib chiqqan.

Axborotlarni to'plash va saqlash axborot bazalarida, mashina tashuvchilariga axborot massivlari sifatida, ma'lumotlar loyihalashtirish jarayonida qabul qilingan tartibda

joylashadi. Axborotlarni to'plash va saqlash bilan ma'lumotlarni izlash jarayoni bevosita bog'langan, ya'ni saqlanayotgan axborotlardan kerakli ma'lumotlarni tanlash, shuningdek, ularni tuzatish yoki almashtirish mumkin. Axborotlarni izlash jarayoni foydalanuvchi yoki kompyuter tomonidan tuzilgan kerakli axborotlar so'rovi asosida avtomat ravishda amalga oshiriladi. Iqtisodiy axborotlarni qayta ishslash kompyuterda, odatda, mar- kazlashtirilmagan holda, dastlabki axborotlar paydo bo'lgan joylarda, u yoki bu boshqaruv xizmati (moddiy- texnik ta'minot va sotish bo'limi, bosh texnolog, konstrukturlik, buxgalteriya, rejalashtirish bo'limlari va shu kabilalar) mutaxassis uchun tashkil qilingan Aljda amalga oshiriladi. Shuningdek, qayta ishslash nafaqat avtonom ravishda, balki hisoblash tarmoqlarida, kompyuter dasturiy vositalari va axborot massivlaridan foydalanib, funksional vazifalarni yechish uchun bajariladi. Kompyuterda masalalarni yechishda dasturlar yordamida natijaviy ma'lumotlar shakllantiriladi va u qog'ozga chop etiladi yoki ekranga chiqariladi. Agar natijaviy axborotlarni bir necha foydalanuvchiga berish zarurati bo'lsa, ularning nusxasi ko'paytiriladi.

Avtomatlashtirilgan tashkiliy boshqaruv tizimida qarorlar qabul qilish, asosan, texnik vositalarni qo'llab yoki ularsiz mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Qarorlar qabul qilish shu bilan murakkablashadiki, mutaxassis ko'plab mumkin bo'lgan yechimdan eng qulay, resurslarni (vaqt, mehnat, material va shu kabilarni) minimal yo'qotishga olib keluvchisini izlashi kerak. Kompyuterni qo'llash ma'lumotlarni qayta ishslash jarayonini tezlashtiradi, shuningdek, foydalanuvchi bilan hisoblash tizimi o'rtaqidagi muloqot jarayonida avtomatlashtirilgan optimal yechimlar ishlab chiqishga o'tishni ta'minlaydi. Buni amalga oshirishga yangi texnologiya ekspert tizimlari yordam beradi.

AATEXning texnologik ta'minoti foydalanuvchilarga axborot xizmatini avtomatlashtiruvchi, kompyuter va boshqa o'rnatilgan ish tartibini boshqaruvchi texnik vositalarini qo'llab, masalalar yechishga mo'ljallangan tizimchalardan

iborat bo'lishi kerak. AATEXning texnologik ta'minoti, asosan, tarkibiy jihatdan turli tizimlar uchun bir xildir. Bu tizim faoliyati jarayonida mos keluvchanlik prinsipini qo'llash imkonini beradi .AATEXning texnologik ta'minoti quydagilardan tashkil topadi: axborot, lingvistik, texnik, dasturiy, matematik, huquqiy, tashkiliy va ergonometrik.

Axborot ta'minoti AATEXda aylanadigan axborotlarni tashkil qilish shakllari, joylashtirish, hajmi bo'yicha loyihamiy yechimlar majmuasidan tarkib topgan. Bu ko'rsatkichlar, ma'lumotnomalar, klassifikatorlar va axborotlarni kodlashtiruvchilar, avtomat xizmat ko'rsatish uchun maxsus tashkil qilingan hujjatlarni universallashtiruvchi tizimlar, mashina tashuvchilaridagi axborot massivlari, shuningdek, axborotlarni ishonchli saqlash, o'z vaqtida va sifatli qayta ishslashni ta'minlovchi xodim faoliyatini o'z ichiga oladi.

Lingvistik ta'minot tabiiy tilni shakllantirish uchun til vositalari majmuasini birlashtiradi. Bu ta'minot orqali mashinaning inson bilan muloqoti amalga oshiriladi. Lingvistik ta'minot AATEX axborot bazasi (hujjatlar, ko'rsatkichlar, rekvizitlar va shu kabilalar) tuzilmaviy birligini ifodalovchi axborot tili; AATEX axborot bazasi ma'lumotlarini manipulyatsiya qilish va boshqarish tillari; axborot-qidiruv tizimi vositalari; AATEXni avtomat loyihalashtiruvchi til vositalari; maxsus mo'ljallangan muloqot tillari va boshqa tillar; avtomat boshqaruv tizimini ishlab chiqish va ishslash jarayonida foydalanadigan atamalar hamda ta'riflar tizimini o'z ichiga oladi. Texnik ta'minot AATEX ishini ta'minlovchi (axborotlarni yig'ish, qayd qilish, uzatish, qayta ishslash, tasvirlash, ko'paytirish texnik vositalari, orgtexnika va shu kabi) texnik vositalar majmuasidan tashkil topgan. Barcha texnik vositalar o'rtaSIDA markaziy o'rinni kompyuter egallaydi. Texnik ta'minotning tuzilmasi elementlariga texnik vositalar qatori uslubiy va ma'muriy materiallar, texnik hujjatlar va ushbu texnik vositalarga xizmat qiluvchi xodim ham kiradi.

Dasturiy ta'minot AATEX masalalari va vazifalarini amalga oshiruvchi hamda texnik vositalar majmuasining bir

me'yorda ishlashini ta'minlovchi dasturlar majmuasidan iborat. Dasturiy ta'minot tarkibiga umumtizimli va maxsus dasturlar, shuningdek, dasturiy ta'minot vositalarini qo'llash bo'yicha uslubiy-yo'riqnomaviy materiallar va uni ishlab chiqish hamda AATEXni butun faoliyatini kuzatib boruvchi xodim kiradi. Umumtizimli dasturiy ta'minotga keng foydalanuvchilarni hisobga olgan, hisoblash jarayonini tashkil qilishda va tez-tez uchrab turadigan ma'lumotlarni qayta ishlash masalalarini yechish uchun mo'ljallangan dasturlar kiradi.

Ular kompyuter funksional imkoniyatlarini kengaytirish, hisoblash ishlari navbatini avtomat ravishda rejalashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini boshqarish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek, dasturchilar ishini avtomatashtirish imkonini beradi. Maxsus dasturiy ta'minot ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan AATEXni yaratishda ishlab chiqiladigan dasturlar majmuasidan iborat. U funksional masalalarni yechishda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash amaliy dasturlar majmuasidan tashkil topgan. Matematik ta'minot AATEXni loyihalashtirish ishini avtomat- lashtirish jarayonida va funksional masalalarni yechishda ishlatiladigan, axborotlarni qayta ishlash algoritmi va modellari, matematik usullar to'plamidan iborat.

Matematik ta'minot boshqaruva jarayonini modellashtirish vositalari, boshqaruvning namunaviy masalalarini yechish vosita va usullari, tekshirilayotgan boshqaruva jarayonlarini optimal- lashtirish usullari va qarorlar qabul qilish (ko'p kriteriyali opti- mallashtirish, matematik dasturlashtirish, matematik statistika, ommaviy xizmat qilish nazariyasi) va shu kabi omillardan tashkil topgan. AATEXning bu turdag'i ta'minotining texnik hujjatlari masalani ifodalash, algoritmashtirish bo'yicha topshiriqlar, masalaning iqtisodiy- matematik modeli va yechimining nazorat misoli va matnidan iborat bo'ladi. Obyektni boshqarishni tashkil qiluvchi mutaxassislar, boshqaruva masalasini qo'yuvchilar, hisoblash usullari bo'yicha mutaxassislar, AATEXni loyihalovchilar ularni bajaruvchilar hisoblanadi. Tashkiliy ta'minot

avtomatashtirilgan axborot tizimi faoliyati sharoitida AATEX xodimning ish tartibini belgilovchi hujjatlar majmuasini tashkil qiladi.

Boshqaruva masalalarini yechish jarayonida bu turdag'i ta'minot boshqaruva xizmati xodimlarining va AATEXni texnik vositalar bilan o'zaro harakatlarini belgilaydi. Tashkiliy ta'minot turli uslubiy va rahbariyat materiallarida AATEX va AATni ishlab chiqish, qo'llash va ishlatish bosqichlarida joriy etiladi. Xususan, avvalgi tekshirish o'tkazishda, texnik masalani loyihalashtirish va texnik-iqtisodiy asoslashni shakllantirishda hamda loyiha yechimini ishlab chiqish jarayonida, avtomatashtiriladigan masalani, namunaviy loyihami yechimlar va amaliy dasturlar to'plamini tanlashda, tizimni qo'llash va ishlatishda amalga oshiriladi. Huquqiy ta'minot AATEX va AATni ishlab chiqish, qo'llash va ishlatish bosqichlarida huquqiy munosabatlarni belgilaydigan huquqiy me'yorlar majmuasini tashkil qiladi. Huquqiy ta'minot AATEX va AATni ishlab chiqish bosqichida buyurtmachi hamda ishlab chiquvchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni bilan bog'liq me'yoriy dalolatnomalarni, bu jarayondagi turli chekinishlarni huquqiy yo'lga solishni o'z ichiga oladi. Mazkur ta'minot AATEX va AATni faoliyati davrida ularning ma'lum bir sohalardagi davlat boshqaruvi maqomini belgilaydi, AATEX va AAT bo'g'inlarining mosligi haqidagi huquqiy holat va ularning faoliyatini tashkil qilish, xodimning huquqlari, vazifa va majburiyatlari, AATda axborotlarni yaratish va undan foydalanish tartibi, ularni qayd qilish, to'plash, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayoni, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalarni olish hamda ishlatish tartibi, matematik va dasturiy ta'minotni yaratish va ishlatish tartiblarini o'z ichiga oladi.

Ergonometrik ta'minot AATEXni ishlab chiqish va faoliyatning turli bosqichlarida ishlatiladigan usullar va vositalar majmuasidan iborat bo'lib, insonning AATEXdag'i faoliyatida xatosiz va yuqori samarali, ya'ni tezroq o'zlashtirish uchun optimal sharoit yaratishga mo'ljallangan. AATEXning ergonometrik ta'minoti tarkibiga quyidagilar kiradi: ish

joylariga, axborot modellariga, xodim faoliyati sharoitlariga qo'yiladigan ergonometrik talablardan iborat turli hujjatlar, shuningdek, bu talablarni amalga oshirish uchun eng ma'qul usullar to'plami va ularni amalga oshirishni aniqlovchi ergonometrik ekspertiza darajalari; xodimni tayyorlash darajasiga mos talablarni shakllantirish asosini ta'minlovchi usullar, ilmiy-uslubiy hujjatlar va texnik vositalar, shuningdek, AATEX xodimlarini tayyorlash va tanlash tizimini shakllantirish majmuasi; insonning AATEXda yuqori samaradorligini ta'minlovchi usul va uslublar majmuasi. Iqtisodiy axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi: aniqlik, ishonchlilik, tezkorlik. Axborotning aniqligi undan foydalanuvchilarning barchasini uni birdek qabul qilishini ta'minlaydi. Ishonchlilik kelayotgan va chiqarilayotgan axborotlarni yetarli darajada qisqartirilishini ta'minlaydi, bunda tizimning samarali faoliyati saqlanadi. Tezkorlik o'zgaruvchan sharoitda hisoblashlar va qarorlar qabul qilish uchun zarur axborotlarning dolzarbligini ifodalaydi. Iqtisodiy axborotlarning turlari. Iqtisodiy axborotlarni quyidagi asosiy belgilariga qarab ajratish qabul qilingan: —boshqarish funksiyasiga ko'ra; —paydo bo'lish joyiga (boshqarish darajasiga) ko'ra. Boshqarish funksiyasiga ko'ra iqtisodiy axborotlar rejali-hisob, me'yoriy-ma'lumotnomali, statistik-hisobot axborotlariga bo'linadi.

Rejali (direktiv) axborotlar ma'lum bir davrga (kun, hafta, oy, yil va hokazo) rejalahtirilayotgan va nazorat qilinadigan biznes rejaning ko'rsatkichlaridan iborat direktiv qiymatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va uning qiymati, mahsulotga talab va undan olinadigan foydani rejalahtirish. Hisob axboroti ma'lum bir davrda rejalahtirilgan ko'rsatkichlarni amaldagi qiymatini aks ettiradi. Bu axborot asosida rejali-axborotlarga tuzatishlar kiritilishi, tashkilot faoliyati tahlil qilinishi, uni yanada samaraliroq boshqarish to'g'risida qarorlar qabul qilinishi mumkin. Hisob axboroti sifatida natural (tezkor) hisob, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisob ishtiroy etadi. Masalan, quyidagilar hisob axboroti sanaladi: ishchining smenada tayyorlagan ma'lum bir turdag'i

detallar soni (tezkor hisob), ishchining tayyorlagan detallariga to'lanadigan maoshi (buxgalteriya hisobi), tayyorlangan mahsulotning haqiqiy bahosi (moliyaviy hisob).

Me'yoriy-ma'lumotnomali axborotlar ishlab chiqarish jarayonlari va munosabatlari bilan bog'liq turli ma'lumotnomali va me'yoriy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu eng katta hajmli va turli xil axborotdir:

Tashkilot faoliyatida aylanadigan axborotlarning 50—60%ini me'yoriy- ma'lumotnomali axborotlar tashkil qilinishini aytishning o'zi kifoyadir. Me'yoriy-ma'lumotnomali axborotlar sifatida quyidagilar xizmat qilishi mumkin: detallar, bo'g'inlar va butun mahsulotlar ishlab chiqish me'yorlari; baholash me'yorlari (baholash, tarif, baho); mahsulot ta'minotchilari va iste'molchilari bo'yicha ma'lumotlar. Statistik-hisobot axborotlari yuqori boshqaruvin tizimlari, davlat statistik organlari, soliq inspeksiyasi va shu kabilar uchun tashkilotning haqiqiy faoliyati natijalarini aks ettiradi. Masalan, tashkilot faoliyati haqida yillik buxgalteriya hisoboti. Iqtisodiy axborotlar boshqarish darajasiga (paydo bo'lish joyiga) ko'ra quyidagilarga bo'linadi: kelayotgan va chiqayotgan axborotlar

Kelayotgan axborotlar —bu tashkilotga (tuzilma bo'limlariga) tashqaridan kelayotgan iqtisodiy va boshqaruvin funksiyalari hamda masalalari uchun dastlabki oqimda ishlataladigan axborotlardir. Chiqayotgan axborotlar —bu bir boshqaruvin tizimidan boshqasiga uzatilayotgan axborotlardir. Bir axborot ayni vaqtning o'zida undan foydalanuvchilar uchun kelayotgan axborot, uni ishlab chiqarganlar uchun esa chiqayotgan axborot bo'ladi. Bunda axborotlar quyidagi shakllarda tasvirlanadi: alfavit-raqamlari (matnli) —alfavitlar, raqamlar va maxsus belgilardan iborat va grafikli —grafiklar, sxemalar, rasmlar. Axborotlarni fizik tashuvchilari —qog'oz, magnit disklari, ekrandagi tasvirlar. Axborot tizimlari obyekt to'g'risidagi axborotlarni toplash, uzatish va qayta ishlash, turli darajadagi xodimlarga o'z funksiyalarini amalga oshirish va boshqarishni ta'minlovchi kommunikatsion tizimdan iborat.

obyekt uchun yaratiladi. Samarali axborot tizimi boshqaruv darajalari, harakat sohalari, shuningdek, tashqi holatlardagi farqni e'tiborga oladi va har bir boshqaruv darajasiga samarali boshqaruv funksiyasini bajarishga kerakli bo'lgan, faqat unga tegishli axborotni beradi. Avtomatlashtirish darajasiga ko'ra qo'l mehnatiga asoslangan, avto-matlashtirilgan va avtomatlashgan axborot tizimlariga ajratiladi. Qo'l mehnatiga asoslangan axborot tizimlari shu bilan xarak-terlanadiki, unda axborotlarni qayta ishslash operatsiyalari inson tomonidan bajariladi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari —boshqaruv funksiyalarining bir qismi (tizimcha) yoki ma'lumotlarni qayta ishslash avtomat ravishda, boshqa qismi inson tomonidan bajariladi. Avtomatlashgan axborot tizimlari —ma'lumotlarni qayta ishslashning barcha boshqaruv funksiyalariteknik vositalar bilan amalga oshiriladi (masalan, texnologik jarayonlarni avtomat boshqarish). Axborot tizimlari sohasiga ko'ra quyidagicha qo'lanadi: —ilmiy tadqiqot; —avtomatlashtirilgan loyihalashtirish; —tashkiliy boshqaruv; —texnologik jarayonlarni boshqarish. Ilmiy tadqiqot axborot tizimi ilmiy xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish, statistik axborotlarni tahlil qilish, tajribalarni boshqarishga mo'ljallangan.

Avtomatlashtirilgan loyihalashtirish axborot tizimi muhandis-loyihalovchilar va yangi texnikalarni (texnologiyalarni) ishlab chiquvchilar mehnatini avtomatlashtirishga mo'ljallangan. Bunday axborot tizimlari quyidagilarni amalga oshirishga yordam beradi: —yangi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish; —turli muhandislik hisoblari (mahsulotning texnik parametrlarini aniqlash, chiqim me'yorlari —mehnat, materiallar va shu kabilar); —grafik hujjatlarni tayyorlash (chizmalar, sxemalar, rejalar); —loyihalashtirilayotgan obyektlarni modellashtirish; —raqamli dasturiy boshqarish stanoklari uchun boshqaruvchi dasturlar yaratish. Tashkiliy boshqaruv axborot tizimi ma'muriy xodimlar (boshqaruv) funksiyasini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Bunday axborot tizimiga sanoat (korxonalar), nosanoat (banklar,

birjalar, sug'urta kompaniyalar, mehmonxonalar va shu kabilar) hamda alohida ofis (ofis tizimlari) kabi obyektlarni boshqarish taalluqlidir. Texnologik jarayonlarni boshqarish axborot tizimi turli texnologikjarayonlarni (egiluvchan ichlab chiqarish jarayonlari, metallurgiya, energetika va shu kabilar) avtomatlashtirishga mo'ljallangan.

15.2. Ta'limga raqamlashtirish

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha sohalarni rivojlantirish, xalqaro talab doirasida faoliyat yuritishi uchun axborot kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzviy bog'lash va bosqichma bosqich raqamlashtirishga kata e'tibor qaratilmoqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 5-oktyabrdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limga rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'limga sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Ta'limga pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlari raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

yagona masofaviy ta'limga platformasini kelajakda ta'limga barcha yo'nalişlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiyligini darajasini oshirish maqsadida umumta'limga maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlar avlodini shakllantirish maqsadida umumta'lim maktabi o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish uchun sharoit yaratish;

aholi o'rtasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun "Bir million dasturchi" loyihasini amalga oshirish. raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish qobiliyati);

kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati);

texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobjiy munosabatni shakllantirish;

ta'lim tizimiga har bir ta'lim darajasi uchun raqamli iqtisodiyotning assosiy vakolatlariga qo'yiladigan talablarning shakllanishi va joriy etilishi, (vakolatlar modelini hisobga olgan holda) ularning uzuksizligini ta'minlash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini bitiruvchilarini oshirish;

axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;

Mamlakatimiz maktabgacha ta'lim muassasalarida

bolalarimizning aksariyat, ya'ni 3-6 yoshdagilari tarbiyalanadi. Xalqimizda bir naql bor: "Yoshlikda olingen bilim toshga o'yilgan naqshdir". Mana shu yoshda bolalarning rivojlanishi juda kuchli boladi. Atrof muhitning ta"siri va atrofdagilarning tarbiya berishi ularning qolgan hayotiga ham ta"siri va ahamiyati kuchli hisoblanadi. Hali boshlang'ich mакtabga kirmagan bolalarning hozirgi zamон texnologiyalarning o'rganishi va uni qo'llay bilishi songi yillarda tezlik bilan rivojlanib kelmoqda va rivojlanib ham boradi. Dastlabki bolalalik davrida raqamli dunyoda ta"lim berish va bilim olish yo'llarini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Bu muammoning nazariy yechimi tarbiyachilar, bollalar va ularning ota-onalarini raqamli dunyoda o'qitishga yangicha yondasshishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Turli dasturlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar kabi bir qator yangi texnologiyalar bolalar ta"limiga yangi innovatsion investitsiyalarni joriy qilishning asosiy ta"lim vositalari vazifalarini bajaradi. Mana masalan "Moyvoqvoy va qizcha" mobil ilovasidagi bolalarning tafakkurini rivojlantirishda va kreativ fikrplashida hamda noqulay vaziyatlarda qaror qilishda ahamiyati beqiyos. Xorijiy davlatlarda "Aflatot" dasturi mакtabga kirmagan bolalar uchun mo'ljalangan bo'lib, u ijtimoiy va iqtisodiy savodxonlikka asos soluvchi dastur hisoblanadi. Bunday dasturlar balalarning birinchi ta"lim olishlari va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan O'zbekistondagi mакtabgacha ta"lim sohasini rivojlantirish uchun «Learning passport» nomli raqamli ta"lim platformasini yaratish, O'zbekistondagi Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan «O'zbekistonda alohida parvarishga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha» loyihasi, Koreya-O'zbekiston biznes assosiyasi tomonidan mакtabgacha ta"lim tizimi uchun yaratilayotgan «EDU LINK» axborot tizimi loyihasi kabi ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda raqamli ta'lim ta'lim tizimlarimizda o'rni

beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlarini mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontekntda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual lobaratoriyalarda o'rganish talabalarni yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

15.3. HEMIS tizimi

Oliy ta'lismi jarayonlarini boshqarish axborot tizimi (HEMIS). Ushbu axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv» axborot tizimlarini o'z ichiga olgan.

Yo'riqnomalar header right image HEMIS Oliy ta'lismi boshqarish axborot tizimi HEMIS axborot tizimi oliy ta'lismi muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lismi xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lismi muassasalar bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lismi vazirligi o'rtaida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lismi muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Ma'muriy boshqaruv. OTM strukturasi, fakultetlar va kafedralar, xodimlar va o'qituvchilar tarkibi, talabalar kontingenti va ularning harakatiga oid axborotlarni boshqarish

O'quv jarayoni. O'quv dasturlari va rejalar, o'quv mashg'ulotlari va imtihonlar jadvallari, talabalarning o'zlashtirish va davomatiga oid axborotlarni boshqarish

Ilmiy faoliyat. Ilmiy loyihalar, ilmiy va uslubiy nashrlar, intellektual mulk, oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlarni

tayyorlashga oid axborotlarni boshqarish

Moliyaviy faoliyat. Ta'lim shartnomalari, shartnoma qiyatlari va to'lov monitoringi, stipendiya miqdorlari va stipendiya to'lovlariga oid axborotlarni boshqarish


Raqamli universitet loyihasi

Raqamli universitet loyihasi asosiy maqsadlari:

- oliy ta'lismi muassasalarini faoliyatidagi barcha jarayonlarni ochiqligi va shaffofigini ta'minlash;
- oliy ta'lismi tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- oliy ta'lismi tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lismi muassasasi, talaba va ish beruvchi tashkilotlar o'rtaida uzviylikni ta'minlash;
- ta'lismi jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.

Hemis axborot tizimining talabalar uchun mobil ilovasi ishga tushirildi

Unda diplom ma'lumotlari, reyting daftarchasi kabi o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni yuklab olish mumkin.



Oliy ta'lismi jarayonlarini boshqarish uchun "HEMIS"

axborot tizimining talabalar uchun mobil ilovasi ishlab chiqildi.

Endilikda talabalar mazkur ilova orqali o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan:

reyting daftarchasi;

transkript;

o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

nazorat jadvallari:

fanlarning elektron resurslari kabi ma'lumotlarni olish-lari mumkin.

Bu ta'lim sohasida inson omilining qisqarishini taminlaydi. Undan tashqari talabalarning o'ziga qulay vaqtida, qulay joyda kerakli hujjatlarni fayl ko'rinishida yuklab olishlari osonlashadi.

Ushbu ilova bepul hisoblanib, "AppsStore" va "GooglePlay" platformalarida mavjud. Ilovaning qanday ishlashi ilova yuklab olinayotgan vaqtida video qo'llanma orqali tushuntirilib o'tilgan.

"Hemis" axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi.

Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi va boshqaruvin tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.


2021-yil noyabr oyida Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar qurumi raqamitashtirilg'u xizmat qildi.

vaziri Abduqodir Toshqulov oliy ta'lim tizimida jurnal, reyting daftarcha endi qog'oz ko'rinishda bo'lmasligi va talaba guvohnomasi ham ID kartaga o'tkazilishini ma'lum qilgandi

15.4. OTM ma'lumotlarini yaratish


Tizimda ish jarayonini boshlash uchun dastlab OTM ma'lumotlarini to'liq shakllantirish talab etiladi, sababi shartnomaga asosida o'qiyotgan talabalarning shartnomasi qog'ozlarini va bitiruvchilarning diplom ma'lumotlarini shakllantirishda ushbu ma'lumotlardan foydalaniлади. OTM

ma'lumotlarni shakllantirish OTM strukturasi / OTM haqida menyusi orqali amalga oshiriladi (15.3-rasm).



15.3-rasm.OTM ma'lumotlarni shakllantirish

OTMning ayrim ma'lumotlari vazirlik axborot tizimidan olinadi, boshqa ma'lumotlari esa OTM ma'suli tomonidan shakllantiriladi. OTM ma'lumotlarini to'liq shakllantirish uchun 15.3-rasmda keltirilgan oynadan O'zgartirish tugmasini bosish orqali ma'lumotlar shakllantiriladi (15.4-rasm).



15.4-rasm. OTM haqidagi ma'lumotlarini shakllantirish

Talab etilgan ma'lumotlar shakllantirilgandan so'ng tizim oynasidan Saqlash tugmasi bosiladi va natijada OTMga tegishli ma'lumotlar shakllanadi (15.5-rasm).

15.5-rasm. OTM ma'lumotlarini ko'rish

OTM ma'lumotlarini o'zbek va ingliz tilida shakllantirish talab etiladi. Chunki talabaning diplomi ingliz tilida ham yoziladi. OTM ma'lumotini ingliz tilida yaratish uchun 15.5-rasmda keltirilgan OTM haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish oynasidan tizim interfeysi tilini ingliz tiliga o'zgartiring va ma'lumotlarni shakllantiring (15.6-rasm).

15.6-rasm. OTM ma'lumotlarini ingliz tilida shakllantirish

Talab etilgan ma'lumotlar shakllantirilgandan so'ng tizim oynasidan Save tugmasi bosiladi va natijada OTMga tegishli ma'lumotlar ingliz tilida shakllanadi (15.7-rasm).

HEMIS OTM

Start Date:	2024-01-01
End Date:	2024-12-31
Region:	North America
City:	Seattle, WA
Zip Code:	98101
Contact Person:	John Doe
Owner Entity:	Acme Corp.
University Name:	University of Washington
Mailing Address:	1950 University Way, Seattle, WA 98195, USA
Bank Details:	Wells Fargo Bank, Account #12345678901234567890, Routing #123456789, IBAN: US12345678901234567890, BIC: WFBKUS33333
Accreditation Info:	Self-evaluation conducted by the institution to demonstrate its readiness for accreditation. Once the Office of the State has reviewed the self-evaluation report, it will be submitted to the accrediting body.

15.7-rasm. Tizimning ingliz tilida ma'lumotlari

OTM ma'lumotlarini rus tilida ham tizim interfeysi tilini rus tiliga o'zgartirish orqali shakllantirib olinadi.

HEMIS axborot tizimi oliy ta'lif muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lif xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lif muassasalari bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lif muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Yevropa mamlakatlarida Hemis tizimida talabalar o'qiydi, izlanadi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Mustaqil ish mavzularini ham tizimda topshiradi. Professor-o'qituvchilar bilan laboratoriya ishlarini olib borib, ilmiy ishlar ham yoqlashadi. Ko'proq vaqtini tizimda fanlarni o'zlashtirishga qaratadi. Talaba darsga qatnashgan, qatnashmaganligini ham tizimning o'zi belgilaydi. Bizda ham Hemis tizimi mukammal ishlab chiqilib, talabani rivojlangan davlatlardagi singari o'z kasbini sevadigan, yetuk mutaxassis bo'lib yetishiga xizmat

qilishi zarur.

Nazorat savollarri

1. Avtomatlashtirilgan ish joyining vazifasi nimadan iborat?
 2. Avtomatlashtirilgan ish joyi qanday texnologik tizimchalardan tashkil topadi?
 3. Qanday avtomatlashtirilgan ish joyining turlarini bilasiz?
 4. Avtomatlashtirilgan ish joyini yaratishda qanday talablar qo'yiladi?
 5. Rahbarning avtomatlashtirilgan ish joyi qanday tashkil qilinadi?
 6. Mutaxassisning avtomatlashtirilgan ish joyiga qanday talablar qo'yiladi?
 7. Yordamchi (texnik) xodimlar avtomatlashtirilgan ish joyining tuzilishi va vazifasi nimalardan iborat?
 8. Avtomatlashtirilgan axborot tizimining tashkil etuvchilarini sanab bering.
 9. Avtomatlashtirilganlik darajasiga ko'ra axborot tizimlari qanday turlarga bo'linadi?
 10. Avtomatlashtirilgan ish joyining tashkiliy-texnik va qo'shimcha vositalari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 5-oktyabrdagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategeyasi

2.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.

3.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538- sonli Xalq ta'lifini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi farmoni.

5. Muhammadjon Otabek Ogli Tursunov O'ZBEKISTONDA OLIV TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR // Scientific progress. 2023. №2.

6. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T: TDPU, "Nizomiy", 2003.

7. Sh.Shoyakubov, R.Ayupov. Interfaol ta'lif usullari. Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti, 2012 yil.

8. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma/ Innovatsion ta'lif texnologiyalari seriyasi. – T: "Iqtisodiyot", 2012. – 154 bet.

9. Кравченя, Э.М. Технические средства обучения и методика их применения: методическое пособие / Э.М. Кравченя. – Минск: БНТУ, 2011. – 55 с.

10. Teaching and Learning Design and Technology: John Eggleston, 2000

11. Computer Graphics and Multimedia, Applicatios, Problems and Solutions' John DiMarc 2003

12. Farberman. B.L ."Ilg'or pedagogik dasturiy vositalar". T: 2011 y.

13.N.K.Muradova, R.R.Majidov,O'.T.Xayitmatov, B.A.Maxmudova. Kasbiy ta'lif uslubiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2007.

14. Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'lifni axborotlashtirish: nazariya va amaliyat, Toshkent: - 2011.

15.To'raxonov F.B., Xamidov V.C. "Simulyatorlardan foydalanilgan holda fizik jarayonlarni modellashtirish". Ta'lif muassalarida elektronaxborotta limmuhitinishakllantirishning dolzarb masalalari.O'zMU. - Toshkent: 2011.

16.Xamidov V.S. Fizikani masofali o"qitishda virtual laboratoriyasidan foydalanish. Yosh olimlar va iqtidorli o"quvchilarining ilmiy ishlari to"plami. (Fizika, mexanika-matematika, kompyuter texnologiyalari), Toshkent: 2005.204 b.

17. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o"quv yurtlarida qo'llash perspektivalari.

18.Zokirova F.M. va boshqalar. Elektron o"quv – metodik majmular va ta'lif resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T:OO"MTB, 2010,64-b.

19. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'llimi tashkil etish. Pedagogik ta'llim|| jur, № 1, 2004 – 25-25 betlar.

20. M. Aripov, A. Tillaev "Web-sahifalar yaratish texnologiyalari" Oliy o"quv yurtlari uchun Elektron qo'llanma (CD) Toshkent,2005.

21.Bovtenko M.A. Metodicheskie materiali k kursu "Kompyuternaya lingvo didaktika". Rekomendacii po sozdaniyu interaktivnix uprajneniy s pomoshyu universalnoy programmi-obolochki "HotPotatoes" (Versiya 6.0. 1998 - 2003) (dlya nachinayushix polzovateley). - Novosibirsk, 2004.

22. <http://Fizik.uz> , <http://vakhid.zn.uz>

23. <http://www.findsoft.ru/>. AutoPlay Media Studio 7.0 – быстрое создание

24. <http://inf.yspu.yar.ru/>. Мультимедийные технологии.

25. <http://en.wikipedia.org/wiki/AutoPlay>

26. <http://www.indigorse.com/products/autoplay-media-studio>

27. <http://dasturim.uz>

28. <http://www.ispringsolutions.com>

29. <http://uz.infocom.uz>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR	8
1.1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha.....	8
1.2. PDVlarga qo'yiladigan metodologik, didaktik, psixologik, texnik,fiziologik-gigienik talablar	16
1.3. O'rgatuvchi dasturlar va ularning yaratish texnologiyasi.	23
1.3.1. SbookBuilder dasturi yordamida elektron darsliklar tayyorlash	24
1.3.2. HTML to Chm dasturi yordamida elektron darslik tayyorlash	29
1.4. Test dasturlari-egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash	36
2. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHGA TEXNIK VA ERGONOMIK TALABLAR	47
2.1. Pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash	47
2.2. PDV larni yaratish bo'yicha asosiy mezonlar	51
2.3. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ro'yxati va baholar bloki	52
3. EXPERT-O'RGGATUVCHI VA AVTOMATLASHTIRILGAN O'RGGATUVCHI DASTURLAR	61
3.1. Ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	61
3.2. Avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari bilan ishslash	66
3.3. O'rgatuvchi ekspert tizimlar haqida ma'lumot to'plash ..	71
4. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHDA TAMOYILLARI	80
4.1. Ta'limni pedagogic dasturiy vositalari yordamida rivojlantirish	80
4.2. Texnik vositalar	84
4.2.1. Hisoblash texnikasining tarixiy evolyutsiyasi.....	84
4.2.2. Interfaol texnik vositalar va ularning tahlili	95
4.2.3. O'qitishga oid axborotlarni uzatishning texnik voitalari .	104
4.3. Didaktik vositalar	107
4.3.1. Didaktik vositalar to'g'risida umumiyl tushunchalar	107
4.3.2. Didaktik vositalarni o'quv jarayonida qo'llanilishi.....	109
4.3.3. Didaktik ta'lim vositalari talim jarayonisamaradorligini oshirish omili	113
4.4. Dasturiy vositalar	117
4.4.1. Umumiyl tushunchalar	117
4.4.2. Dasturiy vositalarning tasnifi	118
4.3.3. Tizimli dasturiy ta'minot	118
4.3.4. Amaliy dasturiy ta'minot	122
4.3.5. Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari.....	124
5. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR BIRLIKHLARI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH	126
5.1. Foydaluvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari	126
5.2. Pedagogik dasturiy vositalar larni yaratish bo'yicha asosiy mezonlar	128
5.3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar	129
6. ELEKTRON DARSLIK VA UNING TURLARI	130
6.1. Elektron darsliklarning ta'limgagi roli va uni yaratish muammolari	130
6.2. Elektron darsliklar yaratishda xorijiy tajribalar	135
6.3. Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi	140
6.4. Elektron darslikni yaratishda qo'llanilgan dasturiy vositalar	153
7. MULTIMEDIALI ELEKTRON DARSLIK YARATISH	160
7.1. Multimediani ta'limda qo'llash	160
7.2. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llashning asosiy muammolari va kamchiliklari	167
7.3. Elektron o'quv adabiyotlari yaratishda multimediani qo'llash	171
7.4. Material tayyorlash uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlarning umumiyl sharxi	174
7.5. Multimedia loyihasini ishlab chiqish bosqichlari	177
8. WEB TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON O'QUV ADABIYOTLARI YARATISH	182
8.1. O'quv-metodik ko'rgazmali materiallar	182

8.2.	O'qitish vositalarining umumiy dilaktik o'rni	183
8.3.	Fanning elektron o'quv-metodik majmuasi	193
9.	BILIMNI NAZORAT QILUVCHI VOSITALAR	203
9.1.	Hot Potatoes, iSpring dasturlari va uning imkoniyatlari.	203
9.2.	Ispring suite dasturi	211
9.3.	Mytest-test yaratish va o'tkazish dasturlari	224
10.	AUTOPLAY DASTURI	230
10.1.	Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha	230
10.2.	AUTOPLAY MEDIA STUDIO dasturida multimediali elektron o'quv resurslarini yaratish	231
10.3.	iSpring dasturida masofaviy kurslar yaratish	232
10.4.	Hot Potatoes dasturi	238
11.	MASOFAVIY TA'LIM	249
11.1.	Masofaviy ta'lim tizimi tamoyillari va qoidalari	249
11.2.	Masofaviy ta'limning afzalliliklari va kamchiliklari	253
11.3.	Masofaviy o'qitish jarayonida zaruriy bo'lgan texnika vositalar	257
12.	MASOFADAN O'QITISH DASTURIY VOSITALARI	262
12.1.	Zoom dasturi	262
12.2.	Google meeting tizimi	267
13.	SMART SINFLARDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR BILAN ISHLASH	271
13.1.	SMART ta'lim texnologiyasi	271
13.2.	Ta'lim sohasida SMART - texnologiyalari	273
13.3.	SMART - ta'lim platforma (asos) si	282
13.4.	SMART- ta'limining asosiy xususiyatlari, tavsiflari va afzalliliklari	289
14.	MOODLE TIZIMINING INTERFAOL IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB ELEKTRON O'QUV MATERIALLARNI YARATISH	291
14.1.	MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari	291
14.2.	MOODLE platformasining masofaviyta'limni boshqarish imkoniyatlari va funktsiyalari	293
14.3.	MOODLE tizimidagi o'qitish modullari	295
14.4.	LMS MOODLE tizimida o'quv kursi tarkibi va uni yaratish	299

15.	AVTOMATLASHTIRILGAN O'RGANUVCHI TIZIMLAR. TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI	307
15.1.	Avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlar	307
15.2.	Ta'limdi raqamlashtirish.....	323
15.3.	HIMES tizimi	326
15.4.	OTM ma'lumotlarini yaratish	328
	FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR	334

OZBERISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIVALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

**S.M.Islomov, E.D.Umarov, H.X.Qurbanov,
Z.Z.Qulmatov A.M.Jo'raev, A.V.Boymurotov**

**PEDAGOGIK
DASTURIY VOSITALAR
O'quv qo'llanma**

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 28.05.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Offset qog'oz. "Cambria"
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 21,375.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2231378.

«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

+998 (94) 673-66-56

